Не менее важное значение в увеличении продуктивности хлопчатника имеет фосфор. Исследованиями установлено, что хлопковое растение использует фосфор в течение всей своей жизни. Поступление фосфора в растение и вступление его в обменные процессы начинается сразу после активации ферментативных процессов при набухании семян. В то же время, потребность хлопчатника в фосфоре на разных стадиях его развития неодинакова. Наиболее высокая отзывчивость растений на внесение фосфора отмечается в первые 20-30 дней его жизни и в начале цветения, плодообразования. Известно, что в ранний период вегетации в фазу проростков хлопчатник потребляет сравнительно небольшое количество фосфора, но нуждается в повышенной концентрации этого питательного элемента. Недостаток фосфора в раннем возрасте вызывает глубокие изменения в организме растений и сильно

сказывается на дальнейшем его развитии: замедляется рост, снижается накопление сухой массы и уменьшается урожай даже при обильном снабжении фосфором в последующие периоды. Достаточная обеспеченность хлопчатника фосфором в этот период способствует более мощному развитию корневой системы, более низкой закладке плодовых ветвей, ускоряет общее развитие растений, что ведет к раннему его созреванию. Важным является и период от массового цветения до начала созревания, т.к. хлопчатник в это время потребляет наибольшее количество фосфора – около 60%. Основное его количество расходуется на формирование семян. При недостатке фосфора в эту фазу развития наблюдается опадение завязей, задерживается созревание коробочек, ухудшается качество волокна и семян, снижается урожай хлопка-сырца.

При высоком уровне фосфорного питания избыток фосфора значительно увеличивает содержание его в хлопчатнике, особенно в минеральной форме и уменьшает поступление в него азота, что ведет к отсутствию положительного эффекта от вносимого фосфора, а в ряде случаев и к его депрессивному влиянию на продуктивность хлопчатника. Правильное и своевременное применение минеральных удобрений позволяет получать высокие и раносозревающие урожаи хлопка-сырца.

Агрохимические исследования содержания азота, фосфора и калия в хлопчатнике, проведенные нами в разные сроки его развития в зависимости от норм применяемых удобрений, приведены в таблицах 5.5.1, 5.5.2. Следует отметить, что подобные исследования в условиях спланированных бугристо-барханистых песков ранее не проводились и результаты эти получены впервые нами.

Результаты наших исследований показывают, что применение различных удобрений, независимо от их норм, во все сроки отбора растительных образцов оказало положительное влияние на поступление питательных веществ в растения по сравнению с малыми дозами минеральных удобрений.

Наибольшее содержание общего азота, фосфора и калия в растениях хлопчатника отмечено при 2-4 настоящих листьях. В последующие фазы развития хлопчатника, независимо от норм применяемых удобрений, содержание общего азота, фосфора и калия в растениях несколько снижалось, достигая минимума к концу вегетации. В условиях нашего опыта содержание общего азота, фосфора и калия находится в прямой зависимости от норм применяемых удобрений. Так, например, при применении минеральных удобрений в нормах N – 200, P_2O_5 – 140, K_2O – 100 кг/га растения хлопчатника содержали при 2-4 настоящих листьях общего азота – 3,71, фосфора – 0,50 калия 2,30% от сухого вещества. С увеличением норм минеральных удобрений до N – 250, P_2O_5 –175, K_2O-125 кг/га содержание общего азота, фосфора и калия в растениях хлопчатника соответственно возросло до 3,80; 0,73 и 2,25%.

Применение 40 т/га навоза и 60 т/га лигнина на фоне N-200, P_2O_5-140, K_2O-100 кг/га повышает содержание общего азота, фосфора и калия в растениях хлопчатника

по сравнению с фоном из минеральных удобрений, что можно объяснить более благоприятным режимом питания и лучшей доступностью питательных элементов при использовании органических удобрений. Аналогичная закономерность зависимости содержания общего азота, фосфора и калия в растениях хлопчатника от норм применяемых удобрений на спланированных бугристо-барханистых песках установлена во все годы исследований как в полевом, так и в вегетационном опытах.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Зокирова, С. Х., Халматова, Ш. М., Абдуллаева, М. Т., & Ахмедова, Д. М. (2020). ВЛИЯНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО И ЕСТЕСТВЕННОГО ЭКРАНОВ В ПЕСКЕ НА РОСТ, РАЗВИТИЕ ХЛОПЧАТНИКА. Universum: химия и биология, (12-1 (78)), 14-18.

2. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., & Kadirova, N. B. (2020). XARAKTERISTIKA GALECHNIKOVЫX POCHV FERGANSKOY OBLASTI I IX PUTI K ULUCHShENIYU. Glavniy redaktor, 8.

3. Закирова, С. Х. (2017). Научные основы генезиса, агрофизических и агрохимических свойств, повышения производительной способности песков Центральной Ферганы. Дисс. на соис. уч. степени доктора с. х. наук (DSe), 120.

4. Zakirova, S., Ismoilova, S., & Parpiyeva, S. (2021). Agrofizicheskiye svoystva pochvi Sentralniy Fergani.

5. Юлдашев, Г., Зокирова, С., & Исагалиев, М. (2008). Орошаемых земельный фонд Ферганской долины. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали.–Тошкент, (8), 22-23.

6. Закиров, С. Х. (2014). Регулярные и особые решения дифференциальных уравнений. Наука и инновация, (1), 43-45.

7. Мирзаджонов, К., Назаров, М., Зокирова, С., & Юлдашев, Г. (2004). Тупроқ муҳофазаси. Дарслик. Ташкент.

8. Зокирова, С. (2008). Объемная масса исследуемых бугристо-барханистых песков. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали.–Тошкент, (4), 33-34.

9. Мухаматханова, Р. Ф., Шамьянов, И. Д., Закиров, С. Х., Ташходжаев, Б., Левкович, М. Г., & Абдуллаев, Н. Д. (2011). Новый меламполид и другие вторичные метаболиты Artemisia baldshuanica. Химия природных соединений, (5), 638-641.

10. Зокирова, С. Х., Акбаров, Р. Ф., Кадирова, Н. Б., & Махсталиев, Н. С. У. (2020). Характеристика галечниковых почв Ферганской области и их пути к улучшению. Universum: химия и биология, (2 (68)), 8-11.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

METHODOLOGY FOR FINDING THE TOPIC OF THE EARTH IN DISTANCE EDUCATION ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

Shodiyev Hamza Rozikulovich[1]

Sayfullayeva Gulhayo[2]

Navoi State Pedagogical Institute

KEYWORDS

earth's atmosphere, planetary, sun, integration approach

ABSTRACT

In this article, the topic of the Earth is studied on the basis of an integrative approach. the study of the coordinates and atmosphere of the planet astronomy mathematics was studied in close connection with the disciplines of physics and geography.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7118425
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Associate professor of Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan
[2] Associate professor of Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

MASOFAVIY TA'LIMDA YER MAVZUSINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TOPISH METODIKASI

KALIT SO'ZLAR:
yer atmosferasi, sayyora, quyosh, integratsion yondashuv

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yer mavzusi integratsion yondashuv asosida o'rganilgan. sayyoraning koordinatalari va atmosferasini o'rganish astronomiya matematika fizika va geografiya fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilgan.

Bizning sayyora Quyosh sistemasida joylashgan va Quyoshdan uzoqligi jihatidan 3-o'rinda turadi va sayyoralar ichida eng yaxshi o'rganilganidir. Yer ichki va Yer tipidagi sayyoralar ichida eng yirigi hamdir. Quyoshdan taxminan quyidagi uzoqlikda joylashgan:

Yer sayyorasining koinotdan olingan fotosurati

$$l_{Quyosh,Yer} = 150000000\ km = 1{,}0\ \ astronomik\ birlik$$

U Quyosh atrofida ellips bo'ylab harakatlanadi. Harakat orbitasi aylanaga yaqin bo'lganligi uchun, ekssentrisiteti boshqa sayyoralarga nisbatan ancha kichiqdir, ya'ni

$$e = 0{,}017$$

Shuning uchun Yer sayyorasi Quyoshdan turli xil masofalarda bo'ladi.

$$Eng\ \ yaqinlashish\ nuqtasi\ (perigeliy)\ 0{,}87\ \ a.b.\ (har\ \ yili\ \ 3-yanvar\ da)$$

$$Eng\ \ uzoqlashish\ nuqtasi\ (afeliy)\ 1{,}03\ \ a.b.\ (har\ \ yili\ \ 3-iyulda)$$

Sayyora massasi:

$$m_{Yer} = 5{,}98 \cdot 10^{24}\ kg \approx 6 \cdot 10^{24}\ kg$$

Bu qiymatni biz quyidagi formula yordamida ham topishimiz mumkin:

$$m = \frac{g \cdot r^2}{G}$$

Bu yerda $G = 6{,}67 \cdot 10^{-11}\ \frac{N \cdot m^2}{kg^2}$ ga teng bo'lib, gravitatsion (tortishish) doimiysi deyiladi.

Yerning shakli aynan shar shaklida bo'lmaganligi uchun uning ekvatorial va qutb radiuslari bir-biridan farq qiladi:

$$d_{ekvatorial} = 12756\ km;\ r_{ekvatorial} = 6378\ km$$

$$d_{qutb} = 12714\ km,\ r_{qutb} = 6357\ km$$

$$d_{o'rt} = 12742\ km,\ r_{o'rt} = 6371\ km$$



Sayyoraning ekvatorial uzunligi 40075 km ga teng. Sayyoraning umumiy yer maydoni $5{,}1007 \cdot 10^8$ km^2 ga teng. Sayyora sirtining 70,8% ini suvlik, 29,2% ini esa quruqlik tashkil etadi yoki

$$S_{quruqlik} = 361000000\ km^2$$

$$S_{suvlik} = 149000000\ km^2$$

Hajmi esa:

$$V_{Yer} = 12{,}083 \cdot 10^{12}\ km^3$$

Sayyoraning massasi yetarlicha katta bo'lganligi uchun undagi tortishish kuchi ham

katta, shunga asosan Yerning tortishish kuchi tezlanishi:

$$g_{Yer} = 9{,}81 \ \frac{m}{s^2}$$

Bu qiymatni ham quyidagi formula yordamida topishimiz mumkin:

$$g = \frac{G \cdot m_0}{r^2}$$

Erkin tushish tezlanishining qiymati ekvatorda va qutbda bir-biridan biroz farq qiladi. Bu ham Yerning shakli ellips shaklida bo'lganligi bilan baholanadi:

$$g_{ekvator} = 9{,}78 \ \frac{m}{s^2}$$

$$g_{qutb} = 9{,}83 \ \frac{m}{s^2}$$

Shuni aytish joizki, Yer yadrosiga borgan sari "g" ning qiymati o'zgarib boradi va Yer markazida uning qiymati nolga teng. Quyidagi jadvalda "g" ning Yerning turli chuqurliklardagi qiymatlari keltirilgan:

T/r	Chuqurlik, km	Erkin tushish tezlanishi, m/s²
1	0	9,81
2	10	9,82
3	33	9,83
4	100	9,86
5	200	9,89
6	300	9,92
7	400	9,94
8	600	9,95
9	800	9,84
10	1000	9,90
11	1500	9,85
12	2000	9,86
13	2500	10,05
14	2900	10,04
15	3000	10,20
16	3500	9,15
17	4000	8,02
18	4500	6,90
19	5000	6,00
20	5500	4,10
21	6000	1,70
22	6371	0

Yer Quyosh atrofini har 365 sutka 5 soat 48 minut 46 sekundda bir marta to'la aylanib chiqadi.

Demak, Yerda 1 yilning davomiyligi

$$T_{Yer} = 365\ sutka\ 5\ soat\ 48\ minut\ 46\ sekund = 365{,}24\ sutka$$

Yer Veneraga nisbatan Quyoshdan uzoqda joylashganligi uchun uning orbital tezligi kichik bo'ladi:

$$\upsilon_{or} = 30\ \frac{km}{s}$$

Bu qiymatni biz quyidagicha ham topishimiz mumkin:

Orbita radiusi, ya'ni sayyoradan Quyoshgacha bo'lgan masofa

$$r_{or} = 150000000\ km$$

Orbitaning uzunligi

$$l = 2 \cdot \pi \cdot r = 942000000\ km$$

Demak, Yer Quyosh atrofini bir marta to'la aylanib chiqishi uchun 942000000 km masofani bosib o'tadi.

Bundan,

$$\upsilon_{or} = \frac{l}{T} = \frac{942000000\ km}{365_{sutka}} = \frac{942000000\ km}{365 \cdot 86400\ s} = 30\ \frac{km}{s}$$

Yer o'z o'qi atrofida 1 marta to'la aylanish davri 23 soat 56 minut 4 sekundga teng.

Demak, Yerda sutka davomiyligi

$$t = 23\ soat\ 56\ minut\ 4\ sekund$$

Yerning aylanish o'qining orbita tekisligiga nisbatan og'maligi 66,5° ni tashkil etadi.

Bu og'malik sayyorada yil fasllarining o'zgarishiga asosiy sabablardan biridir.

Yerning sirti o'rganilganda uning tarkibi asosan, kremniy va kisloroddan iboratligi ma'lim bo'ldi. Unda krater, okean, daryo va tog''lar mavjud.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, sayyoradagi eng katta meteorit krater AQSH ning Arizona shtatida joylashgan bo'lib, unign diametri 1,3 km ni tashkil etadi. Sayyorada eng baland tog' Osiyodagi Nepal davlati hududida joylashgan. Tog'ning nomi Himolay bo'lib, uning eng baland cho'qqisi Jamolungmadir va bu cho'qqining balandligi 8848 m. (Ma'lumot uchun: Yer sayyorasidagi eng baland tog' Gavay orollaridagi Mauha Kea tog'I bo'lib, uning balandligi 9100 metrni tashkil etadi. Tog'ning ko'p qismi gidrosferada).

Sayyora sirtidagi eng chuqur nuqta Tinch okeanida joylashgan bo'lib, Marianna cho'kmasi deb yuritiladi, uning chuqurligi 11022 m. Sayyoraning o'rtacha zichligi

$$\rho_{Yer} = 5500\ \frac{kg}{m^3} = 5{,}5\ \frac{g}{sm^3}$$

Sayyoraning ichki tuzilishi 3 qatlam: po'stloq, mantiya va yadrodan iborat bo'lib, bu qatlamlar qalinligi quyidagicha:

T/r	Qatlamning nomi	Qatlam qalinligi, km
1	Po'stloq	0÷33 (33)

2	Mantiya	33÷2900 (2867)
3	Yadro	2900÷6371 (2471)

Sayyora yadrosiga yaqinlashgan sari qatlamlardagi zichliklar oshib boradi va bu o'zgarish quyidagicha:

T/r	Qatlamning nomi	Zichlik, kg/m^3
1	Po'stloq	2700
2	Mantiya	2700÷5500
3	Yadro	5500÷12500

Biz quyidagi jadvalda butun Yer sharining kimyoviy tarkibi hamda undagi elementlarning massa ulushlarini keltiramiz:

T/r	Kimyoviy element nomi	Yer massasidagi massa ulushi, %
1	Temir	39,8
2	Kislorod	27,7
3	Kremniy	14,5
4	Magniy	8,7
5	Nikel	3,5
6	Kalsiy	2,3
7	Alyuminiy	1,8
8	Oltingugurt	0,64
9	Natriy	0,38
10	Xrom	0,20
11	Kaliy	0,14
12	Fosfor	0,11
13	Marganes	0,07
14	Uglerod	0,04
15	Titan	0,02
16	Qolgan elementlar	0,14

Keltirilgan quyidagi jadvalda Yer litosferasi (po'stlog'i) ning kimyoviy tarkibi hamda undagi elementlarning massa ulushlarini ko'rishimiz mumkin:

T/r	Kimyoviy element tartib raqami	Kimyoviy element nomi	Yer massasidagi massa ulushi, %
1	8	Kislorod	47,2
2	14	Kremniy	27,6
3	13	Alyuminiy	8,8

4	26	Temir	5,1
5	20	Kalsiy	3,6
6	11	Natriy	2,64
7	19	Kaliy	2,60
8	12	Magniy	2,10
9	22	Titan	0,6
10	1	Vodorod	0,15
11	6	Uglerod	0,1
12	25	Marganes	0,09
13	16	Oltingugurt	0,09
14	15	Fosfor	0,08
15	56	Bariy	0,05

Yerning massasi ancha katta, shunga asosan uning tortishish kuchi ham kattadir. Bu esa sayyorada atmosferaning bo'lishini ta'minlaydi.

Atmosfera gaz aralashmalaridan iborat bo'lib, asosan azot va kisloroddan iborat. 80-100 km balandlikgacha atmosfera tarkibi deyarli o'zgarmaydi.

Shuni aytish kerakki, bundan 600 mln yil oldin atmosfera tarkibida erkin kislorod atigi 1% ni, 400 mln yil oldin esa uning miqdori keskin ko'payishi kuzatilgan. Bunga asosiy sabab, yashillik dunyosining keng tarqalishidir.

Quyidagi jadvalda quruq atmosfera havosi tarkibiga kiruvchi komponentlarning massa va hajmiy ulushlarini keltiramiz:

T/r	**Gazning nomi**	**Gazning hajmiy ulushi,%**	**Gazning massa ulushi, %**
1	Azot	78,09	75,53
2	Kislorod	20,95	23,14
3	Argon	0,93	1,28
4	Uglerod IV oksidi	0,03	0,045
5	Neon	0,0018	0,002
6	Geliy	0,00053	0,000073
7	Kripton	0,0001	0,0029
8	Ksenon	0,000008	0,00004
9	Vodorod	0,00005	0,000003
10	Azot oksidi	0,00005	0,000008
11	Ozon	0,00004	0,00007
12	Metan	0,00015	0,000084

Yer atmosferasini o'rganish paytida uni biz asosan harorat taqsimlanishiga ko'ra 5 ta asosiy va 3 ta o'tish qatlamiga bo'lib o'rganamiz.

Asosiy va o'tish qatlamlarning atmosferadagi qalinliklarini quyidagi jadvallarda keltiramiz:

T/r	Asosiy qatlamning nomi	Asosiy qatlamning qalinligi, km
1	Troposfera	0÷18
2	Stratosfera	18÷55
3	Mezosfera	55÷85
4	Termosfera	85÷800
5	Ekzosfera	800÷2000

T/r	O'tish qatlamining nomi	O'tish qatlamining qalinligi, km
1	Tropopauza	8÷18
2	Stratopauza	50÷55
3	Mezopauza	80÷85

Atmosferaning troposfera qatlamida atmosfera massasining 80% i joylashgan va atmosferada mavjud suv bug'ining esa 90% i joylashgan.

Stratosfera troposfera ustidagi qatlam. Unda atmosfera massasining qariyb 20% i mujassamlashgan. Unda Quyosh ultrabinafsha nurlanishlarini yutadigan va Yerdagi biosfera (tirik tabiat) ni asraydigan 3÷4 millimetr qalinlikdagi ozon (O_3) qatlami joylashgan. Stratosferaning yuqori chegarasida maksimal shamol tezligi kuzatilgan (360 $\frac{km}{soat}$ gacha).

Mezosferada atmosfera massasining atigi 0,3% i joylashgan. Shamolning tezligi 20÷230 $\frac{km}{soat}$.

Termosferada atmosfera massasining atigi 0,05% i joylashgan. Unda Quyoshning qisqa to'lqinli nurlanishlarini yutish jarayoni kechadi, bu esa haroratning oshishiga olib keladi. 200÷300 km balandlikgacha harorat gradiyenti 3,80 $\frac{^{\circ}C}{km}$ ga teng. Taxminan 800÷1000 km balandlikda harorat o'zgarmay saqlanadi (1000°C).

Ekzosfera atmosferaning yuqori qismi bo'lib, unda protonlar kontsentratsiyasi 10^{11} m^{-3} ga teng va zarralar to'qnashishi juda kam kuzatiladi. Ekzosferada asosan atomlar holdagi kislorod, azot va vodorod bo'ladi.

Yer atmosferasining uning sirtiga beradigan bosimi quyidagiga teng:

$$P_{Yer} = 101325\ Pa = 1\ atm \approx 10^5\ Pa$$

Atmosfera bosimini birinchi marta tajribada italyan olimi Torrichelli aniqlagan. U bir uchi kavsharlangan bir metrlar chamasi nay olib, unga simob to'ldirib oladi. Simob oqib ketmasligi uchun nayning ikkinchi uchini barmoq bilan yopib, uni to'nkarilgan holda simobli kosaga botiradi va simob ichida nayning uchini ochib yuboradi.

Bunda naydagi simobning bir qismi kosaga oqib tushadi va nayda balandligi 760 mm ga teng simob ustuni qoladi.

Demak, Yer atmosfera bosimi 760 mm sim ust ga teng ekan. 1 mm sim ust necha Pa

ekanligini biz quyidagi formuladan topishimiz mumkin:

$$P = \frac{F}{S} = \frac{m \cdot g}{S} = \frac{\rho \cdot V \cdot g}{S} = \frac{\rho \cdot S \cdot h \cdot g}{S} = \rho \cdot g \cdot h =$$

$$= 13600 \ \frac{kg}{m^3} \cdot 9{,}8 \ \frac{m}{s^2} \cdot 0{,}001 \ m = 133{,}3 \ Pa$$

Bundan

$$1 \ atm = 760 \ mm \ sim \ ust = 760 \cdot 133{,}3 \ Pa = 101325 \ Pa \approx 10^5 \ Pa$$

Atmosferada ko'tarilgan sari uning bosimi kamayib boradi. Yer sirtida atmosfera bosimi P_0 va h balandlikda P bo'lsin. Balandlik dh ga oshganda bosimning o`zgarishi - $dp=\rho gdh$ bo`ladi, ya'ni bosim yuqoridagi grafik ko'rinishida kamayadi. Balandlik oshishi bilan atmosfera zarralarining konsentratsiyasi ham kamayib boradi, buni Barometrik formula (fizikaning "mexanika" bo'limi) yordamida hisoblab topish mumkin

Yerning ichki qatlamlarida ham bosimning yadroga qarab o'sib borishini kuzatish mumkin. Yerning ichki qatlamlarida bosim o'zgarishini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

T/r	**Chuqurlik, km**	**Bosim**	
		GPa	**10^6 kg/sm²**
1	0	0	0
2	10	0,3	0,003
3	33	0,9	0,009
4	100	3	0,03
5	600	20	0,2
6	1000	40	0,4
7	2000	90	0,9
8	2900	136	1,36
9	3000	140	1,4
10	4500	280	2,8
11	5000	320	3,2
12	5500	350	3,5
13	6000	360	3,6
14	6371	370	3,7

Yer atmosferasida o'rtacha yillik harorat 14°C ni tashkil etadi. Undagi eng yuqori harorat +60°C (Saudiya Arabistoni, Sahroi Kabir cho'li), eng past harorat esa -89,1°C (Antarktida, Mir stansiyasi) ni tashkil etadi.

Atmosferada balandlik oshishi bilan uning harorati kamayib boradi, faqatgina termosferadan boshlab haroratning oshishi yana kuzatiladi. Atmosferada harorat o'zgarishini quyidagi jadvalda keltiramiz:

T/r	**Atmosfera qatlamining nomi**	**Haroratning har 1 km. da o'zgarishi**

1	Troposfera	6,5°C ga kamayadi
2	Stratosfera	2,5-12,5°C ga kamayadi
3	Mezosfera	3-4°C ga kamayadi
4	Termosfera	120 km da +60°C, 150 km da 700°C gacha oshadi
5	Ekzosfera	Yanada oshadi

Yer atmosferasi Quyoshdan kelayotgan nurlanishlarning 55% ini yutib, 45% ini qaytaradi (Yerning Quyosh nurlarini qaytarishi **yer albedosi** deb yuritiladi). Yerdagi harorat uning ichki tuzilishida ham o'zgarib boradi.

Masalan, Yer yadrosidagi harorat Quyosh fotosferasidagi haroratgacha teng bo'ladi.

Yer qa'ridan kelayotgan issiqlik oqimi tufayli, Yer sirtidan har yili 10^{28} erg energiya chiqadi (Yer qa'ridan kelayotgan issiqlik oqimi tufayli qishda yer osti suvlari isiydi).

Biz quyida yerning turli chuqurliklaridagi haroratning o'zgarishini keltiramiz:

T/r	**Chuqurlik, km**	**Harorat, °K**
1	0	287
2	10	460
3	33	700
4	100	1200
5	200	1700
6	300	2000
7	400	2200
8	600	2500
9	800	2800
10	1000	3000
11	1500	3500
12	2000	3800
13	2500	4100
14	2900	4300
15	3000	4500
16	3500	5000
17	4000	5500
18	4500	5800
19	5000	6000
20	5500	6200
21	6000	6300
22	6371	6400

Yer sayyorasi uchun birinchi va ikkinchi kosmik tezliklar quyidagicha keltirib chiqariladi:

1. Og'irlik kuchini markazga intilma kuchga tenglashtiramiz:

$$P = F \Rightarrow m \cdot g = \frac{m \cdot \upsilon^2}{R}$$

Bundan tezlikni topamiz:

$$\upsilon_I = \sqrt{g \cdot R} = \sqrt{9{,}81\ \frac{m}{s^2} \cdot 6371000\ m} = 7910\ \frac{m}{s} = 7{,}91\ \frac{km}{s}$$

2. Kinetik va potensial energiyalarni o'zaro tenglashtiramiz:

$$E_k = E_p \Rightarrow \frac{m \cdot \upsilon^2}{2} = m \cdot g \cdot h$$

Bu yerda h=R deb olib, tezlikni topamiz:

$$\upsilon_{II} = \sqrt{2 \cdot g \cdot R} = \sqrt{2 \cdot 9{,}81\ \frac{m}{s^2} \cdot 6371000\ m} = 11200\ \frac{m}{s} = 11{,}2\ \frac{km}{s}$$

Birinchi kosmik tezlik deb, shunday tezlikka aytiladiki, unda jism Yerning sun'iy yo'ldoshi bo'lib, uning atrofida (Oy singari) aylanishi kerak.

Jismlarni Yer radiusiga teng masofadagi aylanma orbitaga chiqarish uchun kerak bo'ladigan boshlang'ich tezlik birinchi kosmik tezlik deyiladi. U quyidagicha topiladi:

$$\vartheta_{01} = \sqrt{\frac{GM_\oplus}{R_\oplus}}$$

Bu yerda

G – gravitatsion doimiy ($6{,}67 \cdot 10^{-11}$ N·m^2/kg^2)

$R_\oplus$- Yerning o'rtacha radiusi (6370 km)

$M_\oplus$ -Yerning massasi ($5{,}9 \cdot 10^{24}$ kg)

$$\vartheta_o = \sqrt{\frac{GM_\oplus}{R_\oplus}} = 7{,}9 \text{ km/sek}$$

Aylanma orbita

Ikkinchi kosmik tezlik deb, shunday tezlikka aytiladiki, unda jism Quyoshning sun'iy yo'ldoshi bo'lib, uning atrofida (Yer singari) aylanishi kerak.

Jism biror osmon jismining gravitatsion tortishishini kuchini yengish uchun kerak bo‘ladigan eng kichik tezlikka ikkinchi kosmik tezlik deyiladi. Ikkinchi kosmik tezlik osmon jismining radiusi va massasi bilan aniqlanadi (6). Masalan Yer uchun:

$$\vartheta_{02} = \sqrt{\frac{2GM_{\oplus}}{R_{\oplus}}} = 11{,}2 \text{ km/s}$$

Uchinchi kosmik tezlik. Jismning Quyosh sistemasini tark etib, yulduzlararo fazoga chiqishi uchun kerak bo‘ladigan minimal tezlikka uchinchi kosmik tezlik deyiladi. U quyidagicha topiladi.

$$\vartheta_{03} = \sqrt{(\sqrt{2}-1)^2\vartheta_{pl}^2 + \vartheta_{02}^2}$$

ϑ_{pl}-planetaning orbital tezligi;

ϑ_{02}-planeta uchun 2-kosmik tezlik.

Masalan Yer uchun:

$$\vartheta_{03} = \sqrt{(\sqrt{2}-1)^2\vartheta_{pl}^2 + \vartheta_{02}^2} = \sqrt{\left(\sqrt{2}-1\right)^2(29{,}783\ km/s)^2 + (11{,}2\ km/s)^2} =$$

$16{,}650\ km/s$ Yerda magnit maydon va suv havzalari mavjud.

$$B_{Yer} = 5 \cdot 10^5\ Tl$$

Magnit maydon sayyoradan uzoqlashgan sari yanada kuchsizlanib boradi.

Yer sayyorasi ozining iqlim sharoitlariga ko’ra biosferaga ega bo’lgan yagona sayyoradir. Sayyoraning bitta tabiiy yo’ldoshi, ya’ni Oy mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedovich, M. A., & Fazliddin, A. (2020). Current State Of Wind Power Industry. *The American Journal of Engineering and Technology*, *2*(09), 32-36.

2. Мустафакулов, А. А., & Джуманов, А. (2020). Использование альтернативных источников энергии в горных районах джизакской области узбекистана. *Интернаука*, (41-1), 73-76.

3. Fazliddin, A., Tuymurod, S., & Nosirovich, O. O. (2021). Use Of Recovery Boilers At Gas-Turbine Installations Of Compressor Stations And Thyristor Controls. *The American Journal of Applied sciences*, *3*(09), 46-50.

4. Dilmurod, R., & Fazliddin, A. (2021). Prospects for the introduction of artificial intelligence technologies in higher education. *ACADEMICIA: an international multidisciplinary research journal*, *11*(2), 929-934.

5. Нариманов, Б. А., & Арзикулов, Ф. Ф. У. (2020). Возобновляемые источники энергии, вопросы устойчивости и смягчения последствий изменения климата. *Universum: технические науки*, (10-3 (79)), 66-70.

6. Мусаев, Ш., Арзикулов, Ф. Ф., Олимов, О. Н., Норматова, Д. А., & Сатторова, М. А. (2021). Свойства кристаллов кварца. *Science and Education*, *2*(10), 201-215.

7. Solidjonov, D., & Arzikulov, F. (2021). WHAT IS THE MOBILE LEARNING. *AND HOW CAN WE CREATE IT IN OUR STUDYING*, 22-4.

8. Мустафакулов, А. А., Джуманов, А. Н., & Арзикулов, Ф. (2021). Альтернативные

источники энергии. *Academic research in educational sciences*, *2*(5), 1227-1232.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CRITICAL ANALYSIS ON THE EDUCATIONAL SYSTEM OF ENGLISH CHURCH SCHOOLS IN JANE EYRE BY CHARLOTTE BRONTE

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna[1]

Juraqulova Gulruh Murot qizi[2]

Bukhara State University

KEYWORDS

autobiographic, academic achievements, inequality, submission, controlled system, fact-based

ABSTRACT

In this article, the life of the English writer, who lived in the XIX century, Charlotte Bronte, the negative sides of the educational system of boarding school Loovud in the novel "Jane Eyre" and on the whole, some existent problems of 19th century English educational system are described.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7120741
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Doctor of Philological Sciences, Professor, Bukhara State University, Uzbekistan
[2] Master, Bukhara State University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

SHARLOTTA BRONTENING “JEYN EYR” ASARIDA ANGLIYANING CHERKOVLARI QARAMOG’IDAGI MAKTABLAR TA’LIM TIZIMINING TANQIDIY TAHLILI

KALIT SO‘ZLAR:
avtobiografik, akademik yutuqlar, tengsizlik, qaramlik, harbiy tizim, dalilbozlikka asoslangan

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod etgan va ingliz adabiyotida yorqin iz qoldirgan ingliz adibasi Sharlotta Bronte hayoti, uning “Jeyn Eyr” asarida tasvirlangan Lovud maktab internatidagi ta’lim tizimining kamchiliklari va umuman 19-asr ingliz ta’lim tizimidagi mavjud ba’zi muammolar to’g’risida so’z boradi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ta’lim tizimi taraqqiy etgan davlatlarning ta’limiy evolutsiyasini o’rganish va shuningdek, bevosita ta’lim bilan bog’liq jahon adabiyoti durdonalarini tadqiq etish dinamik xarakterga ega bo’lib, ijtimoiy va pedagogik tizim taraqqiyoti bilan bog’liqdir. Bu muammoni adabiyot, falsafa, pedagogika hamda etika fanlari tadqiq etadi.

XIX asr ingliz adabiyotiga nazar tashlasak, asosan ijtimoiy real hayotiy voqealarni aks ettiruvchi romanlar ko’pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, ushbu asrda yashab ijod etgan ingliz adibasi Sharlotte Brontening real hayotiy voqealarga asoslangan “Jeyn Eyr” romani cherkov qaramog’idagi Lovud singari Angliyaning ba’zi chekka maktablaridagi ta’lim tizimi haqida aniq tasavvurlar uyg’ota oladi. Ushbu asar o`z davrining eng muhim jihatlaridan bo`lgan ta’lim va undagi tengsizlik, maktablar faoliyati va ulardagi qator kamchiliklar, o’quvchilar taqdiri haqida muallif tomonidan yuqori badiiylik bilan sayqallangan holda yozilgan. Yosh ijodkor yozuvchining badiiy adabiyot sahnasidagi kashfiyotlaridan biri ichki ruhiyat va ijtimoiy “taqdir” o`rtasidagi kurashni mohirona yoritib bera olgan va shuning bilan birga, ushbu asar muallifning o’z hayoti bilan uyg’un, keng ma’noda, avtobiografik asar ham hisoblanadi.

Sharlotta Bronte 1816-yilda Yorkshayrda tug’ilib, hayotining juda ko’p qismini shu shtatdagi izg’irin Havort qishlog’ida o’tkazadi. Uning otasi qishloq ruhoniysi bo’lib, onasi esa u juda yosh ekanida vafot etadi. Sharlotta to’rt opa-singillari Elizabet, Anna, Mariya va Emililar hamda Branuel ismli akasi bilan xolasinikiga yashash uchun jo’natiladi. 1824-yilda opa-singillar cherkov xodimlarining qizlari tahsil oladigan internatga yuboriladilar. Maktab davrida Sharlottaning ikki opasi tif kasalidan vafot etishadi, bu voqea Sharlottaning ruhiyatida chuqur iz qoldirib, keyinchalik “Jane Eyre” asarida ham shunga o’xshash holat, ya’ni Jeynning eng yaqin dugonasining Lovud maktabida tif kasaliga chalinib, o’lim topishi sahnasi orqali aks ettirilgan. Asardagi Lovud maktabida sodir bo’ladigan ko’pgina boshqa voqealar ham aslida muallifning o’zi bilan sodir bo’lgan edi. Sharlottaning internatda ikki opasidan ayrilishi bu juda katta baxtsizlik edi va bu unga maktab haqidagi g’amgin xotiralar qolishiga sabab bo’ladi. Aslida ham, bu davrda Angliyada ta’lim tizimining qator kamchilik

va “qora” tomonlari bor ediki, bularni e’tirof etmaslikning ilojisi yo’q.

19-asrning boshlarida Angliyaning ba’zi chekka hududlarida yigirmata boladan faqat bittasigina maktabga borar va ular ham zodagon oila farzandlari edi. Quyi qatlam oilalarining bolalari esa hafta bo’yi oilasiga pul ishlab kelish maqsadida, dala yoki turli fabrikalarda ishlashgani sababidan maktabga borish uchun vaqt ajrata olisholmasdi. To’g’ri, ba’zi fabrikalarda ishchi bolalar uchun ta’lim berish yo’lga qo’yilgan, ammo bu juda oz bo’lgan. [9]

Bu davrda cherkovlar tasarrufidagi maktablar ham tashkil etilgan va Sharlotta tahsil olgan maktab ham aynan shunday maktablardan biri edi. Cherkov maktablarida boshqaruv tizimi juda qat’iy bo’lib, o’quvchilar uchun yashash sharoitlari juda qashshoq va og’ir ahvolda bo’lgan. Sharlottaning “Jeyn Eyr” asarida bosh qahramon Jeyn ham, 10 yoshida o’rta qatlam oilalarining qizlari uchun tashkillashtirilgan xuddi shunday xayriya maktab internati, Lovudning o’quvchisi bo’ladi. Sandra Gilbert va Syuzan kabi adabiy tanqidchilar bu voqeani vaziyatga muvofiq tasvirlash uchun shunday ifodalaydilar: “Janob Broklihartsning Jeynni yetim qizlar, nasroniy qaramlarga xos tarzda, ochlikdan sillasi quriydigan va muzlaydigan maktabga olib ketish uchun keldi”.[5,344] Lovud bu “qaramlik”ni qat’iy intizom va nazorat asosida amalga oshirar edi. Jeyn(maktabga yangi kelgan o’quvchi)ning maktabdagi birinchi kundanoq, yolg’onchilikda ayblanib, kun bo’yi stulda tik turg’azib qo’yilishi yosh qizning qayg’uga botishiga va, ayni paytda, kitobxonning g’azabiga sabab bo’ladi. Romanni mutolaa qilar ekanmiz, jazolardan qo’rquv hissi beixtiyor kitobxon qalbiga ham ko’chib boradi. Lovuddagi “qizaloqlarning muzlagan suvda qo’llarini yuvishga majbur bo’lishgani sababidan toza bo’lmagan tirnoqlari” kabi kichik, ahamiyatsiz “jinoyatlari” uchun tayinlangan jazolar insoniylik nuqtai nazaridan hech qanday mantiqqa tog’ri kelmaydigan holatdir.

Adabiy tanqidchi Estzer Goldfrey maktab direktori Janob Broklihartsning qizlarning sochini qirqib tashlashni talab qilishidan maqsad “ularning ayolligi sababidan bir pog’ona past ekanligiga ko’nikishi va sabr qilishni o’rganishlari” [6,857] uchun qilingan edi. Lovudda tashkillashtiriladigan darslar maktabni xuddiki harbiy fabrikaga o’xshatilishiga sabab bo’ladi, ammo, aksincha, o’sha paytda bunday maktablarga akademik yutuqlarga erishish cheklangan bo’lishiga qaramasdan, aniq tizimli deb baholanar edi.

Sinf xonasining jihozlanishining o’zidayoq o’quvchilarning tartibli qatorlarda o’tirishlari yaqqol namoyon edi. Lovuddagi ilk kechada Jeyn sinf xonasini quyidagicha tasvirlaydi: “ katta va uzun xona, katta ikki yonli stollar sinfning ikki yoniga qo’yilgan, har birining so’ngida bir juft shamlar yoqilgan, va stollarning atrofida turli yoshdagi qizlar o’tirishadi”.[1,55] Xonadagi keng maydon, o’quvchilar miqdori va ikki stoldagi ikkitadan shamlarning bir xilda qo’yilishi bolalarga g’amxo’rlik va do’stona muhitdan ko’ra ko’proq harbiy tizimga juda o’xshar edi.

Yoinki, sinfda tartib o’rnatilish uchun Miller xonim kelib, “Sinf tiziling!” va “Tinchlik!” deb takrorlaganda hamda bir necha marotaba “Tartib!”[1,55] deb baqirganida, o’quvchilarning barchasi to’rtta yarim doira bo’lib stullar yonida qo’llariga kitoblarini tutib turishlari kerak ekanligini Jeyn kuzatadi.

Miller xonimning buyruqlari va sinf o'quvchilarining matematika darslarida avtomatik tarzda qarama qarshi tomonlarda joylashadigan to'rt guruhga bo'linishlari, internatdagi ta'limning yaxshigina tashkillashtirilgan harbiycha tizimga juda o'xshash ekanidan dalolat beradi. Bunday yo'lga qo'yilgan ta'lim muhiti bolalar tomonidan fanlarga oid bilimlarning anglanib o'rganilishidan ko'ra, ko'proq yodlash va takrorlatilishiga urg'u berar edi. Jeyn sinf xonasiga yaqinlashar ekan qizlarning "ertangi vazifalar"ning "shivirli takrorlashlarini"[1,54] eshitar edi.

O'quvchilar tarix fanidan Charlez I hukmronligidagi Angliya tarixi bobini ikki marotaba o'qishganidan so'ng, Skatcherd xonimning o'quvchilar bilan takrorlash maqsadida "tonnalar, funtlar va soliqlar haqida turli tuman savollar" [1,63] uyushtirar edi.

Bu kabi zerikarli, dalilbozlikka oid savollar mashhur 19-asr tarixiga oid darsliklarni eslatadi, shunday kitoblardan biri, Richmen Mangnalning " Tarixiy va xilma-xil savollar", Brontelarning kutubxonasida ham bo'lib[3,198], mavhum tarixiy voqealarning faktlariga asoslangan savollar va qisqa javoblardan iborat edi. Jeynning tilidan yana boshqa tasvirlarni o'qir ekanmiz, shuni anglab yetamizki, maktabda darslar "soat bilan belgilanishi", o'quvchilarning berilgan ma'lumotlarni "hazm qil"masdan, tartibni qattiq saqlagan holda savollar bermay, nofaol o'tirishlari Angliyadagi 19-asr maktablarda qoloq va cheklangan metodlardan foydalanilganligidan dalolat beradi[7,16].

Asarda bosh qahramon ota-onasidan erta yetim qolgan qiz yolg`iz bir o`zi hayot uchun kurashadi va komillikka erishish uchun qat'iyat va matonat ko'rsata oladi. 19-asr Angliyadagi Lovud singari ba'zi maktablarning ta'lim berish shakli qoloqligi va shavqatsiz tizimiga qaramasdan, Jeyn yangicha fikrlaydigan, bilimli bir muallima bo'lib yetishishi uning uchun hurmatga sazovor bir maqom edi.[4,2] "Jeyn Eyr" asari mazmunan ta'limga oid asar bo'lishi mumkin, biroq bosh qahramonning boshidan o'tkazganlari orqali, rasmiy ta'lim olish bilan hayot davomida ruhiy va ma'naviy ta'lim olib borish umuman boshqa masala ekanligiga yana bir bora amin bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. Brontë, Charlotte. Jane Eyre. New York: Bedford Books, 1996.

2. Bronte, Charlotte "Jane Eyre" adapted by Margery Green. Macmillan Publishers Limited, 2009.

3. Chapple,John. E.Gaskell: The Early Years. Manchest: Machester UP, 1997.

4. D'Amica, "Jane Eyre and Education". *Student Publications*: 2018.

5. Gilbert, Sandra M., and Susan Gubar. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. New Haven: Yale UP, 1979.

6. Godfrey, Esther. "Jane Eyre, from Governess to Girl Bride." SEL Studies in English Literature: 2005

7.Marielle, Hampe B.A. "To grow up clean": *Jane Eyre* and education, Washington, DC. April 24, 2016

8. https://en.wikipedia.org/wiki/Andrew_Bell_(educationalist)

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

STUDYING THE PROCESSING TECHNOLOGY OF OUT-BALANCE OXIDE AND MIXED COPPER ORES

Shoira Hamzayeva Toshtemirovna[1]

Saidakhmedov Aktam Abdisamievich[2]

Navoi State Mining and Technological University

KEYWORDS

Olmaliq KMK, copper, ore, precious metals, waste, oxide, technology, raw materials, scientific research

ABSTRACT

Today, a high level of development of engineering and technology leads to an increase in the need for the consumption of metals. The continuous growth in the production of heavy non-ferrous metals has led to an increase in the consumption of industrial waste, which is considered not only as a source of additional production of metals but also as a factor in reducing their prices. finished product. In the coming years, Olmaliq KMK plans to increase the volume of copper production by 1.5-2 times, as a result of which the amount of industrial waste (slag, gases, dust, sludge, washing solutions, wastewater, etc.) will also increase their processing, and this requires a special technological approach. The technologies used in this process lead to high irretrievable losses of metal with the release of waste, slag, environmentally harmful gases and dust into the atmosphere. This article presents thoughts and opinions on the study of technology for processing off-balance oxidized and mixed copper ores.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7120780
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Associate Professor of the Department of Metallurgy, Navoi State Mining and Technological University, Uzbekistan
[2] Associate Professor of the Department of Metallurgy, Navoi State Mining and Technological University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

BALANSDAN TASHQARI OKSIDLI VA ARALASH MIS RUDALARINI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASINI O’RGANISH

KALIT SO‘ZLAR:
Olmaliq KMK, mis, ruda, qimmatbaho metallar, chiqindi, oksidli, texnologiya, xomashyo, ilmiy tadqiqot

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda texnika va texnologiyalarning yuqori darajada rivojlanishi metallar iste’moliga bo’lgan talabni ortishiga olib kelmoqda. Og’ir rangli metallarni ishlab chiqarishning uzluksiz o’sishi texnogen chiqindilarni iste’molini ko’payishiga olib keldi, bu nafaqat metallarni qo’shimcha ishlab chiqarish manbai, balki tayyor mahsulot tan narxini pasaytirish omili sifatida ham ko’rib chiqilmoqda. Yaqin yillarda "Olmaliq KMK" mis ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar oshirishni rejalashtirmoqda, buning natijasida texnogen chiqindilar (shlaklar, gazlar, chang, shlam, yuvish eritmalari, chiqindi suv va boshqalar)ning miqdorini ham ortishiga olib keladi, ularni qayta ishlash esa maxsus texnologik yondashuvni talab qiladi. Bu holda qo’llaniladigan texnologiyalar chiqindilar, shlaklar, atrof muhitga zararli gazlar va changning atmosferaga chiqarilishi bilan metallning yuqori darajada qaytarib bo’lmaydigan yo’qotishlarga olib kelmoqda. Ushbu maqolada, balansdan tashqari oksidli va aralash mis rudalarini qayta ishlash texnologiyasini o’rganish haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Jahon miqyosida qimmatbaho metallarning hajmi va miqdori birlamchi rudadan olinadigan metallar miqdoriga qaraganda ancha yuqori bo'lgan qo'shimcha xomashyo ko'rinishidagi texnogen chiqindilaridan foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu munosabat bilan texnogen chiqindilarni qayta ishlash korxonalardagi rudalarni boyitishga tayyorlash jarayoniga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish va shuningdek xomashyo bazasini kengaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida og'ir rangli metallar ionlarining kontsentratsiyasini oshirish va ajratish usullariga, selektiv reagentlarni tanlashga yetarlicha e'tibor berilmagan, metallar ionlarining o'zaro ta'sir mexanizmi to'liq o'rganilmagan, qimmatbaho komponentlarni ajratib olish, ularni qayta ishlash va ekologik muammolarni hal qilish va texnogen chiqindilarni qayta ishlashning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqishga imkon bermaganligi o'ta dolzarb, ilmiy va muhim iqtisodiy muammo hisoblanadi.

Bugungi kunda qayta ishlanayotgan mis rudalari tarkibidagi metallar miqdorini kamayishi olinayotgan mis kontsentratlarining sifati pasayishiga va kontsentrat tarkibidagi zararli komponentlarni miqdori yuqori bo'lishiga olib kelmoqda. Bu tendensiya eritish zavodlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi: ishlab chiqarish hajmi oshdi, chiqindilar (shlak, gaz, eritma) miqdori ko'paydi. Natijada konlardan rudani qazib olishdan metallurgik zavodlariga qadar bo'lgan resurslarni tejash, barqaror va raqobatbardosh ishlab chiqarishga erishish uchun xom ashyoni qayta ishlashning yaxlit yondashuvi zarurligi ta'kidlanmoqda.

Kontsentratlardan bir metallni ajratib olayotgan zavodlarga nisbatan, bir nechta

metallarni ajratib olayotgan zavodlarni rivojlanishi kuzatilmoqda. Og'ir metall ionlaridan chiqindi suvlarni tozalash muammosi ko'plab sohalarda mavjud bo'lib, jahon hamjamiyati ekologik inqiroz yoqasida turgan paytda ayniqsa dolzarbdir. Chiqindi suvdan og'ir metallar ionlarini ajratib olish uchun sorbentlardan foydalanish ishda qisqacha ko'rib chiqilgan, sellyuloza tarkibli sorbentlarning faol uglerod va kation almashinadigan qatronlar bilan taqqoslash xususiyatlari keltirilgan. Agrosanoat majmuasi chiqindilari sanoat chiqindi suvlaridan tashqari tabiiy suvlar va oziq-ovqat sanoatida hosil bo'ladigan turli xil tarkibdagi suvli eritmalaridan og'ir metall ionlarini ajratib olib uchun istiqbolli va iqtisodiy jihatdan foydali sorbentlar hisoblanadi. Ko'pgina sanoat korxonalarining faoliyati ko'pincha atrof-muhitni zararli moddalarni o'z ichiga olgan chiqindi suv bilan ifloslanishiga olib keladi, bu oz miqdordagi odamlar salomatligi va umuman biosfera holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Og'ir metall ionlari va ularning birikmalari chiqindi suv tarkibidagi juda xavfli toksinlar deb hisoblanadi. Ular galvanik ustaxonalari, mashinasozlik va metallga ishlov berish korxonalari, ruda va ma'dan ishlab chiqarish, qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoati va boshqa tarmoqlarning oqova suvlarida mavjud. Yetarli darajada samarali va ekologik xavfsiz sorbentlar va texnologiyalarni yaratish polisaxaridli polimerlarda og'ir metall ionlarini mustahkam bog'laydigan yangi funksional guruhlar paydo bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi va ularning selektivligini, sorbtsiyalash qobiliyatini oshiradi va sorbtsiya vaqtini pasaytiradi. Biopolimer sorbentlari xuddi shunday usulda olinadi. Og'ir metallar ionlarini sorbtsiyasi uchun ishlatiladigan xomashyo o'simliklarning turli xil materiallari - konuslar, payraxalar, barglar, urug'lar, mevalar, poyalar, bargli va ignabargli daraxtlarning qobig'i, yog' chiqindilari, yong'oq chig'anoqlari, po'stlog'i, lavlagi xamiri, somon, suv o'simliklari, torfdan olinadi. Shuningdek, loy, dengiz o'tlari, bakterial biomassa, xamirturush, qo'ziqorinlar va boshqalarni qo'llash mumkin.

"Olmaliq KMK" Mis eritish zavodining misni elektrolizlash sexi elektrolitlari va oltin va kumushni affinajlash sexining missizlantirish eritmalarini mis kuporos sexida qayta ishlash jarayonida qo'shimchalar miqdorining ortishi kuzatiladi. Tahlillar natijalari shuni ko'rsatdiki, mis kuporos sexi texnologik eritmalari tarkibidagi nikel miqdori 15-25 g/l ga yetadi. Nikelning bir qismi mis kuporos tarkibiga kiradi, natijada olingan tayyor mahsulot ba'zan standart talablariga javob bermaydi. Bunday murakkab sulfatli eritmani tozalash elektrokimyoviy, cho'ktiruvchi reagentlar yordamida, ion almashinuvi va boshqa ba'zi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Mis-nikel sulfatli eritmalarni qo'shimchalardan tozalash bo'yicha mualliflik ishida ohaktosh ($CaCO_3$)dan foydalanib eritmani pH=3,5-5,5 oralig'ida neytrallab mis va boshqa rangli metallarni gidroksid holatda cho'ktirishga asoslangan.

Nikelni elektrolizlash jarayonida elektrolit tarkibidagi misni yo'qotishda amorf MnS ni qo'llash tadqiq qilingan. Eksperiment natijalaridan shu ko'rinadiki misni yo'qotishda amorf MnS ni miqdori, reaksiya temperaturasi, eritma pH va reaksiya vaqti ta'sir etadi. Elektrolit tarkibidagi misni 99,2 % qismini yo'qotish uchun talab etiladigan vaqt 30 minutni tashkil etgan. Optimal ish sharoitida, reaksiya harorati 60-800C, pH 3,5-4,5 da amorf MnS

ning sarfi nazariy hisoblashlarga qaraganda 1,6-1,8 marta ko'pni tashkil qilgan, zarrachalarning o'rtacha kattaligi 1,6 mkm va ushlab turish vaqtlari 45 min.dan katta, Cu konsentratsiyasi nikel elektrolizi uchun elektrolitda 3 mg/l dan kamgacha kamaygan va cho'kindilarda Cu va Ni ning massa nisbati 15 dan oshgan.

Hozirgi paytda "Olmaliq KMK"da 18 turdagi yuqori likvidli mahsulot ishlab chiqarilmoqda va dunyoning 20 dan ortiq mamlakatiga eksport qilinmoqda. Kombinatning asosiy mahsuloti mis hisoblanadi. Mis katodlari ishlab chiqarish hajmi yillik 148 ming tonnani tashkil qiladi, bu bilan korxona MDH doirasida qat'iy 3-o‘rinni egallab kelmoqda. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Rossiya 973 ming tonna, Qozog‘iston esa 500 ming tonna mis ishlab chiqaradi. Statistikaga qaralsa, 2005 yilga qadar mis narxi 1500-3000 dollargacha bo‘lib keldi. 2005 yil 3-choragidan boshlab esa jahon iqtisodiyoti, asosan Xitoyning o‘sishi bilan bog‘liq kotirovkalar jadal o‘sishini kuzatish mumkin. Kombinat mahsulotlari eksportining asosiy qismi Turkiya hissasiga to‘g‘ri keladi, ya'ni 2020 yilda 501,3 mln dollarni tashkil qilgan. Shuningdek, eksport Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Bolgariya, Ozarboyjon, Qirg‘iziston, Ukraina, Polsha, Tojikiston, Indoneziya, Niderlandiya, Xitoy, Turkmaniston, Afg‘oniston kabi davlatlarni qamrab olgan.

Misning oksidli minerallaridan malaxit, azurit, kuprit sulfgidril yig'uvchilar bilan yaxshi flotatsiyalanadi, lekin avval ular natriy sulfid bilan sulfidizatsiyalanishi shart. Ish unumdorligi yuqori bo'lgan boyitish fabrikalarida asosan ikki bosqichli texnologik sxemalar qo'llaniladi. Mis-porfirli, mis-qumli rudalarda pirit va mis tarkibi unchalik yuqori bo'lmagan taqdirda boyitish natijasida kollektiv – selektiv sxema bo'yicha faqat mis konsentrati, yoki to'g'ridan-to'g'ri selektiv sxema bo'yicha mis va pirit konsentratlari ajratib olinadi. 45-50%gacha yanchilgan mahsulot kollektiv flotatsiyaga jo'natiladi. Olingan kollektiv mis-piritli konsentrat qo'shimcha yanchilgach, pH-12-12,5 ga ko'tarilib, pirit sianid tuzlari bilan tazyiqlangach, mis flotatsiyasi amalga oshiriladi. Yig'uvchi reagent sifatida ksantogenatlar (10-30g/t) va ditiofosfatlar (10g/t) ishlatiladi.

Agar ruda tarkibida oksidlangan minerallar uchrasa, yanchish va asosiy flotatsiya jarayonlariga natriy sulfid beriladi (200-300g/t). Rudalarni to'g'ridan-to'g'ri selektiv sxema bo'yicha boyitganda mis flotatsiyasidan avval ruda 80-85% 0,074mm gacha yanchib olinadi. Asosiy mis flotatsiyasiga pH-11-12 bo'lgunga qadar, piritni cho'ktirish maqsadida ohak (400-800 g/t gacha) qo'shiladi. Mis konsentrati tozalash jarayoniga jo'natilmasidan avval qo'shimcha ravishda 90-95%-0,074mmgacha yanchiladi. Mis flotatsiyasi chiqindisidan pirit ajratib olinadi. Mis kolchedanli rudalar to'g'ridan-to'g'ri selektiv boyitish sxemasi bo'yicha boyitiladi.

Xulosa qilib aytganda, kombinat tomonidan nodir va qimmatbaho metallar ham eksport qilinmoqda. Jumladan, molibden, reniy, rux kuporosi, kadmiy, volfram, palladiy kukuni importyorlarga yetkazib berilmoqda. Qulay kon'yunktura tufayli eksport bo‘yicha ko‘rsatkichlar birinchi chorakda 231 mln dollar yoki 162,5 foizga bajarilgan. Qo‘shilgan qiymatli mahsulot eksporti (mis quvurlar, mis katankasi) 35,5 mln dollarni tashkil qildi yoki 4,4 baravar ortdi. Ishlab chiqarishni oshirish borasida yillik qazib olish hajmi taxminan 60 mln tonna bo‘lgan yangi «Yoshlik» konini o‘zlashtirish borasida ish olib borilmoqda. 2025-

2026 yillar mobaynida mis ishlab chiqarish hajmi yiliga 148 ming tonnadan 250 ming tonnagacha oshishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqulov D.B., Rahmonov N. M., Kodirov S. I. turli xil eritmalardan metallarni ajratib olish uchun ion flotatsiyasini qo'llash imkoniyatlari.
2. Xoliqulov D. B., Normurotov R. I., Axtamov F. E. chiqindi eritmalaridan ion flotatsiyasi bilan rangli metallarni qazib olish bo'yicha tadqiqotlar. 2016 yil.
3. Xoliqulov D. B., Samadov A. U., Boltaev O. N., Munosibov Sh.M. misni qayta ishlash ona eritmalaridan metallar olish imkoniyati haqida. 2019yil.
4. Xoliqulov D. B., Abdurahmonov S., Boltaev O. N., Matkarimov S. T. metallarni texnologik eritmalardan ajratib olish mis ishlab chiqarish. 2020 yil.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE PECULIARITIES OF TEACHING STUDENTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE MOODLE SYSTEM

M.M. Muyassarova[1]
Sh.A. Abdurashitova[2]
Sh.Z. Abdurakhmanov[3]
D.I. Akhmadaliev[4]

Tashkent Medical Academy

KEYWORDS
Science, education, information, Moodle, information

ABSTRACT
The resolution of the president of the Republic of Uzbekistan dated April 7, 2020 No. 4-4666 "on measures to introduce a completely new system of training and continuous professional development of the card in the field of medical sanitation" was adopted. To carry out the work to be done in this year, a state program has been developed, which also provides for the development of new projects on the implementation of the law of the Republic of Uzbekistan on education and science.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7120832
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Tashkent Medical Academy, Uzbekistan
[2] Tashkent Medical Academy, Uzbekistan
[3] Tashkent Medical Academy, Uzbekistan
[4] Tashkent Medical Academy, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ MOODLE ТИЗИМИДА ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ

KALIT SO‘ZLAR:
Фан, таълим, ахборот, моодле, ахборот

ANNOTATSIYA

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 апрелдаги «Тиббий санитария соҳасидаги кардларни тайёрлаш ва узлуксиз касбий ривожлантиришнинг мутлақо янги тизимини жорий этиш тадбирлари тўғрисида» ги М4-4666-сонли қарори қабул қилинди.Ушбу йилда қилинадиган ишларни амалга ошириш учун Давлат дастури ишлаб чиқилган бўлиб, унда таълим ва фан тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни янги тахрирлаш лойихаларини ишлаб чиқиш ҳам кўзда тутилган.

Янги тахрирлаш лойихаларида: таълим жараёнини замонавийлаш турини, қўллаб-қувватлаш, илмий ғояларнинг кенгайтириш уларни самарали бошқариш, замонавий талаблар, фан таълим ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш каби масалаларга алоҳида эътибор бериш кераклиги айтиб ўтилган. Шундай қилиб, ОТМ ларда ахборот коммуникация технологияларини масофавий таълимда қўллаш асосан икки хил кўринишда амалга оширилади. Биринчи шарти бу техник жиҳозлар бўлса, иккинчи шарти эса махсус дастурий таъминотлар билан таъминланганлигидир. Техник жиҳозлар билан таъминланганлик: компютерлар, тармоқ қурилмалари, юқори тезликдаги Интернет тармоқлари, видеоконференция жиҳозлари ва ҳоказо. Дастурий таъминотга: мавжуд қурилмаларни ишлатадиган дастурий таъминотлардан тортиб, шу соҳа учун мўлжалланган дастурлар тўплами киради.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR VA MUAMMOLI TOPSHIRIQLAR ORQALI TADBIRKORLIK KO‘NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH YO‘LLARI

KALIT SO‘ZLAR:
tadbirkorlik, biznes, ko’nikma, tadbirkor, iqtisod, metodika, rivojlanish

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda bugungi kunning eng dolzarb sohalaridan biri hisoblangan tadbirkorlik ko’nikmalarini boshlang’ich sinf o’quvchilarida shakllantirishning bugungi kundagi ahamiyati, hattoki zarurat ekanligi haqida yoritib berilgan.

Ushbu o‘yinning qatnashchilari: bitta sotuvchi, uch yoki to‘rtta xaridor. Peshtaxta o‘rnida stoldan foydalanish mumkin. "O‘yinchoq do‘konida", "Oziq -ovaqt do‘koni" yoki aralash mollar do‘konida: sovun va tish pastasi bir tomonga, kiyim - kechaklar boshqa tomonga, yana har bir maxsulot o‘ziga mos tovarlar guruhi bilan peshtaxta ostiga chiroyli qilib tuzib qo‘yiladi. Sotuvchi do‘konga kelgan xaridorlarni xushmuomalalik va odob bilan kutib oladi. Sotuvchi xaridorlarning har biriga qanday xizmat borligini, zarur maxsulotlarni bir zumda muxayyo qilajakligini bildiradi. Xaridorlardan biriga tish pastasi kerak bo‘ladi va sotuvchi bor pastalarni ko‘rsatib, narxalrini aytadi. Shuningdek, sotuvchi pastalarning nomlarini ham qayerda tayyorlanganligini ham nima uchun pastalar narxi bir-biridan farq qilishini ham bilishi lozim. Bu bir tomondan, bolalardan ahloqiy bilim talab qilsa, ikkinchi tomondan hozirgi iqtisodiyotning shartlaridan biri bo‘lgan reklamadan ham foydalanadi va reklamaning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunib yetadi.

Shunday qilib, o‘yinda haridorlarni kutib olish, ularga xizmat ko‘rsatish orqali esa sotuvchi bolalarda avvalo, muomala madaniyati, so‘z boyligi, kishilar bilan muloqotga kirisha olish qobilyatlari o‘sib boradi.

Jihoz:kiyim - kechaklar, yorliqlar, rasm, qalam, qog‘oz, rasmli kartochkalar.

Yangi so‘zlar:iqtisod, yorliq, mukofot, maosh, boshqaruv, narx, vaqt.

Maqsad: Boshqaruv haqida bilim berish, sifatli va sifatsiz maxsulotlar hamda ularga sarflanadigan xarajatlar, pul, narx, vaqt haqida tushunchalar berish. Fabrika belgisini o‘rgatish.

Mashg‘ulotning borishi: Fabrikaning bo‘lim boshliqlari va direktori bo‘ladi. Qizlar o‘tirib qo‘g‘irchoqlarga ko’ylak tikadilar. Bo‘lim boshlig‘i ularning bajarayotgan ishlarini ko‘rib sifatli va sifatsizga ajratadi. "Qancha ko’ylak tikilishiga qarab maosh ajratiladi, bichilgan va tikilgan ishlar boshqa-boshqa joyga qo‘yiladi. Tayyorlariga fabrika nomi yozilgan yorliqlar qo‘yib tikiladi va sotish uchun bog‘cha bozoriga chiqariladi. Qancha ko‘p va tez sotilsa, ishchilar shuncha ko‘p mukofot oladilar.

Muammoli topshiriq o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajalarini oshirish bilan birga tadbirkorlik ko‘nikmasini shakllantirishga ham bevosita xizmat qiladi.

O‘yinning borishi: O‘yin «LOTTO» tarzida o‘tkaziladi.

Oshpaz, vrach, cho‘pon, shofyor tasvirlangan.

Boshlovchi: bolalarning kasblar, mehnat qurollari to‘g‘risidagi bilimlarini aniqlaydi. So‘ngra tanish bo‘lgan «LOTTO» o‘yini qoidalarini eslatadi. Agar, bolalar bu o‘yinni o‘ynamagan bo‘lsalar, ularga o‘yin qoidasi yaxshilab tushintiriladi.

Bitta katta xaritanni olib uni quradilar. So‘ngra unga mos keladigan suratni, masalan oshpaz, kastryulka, cho’mich, go‘sht qiymalagich, choynak kabi narsalarni unga qo‘yadilar. boshlovchi qiynalayotgan bolaga savollar berib, yordam ko‘rsatib turadi.

Muammoli vaziyat № 1

“Yoz kunlaridan birida Charli tejab yurgan 12 dollar puliga limon, shakar, muz, quti

va qog‘oz stakanchalar xarid qildi. U bulardan limonad tayyorlab, stakanini 25 sentdan sota boshladi. Kechga borib, butun limonad sotib bo‘lingach, Charlining qo‘lida tanga va qog‘oz pullar jam bo‘lib, 25 dollar to‘plandi. “Qani bir hisoblab ko‘raylikchi, – dedi Charli kechqurun, – limonad tayyorlash va sotishga men 12 dollar sarfladim, tushum esa 25 dollar bo‘ldi. Menimcha, chakki emas”. (13 dollar tafovut uning ish haqi va foydasidir).

Savol:

1. Charlining limonad sotish tajribasi ancha yaxshi. Faraz qilaylik, u buning o‘rniga ikkita o‘tloqni o‘rib, har biri uchun 10 dollardan olishi mumkinmidi?
2. O‘ylab ko‘ring, Charli o‘rnida siz ham mustaqil qanday biznesni qo‘yishingiz mumkin?

Muammoli topshiriq№ 2

Maykl Dell maktab yillarida boshqalardan yaqqol ajralib turmagan, biroq 12 yoshida obuna bo‘lish uchun jurnal tarqatib, 2 ming dollar pul ishlab topgan. Yosh biznesmen tijoratning texnikasini bilib olgan edi. Dell yangi ko‘chib kelgan yosh oilalarni ism-sharifini bilib olib, ularga tabriknomalar yo‘llar va ikki xaftalik bepul obunani taklif qilardi. Aynan shu texnologiya sabab kompyuterlar tuzish, ishlab chiqish va ularni sotish bilan shug‘ullanish Dell biznes imperiyasiga qo‘l keldi. Dell 19 yoshida cho‘ntagida 1000 dollar bilan asos solgan kompaniya birinchi marta sohada vositachilardan voz kechib mustaqil biznesni yo‘lga qo‘ydi. Aynan Dell mazkur yo‘nalishda birinchi bor internet orqali savdoni yo‘lga qo‘ygan”.

1. Vaziyatni tahlil qiling. 12 yoshli Dellda biznesmen uchun kerakli bo‘lgan qaysi sifat ustunlik qilgan?

Muammoli vaziyat№ 3

Peshtaxtada turib qolayotgan mahsulotni tezroq sotish uchun nima qilgan bo‘lardingiz?

- Ushbu mahsulotni sotishdan voz kechardim.
- Sifatli xaltaga qadoqlardim yoki sovg‘abop qilib o‘rardim.
- Mahsulotni nasiyaga sotishga kirishardim.
- Mahsulotni peshtaxtaga oz-ozdan qo‘yardim.

Javoblarning ichidan eng maqbul 2 tasini ajrating.

XULOSA

Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar ta’lim sohasida ham izchil va uzluksiz o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o‘tishi, kadrlarni tayyorlash sohasida butun jahon andozalarga mos ravishda ijodiy o‘zgarishlar qilinishini talab qilmoqda. Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun zamonaviy didaktik o’yinlar va muammoli topshiriqlardan foydalanish nihoyatda ahamiyatli. Bunda o’qituvchi pedagog yuqoridagi topshiriqlar mazmunini to’liq anglagan holda ulardan dars jarayonida maqsadli va samarali foydalanish tizimini ishlab chiqishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davies N. A review of enterprise and the economy in education. – HM Treasure,

2002.

2. Jodelet J. Reresentetion sociali: phenomenes, concert et theorei // Moscovici S. (ed) psychologie socialr. – P.: 1994. – V 360.

3. Junior achievement. Amaliy iqtisodiyot. Mashqlar to‘plami. 2-kitob.. –T.: Sharq, 1996. – 224 b.

4. Youth Entrepreneurship: Theory, Practice and Field Development. 2006. Sep. – P. 18.

5. Keenan and Riches’ Vusiness law. – 9th ed. / Sarah Riches and Vida Allen. Printed by Ashford Colour Press Ltd., Gosport, 2013.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

NAVOI'S CONTRIBUTION TO THE HISTORY OF "KHAMSA"

Karimov Abdusamad Said ugli[1]

Samarkand State University

KEYWORDS

Navoi, field, poet, ghazal, Khamsa, five, Hayrat ul-Abror", "Farhad and Shirin", "Layli and Majnun", "Sab`ai Sayyor", "Saddi Iskandari"

ABSTRACT

This article comments on Alisher Navoi's role in the history of Khamsa.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7162147
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Master of Faculty of Philology, Samarkand State University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

NAVOIYNING XAMSACHILIK TARIXIDAGI O'RNI

KALIT SO‘ZLAR:
Navoiy, maydon, shoir,g'azal, Xamsa, beshlik,Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab`ai sayyor", "Saddi Iskandariy"

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning Xamsa tarixidagi o'rni haqida fikr-mulohazalar keltirildi.

Alisher Navoiy she`riyat sohasida ko’p mehnat qilib, she`riy asarlar yozgan va devonlar tuzgan bo’lsa-da, ammo bu ishlar uni qoniqtirmasdi.

Alisher Navoiy o’z qobiliyatining buyukligini namoyon etishda kichik she`riy nav`lar torlik qilajagini anglagach, u endi nazm sohasida o’zining dahosini namoyon etuvchi "vase` maydon"-keng maydonni izlaydi va, shoirning qayd qilganidek, masnaviy - doston ana shunday maqsadlarni amalga oshirish uchun muvofiq ekanligiga ishonch hosil qiladi. Shunisi ham borki, Alisher Navoiy buning uchun mumtoz adabiyotda yaratilgan alohida dostonlarni ham, dostonlar turkumi-xamsalarni ham chuqur o’rganib, bu sohada "xamsatayn"-ikki xamsa, ya`ni Nizomiy va Xusrav Dehlaviylar xamsalari an`anasiga murojaat etib, bu niyatni amalga oshirishga bel bog’laydi. Alisher Navoiy bu ishning og’irligini ham biladi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq…
Kerak sher ollida ham sheri jangi
Agar sher o’lmasa, bore palangi. (8-tom, 29)

Ammo uning ezgu niyati - o’zbek adabiyoti tarixida ham ana shunday asar-xamsa yozish orqali turkiy xalqlarni undan bahramand etish, turkiy-o’zbek tili imkoniyatlarining ulug’ligini namoyon etish hamda o’zining olijanob maqsad va buyuk orzularini ana shu asarda ifodalashdan iborat bo’lganidan bu ishni bajarishda duch kelishi mumkin bo’lgan qiyinchiliklardan qo’rqmadi, aksincha she`riyatning "sheri jangiysi" ekanini sharaf bilan ado etdi. Natijada, uning jahonga mashhur "Xamsa" si maydonga keldi.

Alisher Navoiyning "Xamsa"si buyuk beshlik tarzida shuhrat qozongan bo’lib, uning maydonga kelishi ham mavjud an`ana hamda zamonadagi badiiy-estetik talablar natijasi sifatida qaraladi.

lisher Navoiy XII-XV asrlar davomida fors tilida yaratilgan dostonlar turkumi- beshlik va xamsalarni o’rgangan va shulardan ikkitasi -xamsataynni, ya`ni Nizomiy va Xusrav xamsalarini ma`qul topib, ularning butun xususiyatlarini har tomonlama tadqiq etgan. quyidagi misralarda bu masala shunday bayon etilgan:

Bu andeshadin erdi ko’nglumda shayn,
Ki bo’ldi ko’ngul moili xamsatayn.
Chu mashg’ul bo’ldum tamoshosig’a.
O’tib vodiyu tog’u daryosig’a.

Yorimchuq ko'rub, sayr tark etmadim,
Yeri qolmadi angakim etmadim. (11-tom, 55)

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning "Xamsa"si nazirayi benazir- o'xshash-o'xshamas uslubida yozilgan va bu an`anani mukammallashtirgan, yuqori bosqichga ko'targan nodir badiiy kashfiyotdir. Shuning uchun "Xamsa"ning faqat Alisher Navoiy ijodida emas, balki Sharq adabiyotidagi mavqei haqida Sadriddin Ayniy va Oybekning quyidagi mulohazalarida katta hikmat va haqiqat bor:

Ana shunday ahamiyatga ega bo'lgan "Xamsa" 1483-1484 yillarda yozilgan. "Xamsa"ning Abdujamil kotib tomonidan 1484 yilda ko'chirgan va Alisher Navoiy nazari tushgan qo'lyozma nusxasi hozirgi kunda O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida avaylab saqlanmoqda.

Alisher Navoiy "Xamsa"ni yozish uchun bevosita olti oy sarflaganini alohida uqtirib, shunday yozadi:

Sengakim yo'q emgakda g'oyat padid,
Ulus mehnatida nihoyat padid.
Qilib tongdin oqshomg'acha qiylu qol,
Yuzunga etib har nafas yuz malol.
O'zung tinmayin xalq g'avg'osidin,
Qulog'ing xaloyiq alolosidin.
Bu mehnatlar ichra chekib so'zga til,
Zamondin kamo besh o'tub ikki yil.
Chekib xoma bu noma itmomig'a,
Yeturgaysen og'ozin anjomig'a.
Ki aqli munosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa.
Yig'ishtursa bo'lmas bori olti oy,
Ki bo'ldung bu ra`nog'a suratnamoy. (11-tom, 569).

Demak, Alisher Navoiy "Xamsa" yozishga 1483 yilda kirishib, uni 1484 yilning sentyabr oylarida tugatgan bo'lsa-da, ammo unga sarf qilingan vaqt, ya`ni bevosita yozishga sarf qilingan muddat olti oydan iborat bo'lgan. Ikki yilning boshqa vaqtlari esa ko'pincha turli davlat va xalq yumushlarini bajarishga sarf bo'lgan ekan.

Alisher Navoiyning "Xamsa"si quyidagi dostonlardan iborat:

"Hayrat ul-abror" – 63 bob, 3988 bayt
"Farhod va Shirin" – 54 bob, 5782 bayt
"Layli va Majnun" – 28 bob, 3622 bayt
"Sab`ai sayyor" – 38 bob, 5008 bayt
"Saddi Iskandariy" – 89 bob, 7215 bayt

Navoiy "Xamsa" sining umumiy hajmi **25615** bayt, **51230** misradan iborat.

Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida o'zining turkiy va forsiy merosini tilga olib, «Xamsa»ning har bir dostonini yozishda unga madad bergan manbalarni e'tirof etadi: «Avvalkim, «Hayrat ul-abror» bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi

«Maxzan ul-asror»idin boshimg'a durlar sochibdur. Yana chun «Farhod va Shirin» shabistonig'a xayolim yuz tutubdur, Mir Xusrav dami «Shirin va Xusrav» o'tidin charog'imni yoritibdur. Yana chun «Layli va Majnun» vodisida ishqim po'ya urub, Xoju himmati «Gavharnoma»sida nisorimga gavharlar yetkurubtur. Yana chun «Sab'ayi sayyor» rasadin zamirim bog'labdur, Ashraf «Haft paykar»ining yetti hurvashin peshkashimg'a yarog'labtur. Yana chun «Sadi Iskandariy» asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Maxdum «Xiradnoma»sidin ko'si isloh va imdod cholibtur».

Mazkur e'tirofdan ma'lum bo'ladiki, Navoiy «Xamsa» tarkibidagi har bir dostonni alohida mualliflarning asarlaridan ilhomlangan holda yaratgan.

ADABIYOTLAR:

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). II qism. – Sam.: SamDU nashri, 2002.

2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O'quv qo'llanma) –T.: Yangi asr, 2006.

3. Muhiddinov M. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: Fan, 2005.

4. Salohiy D. Navoiy nazmiyoti (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2012.

5. Tohirov S. Xamsanavislik an'anasining ilk qoidasi xususida // SamDU «Ilmiy axborotnoma»si. 2013 yil, 4-son. 57-61-betlar.

6. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 7-tom. – T.: Fan, 1992.

7. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 11-tom. – T.: Fan, 1994.

8. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 16 tom. – T.: Fan, 1999.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CHANGE OF SOME OFFSHORE ORGANS BORN FROM MOTHERS IN THE CONDITION OF HYPOTHERIOSIS

R.J. Usmanov[1]
S.M. Akhmedova[2]
B.B. Menglieva[3]
D.U. Kattakhodzhaeva[4]

Tashkent Medical Academy

KEYWORDS
hypothyroidism, liver vessels, hepatocytes

ABSTRACT
The aim of the study was to study the morphological changes in the liver during experimental hypothyroidism. The experiments were carried out on 36 white outbred rats, which were divided into control and experimental groups. It was found that in experimental hypothyroidism in the liver of laboratory white rats dystrophic, atrophic and destructive changes in hepatocytes develop. These changes are most pronounced on the 60th day of the experiment. By the end of the experiment, these phenomena were even more aggravated.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7162341
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Department of Anatomy, Clinical Anatomy, Tashkent Medical Academy, Uzbekistan
[2] Department of Anatomy, Clinical Anatomy, Tashkent Medical Academy, Uzbekistan
[3] Department of Anatomy, Clinical Anatomy, Tashkent Medical Academy, Uzbekistan
[4] Department of Anatomy, Clinical Anatomy, Tashkent Medical Academy, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ИЗМЕНЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ОРГАНОВ ПОТОМСТВА, РОЖДЕННЫХ ОТ МАТЕРЕЙ В СОСТОЯНИИ ГИПОТЕРИОЗА

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
гипотиреоз, сосуды печени, гепатоциты

АННОТАЦИЯ

Целью исследования было изучение морфологических изменений в щитовидной железе при экспериментальном гипотиреозе. Эксперименты были проведены на 28 белых беспородных крысах, которые были разделены на контрольные и экспериментальные группы. Было установлено, что при экспериментальном гипотиреозе в щитовидной железе лабораторных белых крысах развиваются дистрофические, атрофические и деструктивные изменения гепатоцитов. Эти изменения наиболее выражены на 60 й день эксперимента. К концу эксперимента эти явления еще более усугубились.

В структуре заболеваний эндокринной системы одно из главных мест занимает патология щитовидной железы (ЩЖ), рост которой за последние годы приобрел расширенную географическую распространенность. Сложившуюся ситуацию невозможно объяснить только повышением интереса к изучению заболеваний ЩЖ, а также совершенствованием методов их диагностики. Щитовидная железа крайне важна для нормальной жизнедеятельности организма. Являясь чрезвычайно чувствительной к воздействию факторов природно-социалной среды, она служит одним из центральных звеньев в гормональной регуляции адаптивных процессов у человека. Заболевания щитовидной железы занимают важное место среди эндокринной патологии. Они сопровождаются нарушением выработки тироидных гормонов с развитием синдрома гипотиреоза или тиреотоксикоза. Щитовидная железа играет ключевую роль в обеспечении морфологических, метаболических изменений в органах и тканях, необходимых для формирования эндокринного, иммунологического, энергетического гомеостаза организма. Тироидная дисфункция сопровождает напряженное течение адаптации и сопутствует развитию патологии многих органов и систем организма.

Цель исследования: выявление структурных изменений щитовидной железы у крысят, рожденных от матерей в состоянии гипотиреоза.

Материал и методы исследования. Воспроизведена экспериментальная модель гипотиреоза по общеизвестной методике. Крысам после рождения давали мерказолил в дозе 0,5 мг на 100 г массы тела в течение 30 суток, далее в течение 90 суток давали поддерживающую дозу мерказолила из расчета 0,25 мг на 100 мг. Для гистологического исследования брали щитовидную железу, фиксировали их в 10%-ном нейтральном формалине в течение 10 суток, после чего промывали в проточной воде, проводили через спирты возрастающей крепости, заливали в парафин и

готовили среды толщиной 5-6 микрон. Полученные срезы окрашивали гематоксилином и эозином.

В результате исследований установлено, что паренхима щитовидной железы лабораторной крысы, представлена тиреоцитами кубической формы, которые формируют стенку для каждого фолликула. Ядра тироидного эпителия округлой формы и расположены в центре клеток. Щитовидная железа после рождения окружена тонкой соединительнотканной капсулой и состоит из одной дольки. Паренхима щитовидной железы состоит из сформированных фолликулов различных размеров. В щитовидной железе преобладают мелкие фолликулы, средние и крупные встречаются редко. По периферии железы фолликулы крупные. При микроскопическом исследовании щитовидной железы у интактной группы крыс отмечалось типичное фолликулярное строение, видны соединительнотканные перегородки, отделяющие дольки друг от друга. Фолликулы представлены округлой или слегка овальной формы с четкими контурами. Коллоид окрашен в бледно-розовый цвет. Клетки фолликулярного эпителия в основном кубической формы, ядра преимущественно расположены у базальной мембраны тиреоцитов. На гистологических срезах щитовидной железы экспериментальной группы животных, рожденных от матерей в состоянии гипотиреоза, наблюдается картина, присущая йодной недостаточности. Вследствие развития гипофункции щитовидной железы усиливается тиреотропная функция гипофиза, под влиянием избытка ТТГ тиреоциты приходят в состояние функциональной активности. Также отмечается наличие фолликулов с фестончатыми краями с высоким фолликулярным эпителием и незначительным количеством коллоида. Средняя высота тироцита увеличилась на 48 %, площадь тироцита увеличилась в 4,6 раза, при этом средний диаметр фолликула уменьшился на 26 %, площадь коллоида – на 24 % по сравнению с показателями интактной группы. Установлено увеличение числа митозов в ядрах тироцитов. Митозы в основном происходят в клетках экстрафолликулярных островков, которые, как известно, служат резервом для роста тироидной ткани. Митотический индекс увеличился в 4,8 раза по сравнению с интактной группой, что свидетельствует об усиленной пролиферации тироцитов. Так, суммарный объем фолликулярного эпителия возрос за счет экстрафолликулярных тироидных клеток. Также следует отметить, что активация функции железы сопровождалась интенсивностью кровоснабжения. Расширенные капилляры плотно окружают фолликулы, при этом перифолликулярная гиперемия выражена настолько, что у базальной мембраны отмечается картина непрерывной сосудистой кровеносной сети. Новообразованные сосуды претерпевают перестройку, «отпочковываясь» от стромальных артерий, увеличивая площадь контакта в системе тироцит-капилляр. Такая картина на фоне йодного дефицита может быть предпосылкой узлообразования, что происходит при эндемическом зобе.

В результате исследований установлено, что в состояние гипотериоза у матерей, у потомства отмечали выраженные изменения не только зонального, но и

клеточного состава тимуса во всех его структурно-функциональных зонах. В первые часы после рождения снижалась плотность клеточных элементов, особенно во внутреннем слое коркового вещества. Основной вклад в эти изменения вносило уменьшение численности лимфоидных клеток, и в первую очередь в коре снижалось количество зрелых лимфоцитов. Надо отметить, что при этом не снижалась интенсивность лимфоцитопоэтической функции тимуса, так как осталось количество бластов и митотически делящихся клеток в субкапсулярной зоне. Уменьшение численности клеток лимфоидного ряда можно объяснить угнетением пролиферативных процессов. В мозговом веществе обнаружено увеличение содержания средних лимфоцитов и уменьшение числа зрелых лимфоцитов, определялись тельца Гассаля, сформированные уплощенными эпителиальными клетками с гиалиновым содержимым.

Таким образом анализ данных показывает, что у потомства рожденных от матерей в состоянии гипотиреоза наблюдается дисбаланс между процессами пролиферации и апоптоза в виде усиления апоптоза при подавлении пролиферации клеток органа.

ИСТОЧНИКИ И ЛИТЕРАТУРА:

1. Новицкая А. Б., Стронгин Л. Г., Некрасова Т. А. и др. Особенности перекисного окисления липидов и гемодинамики у больных с субклиническим гипотиреозом // Клиническая тиреоидология. — 2004. — Т. 2. — С. 27 – 31.

2. Стадник Н.А., Боташева В.С. Морфология щитовидной железы при экспериментальном тиреотоксикозе // Кубанский научный медицинский вестник. - 2014. - № 3 - С.102-108

3. Фадеев В. В., Мельниченко Г. А. Гипотиреоз. Руководство для врачей. — М., 2004. — 288 с. 4. Подзалков А. В., Фадеев В. В. Гипотиреоз, субклинический гипотиреоз, высоконормальный уровень ТТГ // Клин. тиреоидол. — 2009. — Т. 5, № 2. — С. 4 – 15.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THEORETICAL ISSUES OF THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF PRIMARY EDUCATION

Akmalova Aziza Najmiddinovna[1]

School 218, Mirabad district, Tashkent city

KEYWORDS

ICT, primary education, pedagogy, educational technologies, students

ABSTRACT

It is increasingly recognized by researchers, governments and educators worldwide that ICT offers many opportunities for teaching and learning in primary education. The lack of ICT in the classroom can be seen as a disadvantage for children, because without access to it, they are unable to acquire some of the skills and qualities they need to be full participants in an increasingly ICT-mediated globalizing world. are deprived of opportunities. This article provides information on the theoretical issues of using information technologies in the process of primary education.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7178358
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher of mathematics, School 218, Mirabad district, Tashkent city, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY MASALALARI

KALIT SO‘ZLAR:
AKT, boshlang’ich ta’lim, pedagogika, ta’lim texnologiyalari, o’quvchilar

ANNOTATSIYA

Butun dunyo bo‘ylab tadqiqotchilar, hukumatlar va o‘qituvchilar tomonidan AKT boshlang‘ich ta’limda o‘qitish va o‘qitish uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etishi tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Sinfda AKTning etishmasligi bolalar uchun noqulay deb qaralishi mumkin, chunki bunga kirish imkoni bo'lmasa, ular AKT vositachiligida tobora kuchayib borayotgan globallashayotgan dunyoda to'liq ishtirokchi bo'lish uchun zarur bo'lgan ba'zi ko'nikmalar va fazilatlarga ega bo'lish imkoniyatlaridan mahrum bo'lishadi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy masalalari haqida ma’lumot berilgan.

Ilm-fan, texnika, unda axborot texnologiyasining o‘sishini jadallashuvi ilmiytexnikaviy axborotlarning rivojiga tez-tez yangilanishlar olib keldi. Bundan ma’lumki, ma’lumotlar, axborotlarni uzatish metodini yangilash, takomillashtirishni talab etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jamiyatning barcha sohalari va tarmoqlarida inqilobni amalga oshirdi, bu esa hozirda Axborot va bilimlar jamiyati deb hisoblanadi. Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, axborot-kommunikatsiya jamiyati sanoat davrining tugashi va raqamli davrning boshlanishini anglatadi. Bundan tashqari, bugungi jamiyat to'rtinchi sanoat inqilobi tomon ketmoqda, bunda fuqarolar raqamli kompetensiyalarga muhtoj bo'ladi. Bundan tashqari, texnologik ilovalar va kelajak va rivojlanayotgan texnologiyalar muhimligini tushuntirdi, chunki ular yangi ijtimoiy va ilmiy muammolar uchun asosdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabda yangi o'quv ehtiyojlariga javob berish uchun o'quv materiallarini, shuningdek, o'quv uslublarini o'zgartirishi kerak.

Boshlang'ich maktab yillarida, ayniqsa dastlabki yillarda, jismoniy manipulyatsiyalardan ko'p foydalaniladi, chunki bu strategiya bolalarga matematik tushunchalarning mustahkam aqliy tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi va amaliy o'yinlar orqali o'rganishni rag'batlantiradi. Hamkorlik orqali tushunishni tekshirish va qurish matematik pedagogikada ham keng tarqalgan. AKT odamlarning kundalik hayotda va ishda matematikadan foydalanish usullarini o'zgartirmoqda va bu matematika o'quv dasturlari va pedagogikada keyingi o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Aynan shu nuqtai nazardan biz boshlang'ich matematika ta'limida AKTdan foydalanishni muhokama qilamiz.

AKT matematikani o'qitish va o'rganishni osonlashtirishning usullaridan biri so'rovga asoslangan ta'limdir, masalan, **WebQuest** faoliyati, bunda talabalar Internetdan topgan ma'lumotlar va ma'lumotlardan foydalanishni mashq qiladilar. WebQuest dasturini o‘rganishda o‘quvchilar matematik qoidalarning kontekstsizlashtirilgan amaliyotlaridan

ko‘ra o‘yin yoki hikoyada ko‘proq matematik harakatlar qila olishlarini aniqladilar. Matematikani o‘qitish uchun WebQuest asosidagi ilovalar tadqiqotda ishtirok etgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining motivatsiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganini hisobga olib, tadqiqotchilar WebQuest asosidagi faoliyatni rivojlantirish ham o‘qituvchilar, ham o‘quvchilar uchun foydali bo‘ladi, deb hisoblashdi. **Tangram** - bu boshlang'ich geometriyani o'rgatish uchun dastur. Tadqiqotchilar ushbu hamkorlikdagi va manipulyativ virtual Tangram boshqotirmasi bolalarga planshet kompyuterlar yordamida kompyuter qo'llab-quvvatlanadigan hamkorlikda o'quv muhitida geometriyani o'rganishda qanday yordam berishi mumkinligini o'rganish uchun tadqiqot o'tkazdi. Jumboqdan foydalanishning ko'plab afzalliklari aniqlandi: (1) o'quvchilarning shakllarni aylantirish va fazoviy qobiliyatini kuchaytirdi; (2) talabalarning fazoviy fikrlash malakasini oshirdi; (3) talabalar o'rtasida yuzma-yuz munozaralar va onlayn muloqotni kuchaytirdi; va (4) bu talabalarning tanqidiy fikrlashi, ishonchi va o'rganishga tayyorligini oshirdi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarga jumboq yordamida geometrik tushunchalarni umumlashtirish va tushuntirish oson bo‘ldi.

O'yinlardan boshlang'ich matematikani o'qitishda yordam berish uchun ham foydalanish mumkin. Xorij tadqiqotchilari Tayvanda beshinchi sinf o'quvchilari (n=92) o'rtasida muammo qo'yish va muammoni hal qilishni rag'batlantirish uchun o'yinlardan foydalanish bo'yicha tadqiqot o'tkazdilar. Ular eksperimental guruh o‘quvchilari o‘quv faoliyatiga unchalik ishtiyoq bildirmagan nazorat guruhiga qaraganda keyingi testda murakkabroq muammolarni qo‘yishganini aniqladilar. Tadqiqotchilar *"virtual manipulyatsiyalar"* ning mumkin bo'lgan rolini muhokama qilishdi. Ba'zi mumkin bo'lgan afzalliklarga talabalarning baholash, ko'rib chiqish va muhokama qilish uchun manipulyatorlardan foydalanishni raqamli yozib olish qulayligi kiradi; kompyuterlashtirilgan ko'rsatmalar va fikr-mulohazalarni taqdim etish qobiliyati; hajmi, rangi va shakli kabi xususiyatlarni o'zgartirish qobiliyati; sinfda bloklar kabi turli xil katta hajmli materiallarga ehtiyoj sezmaslikning amaliy jihatlari; bolalarning harakatlarini nazorat qilish yoki cheklash qobiliyati; va katta guruhlarda, IWB atrofida ishlash imkoniyati. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, virtual manipulyatorlarni jismoniy manipulyatsiyalarning ekvivalenti sifatida ishlatib bo'lmaydi, chunki ular bolalarda turli xil manipulyatsiya (va shuning uchun fikrlash) ni rivojlantiradi. Ko'proq sezgir va murakkab interfeyslar (masalan, sensorli ekranlar) yanada ishlab chiqilganligi sababli, bu topilma endi qo'llanilmasligi mumkin. AKT matematikada qiyinchiliklarga duch kelgan bolalarga ham yordam berishi mumkin. Tadqiqotchilar 4-sinf o‘quvchilari (n=37) bilan tajriba o‘tkazdilar va kompyuter yordamida o‘qitish an’anaviy usullarga qaraganda o‘quvchilarning ehtimollik tushunchalaridagi noto‘g‘ri tushunchalarini bartaraf etish vositasi sifatida sezilarli darajada samaraliroq degan xulosaga kelishdi. Bu juda muhim, chunki o'quvchilarning noto'g'ri tushunchalari matematikani o'rganishdagi ko'plab qiyinchiliklarning asosi hisoblanadi. Tadqiqotda ikkita turdagi dasturiy ta'minotdan foydalanildi: (1) ehtimollik tushunchalarini tushuntirish uchun animatsiya va simulyatsiyaga ega dasturiy ta'minot; va (2) misollar keltiruvchi va talabalarga bilimlarni qo'llash va javoblarini tekshirish uchun fikr-

mulohazalarni olish imkonini beruvchi o'quv va amaliy materiallar. Talabalarning matematika bo'yicha test ballarini oshirishda AKT samaradorligiga ishora qilsak, tadqiqot dalillari ishonchli emas. AQShda Tadqiqotchilar iqtibos keltirgan holda, simulyatsiya va yuqori tartibli fikrlash dasturlarini ishlatgan 4 va 3-sinf o'quvchilari yuqori darajadagi standartlashtirilgan matematik testlarda statistik jihatdan sezilarli darajada yaxshi natijalarga ega ekanligini aniqladilar. lekin bu assotsiatsiya barcha dasturiy vositalar uchun amal qilmadi. Boshqa tadqiqotlar AKTdan foydalanish va testlarda matematika yutuqlari o'rtasida zaif yoki salbiy korrelyatsiyani aniqladi. Tadqiqotchilar buni psixometrik muammolar bilan izohlash mumkinligini taklif qildi. Testlar matematikada AKTdan foydalangan holda ishlab chiqilgan ta'lim turlarini o'lchashga qodir bo'lmasligi mumkin.

Har qanday o'quv vaziyatiga yangi texnologiyalarni joriy etish puxta o'ylash va rejalashtirishni va yaxshi rivojlanish testlarini talab qiladi. Bu jarayon o'qituvchilar, tadqiqotchilar, texnologlar, ishlab chiquvchilar va talabalar ishtirokida ko'p tarmoqli yondashuvlarni talab qiladi. Ular orasida o'qituvchilar AKT vositasida o'quv muhitini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu rollarga AKT vositalarini baholash, talabalarning AKT kompetensiyalarini baholash, aniq taxminlarni belgilash, talabalar bilan maqsadlarni muhokama qilish, turli iskala strategiyalarini qabul qilish orqali talabalarni darslarga tayyorlash va boshqalar kiradi. O'qituvchilar ushbu rollarni samarali bajarishlari uchun ular kontekst va o'quv muhitining turli elementlaridan yordamga muhtoj. Singapur maktablarida AKT integratsiyasini o'rganishda Lim (2007) AKTni sinfda samarali integratsiya qilish uchun zarur va etarli shart-sharoitlarni va maktabning qo'llab-quvvatlovchi kontekstini tahlil qildi. Bu shartlarga sinfni boshqarish masalalari, AKT vositalarining mavjudligi, intizom va ta'lim qoidalarini o'rnatish, o'qituvchilar, o'qituvchilar yordamchilari va talabalar o'rtasida mehnat taqsimoti va maktab siyosatini qo'llab-quvvatlash kiradi. Ushbu bo'limda biz ushbu shartlarni siyosat va maktab rahbariyati, jismoniy va texnologik infratuzilma, o'quv rejasi va baholash va kasbiy rivojlanish nuqtai nazaridan taqdim etishga e'tibor qaratamiz.

AKT ko'proq sinflarda o'z o'rnini topmoqda va o'qituvchilar va siyosatchilar tomonidan 21-asrda bolalar muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun boshlang'ich ta'limga ehtiyoj bor, degan fikr mavjud. So'nggi yillarda AKTdan foydalanish ko'lami kengayib, ulardan axborot, joylashuv, qurilish va aloqa vositalari va boshqalar sifatida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'pchiligi o'qitish usullariga, mavzu mazmuniga va bolalar o'rtasida hamkorlikda ishlashga qo'shilgan holda, AKTning ko'proq integratsiyalashuviga imkon berish uchun dasturiy ta'minot, apparat va ulanish yanada murakkablashdi. Ushbu bobda biz boshlang'ich ta'limning bir qancha jihatlarida AKTdan qanday foydalanish mumkinligini muhokama qildik va ba'zi muhim va illyustrativ tadqiqotlarni bayon qildik. Garchi AKT kuchli usullarda qo'llanilishi mumkin bo'lsa-da, maktablardagi amaliyotlar har doim ham buni aks ettirmaydi. Ta'lim tizimlari va byurokratiya ko'pincha AKT yordamida o'qitish va o'qitishni qabul qila olmaydi va amalga oshira olmaydi; Shuningdek, ular tegishli infratuzilma va jarayonlarni o'rnatish uchun zarur bo'lgan tajribaga ega bo'lmasliklari mumkin. Buni bartaraf etish uchun akademiklar bilan

hamkorlik qilish va professional tarmoqlarni barpo etish zarur. Shuningdek, biz kasbiy rivojlanish tegishli o'qituvchi va sinfning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerakligini ta'kidladik. Aks holda, o'qituvchilar asosiy pedagogikani o'zgartirmasdan texnologiyadan foydalanishlari va shu bilan bolalarning bilimini oshirish uchun qimmatli imkoniyatlarni qo'ldan boy berishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Solidjonov, D. Z. (2021). The impact of social media on education: advantage and disadvantage. *Экономика и социум*, (3-1), 284-288.

2. Smeets, E. (2005). Does ICT contribute to powerful learning environments in primary education?. *Computers & Education*, *44*(3), 343-355.

3. Solidjonov, D. Z. O. (2021). The impact of the development of internet technologies on education at pandemic time in Uzbekistan. In *СТУДЕНТ ГОДА 2021* (pp. 108-110).

4. Solidjonov, D. (2021). Modern education and useful methods for teaching. *Scienceweb academic papers collection*.

5. Alexander, R. (2013). *Versions of primary education*. Routledge.

6. Akhmedovich, M. A., & Fazliddin, A. (2020). Current State Of Wind Power Industry. *The American Journal of Engineering and Technology*, *2*(09), 32-36.

7. Solidjonov, D., & Arzikulov, F. (2021). WHAT IS THE MOBILE LEARNING. *AND HOW CAN WE CREATE IT IN OUR STUDYING*, 22-4.

8. Arziqulov, F., & Majidov, O. (2021). O ‘ZBEKISTONDA OCHIQ MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA XALQARO TAJRIBA. *Science and Education*, *2*(1), 153-157.

9. Арзикулов, Ф. Ф. У., & Солиджонов, Д. З. У. (2021). БЕШ МУҲИМ ТАШАББУС–КЕЛАЖАККА МУСТАҲКАМ ПОЙДЕВОР. *Scientific progress*, *2*(2), 1020-1026.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CUSTOMER REVIEWS AS AN IMPORTANT FACTOR IN TOURIST CATERING

Zaripova Mokhira[1]

Urganch State University

KEYWORDS

dining, customer, food services, HoReCa, restaurant, TripAdvisor, FIDELIO

ABSTRACT

This article argues that customer reviews are an essential factor in the adequate provision of the organization and processes of catering to tourists.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7178370
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Lecturer of the Department of "Management and Marketing", Urganch State University, Uzbekistan (zaripova_m@mail.ru)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ТУРИСТЛАРНИ ОВҚАТЛАНТИРИШДА МИЖОЗЛАРНИНГ ШАРҲЛАРИ - МУҲИМ ОМИЛ СИФАТИДА

KALIT SO‘ZLAR:
овқатланиш, мижоз, озиқ-овқат хизматлари, HoReCa, ресторан, TripAdvisor, FIDELIO

ANNOTATSIYA
Ушбу мақолада туристларни овқатлантиришни ташкил этиш ва жараёнларини самарали таъминлашда мижозлар шарҳларининг муҳим омил эканлиги асослаб берилган.

Туризмда озиқ-овқат хизматлари асосий хизматлардан бири бўлиб ҳисобланади. Чунки, улар туристларнинг озиқ-овқатга бўлган табиий эҳтиёжини қондиради. Бироқ, туризмда озиқ-овқат маҳсулотларини истеъмол қилиш жараёни кўпинча кишилар ўртасидаги мулоқот жараёнига тўғри келиб, унинг кўнгилочар жиҳатлари ҳам мавжуд. Туристик овқатланишни ташкил қилишда туристларга уларнинг энг қулай бўлиши учун қаерда хизмат қилиш кераклиги, овқатланишни қайси вақтда ва қандай ташкил қилиш муҳим масала бўлиб ҳисобланади.

Туристларга овқатланишни ташкил этишда умумий овқатланиш корхоналарининг ишлаш тартиби ва хизмат кўрсатиш шакли катта аҳамиятга эга. Хизмат кўрсатиш режими ва шакллари вақт ўтиши билан доимий бўлиши шарт эмас, яъни улар йилнинг вақтига, маълум бир вақтда туризм турига, шунингдек, кутилаётган туристлар гуруҳининг афзалликларига қараб ўзгариши мумкин.

Мамлакатимизда умумий овқатланиш соҳасида хизмат кўрсатувчи корхоналар сони кундан-кунга ортиб бормоқда. Турли хизмат кўрсатиш шакллари кўпайиб, ўсиб бормоқда. Бу хилма-хиллик билан кўрсатилаётган хизматлар сифатсиз бўлса, умумий овқатланиш хизматлари киши саломатлиги ва ҳаёти учун потенциал хавф туғдириши мумкин. Бунинг олдини олиш учун қонун ва давлат стандартлари асосида умумий овқатланиш корхоналарига қўйилган махсус талаблар мавжуд.

Бугунги кунда юқори сифатли умумий овқатланишни ташкил этиш қуйидаги имкониятлари билан потенциал инвесторлар учун жозибадор ҳисобланади [2]:

- сармояни тез қайтариш мумкинлиги;
- юқори фойданинг улуши;
- сармоя миқдорининг катта эмаслиги;
- рақобатнинг юқори эмаслиги.

Туристарга озиқ-овқат хизматларини кўрсатишда меҳмон ёки мижоз бир хил тушунчалар қўлланилади. Туристларни овқатлантириш соҳасида мижозларнинг ахборотлари билан ишлаш йўналишларидан бири уларнинг берадиган шарҳлари ёки изоҳларидир.

Овқатланиш соҳасида мижозларнинг шарҳлари билан ишлашнинг 7 та қоидалари мавжуд. Бу борада меҳмондўстлик саноати сўнгги икки йил давомида

синовдан ўтказилди. Яъни, HoReCa (Хорека) - “*Hotel, Restaurant,* Catering/Cafe” (товарлар ва хизматлар истеъмол қилинадиган савдо нуқталари) муассасалари шарҳлар билан ўз ишларини қандай яхшилаши, янги мижозларни жалб қилиши ва ташриф буюрувчиларни рақобатчилардан қайтариши мумкинлиги ҳақида тадқиқот олиб бордилар. Улар мижозларнинг шарҳларни қаерда қолдиришни ўргандилар. Уларнинг таъкидлашича, компания меҳмондўстлик соҳасидаги ўнлаб тармоқ компаниялари билан ишлайди, уларнинг баъзиларида 700 дан ортиқ филиаллари мавжуд.

Барча жойда ўтган йил давомида шарҳлар сонининг 10-30 % га мунтазам ўсишини аниқлаганлар. Бу эса мижозларнинг ўз танловига нисбатан онглироқ ва эътиборли бўлганлиги билан боғлиқдир. Улар тушлик учун қаерга бориш ёки пицца буюртма қилиш ҳақида қарор қабул қилишдан олдин шарҳлар ва рейтингларни ўқийдилар ва бошқаларга ёрдам бериш учун ўз тажрибалари билан ўртоқлашишдан мамнун бўладилар.

HoReCa сегментида шарҳлар сонини ўсишда давом қилмоқда. Хусусан, Yandex Maps биринчи ўринда, Google Maps иккиинчи ўринда ва 2GIS учинчи ўриндадидир.

Кафе ва ресторанга ташриф буюрувчилар орасида кейинги энг машҳур платформа - TripAdvisor, меҳмондўстлик саноати анъанавий равишда унинг рейтингларини ҳурмат қилади. Бироқ, геохизматлар билан солиштирганда, TripAdvisorda қолган шарҳлар сони жуда кам. Масалан, машҳур пизза тармоғи учун фойдаланувчилар Yandex Mapsда ойига 800 дан ортиқ шарҳ қолдиришади ва TripAdvisorда атиги 5-6 та шарҳ қолдирадилар.

Ташрифчилар шарҳларнинг энг паст фоизини Otzovik, Flump, Zoon, Irecommend.ru, Yell.ru ва бошқа сайтларда қолдирадилар. Ўртача, бу ойига 1-2 та шарҳга тўғри келади.

HoReca учун геосервислар ҳам муҳимдир. Яъни, геосервислар бўйича шарҳлар HoReCa муассасалари учун эътиборга олиниши мумкинлиги билан ажралиб туради.

- биринчидан, истеъмолчи ташрифдан кейин онлайн хариталарда шарҳ қолдириши қулай бўлади;

- иккинчидан, “маҳаллий қидирув” сайтлари орқали келган мижозлар жуда таъсирли аудитория бўлиб саналади;

- учинчидан, геосервисларда мижозлар бир хил ҳудудда жойлашган бир нечта муассасаларни солиштира олишади;

- тўртинчидан, геосервислар бўйича шарҳларга жавоб бериш орқали қидирув натижаларидаги мавқеи оширилади.

Асосан, мижозлар ўз шарҳларида мавжуд муаммолар ҳақида ёзадилар. Бунинг учун уларнинг фикр-мулоҳазаларини тинглаш лозимдир. Аммо, шарҳлар билан ишлашда қуйидаги одатий хатолар ҳам учрайди:

- биринчи хато - шарҳга умуман жавоб бермаслик;

- иккинчи хато - шарҳларга узоқ вақт жавоб бериш;

- учинчи хато - салбий шарҳларга ҳаддан ташқари муносабатда бўлиш.

Одатда, мижозларга хизмат кўрсатиш операторлари шарҳларга жавоб беришади. Бундай хизматлар турли платформалардаги шарҳларни тўплаш ва уларни битта ойнада кўрсатиш имкониятига эга бўлади.

HoReCa учун назорат рўйхати, яъни шарҳлар билан ишлашнинг қуйидаги 7 қоидалари ҳам мавжуддир [3]:

- барча платформалар орқали шарҳларни тўплаш;
- шарҳлар мавзулари ва оҳангини таҳлил қилиш;
- барча шарҳларга 24 соат ичида жавоб бериш;
- салбий жиҳатлар билан шуғулланиш;
- янги таом ва акциялар ҳақида гапириб бериш;
- филиал ва франчайзинг ишини назорат қилиш;
- бахтли мижозларни шарҳлар қолдиришга ундаш.

Ушбу масала ресторан фаолиятида ҳам муҳим ўринга эга бўлади. Сабаби ҳозирги кунда даромад келтириши учун ресторан очиш мумкин. Бундан ташқари, уни самарали бошқариш учун профессионал жамоани жалб қилиш керак. Аммо, муассасада мукаммал созланган жараёнлар билан уни муваффақиятли, деб айтиб бўлмайди. Ресторан бизнесининг асоси доимий мижозларга айланган қониқарли мижозлардир. Бундай мижозлар ресторанни янги, жозибали ва арзонроқ жойларга ҳам алмаштирмайди.

Шундай қилиб, ресторанга шарҳларни аниқлашда содиқ мижозларни топиш ва жалб қилиш учун қуйидаги 10 та босқич хосдир:



1-расм. Ресторанда мижозларни излаш ва жалб қилиш босқичлари

Ушбу усуллар амалга оширилиши мумкин бўлган вариант ва ғояларнинг бир қисмидир. Шунингдек, овқатланиш соҳасида мижозлар билан ишлашда FIDELIO - озиқ-овқат ва ичимликлар ва MICROS - омборларни бошқариш тизимларидан ҳам фойдаланилади. Бу эса меҳмонхонада ресторан ва омбор ҳисобини автоматлаштиришга ёрдам беради.

Аниқроқ қилиб айтганда, FIDELIO F&B тизими қуйидаги масалаларни ҳал қилишга имкон беради [1]:

- етказиб берувчилар билан ишлаш (буюртмаларни етказиб бериш);
- озиқ-овқат омборларидаги товарлар ҳисобини юритиш;
- ресторан ва барларда ишлатиладиган менюлар билан танишиш;
- овқатланиш рецептларини бошдан кечириш;
- банкет менюсини ҳисоблаш;
- меҳмонхона омборларида инвентаризация ўтказиш;
- савдо маълумотлари асосида маҳсулотларни автоматик равишда ҳисобдан чиқариш;
- тизимга киритилган рецептларга мувофиқ омбордан омборлар иши бўйича ҳисоботларни қабул қилиш.

Умуман олганда, туристларни овқатлантириш хизматларини амалга оширишда мижозларнинг шарҳлари муҳим ҳисобланиб, доимий равишда уни омил сифатида ҳисобга олиш талаб қилинади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Информационное обеспечение туризма: учебник / Н.С.Морозова, И74. М.А.Морозов, А.Д.Чудновский, М.А.Жукова, Л.А.Родигин. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. - 158 с.
2. Организация услуг общественного питания в условиях автосервисного предприятия. - Екатеринбург, 2017. - 9 с.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CARDIAC ACTIVITY AND THE PHYSICAL BASIS OF HEMODYNAMICS

Elmurotova Dilnoza Bahtiyovna[1]
Odilova Nilyufar Juraevna[2]
Khaitov Farhoda Nasriddinovich[3]

Tashkent State Technical University, Karshi State University, Termez branch of Tashkent Medical Academy

KEYWORDS

comparative morphology, chamber, heart, hemodynamics, circulatory apparatus, artificial lung

ABSTRACT

The paper presents complete information about the morphology of the heart and its functions in humans and animals. The movement of blood through the vessels, which occurs due to the difference in hydrostatic pressure in different parts of the circulatory system, is called hemodynamics, and the minute volume of blood circulation is considered the most important indicator. Also explained, the relationship between blood and tissues is fully explained.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7181434
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Head of the department Biomedical Engineering, Tashkent State Technical University, UZB
[2] Assistant, Faculty of Physics, Department of Theoretical and Experimental Physics, Karshi State University, UZB
[3] Assistant, Department of Social and Humanitarian Sciences, Termez branch of the Tashkent Medical Academy, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

YURAK FAOLIYATI VA GEMODİNAMIKANING FIZIKAVIY ASOSLARI

KALIT SO‘ZLAR:
qiyosiy morfologiya, kamera, yurak, gemodinamikasi, aylanish apparati, sun’iy o‘pka

ANNOTATSIYA

Ishda yurakning morfologiyasi odam va hayvonlar tanasida o’tganilgan bo’lib ishlash funksiyasi haqida to’liq ma’lumot berilgan. Tomirlarda qon oqishi bu gemodinamika bo’lib, bu jarayon gidrostatik bosim tomirlar sistemasining turli qismlarida turlicha bo‘lishi tufayli sodir bo’ladi. Shu bilan bir qatorda ishda qon bilan to‘qimalar o‘rtasida bo’glanish to’liq yoritilgan.

СЕРДЕЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ФИЗИЧЕСКАЯ ОСНОВА ГЕМОДИНАМИКИ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
сравнительная морфология, камера, сердце, гемодинамика, аппарат кровообращения, искусственное легкое

АННОТАЦИЯ

В работе представлены полные сведения о морфологии сердца и его функциях в организме человека и животных. Движение крови по сосудам, возникающее вследствие разности гидростатического давления в различных участках кровеносной системы – называется гемодинамикой и наиболее важный показателей считается минутный объем кровообращения. Также объяснено, связь между кровью и тканями полностью объяснена.

Ma’lumki, yurak bu odam va hayvonlarning qon aylanish sistemasidagi markaziy a’zo bo’lib, u doim bir xilda qisqarishi (sistola) tufayli qonni qon aylanish sistemasi bo‘ylab haydab beradi va uni venalar orqali qaytib kelishini hamda arterial qon tomirlardagi harakatini ta’minlaydi.

Yurakning qiyosiy morfologiyasi - yurak qon tomirlari sistemasi to‘la rivojlangan hayvonlarda bo‘ladi. Tuban darajali hayvonlardan yomg‘ir chuvalchangida yurak vazifasini halqasimon tomirlar, daryo qisqichbaqasida yurak va yurak atrofidagi bo‘shliq sinuslari bajaradi.

Ko‘pchilik mollyuskalar yuragi yaxshi rivojlangan, 2 bo‘lmacha va qorinchadan iborat, u faol qisqarish xususiyatiga egadir. Ularda yurak tomon yo‘nalgan venoz qon yurak sinuslariga, so‘ngra uning jabrasiga yo‘naladi. U yerdan kislorodga boyib yurak oddi sinusiga tushadi va yurakka o‘tadi. Yurak qorinchasi qisqarishi natijasida qon hayvon tanasi bo‘ylab tarqaladi. Xordalilardan lansetniklarda yurak vazifasini qorin aortasi bajaradi.

Suvda va quruqlikda yashovchilarda yurak 3 kamerali - 2 bo‘lmacha va qorinchadan; sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilar yuragi 4 kamerali - 2 bo‘lmacha va 2 qorinchadan iborat.

Odam yuragi 4 kamerali: 2 ta bo‘lmacha va 2 ta qorinchadan iborat bo‘lib, konus shaklida, asosi orqaga, yuqoriga va o‘ng tomonga, uchi (cho‘qqisi) pastga, oldinga va chap tomonga qaragan. Yurak oldingi pastki ko‘ks oralig‘i sohasida joylashib, ikki yon tomondan o‘pka va plevra xaltalari oldingi to‘sh suyagi va qovurg‘a tog‘ayiga tegib turadi. Yurak yuqoridan va orqadan qon tomirlar, pastdan diafragma pay markazi bilan mustahkamlanib turadi. Yurakning holati hamma odamlarda bir xil bo‘lmay, u kishining yoshi, jinsi, gavdasining vaziyati va tuzilishiga ham bog‘liq. Jumladan, yangi tug‘ilgan bolalarda Yurak yumaloq shaklda bo‘lib, diafragma gumbazi balandroq ko‘ndalang va yuqoriroq joylashgan, ayrisimon bez uni to‘sh suyagidan ancha orqa tomonga surib turadi.

Yurakning bir qisqarishida haydalgan qon miqdori - sistolik hajmi o‘rta hisobda 65-70 ml ga teng. Yurakning qisqarish kuchi va chastotasi organizm to‘qima va a’zolarining kislorod va oziq moddalarga bo‘lgan ehtiyojiga mos holda o‘zgarib turadi. Yurak qisqarishini ta’minlaydigan impulslar o‘zida hosil bo‘lsa ham faoliyatini nerv sistemasi boshqaradi. Adashgan nervlar yurak qisqarish kuchini susaytirib, maromini sekinlashtiradi, simpatik nervlar, aksincha kuchaytiradi. Yurak muskullari o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatiga ham ega: mas, yurakka qancha qon ko‘p kelsa, u shuncha ortiq kuch bilan qisqaradi. Yurak muskullarining qancha kuch bilan qisqarishi uning cho‘zilishi, ya’ni muskul tolalarining dastlabki (qisqarishidan avvalgi) uzunligiga bog‘liq. Muskul tolasi qancha tez cho‘zilsa, shuncha kuchli qisqaradi - bu yurak qonuni deb ataladi.

Gemodinamika (gemo... va dinamika) - tomirlarda qon oqishi bo’lib, gidrostatik bosim tomirlar sistemasining turli qismlarida turlicha bo‘lishi tufayli ro‘y beradi (ma’lumki qon yuqori bosimli sohadan past bosimli sohaga tomon oqadi). Bunda asosiy omil yurak qisqarishlari bo‘lib, o‘rtacha yoshdagi odamning yuragi har qisqarganda tomirlarga 60—70 ml yoki min.ga 4,5—5 l qon o‘tkazadi. Qon tomirlarining elastikligi, ko‘krak bo‘shlig‘ida bosimning manfiy bulishi, diafragma va skelet muskullarining qisqarishi tufayli qon tomirlar sistemasida to‘xtovsiz oqib turadi. Shuning natijasida qon bilan to‘qimalar o‘rtasida muntazam ravishda moddalar almashinuvi ro‘y beradi.

Qon aylanishi - yurak qisqarishi tufayli qonning qon o‘tkazish sistemasida harakatlanishi. Qon aylanishi organizm to‘qimalari bilan tashqi muhit orasidagi moddalar almashinuvi va gomeostaz turg‘unligini ta’minlaydi. Qon to‘qimaga kislorod, suv, oqsil, uglevodlar, yog‘, mineral moddalar, vitaminlar va boshqa olib keladi va to‘qimadan karbonat angidrid hamda moddalar almashinuvida paydo bo‘lgan boshqa chiqindi moddalarni olib ketadi. Termoregulyatsiya va gumoral regulyatsiyaii amalga oshiradi. Immunitetning muhim omilidir. Qon aylanishi ni 1628-yil ingliz vrachi U.Garvey kashf qilgan.

Ko‘pchilik umurtqasiz hayvonlarda ochiq Qon aylanishi doirasi mavjud (gemolimfa gavda muskullari yoki tomirlar qisqarishi tufayli harakatlanadi). Odam va ayrim yuqori darajada rivojlangan umurtqasizlarda Qon aylanishi doirasi yopiq bo‘ladi. Suvda va quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, sut emizuvchilar va qushlarda Qon aylanishi doirasi 2 ta. Odam. shu jumladan, sut emizuvchilar va qushlarda Qon aylanishi sxemasi bir xil. Yurak chap qorinchasidan chiqib, to‘qimalar orqali o‘ng bo‘lmachaga kelgan tomirlar sistemasi katta, o‘ng qorinchadan chiqib, o‘pka orqali chap bo‘lmachaga kelgani kichik qon

aylanish doirasini tashkil etadi. Chap bo‘lmachadan qon chap qorinchaga o‘tadi va Qon aylanishi davom etadi. Yurak muskullarining qisqarib-bo‘shashishi tufayli qon tomirlarda harakatlanadi. Yurakning bir min.da haydaydigan qon miqdori minutli hajm deyiladi. Odam tinch turganidagi minutli hajm 4—5 l ga teng , emotsional ta’sir holatida esa u 3—4 marta ortadi. Yurak qonni arteriyaga porsiya bilan haydaydi. Qon quyilishi bilan arteriyalar devori kengayadi.

Sun’iy qon aylanish apparati, sun’iy yurak o‘pka apparati — bemor organizmida yoki donorning ajratib olingan a’zosida qon bir tekis aylanishini va bir me’yorda moddalar almashinuvini ta’minlaydigan apparat. Yurak va o‘pka vazifasini vaqtinchalik o‘tashga mo‘ljallangan. Birinchi Sun’iy qon aylanish apparatia.a. avtojektor 1925-yilda rus fiziologi S.S. Bryuxonenko tomonidan yaratilgan. Keyinchalik shu apparat yordamida hayvonlarda ko‘pgina yurak operatsiyalari o‘tkazildi. Sun’iy qon aylanish apparatia.a. o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sistema va bloklar kompleksidan: "Sun’iy yurak"—nasos, yuritkich, uzatkichdan iborat bo‘lib, qonni hayotni ta’minlay oladigan hajmiy tezlikda oqadigan qilib haydaydi; oksigenator deb ataladigan

"Sun’iy o‘pka" — gaz almashinish qurilmasi bo‘lib, qonni kislorod bilan to‘yintirish, karbonat angidrid gazini chiqarib yuborish va kislota ishqor muvozanatini normal saqlab turish uchun xizmat qiladi.

Hozirda jahonda 100 dan ortiq tipdagi turli maqsadlarda ishlatiladigan Sun’iy qon aylanish apparatlari - aylanish apparatiari yaratilgan. Xavfli o‘smalar, yallig‘lanish jarayonlari va destruktiv shikastlarni kimyoviy moddalar bilan davolashda, yurako‘pka faoliyati buzilganda yordamchi sun’iy qon aylantirishda, klinik o‘lim holatidagi bemorni tiriltirishda, ko‘chirib o‘tkazishga mo‘ljallangan a’zolarni tirik saklab turishda ishlatiladigan Sun’iy qon aylanish apparati bor.

ADABIYOTLAR:

1. Bozorboyev M.I., M ullajonov I. Biofizika Toshkent – 2018.
2. S. Umarov, E. Bozorov, O. Jabborova Tibbiy texnika va yangi tibbiy texnologiyalar. Toshkent «Iqtisod-moliya» 2018.
3. Кубрак Н.В. , Кононович Н.А. // Гемодинамика в скелетных мышцах и температурная реакция после повреждения спинного мозга (экспериментальное исследование) Научный журнал Ветеринарные науки, С.112-1162021.
4. Ефремушкин Г.Г., Денисова Е.А., Филиппова Т.В. // Гемодинамика в магистральных артериях у здоровых людей молодого возраста. Российский кардиологический журнал. № 1 (75). 2009. С18-23.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE SCIENTIFIC BASIS OF THE INFLUENCE OF ROAD ELEMENTS ON THE DRIVING CONDITIONS OF CARS

S.S. Ilhomov[1]

Jizzakh Polytechnic Institute

KEYWORDS

safety, accident, method, factor traffic

ABSTRACT

This article discussed the road surface elements and data analysis of environmental impact assessment. The main purpose of work is to give recommendations to improve the working conditions and give scientific conclusions which will be used in future road design and highway projects.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7181474
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant, Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ЙЎЛ ЭЛЕМЕНТЛАРИНИНГ АВТОМОБИЛЛАР ХАРАКАТ ШАРОИТИГА ТАЪСИРИНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ

KALIT SO‘ZLAR:

хавфсизлик, аварийлик холати, услуб, коэффицент, транспорт оқими

ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада автомобилларнинг харакат шароитига таъсир кўрсатадиган йўл элементлари ва атроф мухит таъсирини бахоловчи кўрсаткичларнинг тахлили ёритилган. Ишдан асосий мақсад харакат шароитини яхшилаш бўйича тавсиялар келтирилиб, келажакда автомобил йўлларини лойихалашда амал қиладиган илмий хулосалар берилган.

Республикамизда умумий равишда юк ва йўловчи ташишнинг 90 фоизга яқин ҳажмини автотранспорт улуши ташкил қилади. Бу мамлакатимизда йўл-транспорт инфратузилмасини янада мустаҳкамлаш масаласи нечоғлик долзарблигидан далолат беради. Автомобил йўлларини таъмирлаш, йўллардаги харакат шароитини яхшилаш, янгиларини қуриш ва уларни жаҳон андозаларига мослаштириш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14-февралдаги “Йўл хўжалигини бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги фармойишида Республиканинг иқтисодий ривожланиш шартларини таъминлайдиган халқаро транспорт йўлакларини барпо қилиш, транзит ва вилоятлар оралиғида ишончли транспорт алоқасини таъминлаш, республиканинг ташқи интеграциялашган ва ички бириккан ягона транспорт муҳитини шакллантириш, Буюк Ипак Йўлини қайта тиклаш ва жаҳон бозорига чиқиш каби масалалар давлат йўл сиёсатининг устувор вазифалари этиб белгиланган. Ушбу вазифаларнинг амалий ечими мавжуд автомобиль йўллари тармоғининг транспорт-фойдаланиш сифатларини ошириш, йўлларнинг техник ва фойдаланув ҳолатларини йўлдан фойдаланувчилар талабларига мувофиқлаштириш, автомобиллар ҳаракат шароитининг қулайлиги ва хавфсизлигини таъминлаш, йўлларни сақлаш ишларини самарали ташкил қилишни талаб қилади [1]

Эксплуатация шароитлари умумий ҳолда йўл, транспорт ва табиий-иқлим шароитлари билан аниқланади. Буларнинг ҳар бири, ўз навбатида маълум омиллар билан тавсифланади; йўл шароитлари – йўлнинг профили ва режа элементлари, жой рельефи, йўл қопламасининг кўриниши ва равонлиги, ҳаракат жадаллиги, ҳаракатга халақитлар, йўл ҳолатининг барқарорлиги, ҳаракат режимлари билан; транспорт шароитлари – юкнинг тури, ташишлар ҳажми, жўнатиладиган юклар партияси, ташиш масофаси, юк ташиш ва тушириш усуллари, маршрутлар тури ва ташишнинг ташкили, сақлаш, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш шароитлари билан; табиий-иқлим шароитлар – совуқ, мўтадил, иссиқ ва тоғ иқлим шароитлари билан [2].

Автомобилларнинг шиналари йўлнинг қатнов қисми қопламаси билан нормал илашиши учун қуйидаги шароитлар бўлиши керак: қоплама юзаси тоза, қуруқ ёки намланган бўлиши; 60 км/с тезликда бўйлама илашиш коэффициенти қуруқ юзада 0,6 нам юзада – 0,45 бўлиши; ёзда ҳаво ҳарорати 20°С, нисбий намлиги 50%, кўринишининг метереологик узоқлиги 500 метрдан ортиқ, шамол бўлмаслиги, атмосфера босими 760 мм сим. уст. бўлиши аниқланди [4].

Тоғ йўлларида денгиз сатхидан юқорига чиққан сари ёғин – сочин кўпаяди, ҳаво ҳарорати ва атмосфера босими пасаяди, қуёш реакцияси кучаяди, туман қуюқлашади, ҳавонинг нисбий намлиги ортади (1-расм).

Бу омилларнинг бари йўл шароитларининг таркибий қисми бўлиб, ҳаракатланиш режими ва хавфсизлигига ҳар томонлама ва кенг кўламда таъсир қилади [1].

Тоғ шароитларида метереологик омилларнинг жадаллиги ва йўлга таъсир этиш давомийлиги қуйидаги оқибатларга олиб келади:

- қопламанинг илашиш хусусиятлари ёмонлашгани сабабли автомобилларнинг йўл конструкциясига механик таъсири ҳам ўзгаради;
- атмосфера босимининг пасайиши, ҳаракатланишга қаршиликнинг ортиши сабабли двигател қуввати пасаяди;
- йўлнинг қатнов қисми, йўл четлари, муҳандислик иншоотлари ифлосланиб кетиши, қор босиши, излар тушган йўлаклар хосил бўлиши, қатнов қисми ва йўл четларининг кўринмай қолиши, ҳаракат бўлагиларини қор босиб излар тушади;
- йўл шароитларининг ёмонлашуви ва кислород етишмаслиги сабабли ҳайдовчининг психофизиологик ҳолати ўзгаради;
- туман қуюқлашуви, ёғинлар ва қуёш реакцияси кучайиши сабабли метереологик кўринувчанлик пасаяди;
- автомобилнинг техник эксплуатация сифатлари (ҳаракатланиш қулайлиги ва ҳавфсизлигини таъминловчи тизимлар: тормоз, рул бошқаруви, кўринувчанликни таъминлаш, сигнал тизимлари) ёмонлашади;
- йўл ва метереологик шароитлар ёмонлашиши ҳайдовчининг нерв-эмоционал зўриқишига салбий таъсир қилади.

Тоғ йўлларида баландлик ошгани сари ҳаракатланиш шароитларининг ўзгариши автомобилларнинг ҳаракат режимларини ўзгартиришни талаб этади ва бу хавфсизлик таъминланишига салбий таъсир этиши мумкин.

Автомобилларнинг иш шароитига салбий таъсир кўрсатадиган омиллардан бири бу ёғингарчилик миқдорининг холатига қараб бахоланади. Муаллиф томонидан йиллар давомида ўтказилган тажрибалар ва тўпланган маълумотлар асосида харакат жадаллаги юқори бўлган халқаро ахамиятга эга А-373 “Тошкент-Ўш” автомобил йўлининг 116-214 км.и “Қамчиқ” давони ва унинг атрофидаги худудлар Ангрен шахри ва Поп туманлари хамда М-39 “Алма-ата - Бишкек-Тошкент-Термиз” автомобил йўлининг 1120-1145 км.и Тахта-қарача давони ва 1302-1320 км.и Оқработ

давони атрофидаги йиллар давомида аниқланган ёғин миқдори (мм) нинг тахлили аниқланди (1-расм).



1-расм. Республикамизнинг давонли худудларидаги ўртача йиллик ёғин миқдорининг тахлили.

Расмдан кўринадики худудлардаги ўртача йиллик ёғин миқдори бахор ойининг февраль-март апрел ойларида ва қиш ойининг ноябрь-декабрь ойларида энг юқори кўрсаткичга эга бўлиб, шу ойларда автомобилларнинг харакат шароитига юқоридаги омиллар кўпроқ таъсир кўрсатиб, йўлларда содир этиладиган йўл-транспорт ходисаларининг сони йўлларнинг денгиз сатхидан кўтарилиб бориши ва бўйлама профил элементларининг ошиб боришига боғлиқлигини қуйидаги расмдан кўришимиз мумкин 2-расм. Ушбу расмда 3 хилда жихозланган йўлларда содир этилган йўл-транспорт ҳодисаларининг йўлнинг бўйлама қияликка нисбатан ўсиб бориши аниқланди [3].



2-расм. Автомобил йўлларининг элементига қараб ЙТХнинг ўзгариш кўрсаткичлари.
1 – кўп полосали йўллар ажратувчи йўл тўсиқлари бор.
2 – кўп полосали йўллар ажратувчи йўл тўсиқлари йўқ.
3 – икки тасмали йўллар ажратувчи йўл тўсиқлари йўқ.

Ушбу расмдан кўриниб турибдики автомобил йўлларининг бўйлама қиялик кўрсаткичлари ошиб бориши яъни 50-60‰ дан ошганда йўлларнинг жихозланганлик даражасига қараб ажратувчи йўл тўсиқлари бўлмаганда содир этилган йўл-транспорт ҳодисаларининг сонига қараб йўлларнинг хавфлилик даражаси ошиб бориши аниқланди.

Йўлларда транспорт воситаларининг ҳаракат режимини яхшилаш бўйича қуйидаги омиллар тавсия қилинади;

- ҳайдовчининг психофизиологик ҳолатини доимий тарзда аниқлаб бориш (чарчаганлик, реакция тезлиги);
- бошқарув органларининг конструкцияси ва техник ҳолатини диагностика қилиб бориш;
- йўллардаги кўринувчанликка эътиборни кучайтириш (метереологик шароитлар);
- йўл қопламасининг тури ва ҳолатини доимий тарзда текшириб бориш ва зурур чора-тадбирларни дархол қўллаш (қуруқ, музлаган, шудринг ва б.);
- ўтиш жойлари (режадаги кичик радиусли бурилиш жойлари, тик кўтарилиш ва пастга тушиш жойлари) да тезликни пасайтирувчи йўл белги-чизиқларининг холатини назорат қилиб бориш;
- хавфли йўл бўлакларида ҳаракат жадаллигини кўрсатувчи электрон таблолар ўрнатиб, хайдовчига ахборот ишораларини бериб бориш ва х.к.

Юқорида келтирилган омиллар автомобил йўлларини эксплуатация қилиш жараёнида фойдаланиб, транспорт воситаларининг харакат режими доимий тарзда назорат қилиб борилса, содир этилаётган йўл-транспорт ходисаларини 10-12 %га камайишига олиб келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14-февралдаги “Йўл хўжалигини бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги фармойиши.
2. Мирзабеков М.С. Особенности режима и безопасности движения на горных автомобильных дорогах Узбекистана. Молодой учёный. Международный научный журнал. СПЕЦВЫПУСК. Джизакский политехнический институт № 7.2 (111.2) / 2016. г. Казань. 64-67 ст.
3. Бабоев А. М. Тоғ шароитида суюқлик ташийдиган мингашма автопоезднинг мақбул ҳаракат тезлигини асослаш (қамчиқ довони мисолида): Техника фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. ТАЙЛҚЭИ. 2011 й. 149 б.
4. Ўзбекистон Республикаси “Ўзгидрометцентр” маълумотлари.
5. Mansurovna, M. L., & Eshquvvatovich, I. S. (2021). Study of the influence of operating factors of a vehicle on accident by the method of expert evaluation. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(1), 10-17.
6. Умиров, И. И. Ў., & Ҳамрақулов, Ё. М. (2020). Автомобиллардан чиқаётган газсимон чиқиндиларнинг атмосферага аралашиши. Academic research in educational sciences, (1).
7. О.К Адилов, АУ Уролбоев Оценка Эффективности Работ По Техническому Обслуживанию Автотранспортных Средств Вестник науки, 2021

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CREATING INDEPENDENT EXAMPLES AND PROBLEMS FROM MATHEMATICS

Asrorova Zarina Sobirjon qizi[1]

School No. 54 of Samarkand city

KEYWORDS

mathematics, example, problem, teacher, equation, inverse problem

ABSTRACT

In this work, the ways of independent examples and problems of school mathematics teachers and students are described.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7181506
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher of mathematics, school No. 54 of Samarkand city, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

MATEMATIKADAN MUSTAQIL MISOL VA MASALALAR TUZISH

KALIT SO‘ZLAR:
matematika, misol, masala, o‘qituvchi, tenglama, teskari masala

ANNOTATSIYA
Ushbu ishda maktab matematika o‘qituvchilari va o‘quvchilarining mustaqil misol va masalalar tuzish yo‘llari bayon etilgan.

Ma’lumki, misol va masalalar yechish olingan nazariy bilimni mustahkamlaydi, hisoblash texnikasini oshiradi, misol va masalalar yechishda malaka va ko‘nikma hosil qilinadi, kishi fikrini o‘tkirlashtiradi, fikrlash va tafakkurni oydinlashtiribgina qolmasdan, u o‘quvchilar uchun bilim olish manbai ham hisoblanadi.

Lekin, o‘quvchilik va talabalik xotiralardan foydalanib hamda ko‘pgina kuzatishlar asosida shuni ham alohida qayd etish kerakki, hanuzgacha o‘quvchilar va talabalarga faqat tayyor misol va masalalar ishlatilib kelinmoqda.

Bu narsa o‘quvchilarda yuqorida ko‘rsatilgan xislatlarni tarbiyalashda alohida o‘rinni egallasada, biroq tayyor narsaga odatlanib qolish kayfiyatini yuzaga keltirib chiqarishga olib kelish ehtimoli ham haqiqatdan yiroq emas. Bundan tashqari, eng xavfslisi subyektning fikrini o‘zlashtirishga odatlanib qolinadi, biror masalani mustaqil o‘rganishda ijodiy yondashishga shakllanib borish va uni rivojlantirishni o‘quvchi hayoliga keltirmasligi ham mumkin chunki ko‘p yillar davomida o‘quvchining hatto bo‘lg‘usi mutaxassis talabaning ham ongida ko‘proq tayyor materialni puxta o‘zlashtirish g‘oyasi singdirib yuborilgan. Shuning uchun bu masala bo‘yicha o‘quvchini yoki talabani to‘liq ayblamasdan, balki ma’lum darajada biz o‘qituvchilarning ham kamchiligi desak xato qilmagan bo‘lamiz.

O‘quvchilar va talabalarning mustaqil bilim olishga odatlantirib borish maqsadida an’anaviy ta’lim berish usulidan foydalanib borish bilan birga ta’lim berish usulini asta-sekin modernizatsiyalashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda faqat yangi materialni tushuntirishni ko‘zda tutibgina qolmasdan, balki misol va masalalar yechishni ham hisobga olinmog‘i shart, ya’ni tayyor misol va masalalarni ishlatish bilan birga o‘quvchilarning ayniqsa talabalarning o‘zlarini mustaqil misol va masalalar tuzishga o‘rgatib borish nihoyatda foydalidir.

Talabalarning mustaqil masalalar tuzishi uchun ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan berib borilishi yoki ma’lumot sifatida nimalardan foydalanishlari mumkinligi to‘g‘risida tushuncha berib turiladi.

Talabalarga o‘rta umumiy ta’lim va kasb-hunar kollejlari matematikasi hajmida misol va masalalar tuzdirishga mashq qildirib borish elementar matematika materiallarini yaxshi o‘zlashtirishga erishish usullaridan biri hisoblanadi. Elementar matematikada talab darajasida bilishlik esa oliy matematikani yaxshi o‘zlashtirishni osonlashtirib qolmasdan, balki bo‘lg‘usi matematik mutaxassis uchun juda ham zarurdir.

Mustaqil misol va masalalar tuzishni ma'lum temalar, boblar yoki bo'limlar bo'yicha amalga oshirib borish mumkin. Masalalar tuzishda hisoblashga, yasashga va isbotlashga doir hayotiy masalalar tuzishga e'tibor berib borish fanni o'rganishga yanada qiziqishni orttiradi. Masala tuzishni yechtirilgan masalaga teskari bo'lgan masala tuzishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki tuzilgan bu masalani yechish oson kechadi va masalalar tuzishda masalalar to'plamidagi har bir masala asosiy material manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Quyida namuna sifatida masalalar tuzib ko'rsatamiz.

1. Kvadrat tenglama tuzishga doir.

1-masala. $x^2-3x+2=0$ tenglamani yechmasdan yangi bir tenglama ildizlarining kublari bo'lsin. Bu masala berilgan bo'lsa unga teskari quyidagi masalani tuzamiz.

Teskari masala: $x^2-9x-8=0$ tenglamani yechmasdan yangi bir masala tuzingki, uning ildizlari berilgan tenglama ildizlaridan uchinchi ko'rsatkichli ildiziga teng bo'lsin.

2-masala. Paraxod daryoning oqim tomoniga 48 km va oqimga qarshi tomonga o'shancha yo'l bosdi, hamma yo'lga 5 soat vaqt sarf qildi. Daryoning tezligi soatiga 4 km bo'lsa, paroxodning turg'un suvdagi tezligini toping.

Bu masalaga teskari bo'lgan uchta masalani tuzish mumkin ikkitasi kvadrat tenglama emas. (yo'lni aniqmas yoki vaqtni aniqmas deb masala tuzilsa) bittasi esa kvadrat tenglama (agar suv tezligi noma'lum deb olinsa) tuziladigan masala bo'ladi.

Bu masalalarni tuzish uchun berilgan masalani yechib javobni aniqlashga to'g'ri keladi. Uning tenglamasi $\frac{48}{x+4}+\frac{48}{x-4}=5$ bo'ladi. Bundan $x=20\,km/soat$ aniqlanadi.

Agar suvning tezligini noma'lum deb qaralsa, quyidagi masala tuziladi.

Tezligi $20\,km/soat$ bo'lgan paroxod oqim bo'yicha va oqimga qarshi 48 km masofani bosib o'tish uchun 5 soat sarfladi. Suvning tezligi aniqlansin. Agarda suvning tezligini x deb olinsa, $\frac{48}{20+x}+\frac{48}{20-x}=5$ tenglama tuziladi bundan $x=4км$ kelib chiqadi.

(masofa 48 km) va vaqtni (5 soat) noma'lum deb masala tuzing).

3-masala. Olma quritilganda o'z og'irligining 84% ini yo'qotadi. 10 kg olma qoqi tayyorlash uchun qancha olma olish kerak?

Teskari masala. 62,5 kg olmadan 10 kg qoqi tayyorlansa, yo'qotilgan olma og'irligi necha protsentni tashkil etadi?

4-masala. Bug'doy tegirmonda tortganda, o'z og'irligining $\frac{1}{10}$ bo'lagini yo'qotadi. Agar non yopganda un og'irligining $\frac{2}{5}$ bo'lagi qadar obi qilsa, $1\frac{1}{2}t$ bug'doydan qancha non chiqadi?

Mustaqil ish sifatida yeching.

5-misol. Agar $y=10^{\frac{1}{1-tgx}}$, $z=10^{\frac{1}{1-ctg}}$, $x,\ y>0,\ x,y,z\neq 10$ bo‘lsa $x=10^{\frac{1}{1-\lg z}}$ ekanligi isbotlansin.

Bunga teskari: a) Agar $10^{\frac{1}{1-\lg z}}$, $z=10^{\frac{1}{1-\lg}}$, $yz>0$, $x,y,z\neq 10$ bo‘lsa, $y=10^{\frac{1}{1-\lg x}}$ ekanligi isbotlansin.

5) yoki agar $x=10^{\frac{1}{1-\lg z}}, y=10^{\frac{1}{1-\lg z}}$, $x,z>0$, $x,y,z\neq 10$ bo‘lsa, $z=10^{\frac{1}{1-\lg z}}$ to‘g‘riligi isbotlansin.

Bundan bittasini, masalan, b) sini isbotlab ko‘rsatamiz.

$$\lg x=\frac{1}{1+\lg z};\quad \lg y=\frac{1}{1-\lg x}$$

$$\lg y=\frac{1}{1-\frac{1}{\lg z}}=\frac{1-lgz}{-\lg z}$$

$$\lg y\cdot\lg z=1-\lg z \qquad \lg y(1-\lg y)=1$$

$\lg z=\frac{1}{1-\lg z}$ bundan, $z=10^{\frac{1}{1-\lg y}}$ bo‘ladi.

Mustaqil ish sifatida agar $a^2+b^2=7ab,\ a,b>0$ bo‘lsa, $\lg\frac{a+b}{3}=\frac{1}{2}(\lg a+\lg b)$ ekanligini isbotlab, so‘ngra bunga teskari masala tuzing.

6-masala. Urinma va kesuvchi bir nuqtadan chiqqan bo‘lib, urinmaning uzunligi 20 sm, kesuvchining uzunligi 40 sm, kesuvchi markazdan 8 sm uzoqlashgan. Doiraning radiusini aniqlang.

$$AB=20sm$$

$$AC=40sm$$

$$OD=8sm$$

$$OE=R=?$$

Yechish. $AB^2=AC\cdot AE$

$$AE=\frac{AB^2}{AC}=\frac{400}{40}=10sm$$

$$CE=AC-AE=40-10=30sm$$

$$DE = \frac{EC}{2} = 15sm$$

$$\Delta ADE \text{ dan } OE^2 = OD^2 + DE^2 = 64 + 225 = 289$$

$$OE = R = 17sm$$

Teskari masala

Radiusi 17 sm bo‘lgan doiraga bir nuqtadan urinma va kesuvchi o‘tkazilgan bo‘lib, kesuvchining uzunligi 40 sm. Kesuvchi markazdan 8 sm uzoqlashgan. Urinmaning uzunligi aniqlansin.

$$AC = 40sm$$

$$OE = 17sm$$

$$OD = 8sm$$

$$AB = ?$$

$$\Delta EDO \text{ dan } DE = \sqrt{289 - 64} = 15sm$$

$$CE = 2 - 15 = 30sm \quad AE = 40 - 30 = 10sm$$

$$AB^2 = AC \cdot AE = 40 \cdot 10 = 400$$

$$AB = 20sm$$

7-masala. Radiusi $R = 10sm$ bo‘lgan shar o‘qi bo‘yicha silindr shaklida qilib parma bilan teshilgan. Teshikning diametri 12 sm. Jismning butun sirti aniqlansin.

$$OA = R = 10sm$$

$$CD = 12sm$$

$$S_{b.s.} = ?$$

Yechish. $OA = x$ bo‘lsin

$$O_1B = AB - 0, A = 2R - X$$

$$O,C - O,D = O,A \cdot O,B$$

$6 \cdot 6 = X(20 - x)$, $x^2 - 20x + 36 = 0$ bundan $x_1 = 18$ va $x_2 = 2$ aniqlanadi. Bunda segment balandligi $x_2 = 2$ bo‘ladi.

$$S_{b.s} = S_{sh} - 2S_{seg} + S_2 = \left(4\pi R^2 - 2 \cdot 40\pi + 192\pi\right) sm^2 = 512\pi sm^2$$

Undan foydalanib bitta teskari masalani tuzib yechib ko‘rsatamiz (shar radiusi berilgan holda). Ikki teskari masalada teshikning diametri noma’lum deb olinadi.

Teskari masala. Shar o‘qi bo‘yicha silindr shaklida qilib parma bilan teshilgan teshikning diametri 12 sm. Jismning butun sirti $512\pi sm^2$ bo‘lsa, sharning radiusi aniqlansin.

$$512\pi = S_{sh} + S_i - 25_{sek}$$

$$O,B \cdot O,A = 0,C \cdot O,D$$

$36 = x(2R - x)$ bundan $x = R \pm \sqrt{R^2 - 36}$ bu yerda

$x = R - \sqrt{R^2 - 36}$ olinadi, chunki segment balandligi shar radiusidan katta bo‘la olmaydi.

$$S_{seg} = 2\pi R\left(R - \sqrt{R^2 - 36}\right), \quad NE = \frac{2R - 12}{2} = R - 6$$

$FM = R + 6$ bu yerda R – shar radiusi

$$CE \cdot PE = NE \cdot EM$$

$$CE^2 = (R - 6)(R + 6) \quad EC = \sqrt{R^2 - 36}$$

$$CP = 2CE = 2\sqrt{R^2 - 36}$$

$$S_i = 2\pi \cdot 6 \cdot 2\sqrt{R^2 - 36} = 24\pi\sqrt{R^2 - 36}$$

$$512\pi = 4\pi R^2 + 24\pi\sqrt{R^2 - 36} - 4\pi R\left(R^2 - \sqrt{36}\right)$$

$$512\pi = 4\pi\sqrt{R^2 - 36}\,(6 + R)$$

$$128 = (R + 6)\sqrt{R^2 - 36}$$

$R^4 + 12R^3 - 432R - 17680 = 0$ bundan $R = 10sm$ aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan masalalar maktab matematika kursi hajmida bo‘lib, talabalarning bu kurs bo‘yicha bilimlarini mustahkamlaydi, asosiy tayanch tushunchalarni bilishga undaydi, masala yechish texnologiyasining sirlariga aniqroq tushuna boshlaydilar.

Talabalarga bu xildagi mashqlarni meyorida sistemali mustaqil bajartirib borish bilan birga, mutaxassisligi bo‘yicha zarur bo‘lgan minimum bilimlar hajmini chuqur va puxta o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadigan ishlarni o‘quv jarayonida sistemali uzluksiz amalga oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassisligi bo‘yicha asosiy fundamental hisoblangan algebra, geometriya va matematik analiz fanlarini aniq tasavvur qila bilish va nazariy bilimlarni qanchalik to‘g‘ri tushunilganlikni tekshirib ko‘rish mezoni misol va masalalar yecha bilishdir. Shuning uchun bu fanlardan ko‘proq mustaqil misollar ishlatishga o‘rganish foydadan holi emas. Bunda o‘qituvchi talablarga qanday misollarni ishlash va misollar ishlashda ko‘proq nimalarga e’tibor berish kerakligini tushuntirib borish bilan birga, ularga mavzular bo‘yicha mustaqil misollar tuzishga ham o‘rgatib borish juda ham foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. В.В. Ренаев. Методика преподования алгебри в восмолетний школы. 1967 г.

2. Методика преподования математики в восмолетний школы, под общей редакции Е.К.Малина 1966.

3. Т.А. Пескин самостаятельная работа учашихся по математики в 5-8 классах.

4. А.М.Пышколо об одном виде самостаятельных работ. Мет. Школе. 1965 №1

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE METHOD OF CALCULATING THE MOVEMENT OF A TRUCK IN THE CONDITIONS OF A MOUNTAIN ROAD

Ilhomov Sardor Sobir ugli[1]

Jizzakh Polytechnic Institute

KEYWORDS

truck, mountain conditions, movement calculation method, movement parameters, natural conditions, high mountains, cargo transportation, movement speed, ascent, descent

ABSTRACT

This article examines the method of calculating the movement process of trucks in mountain conditions. The calculation method takes into account all factors affecting the movement of the truck in mountain conditions. These calculations are of interest to enterprises engaged in cargo transportation in Uzbekistan. The article examines the mountain conditions for road transport in Uzbekistan, as well as the risk of vehicle movement in high mountain passes. Since our country is one of the highest mountains in the territory of the CIS, the article will be relevant for the conditions of the Republic of Uzbekistan.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7181546
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant of the Department of Vehicle Engineering, Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

TOG'LI YO’L SHAROITIDA YUK AVTOMOBILINING HARAKATINI HISOBLASH USULI

KALIT SO‘ZLAR:
yuk mashinasi, tog ' sharoitlari, harakatni hisoblash usuli, harakat parametrlari, tabiiy sharoitlar, baland tog'lar, yuk tashish, harakat tezligi, ko'tarilish, tushish

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tog' sharoitida yuk mashinalarining harakatlanish jarayonini hisoblash usulini o'rganib chiqadi. Hisoblash usuli tog' sharoitida yuk mashinasining harakatiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni hisobga oladi. Ushbu hisob-kitoblar O’zbekistonda yuk tashish bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun qiziqish uyg'otadi. Maqolada O’zbekistonning avtomobil transporti uchun tog' sharoitlari, shuningdek, baland tog' dovonlarida transport vositalarining harakatlanishi xavfi o'rganiladi. Mamlakatimiz MDH hududidagi eng baland tog'lardan biri bo'lganligi sababli, maqola O’zbekiston Respublikasi shartlari uchun dolzarb bo'ladi.

O’zbekiston Respublikasi baland tog'li mamlakatlardan biridir. Tog'lar mamlakatning territoriyasining 50 foizidan ortig'ini egallaydi. Respublikaning deyarli barcha avtomobil yo'llari baland tog'li daralardan, dovonlardan va baland joylardan o'tadi. Jizzax viloyatining faqat Shimoliy qismi tekis yerlarda joylashgan. Aloqalar mamlakatning Janubiy qismini poytaxt va shimol bilan bog'laydigan "Sharq" strategik ahamiyatga ega avtomobil yo'li Kitob dovoni orqali o'tadi. Dovon dengiz sathidan 4000 metr balandlikka yetadi va yuk mashinalari haydovchilari uchun yo'lning murakkab qismi bilan qoplanadi. Ko'pincha O’zbekiston yo'llarining baland tog'li hududlarida yo'l-transport hodisalari va avtoulovlarning ishlamay qolishi kuzatiladi. Ushbu turdagi yengillik har qanday turdagi avtomobillarning harakatiga ta'sir qiladi, xoh u qo'pol yoki yo'lovchi bo'lsin. Ko'pincha joylarning yomon ko'rinishi, kichik radiuslarning burilishlari, uzoq yo'llardagi tik qiyaliklar haydovchiga ta'sir qiladi, transport tezligi rejimlarini o'zgartirishga majbur qiladi, keyinchalik bu ko'pincha ushbu sohalarda favqulodda vaziyatlarning paydo bo'lishiga, avtomobil yo'llarining tormoz tizimining tezroq aşınmasına va yo'l - transport hodisalariga olib keladi.

Yo'l harakati jarayoni, tezligi va tog ' yo'llari avtoulovlarining xavfsizligiga eng ko'p ta'sir qiladi, ularning soni 1 km uchun 8-12 bo'lishi mumkin bo'lgan kichik segmentlar va tik burilish burchaklari bilan ko'p sonli burilishlar mavjud.

Aslida, yo'lda avtomobil haydash rejimi avtomobilning ishlash xususiyatlari, yo'l sharoitlari va haydovchilarning individual imkoniyatlari bilan belgilanadi. Tog'li sharoitda harakatlanadigan yuk mashinasi murakkab harakatlanish tizimini boshdan kechirmoqda: to'g'ri yo'lda oldinga siljish, yo'llarning egri segmentlarida harakatlanayotganda vertikal o'qi atrofida aylanish harakati, g'ildiraklar qoplamaning notekisligi bo'ylab harakatlanayotganda uzunlamasına va ko'ndalang yo'nalishlarda tebranish. Tog'li sharoitda harakatlanish ko'plab tushish va ko'tarilishlardan iborat. Ko'tarilayotganda transport vositasidagi yuk va harakatga qarshilik tiklik (ko'tarilish burchagi) va ko'tarilish

davomiyligiga mutanosib ravishda oshadi.

Avtomobil yo'li Pomir tog ' tizimidan o'tib ketadigan dovonlar orqali o'tadi: Qamchiq, Samarqand, Kitob, Zomin va boshqalar. 232 km uzunlikda-yangiliklar ushbu yo'l mamlakatimiz bo'ylab yotqizilgan va 496 km qo'shni Tojikistonning tog'li hududlari bo'ylab harakatlanadi. Ushbu yo'nalishda yuk mashinalarining ishlash shartlari juda xilma-xildir.

Xuddi shu yo'l bo'ylab ushbu yo'l bo'ylab harakatlanadigan mashina turli xil iqlim zonalarini kesib o'tishi mumkin, uning yo'lida u yuqori harorat va past haroratlarga, past havo zichligiga, kislorod etishmasligiga va quyosh nurlaridan kelib chiqadigan nurlanishning ko'payishiga duch kelishi mumkin.

Ushbu avtomagistralda o'nta baland tog ' dovonlari joylashgan bo'lib, ulardan O’zbekiston Respublikasida eng balandi Qamchiqdir. U dengiz sathidan 4800 metr balandlikda joylashgan. Andijon – Farg’ona yo'lining asosiy devorlari 1 – jadvalda keltirilgan.

Avtomobil yuk transportining harakati transportni harakatga keltiruvchi kuchlar va harakatga qarshilik ko'rsatadigan kuchlarning umumiy harakatlari natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Avtomobilni harakatga keltiradigan eng muhim kuch-bu ichki yonish dvigatelida g'ildiraklarga olib boruvchi tortish kuchi, shuningdek, qo'zg'aysan g'ildiraklarining qoplama bilan o'zaro ta'siridan keyin. Avtomobil harakati jarayonida havo qarshiligi, ko'tarilishda harakatga qarshilik, g'ildiraklarning aylanishiga qarshilik, avtomobilning inersiya kuchlari harakat qiladi.Ba'zi kuchlar har doim harakatlanuvchi transport vositasiga ta'sir qiladi, bu aylanish va havo muhitiga qarshilik kuchidir.Tog'li hududlarning yo'llarida muntazam ravishda tik ko'tarilishlar, tushishlar, ko'tarilishlar, burilishlar mavjud. Nishab va tiklikni, ya'ni ko'tarilish burchagini bildiradi.Ba'zi kuchlar har doim harakatlanayotgan transport vositasiga ta'sir qiladi, bu prokat va havo muhitiga qarshilik kuchidir.Tog'li hududlarning yo'llarida muntazam ravishda tik ko'tarilishlar, tushishlar, ko'tarilishlar, burilishlar mavjud.Nishab va tiklikni, ya'ni ko'tarilish burchagini belgilang.

1-jadval

O’zbekistonning asosiy dovonlarining xususiyatlari

№ t/r	Dovonlarning nomi	Dovon-larning o'rtacha balandligi	Uzunligi, km		Mashinaning uzatmalardagi umumiy yo'li, km (ko'tarilish / tushish)				
			ko'tarilish	tushish	I	II	III	IV	V
1.	Qamchiq	2300	4	18		2,9/ 0	1,0/8,0	0,1/5,0	-5
2.	Kitob	3325	7	12	0,5/ 0	6,3/ 0,2	0,2/ 1,0	0/5,4	0/5,4
3.	Samarqand	4100	4	21	1,8/ 0	1,7/ 0	0,5/ 2	0/10	0/9
4.	Shahrisabz	4420	7	28	2 0	4/ 0	1/4	0/4	0/20
5.	Zomin	4000			-	1,5/0	2,5/ 0	7/0	-

6.	Toshkent vil	4100	15	—	—	3/0	8/ 0	4/0	-
7.	Termiz	4200	12	17		0,6/ 0	3,4/ 8	6/ 8	2/1
	JAMI		60	96	4,30	20 0,2	16,6 23	17,1 32,4	2 40,4

1-jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilib, bunday ish sharoitida uzatmalarni almashtirish va ilashish muftasini bo'shatish chastotasi yuqori emas degan xulosaga kelishimiz mumkin. 4 va 5-uzatmalarda 4-uzatmada umumiy smenalarning taxminan 58-59%, avtomobillar o'tish yo'lining 46%, 5-uzatmada 35% ni tashkil qiladi. Natijada yuk mashinalari yo'lning asosiy qismini (81%) yuqori uzatmalarda boshqaradi.

Taxminan 15% past uzatmalarga to'g'ri keladi va ushbu uzatmada o'tadigan masofa atigi 6% ni tashkil qiladi. Tog'li dovonlardan o'tayotganda haydovchilar odatda past uzatmalardan foydalanadilar. Dengiz sathidan 3000 metrdan yuqori balandlikda harakatlanayotganda, atmosfera zichligi pastligi sababli dvigatel kuchining pasayishi seziladi. 1000 m dan oshmaydigan balandlikda dvigatelning maksimal momenti 350 ga etadi va 3000-4000 m da moment 40-50% ga kamayadi.

Yuk mashinasi tekis yo'lda harakatlanishi uchun dvigatelning tortish kuchi avtomobilning aylanish qarshiligining umumiy ko'rsatkichlaridan, havo qarshiligidan, avtomobilning harakatsizlik kuchidan yuqori bo'lishi kerak.Tenglama quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$Rt = Rk + Rv + Ri,$$

Bu yerda,

Rt – avtomobil tortish hajmi, kg;

Rk – aylanma qarshilik kuchi, kg da;

Rv – havoning qarshilik kuchi, kg;

Ri – transport vositasining inertsiyasi, kg.

Tog'li sharoitda yuk mashinasini haydash jarayonida tenglama o'zgaradi. Agar yuk mashinasi ko'tarilish bo'ylab harakatlanayotgan bo'lsa, unda bu holda u qo'shimcha qarshilikni boshdan kechiradi, bu ufqqa nisbatan yo'lning egrilik burchagiga bog'liq. Ushbu tenglamaga ko'tarilishda ob'ektga qarshilik kuchi qo'shiladi.

$$Rt = Rk + Rv \pm Rp + Ri,$$

Bu yerda Rp – ko'tarilishga qarshilik kuchi, kg.

G'ildiraklarning aylanishiga qarshilik kuchi shinalar ishqalanishidan, rulmanlardagi ishqalanishdan, tuproq va shinalar deformatsiyasidan, avtomobil suspenziyasidagi ishqalanishdan iborat. Turli xil transport sharoitlarida bu kuchlarning barchasini aniqlash juda qiyin. Shu sababli, barcha qarshilik ma'lumotlari umumiy koeffitsient bilan hisobga olinadi. Ushbu koeffitsient avtomobilning aylanish qarshiligi koeffitsienti deb ataladi. Asfaltlangan yuzaning oldingi shoxidagi koeffitsient 0,019 - 0,020 ga teng bo'ladi; shag'al yuzasida-0,02-0,025;

Ko'pincha bunday balandliklarda yo'l-transport hodisasining sabablari g'ildiraklarning yo'l yuzasiga yopishishining yomonlashuvidir. Yomg'irdan keyin quruq

yuzaga, erga suyuq axloqsizlik paydo bo'lganda, g'ildiraklarning yo'lga yopishish koeffitsienti eng ko'p kamayadi. Qor bilan qoplangan yoki muzli yo'lning qatnov qismi erib ketganda, iliq ob-havo sharoitida dovonlarni haydash ayniqsa xavflidir. Shuningdek, qishda ko'tarilish va tushish paytida, qattiq sovuqda, bunday yo'l segmentlarining maqbul holatini saqlab turish kerak. Aks holda, ko'tarilish va tushish, ayniqsa tik yurish xavfli bo'lib, yo'l-transport hodisalariga olib kelishi mumkin.

Havo qarshiligining kuchi birinchi navbatda avtomobilning old qismining sirt hajmiga, uning shakli va harakatlanish tezligiga bog'liq. Ma'lumki, yuk mashinalarining old qismi avtoulovlarga qaraganda ko'proq.

Shunga ko'ra, havo qarshiligi yuk mashinalariga nisbatan kuchliroq bo'ladi, chunki havo oqimi katta bo'lgan frontal maydonning yuzasi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ob'ektning harakat tezligi doimiy ravishda havo qarshiligi bilan bog'liq bo'lib, tezlik oshishi bilan havo ta'sirida qarshilik mutanosib ravishda oshadi. Shu sababli, haydash paytida haydovchi optimal tezlik rejimini saqlab turishi kerak, shuningdek yukni avtomobilning aerodinamik ko'rsatkichlariga ta'sir qilmasligi uchun tartibga solishi kerak. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, havo qarshiligining kuchi qanchalik katta bo'lsa, harakat tezligini saqlab turish uchun tortishish kuchi shunchalik zarur bo'ladi, mos ravishda dvigatelning tortishish kuchi oshishi bilan yonilg'i sarfi oshadi. Liftni engib o'tishda avtomobil tomonidan sarflangan kuch avtomobilning massasiga ko'tarilish burchagi qiymatiga ko'paytiriladi. Ko'tarilish qanchalik baland bo'lsa, uni engish uchun qancha kuch sarflanadi. Agar mashina yuk bilan bo'lsa, hisob-kitobga yukning massasi ham qo'shiladi. Aksincha, avtomobilning harakatlanishiga hissa qo'shadigan kuch paydo bo'ladi, bu esa avtomobilni pastga tushirish jarayonida. Bunday holda, avtomobilning massasi va tushish burchagi qanchalik katta bo'lsa, avtomobilning tezlashishiga yordam beradigan kuch shunchalik katta bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, haydovchiga ko'tarilishga yaqinlashganda, ko'tarilishni engib o'tish imkoniyatini to'g'ri baholash kerak. Agar ko'tarilish uzoq bo'lsa, uni past vitesda engib o'tish kerak. Tik tushishlarda inertsiya va tezlanish kuchini hisobga olgan holda xavfsiz tushishni amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan uzatmani yoqish tavsiya etiladi.

Shunga ko'ra, havo qarshiligi yuk mashinalariga nisbatan kuchliroq bo'ladi, chunki havo oqimi o'tadigan frontal maydonning yuzasi kattaroqdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ob'ektning tezligi doimiy ravishda havo qarshiligi bilan bog'liq bo'lib, tezlikning oshishi bilan havoning qarshiligi ham mutanosib ravishda ortadi. Shu sababli, haydash jarayonida haydovchi optimal tezlik rejimini saqlab turishi kerak, shuningdek, yukni avtomobilning aerodinamik ko'rsatkichlariga ta'sir qilmasligi uchun tartibga solish kerak. Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilishimiz mumkinki, havo qarshilik kuchi qanchalik katta bo'lsa, harakat tezligini ushlab turish uchun ko'proq tortish kuchi kerak bo'ladi, mos ravishda dvigatelning tortish kuchi ortishi bilan yoqilg'i sarfi ortadi. Ko'tarilishni bosib o'tishda avtomobil sarflagan kuch avtomobil massasining ko'tarilish burchagiga ko'paytirilishiga teng. Ko'tarilish qanchalik tik bo'lsa, uni bosib o’tish uchun qancha kuch sarflanadi. Agar mashina yuklangan bo'lsa, yukning og'irligi ham hisob-kitobga qo'shiladi.

Aksincha, avtomobilni nishabdan pastga tushirish jarayonida avtomobilning harakatiga hissa qo'shadigan kuch paydo bo'ladi. Bunday holda, avtomobilning massasi va tushish burchagi qanchalik katta bo'lsa, mashinaning tezlashishiga hissa qo'shadigan kuch ham shunchalik ko'p bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tepalikka yaqinlashganda, haydovchi toqqa chiqishni bosib o'tish qobiliyatini to'g'ri baholashi kerak. Agar ko'tarilish uzoq bo'lsa, uni pastki uzatmada yengish kerak. Tik pasayishlarda inertsiya va tezlanish kuchini hisobga olgan holda xavfsiz tushishni amalga oshirish mumkin bo'lgan uzatmada tanlash tavsiya etiladi.

Kuzovli yuk mashinasini tepaga va pastga harakatlanayotganda chap tomonga burilish bilan mos ravishda o'ngga siljitish jarayoni.

6,7 m/s tezlikda va 1,2 m/s lateral tezlanishda (aylanma harakat) oldingi aks g'ildiraklarida reaktsiyalarni qayta taqsimlash deyarli yo'q, ya'ni. $К21^{Л}=Кг1^{П}$ (ham ko'tarilish, ham tushish paytida), markazdan qochma kuch va og'irlik komponenti o'zaro muvozanatlashganligi sababli.



1-rasm. Yuk avtomobiliga ta'sir qiluvchi kuchlarning sxemasi.

Bunda sirpanish burchaklari 61=2,70° va 82=2,25°, tepaga ko'tarilishda, ya'ni boshqaruvning yomonligi seziladi. Rul mexanizmi va podveskasining kinematikasini hisobga olgan holda, sirpanish burchaklari 61 = 3,38 ° va 62 = 2,37 °, ya'ni. avtomobilning boshqaruvchanlik qiyinchiligi mavjud.

Tepalikka haydashda oldingi g'ildiraklardagi reaksiyaning umumiy miqdori noldan katta bo'lsa, ya'ni Z1>0 bo'lsa, avtomobil ag'darilish ehtimoli kamayadi. Mashinaning ag'darilishi, agar yuk bilan avtomobilning butun massasi orqa g'ildiraklar tomonidan sezilsa va old g'ildiraklar to'liq bo'shatilgan bo'lsa, bo'ylama barqarorlikni yo'qotishi mumkin. Ko'tarilganda, orqa g'ildiraklarga qo'shimcha yuk tushadi, oldingi g'ildiraklar esa, aksincha. Xuddi shu sababga ko'ra, orqa g'ildiraklarning tortish kuchi ortadi, tezlikning keskin oshishi bilan sirpanish mumkin.

Uzun yo'llardan baland tog 'dovonlari bilan o'tayotganda, mashina har qanday holatda ham tik pastliklardan o'tadi. Bunday tushishlar bilan tormozlar uzoq vaqt davomida ishlatiladi. Yuk ko'tarilgan yuk mashinalarining katta massasini hisobga olgan holda, tormoz tizimiga kuchli yuk qo'yiladi, buning natijasida tormoz tizimining qismlari va qismlarini

isitish mumkin. Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, biz qiyaliklarda haydashda dastlab transport tezligining oshishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omillarni hisobga olish va yukni oshirmasdan sekinlashtirishingiz mumkin bo'lgan optimal tezlikni aniqlash kerak degan xulosaga keldik. tormoz tizimi.

Balandlikdagi marshrutlarda yo'l va iqlim sharoiti yuk tashishga eng kuchli ta'sir qiladi. Masalan, Shimoliy-Janubiy yo'lda, ayniqsa qishda va isish davrida qor ko'chkilari muntazam ravishda sodir bo'ladi, buning natijasida yo'l uchastkalari tozalash muddatiga yopiladi. Ayniqsa, baland tog'larda joylashgan tunnel hududidagi yo'lning uzunligi muammoli.

Bunday sharoitda strategik ahamiyatga ega yo‘llarni tabiiy va iqlimiy xususiyatlarni hisobga olgan holda to‘g‘ri loyihalash muhim masala hisoblanadi.

Tog'li sharoitda yuk mashinalarining harakatini hisoblash usulini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, [4], birinchi navbatda, jarayonga yo'l-iqlim va yo'l-transport omillari ta'sir qilishi aniqlandi, ya'ni: burchak burchagi. ko'tarilish yoki tushish va aylanish burchaklari, ko'tarilish burchagi qanchalik baland bo'lsa, harakat qilish uchun ko'proq tortish kuchi kerak bo'ladi. Ob-havo. Qor yoki yomg'ir paytida g'ildiraklarning sirtga yopishishi yomonlashadi, bu esa o'z navbatida avtomobilni boshqarishga katta ta'sir qiladi. Shuningdek, shamol omilini hisobga olish kerak, yuk tashish paytida keskin burilish burchagi bo'lgan qiyalikda kuchli yon shamol bilan ag'darilish ehtimoli ortadi va nazorat qilish qobiliyati yomonlashadi.

Yukning xarakteri. Yuk havo qarshiligini oshirishi mumkin, bu esa avtomobilning harakatiga qarshilikni oshiradi. Shuningdek, yuk avtomobilning umumiy massasini oshiradi, bu esa avtomobilning inertial kuchining oshishiga olib keladi.

Tog'li sharoitda hisoblashda yuk mashinasining yuk bilan harakatlanishi hisobga olinishi kerak. Shuningdek, yukning turi harakatlanish jarayoniga ta'sir qiladi, masalan, xavfli yuklarni (kimyoviy yoki boshqa) tashuvchi avtomobillar oddiy yuk tashishdan farq qiladi [5]. Maqolada ko'rsatilgan yuk mashinasining harakatini hisoblash usuli yuqoridagi barcha ko'rsatkichlarni hisobga oladi. Maqolada yuk mashinalarining harakatlanish jarayoni ko'rsatilgan bo'lib, u tog' dovonlari orqali yuk tashish uchun eng mos parametrlar va shartlarni hisobga oladi. Tashishning ishonchliligi, yuklanishi va samaradorligi, tormoz tizimlarining xavfsizligiga muhim e'tibor qaratiladi, bunday o'ziga xos va qiyin tog' sharoitida samaradorligi tashqi omillar, tezlik va korxona tomonidan ta'minlanadi. Tog'li sharoitda yuk mashinalarining harakatini hisoblash usuli o'rganiladi. Shuningdek, maqolada ekstremal tog'li sharoitlarda avtomobillarning barqarorligi va boshqarilishi tahlil qilinadi. Xavfsiz haydash uchun optimal tezliklar aniqlanadi, bu esa avtomobilning ag'darilishini istisno qiladi.

Harakatning haqiqiy tezligi rejimining shakllanishi barcha cheklovlarning bir vaqtning o'zida ta'siri ostida sodir bo'ladi, shuning uchun qog'ozda yo'l va iqlim omillarining turli kombinatsiyalari uchun ish sharoitida harakat tezligini aniqlash uchun hisob-kitob ifodalari taklif qilingan tasnifni hisobga olgan holda taklif etiladi. yo'l sharoitlari. Shu bilan birga, tezlik rejimini shakllantirish uchun konstruktiv omillar orasida avtopoezdning

umumiy og'irligi, dvigatel kuchi va uzatish nisbati eng katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Кленников В.М., Кленников Е.В. Теория и конструкция автомобиля. - 1966.
2. Авдонькин Ф.Н. Теоретические основы технической эксплуатации автомобилей. - М.: Транспорт, 1985. - 215.
3. Андрианов Ю.В. Исследование влияния дорожных и транспортных условий на эффективность технической эксплуатации автомобилей. Дисс... канд.техн.наук. - М., 1979. - 176 с.
4. Давлятов У.Р., Шермухамедов А., Омуров Ж.М. Разработка математической модели для обоснования параметров режима движения автопоезда при перевозке жидких грузов в горных условиях эксплуатации. / Республиканский научно-теоретический журнал «Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана», №1. - Бишкек, 2014. - С. 56-59.
5. Давлятов У.Р., Алымкулов А.Ш., Дуйшебаев С.С. Совершенствование организации и управления транспортнотехнологическими процессами. / Республиканский научно-теоретический журнал «Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана», №4. - Бишкек, 2013.
6. О.К Адилов, АУ Уролбоев Оценка Эффективности Работ По Техническому Обслуживанию Автотранспортных Средств Вестник науки, 2021
7. Бегматов, Б. Я., & Ҳамроқулова, Ш. П. Қ. (2021). Ички ёнув двигател деталларини қурум босишини текшириш. *Academic research in educational sciences*, *2*(1), 271-276.
8. Бегматов, Б., & Эшонқулов, М. (2021). Иссиқ иқлим шароитида автомобил двигателларининг ишлаш хусусиятларини аниқлаш усуллари таҳлили. *Academic research in educational sciences*, *2*(2).
9. Адилов, О. К., Кулмурадов, Д. И., & Бегматов, Б. Я. (2014). Переходные характеристики машины при скачкообразном повороте рулевого колеса. *Молодой ученый*, (20), 101-104.
10. Umirov, I. I., & Shukurov, S. A. O. G. L. (2022). Avtobus va mikroavtobus yo'nalishlarida harakat xavfsizligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish. Academic research in educational sciences, 3(2), 274-279.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE USE OF THE VIEWS OF JADID THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL COMPETENCE IN STUDENT-YOUTH

Khodjibolaeva Nozimakhon Mamurovna[1]

Fergana State University

KEYWORDS

ecology, ecological competence, ecological knowledge, ecological culture, ecological responsibility, ecological education, ecological ethics

ABSTRACT

This article reveals the socio-pedagogical necessity of the formation of ecological competence in youth, its stages, socio-pedagogical content, views of Jadid thinkers on the formation of ecological competence, and the basics of their use in the educational process today.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7182029
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Independent Researcher, Fergana State University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЭКОЛОГИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ҚАРАШЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

KALIT SO‘ZLAR:
экология, экологик компетентлик, экологик билим, экологик маданият, экологик масъулият, экологик таълим, экологик ахлоқ

ANNOTATSIYA
Ушбу мақолада ёшларда экологик компетенликни шакллантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурияти, унинг босқичлари, ижтимоий-педагогик мазмуни, экологик компетентликни шакллантиришга доир жадид мутафаккирларининг қарашлари ва улардан бугунги кунда таълим жараёнида фойдаланиш асослари очиб берилган.

КИРИШ

Мамлакатимизда экологик компетентлик ни шакллантириш орқали “соғлом миллат – соғлом келажак” миллий стратегиясини амалга ошириш кўзда тутилган. Шу боис, жамиятда экологик вазиятни соғломлаштириш ва экологик компетентлик ни шакллантириш долзарб вазифалардан бирига айланди. Бунинг учун “биз жадидчилик ҳаракати, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганишимиз керак”[1] лиги, шундай экан, жадид мутафаккирларининг қарашлари орқали “аҳолининг экологик компетентлик ини ошириш ҳақида жиддий бош қотиришимиз зарур”[2] лиги асосий вазифалардан бирига айланди.

Экология соҳасидаги интенсив тадқиқотлар унинг табиий фан сифатидаги мавқеини ўзгартирди. Бунда тирик табиат билан муҳит ўртасидаги муносабатларни инсонни қўшмай ўрганиш етарли бўлмай қолди. Биосфера ўзгаришида энг муҳим омиллардан бири бу антропоген таъсир эканлиги маълум бўлди. Айниқса, техносферанинг ривожланиши табиий жараёнларга таъсир қилиб, инсон манфаатларига мос равишда табиий муҳит элементларини сунъий муҳит билан алмаштиради. Бундай техникавий ёндошув “техницизм” — табиат инсон иродасига бўйсунади, деган антропоцентрик, қандайдир инсон эркига қарам каби қарашларга асосланган. XX аср охирига келиб инсон томонидан яратилган сунъий техносфера ер биосфераси билан таққосланганда, бунда инсон томонидан яратилган сунъий моддалар ҳажми (техномасса) табиий биомассадан анча ошиб кетган. Ҳозирги замон оламшумул (глобал) муаммолари ва янги ижтимоий–маданий детерминациялар анъанавий экологик воқеликни акс эттирувчи парадигмаларни тубдан ўзгартириб юборди.

Фалсафий адабиётларда “экологик муаммоларни муваффақиятли ҳал этиб бориш нафақат социал–иқтисодий, илмий–техникавий шарт–шароитларнинг объектив ҳолатига, шу билан бирга, инсон омили, унинг экологик онги ва дунёқарашининг ривожланганлик даражаси каби субъектив омилга ҳам кўп жиҳатдан боғлиқ”[3], деб кўрсатилган. Шунингдек, экологик дунёқарашда шахснинг

ўзига хос экологик онги, билими ҳамда кўникмаси, табиат ҳодисаларига ёндашувининг турфа хил кўринишлари ўз аксини топганлиги учун, баъзи олимлар “экологик онгга экологик ижтимоий муносабатларнинг инъикоси сифатида қарайдилар”[4].Экологик компетентликнинг даражалари экологик муносабатларнинг хусусиятлари ва уларнинг ривожланиш динамикасига мос келади. Лекин, “ўз навбатида экологик муносабатлар ҳам экологик онгнинг моддийлашув жараёнидир”[4]. Аммо бу моддийлашув жараёни объектив реалликда кишиларнинг атроф–муҳитга фаол таъсирига нисбатан муайян даражада орқада қолаётганлигини эътироф этиш зарур. Бу масалада Ю.А.Андреева таъкидлаганидек, “Кишиларнинг атроф–табиий муҳитни ўзлаштириши, уларнинг экологик онги ўсишига нисбатан илгарилаб кетмоқда”[5].

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Экологик компетентлик тушунчаси Шарқ оламида 3000 йил илгари шаклланиб келинган. Юксак бебаҳо асар “Авесто” табиатни ҳимоя этиш ва асраб-авайлашга доир энг дастлабки хужжатдир. Қадимги Шарқ олами вакилларидан Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби етук мутафаккирлар асарларида ҳам табиат неъматлари ва уларни асраб-авайлашга доир кўплаб кўрсатмалар мавжуд. Ўзбекистон Республикасида экология ва атроф-муҳит муҳофазасининг назарий асосларини А.Тўхтаев, Э.О.Турдиқулов, Б.Зиёмуҳаммедов, Ҳ.Турсунов, А.Ниғматов, Т.Эргашев, А.Эргашевлар, Ш.Т.Отабоев, Р.У.Бекназаров, Ю.Ғ.Маҳмудов, С.Х.Файзулина, Д.Ёрматоваларнинг экологик соҳадаги ҳаракатлари таҳсинга лойиқдир. Олий таълимда талабаларнинг экологик саводхонлигини тўлиқ мустахкамлаб, юксалтиришнинг долзарб эканлиги ва уларни тадбиқ этишнинг методик асосларини Ўзбекистон олимларидан Н.Бозорова, А.Маликова ишлаб чиққанлар. Экологик таълимтарбия ва маданият масалалари, фанлараро интеграллаш каби тадқиқотлар Э.О.Турдиқулов, Ш.Авазов, Н.Ў.Нишонова, Л.Худойбердиев, М.Мирбобоев, М.Нишонбоева, А.Т.Ҳайитов М.К.Ҳошимова, Б.Қултўраев, И.Исматов, В.Н.Сатторов, М.М.Ибодуллаева, Ю.Каримов, М.А.Юлдашев, Г.Султонова, Н.Ашурова, М.Б.Раҳимқулова, Шанасирова.Л.Т, Н.М.Эгамбердиева, М.Раҳматуллаева, Х.Раҳматова, П.У.Берданова тадқиқотларида акс этади.

Экологик таълимнинг назарий ва фундаментал қисми, моделлари, технологиялари, аксиологик жиҳатлари бўйича эса кўплаб тадқиқотчилар иш олиб боришган. Уларга И.Д. Зверев, А.Н. Захлебный, С.Н.Глазачев, Л.В. Моисеева, И.Н.Пономарева, Г.П.Сикорская, В.П. Соломин, О.Г.Роговая тадқиқот ишларини мисол қилиб олишимиз мумкин. Экологик психология ва педагогика соҳасида Россия тадқиқотчилардан эса: С.Д. Дерябо, А.В. Гагарин, И.Д. Зверев, Л.В. Моисеева, В.И. Панов, В.А. Ясвин, Ўзбекистон тадқиқотчиларидан А.С.Меджитова ўрганган.

Хорижий олимлардан Laleshwar Nand, Nina Roczen, Haywood Ian, Za’rour George экологик билимларни педагогик самарадорлиги ва дидактик моҳиятини очиб берган бўлса, Thomas E.Lovejoy, Eugene Pleasants Odum, F.Stuart Chapin каби эколог олимлар илмий изланишлари ва тадқиқотлари дунё экологиясининг назарий ва амалий

жиҳатдан ривожланишига хизмат қилди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Инсон табиатга нисбатан ўз муносабатларининг оқибатларини англаб олса ва антропоген таъсир туфайли табиатнинг қай даражада ўзгаришга учраганлигини аниқлаб олса, мавжуд экологик вазиятга кўрсатаётган таъсирларини кўр–кўрона эмас, онгли равишда, таъсир объектларининг ва вазиятларнинг кўплаб параметрларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширган бўлур эди. Чунки “ҳар қандай экологик вазият объектив равишда биосфера ички мувозанатларининг бузилишидан, яъни табиатга антропоген, техноген таъсирлар натижасида юзага келади”[6].

Инсонларга фақат табиат неъматларидан оқилона фойдаланиш асосларини ўргатиш билангина уларда экологик компетентлик ни тарбиялаб бўлмайди. Ёшларни табиатдан оқилона фойдаланишга, маънавий–маданий бойлик яратишга ўргатиш, шунингдек, уларга табиат фақат фойда олиш учунгина эмас, балки гўзаллик қонунларига кўра ўзгартирилишини тушунтириш ахлоқий талабларга тўла мувофиқ келади. Талаба–ёшларда экологик компетентликни шакллантириш жараёнида қуйидаги тартибларга амал қилиш мақсадга мувофиқдир.

Биринчидан, ёшларнинг ҳиссиётига таъсир этиш, улар қалбида ёшлик чоғлариданоқ табиатга муҳаббат уйғотиш лозим. Бу тарбия қанчалик эрта бошланиб, изчил ривожлантирилса, у шунчалик ижобий самара беради.

Иккинчидан, ёшлар онггида табиатни муҳофаза этиш ва у билан оқилона ўзаро таъсир масалаларида фаол ҳаётий нуқтаи назарни шакллантириш. Уни инсоннинг ахлоқий эстетик савияси даражаси тарзида тавсифлаш мумкин. Жамиятнинг ҳар бир аъзоси, бизнинг ҳозирги кунларимизда ҳам, унинг табиий муҳит ҳолатига боғлиқлиги камайиш ўрнига тобора ортиб бораётганини англаши зарур. Демак, ҳар биримиз табиатни асраб–авайламоғимиз дар–кор. Фан техника тараққиёти учун, айниқса, унинг ютуқларидан амалий мақсадларда фойдаланиш учун масъул бўлган шахслар олдида объектив талаблар турибди. Улар табиатнинг нозик жиҳатларини ҳисобга олиши, унинг мустаҳкамлик “чегараси”дан ўтиб кетилишига йул қўймаслиги, ўзига хос мураккаб ва ўзаро боғлиқ ҳодисалар моҳиятини теранроқ англаши, қайтмас жараёнларни келтириб чиқармаслик учун табиий қонунларга зид ишларни қилмаслиги керак.

Учинчидан, экологик компетентликни юксалтириш экологик таълим олишни узлуксиз давом эттиришни тақазо этади. Ёшлар билим олиши, олинган билимларини келгусида бойитиш ва ривожлантириши зарур. Шунингдек, бунда корхона ва ташкилотларда экологик компетентлик йўналишда олиб бориладиган тарбиявий ишлар ҳам катта ёрдам беради.

Нафосат тарбиясининг муҳим воситаси сифатида экологик маданият ўқувчиларни гўзалликни севиш руҳида тарбиялаш, турмуш, табиат, санъат гўзаллиги ва болаларнинг бадиий фаолиятини ташкил этишга йўналтирилган педагогик жараёнда қўлланилувчи омил ҳисобланади. Педагог олим К.Д.Ушинский

ёш авлодда табиат эстетик туйғуларнинг ривожланишига чуқур таъсир кўрсатадиган ажойиб тарбиячидир, деган эди. Табиатга бағишланган санъат асарларини ўрганиш, саёҳат, сайр, мазкур йўналишдаги анъанавий фаолиятлардир. Оламдаги гўзалликни кўра билиш, ҳис этиш лозим. Ўқитувчилар эътиборни табиат бойликларига, унинг шаклидаги мукаммалликларга қаратиш, сайр, экскурсия ҳамда мактаб тажрибавий ер майдончасида ишлаш пайтида нафосат, табиатни севиш эҳтиёжигина бўлмай, шунингдек, унга онгли муносабатда бўлишдан ҳам иборатлигини ўқувчиларга тушунтириб боришлари лозим[7].

Жадидчилик ҳаракати юзага келган даврда экология атамаси ҳали истеъмолга кириб русум бўлмаган, бутун дунё мамлакатлари муаммоларини яхлит бир ҳодиса деб талқин этишга ундаган глобаллашув жараёни юзага чиқмаган эди. Лекин реал ҳаётда ҳозир ижтимоий экология деб аталаётган долзарб масалалар мавжуд эди. Жадидчилик ҳаракатининг дастлабки даврида халқни маърифатли ва маданиятли қилиш позициясида бўлган бўлса, кейинги босқичларида ижтимоий–сиёсий шароит кўпроқ сиёсий кураш томон буриб юборди. Жадидчиликнинг кейинги босқичлари янгича кўриниш бера бошлади. Маълумки, жадидчиликдаги сиёсий дунёқарашлик ўзгаришлар маҳаллий ёшларнинг Германия ва Туркия каби давлатларга бориб ўқиб келиши натижасида ўзгарди. Уларнинг Туркистонга қайтиб келиши жадидчилик таълимотини сиёсий курашга айлантирди ва асосий позициясини мустақиллик учун кураш ва мамлакатни ривожлантиришга қаратилган эди. Ўз мақсадларида бошқарув тизимини ислоҳ қилиш солиқларни камайтириш, деҳқонлар, ҳунармандлар турмушини енгиллаштириш, амалдорлар ўзбошимчалигини чеклашда жадидларнинг аралашувини талаб қила бошлади. Бундай сиёсий талаблар ижтимоий ўзгаришни истаган халққа маъқул келди. Кейинги даврга келиб жадидчилик ҳаракатида бўлиниш содир бўла бошлади. Бу эски тарздаги жадидлар ва янгича кўринишдаги ижтимоий–сиёсий талаблар билан чиққан жадидларга ажралди. Оғир ижтимоий ҳаёт шароитида турли йўллар билан ижтимоий–сиёсий кураш олиб бориб адолат учун астойдил кураш олиб бориш уларнинг асосий мақсадига айланган эди[8].

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, биз танлаган муаммо – экологик онг ривожида жадидчиликнинг ўрни масаласига нима учундир ҳозирга қадар жиддий аҳамият берилмай келинди. Ҳолбуки, кейинги йилларда эълон қилинган тадқиқотларга қараганда, XX аср бошларида майдонга келган Туркистон жадидчилигининг фаолият доираси аста секин кенгая бориб, улар гарчи дастлаб маърифатпарварлар сифатида иш бошлаган бўлсалар ҳам, кўп ўтмасдан ижтимоий ҳаётнинг барча муҳим соҳаларига доир ижтимоий–сиёсий, иқтисодий, маънавий–маърифий қарашларини эълон қила бошладилар.

МУҲОКАМА

Тарихий тараққиёт давомида инсоният табиатни севиш, уни асраб–авайлашдан иборат маънавий–ахлоқий камолотга даъват этиб келган. Жумладан, умумжаҳон экологик маънавий тафаккур ривожига Марказий Осиёдан етишиб

чиққан буюк мутафаккирлар дунёқарашини ифодалаган экологик мавзудаги маънавий мероси ҳам бунга улкан ҳисса бўлиб қўшилганлиги тарихий ҳақиқатдир. Айниқса, Маҳмуд Кошғарий, Абу Али ибн Сино, Носир Хисрав, Аҳмад Яссавий, Юсуф Хос Ҳожиб, Умар Хайём, Абдураҳмон Жомий, Лутфий, Алишер Навоий, Бобур, Машраб, Махмур, Гулханий, Муқимий, Фурқат ва Огаҳий каби юзлаб Шарқ мутафаккирлари адабий асарларидаги теран экологик–фалсафий таълимотларининг умуминсоният маънавий мероси сифатида эътироф этилиши фикримиз далилидир.

Ижтимоий ривожланиш ва миллатни маърифатли қилиш борасидага ҳаракатларда Туркистон жадидлари бўлган Сиддиқий–Ажзий, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Хожи Муин, Сайид Ризо Ализода, Вадуд Маҳмуд, Исматулла Раҳматуллаев Абдулҳамид Мажидий каби бир қанча зиёлилар жонбозлик кўрсатдилар. Хусусан, жадид намояндаларидан Маҳмудхўжа Беҳбудий, болаларга диний ва дунёвий илм бериш билан бирга, миллат фарзандларини замонавий илм олиш учун тараққий топган мамлакатлардаги ўқув юртларига юбориш керак, деган ижтимоий ва сиёсий жиҳатдан ўта муҳим масалани ўртага ташлади. Жадидларнинг янги миллий давлатчиликни ташкил этиш, мактаб–маориф ва ўқиш–ўқитиш, тарихий ва маданий–маънавий меросга янгича муносабат руҳидаги мақола ва тадқиқотлари билан бирга, Туркистон халқларига аждодлари томонидан мерос бўлиб қолган она Ватан, унинг бебаҳо сув ва тупроғи, мусаффо ҳавоси, табиий бойликларини асраб–авайлашга доир фикр–мулоҳазалари ифода этилган илмий–публицистик, педагогик, бадиий асарлар ҳам яратилди. Бу йўналишдаги асарлар, табиийки, ўтган аср бошларида бошланган миллий уйғониш жараёнида маърифатчилик ҳаракатининг нечоғлик катта ва салмоқли куч сифатида майдонга чиққанини кўрсатади. Жадид намоёндалари ўз халқининг зиёли ва фидойи фарзандлари сифатида ижтимоий ҳаётда тобора марказий ўринни ишғол қилаётган “руслаштириш” сиёсатига, шунингдек, Туркистон ўлкаси учун илгари синалмаган техникавий тараққиёт, янгича ишлаб чиқариш усуллари ва воситаларининг жамият ва табиатга таъсири, бу таъсирнинг ижобий ва салбий оқибатлари, техник тараққиёт ва унинг истиқболи, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш сингари давр кун тартибига кўтарган долзарб масалаларга бефарқ қараб турмадилар.

Инсоннинг экологик тафаккур тарзи у яшаб турган минтақанинг табиий–географик шарт–шароитига, турмуш маромига ва мавжуд жамият кишиларининг табиат тўғрисидаги дунёқараши ҳамда унга бўлган муносабатлари билан узвий боғлиқдир. Жадидчилик ҳаракати ва унинг етук вакиллари томонидан атроф–муҳит, табиатга оқилона муносабатни шакллантириш, табиатни асрашга доир қарашлари, миллий табиат бойликларидан оқилона фойдаланиш, авайлаб–асраш ўрнига уни талон–торож этиш сиёсати қўллангани ҳақли равишда қораланганини алоҳида таъкидлаш лозим. Мустамлакачилар юритган “ташиб кетиш” сиёсатининг ҳалокатли оқибатлари, атроф–муҳитга етказилаётган зараралар, бир кун келиб унинг асоратларини бартараф этиш мушкуллиги, ер–сув заҳираларидан колониал мақсадларда фойдаланиш тенденцияси жадидлар назаридан четда қолмаган.

Масалан, 1903 йилда “Туркистон вилоятининг газети” саҳифаларида ёзилишича, пахта майдонларининг йилдан–йилга кенгайиб бориши натижасида пахта монокультураси содир бўлган. Ем–хашакнинг танқислиги оқибатида чорвачилик инқирозга учраб, чорва молларининг сони йилдан–йилга камайиб,деҳқонлар қорамолларга озуқа етишмаслигидан қишга яқин вақтда уларни сотишга ва баҳорнинг бошларида чорва молларини сотиб олишга мажбур бўлганлар. Ўша даврга оид архив материалларининг тасдиқлашича, бу даврда ем–хашак экинларининг нархи 100 фоизга ҳамда чорва молларининг нархи 50 фоизга ошиб кетган[9]. Бу ҳам табиатга нооқилона муносабтнинг маҳсули ва атроф–муҳитни асраб авайламаслик натижаси эканлиги маълум бўлади.

Жадид мутафаккирлари томонидан миллий матбуот саҳифаларида тупроқ унумдорлигини ошириш учун кўрилган чоралар кенг муҳокама қилинган. Хусусан, “Садои Туркистон” газетасида ернинг ҳосилдорлигини оширишни истаган зироатчилар ўз билимларини оширишлари, махсус китоблар мутолаа қилишлари лозимлиги таъкидланади, хусусан, Рауф Музаффарзоданинг “Садои Туркистон” да 1914 йилдаги 14–сонида босилган “Тупроқ надур?” мақоласида “Ернинг ўстириш қувватини орттирмоқ учун солинадиган нарсалар бордур” деб таъкидланади[9]. Умуман, тупроқ унумдорлигини ошириш учун ўғитлар сифатини яхшилаш, табиий чиқиндилар билан бирга сунъий ўғитларни ҳам қўллашга ҳаракат қилингани бўйича тажрибалар ўтказилгани маълум бўлади. Албатта, жадидчилик олдинга сурган асосий ғоялар маърифатпарварлик ва миллий истиқлол бўлиб, улар бу ғояларни рўёбга чиқариш учун фидокорларча курашувчи инсонлар эканликларини ҳам амалда, ҳам илм–фанда ва маданий баҳсларда кўрсата олдилар. Улар яшаган даврда экологик маданият масалалари жиддий тус олмаган, табиат ва инсон ўртасидаги зиддиятлар кескинлашмаган, техникавий тараққиёт ижтимоий–глобал муаммоларни кун тартибига қўйиб улгурмаган эди. Бироқ жадид публицистикаси, адабиёти ва педагогикасида экологик тафаккурнинг XX аср бошларига хос ҳукм–хулосалари, яқин йилларда табиат билан инсон ўртасидаги муносабатларда юзага келадиган муаммолар тўғрисида муайян кузатишлар мавжуд. Огоҳликка даъват каби жаранглаган бу мулоҳазалар кейинги тарихий тараққиёт босқичларида ўз ҳаётий тасдиғини топди.

Маълумки, инсон саломатлиги тиббий маданиятнинг жамиятда қандай мавқега эгалиги билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бу масала айни пайтда экологик маданият билан ҳам узвий алоқадорликда юзага келади. Ер, сув тозалиги, ҳаво мусаффолиги атроф–муҳитнинг қай даражада яшаш учун яроқлилигини белгиловчи муҳим омиллардир. Бу жиҳатдан, жадидлар ўзлари яшаган даврнинг тиббий билимлар соҳасини ҳам ўзгача руҳ ва курашчанлик билан ислоҳ этишга интилганини кузатишимиз мумкин. Бу даврда тиббий маданиятнинг асрлар бўйи давом этиб келган анъанавий кўринишлари, услуб ва усулларидан кенг фойдаланилганини таъкидламоқ лозим. Халқ табобати яхши ривожланган. Бироқ касалхоналар, даволаш масканларининг камлиги ёки мунтазам ишламаслиги,

касалликлар тарқалишининг олдин олишга ҳамда касаллик пайдо бўлишининг сабабларини аниқлашга астойдил ҳаракат қилинмаслиги оқибатида халқ орасида айрим юқумли касалликлар кўп одамнинг ёстиғини қуришига сабабчи бўлар, чекка қишлоқларда тиббий маданият даражаси бирмунча паст эди. Аҳолига тиббий ёрдам кўрсатиш масалалари, гарчи даврий матбуот саҳифаларида тез–тез тилга олинса ҳам, аслида вазият анча мураккаб бўлган. Мустамлакачиликнинг олисни кўзлаб юритган сиёсатига кўра 1882 йилдан бошлаб Тошкент шаҳри ва кейинчалик Туркистоннинг бошқа шаҳарларида маҳаллий аёллар учун амбулаториялар ташкил этилган. Ёрдам сўраб мурожаат қилган аёллар ва болаларга бепул ёрдам кўрсатилган, шунингдек, дорилар, сув муолажалари, оддий операция ва яраларни боғлаш ишлари учун ҳам маблағ олинмаган[9].

Жадид мутафаккирларидан бири бўлган Абдурауф Фитратнинг 1914 йилда ёзилган “Оила” китобини яратишдан мақсади янада олижаноброқ бўлган. Жадидларнинг фикрича, жамиятни ва онгни ислоҳ қилиш аввало оиладан бошланади. Яъни оила асосини тўғри қурмасдан, ёш авлодни тўғри йўлда тарбияламасдан туриб жамият ислоҳотидан сўз очиш, унинг ривожини тараққиёт сари йўналтириш мумкин эмас. Фитрат ана шу ғояни бош мезон қилиб олади. У ёзади: “Ҳар бир миллатнинг саодати ва иззати, албатта, шу халқнинг ички интизоми ва тотувлигига боғлиқ. Тинчлик ва тотувлик эса, шу миллат оилаларининг интизомига таянади. Қаерда оила муносабати кучли интизомга таянса, мамлакат ва миллат ҳам шунча кучли ва муаззам бўлади.”[10] Муаллиф бу мулоҳазалар билан кифояланмай, жамиятда оила заруратини чуқур таҳлил қилади. Икки жинснинг ихтиёрий иттифоқи бўлган оиланинг инсон наслини давом эттиришдаги бетакрор роли ва аҳамиятидан, оила тарихидан сўз очади,“... оиланинг шаклланиши, яъни аҳли байт жамоаси, бошқача айтганда оила бошқаришга асос солиш Бани Одам маданиятининг асоси”, оила саодати ва бахти учун қабул қилинган энг мақбул қонунлар исломий қонунлар деган хулосага келади”[10].

Фитрат оиланинг муваффақиятли ҳаёт кечириши, оила иттифоқи, ундаги эр–хотин муносабатларининг маънавий–руҳий хусусиятлари хусусида фикр юритар экан, юзага келадиган барча зиддият ва келишмовчиликларнинг асосий сабаби муҳаббатсизлик эканини таъкидлайди.

Муаллиф мазкур фикрини асослаш мақсадида ўзи яшаётган даврнинг муҳим ижтимоий–сиёсий статистик маълумотларига мурожаат қилади, яъни 40 миллион инглизнинг 400 миллион ҳиндий ва африкаликлар устидан ҳукмронлик қилаётгани, Чин ҳукумати 400 миллион аҳолиси билан 40 миллион японнинг ҳийла–найранги ўйинчоғига айлангани, 60 миллион олмонлар иккита заиф давлат (Австрия ва Туркия) ни “ёнларига олиб” аҳолиси 750 миллионга тенг келадиган етти давлат билан уруш қилаётгани каби муҳим фактларни келтиради. “Кишининг назарида ажиб ва ғаройиб кўринадиган бу воқеалар, –дейди муаллиф, – тарбия таъсиридандир, зеро болаларнинг тарбияси бу фарзандни жисмонан, фикран ва ахлоқан тарбия қилиб, камолга етиштириш демакдир.”[10]

Бироқ миллатдошларимиз фарзандларини тарбияламоқдаларми? Характерли жойи шундаки, муаллиф саволни “қандай тарбияламоқдалар?” эмас, балки “тарбияламоқдаларми?” тарзида қўяди ва бири биридан кескин хулосалар чиқаради: “Биз туркистонликлар болаларимиздан кўра молларимизга яхшироқ қараймиз. Эшак ва қўйларимизни фарзандларимиздан ҳам кўпроқ яхши кўрамиз деб айтмаяпман. Йўқ–йўқ, болаларимиз жонимиздан ҳам азиз. Улар назаримизда ҳаммадан суюкли ва азиз. Лекин бахтимизга қарши шуни эътироф қилиш лозимки, шунча муҳаббат ва меҳрга қарамасдан, эшак ва қўйларимиздан камроқ тарбиялаймиз.”[10] Фитрат ушбу фикрни атрофлича асослаш мақсадида қизиқ бир қиёсий далил келтиради. Унинг фикрича, тарбия деганлари бирон–бир нарсани аста–секин камолга етказиш бўлса, қўйнинг камоли унинг семизлиги ва соғломлигидир.“Далил шулким, кимнинг уйида моли бўлса, текширса кўрадики, йил давомида унинг молларидан биттаси ҳам касал бўлмаган, аммо фарзанди ҳеч бўлмаса, уч марта хасталикка чалинган. Бас, маълум бўладики, у киши молининг касал бўлмаслигига кўпроқ эътибор берар экан.”[10]

Бироқ ҳаммага аёнки одам камоли фақат соғлик ва куч–қувватли бўлишдан иборат эмас. Боланинг тарбияси доирасига унинг ақлан, жисмонан ва ахлоқан соғлом бўлиш ҳам киради. Яъни Фитрат сўзлари билан айтганда “Одамнинг жисми, ақли ва ахлоқи турли касаллик ва нуқсонлардан узоқ бўлиши лозим.” Лекин бу санаб ўтилган уч жиҳатга кўра бенуқсон бўлган одамни тарбиялаш осонми? Муаллиф мазкур саволга аниқ жавоб топиш мақсадида Бухорои шариф деб мақтови кўкларга кўтарилган она шаҳри кўчаларида шундай бир тажриба ўтказади: уйидан чиқиб катта йўл билан Девонбеги ҳовузининг лабига бориб, бошқа йўл билан уйига қайтиб келади. Йўлда ўз кўзи билан кўрган одамларига разм солади. Уларнинг жисмонан соғлиги, ақли–ҳуши жойидалиги, ахлоқ–одобига баҳо беради. Ўз ўқувчисини ҳам ана шу ғойибона саёҳатга таклиф этган муаллиф шундай ҳикоя қилади: “Бу саёҳатимиз бир соат давом этди. Ана шу саёҳатимиз давомида диққат қилган бўлсангиз, йўл–йўлакай ўттиз–қирқта сил касал, йигирма–ўттизта тепакал, ўн–ўн битта кўр, соқов, шунча оқсоқ, камида тўрт–беш шол ва песни учратдик. Қолганлар сизнингча соғ–саломат эдилар, яъни ҳарқандай хасталикдан озод эдилар. Лекин менинг назаримда улар ҳам ҳар хил касалликларга чалинган эдилар. Ранглари ўчган, қоматлари эгик, таналари нотавон, икки юз қадам йўлни оҳ–воҳ билан босардилар. Узоққа бормайлик, иккаламиз ҳам бир соатлик саёҳатимиз чоғида анча чарчадик. Ҳозир аъзои баданларимиз оғримоқда. Хуллас, халқимизнинг соғлиғи шу даражада”[10].

ХУЛОСА

Хулоса қилганда, “бугунги кунда одамларда экологик билимларнинг етарли эмаслиги, баъзиларда умуман йўқлиги билиниб қолмоқда. Кўпчилик экологик муаммолар мавжудлигидан хабардор, баъзилар кечиктириб бўлмас қарорлар қабул қилиш кераклигини, атроф–муҳитни муҳофаза қилиш йўлида туб бурилиш зарурлигини талаб қилишса, бошқа тоифадаги одамлар буни кераги йўқ деб ўйлашади.”[11] Айнан шу масалада экологик дунёқарашнинг функционал аҳамияти

кўзга ташланади. Яъни, экологик муаммоларга шундай зиддиятли муносабатга, кишилар руҳиятида сақланиб қолаётган табиатга нисбатан технократик, утилитар, меркантил ёндашув кайфиятларига барҳам бериш учун ҳар бир шахсда экологик дунёқарашни янада бойитиш йўллари ва имкониятларини излаб топиш зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент.: Ўзбекистон. –Б. 37.

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент.; Ўзбекистон, 2017. Б-592.

3. Жибуль И.Я. Экологические потребности: сушность, динамика, переспектива. Минск: Наука, 1991. -С. 123.

4. Абдуллаев Э. Экологические отношения и экологическое сознание. Тошкент: 1990. –С, 219.

5. Андреева Ю.А. Человек, природа, общество в современной прозе. Москва.: 1981. –С. 47.

6. Исамуҳамедов Х. Мамашокиров С. Экологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Тошкент: 1999. –Б. 27-28.

7. Азимова С.Т. Талабаларда экологик маданиятни шакллантиришнинг муҳим хусусиятлари. Замонавий таълим / современное образование 2014, 11. –Б. 33.

8. Ашурова Х.С. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари(XX асрнинг биринчи чораги). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати -Тошкент: ЎзМУ, 2020. –Б. 13.

9. Шодмонова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида, Тошкент: Янги нашр. – Б. 78.

10. Абдурауф Фитрат. Оила. Тошкент:Маънавият, 2000, -Б. 8.

11. Ашрапов М. Экологик дунёқараш. //Ўзбекистон экология хабарномаси 2005, №3, (54), -Б. 29.

12. Siddikov, I. (2021). Gender Management Issues In Modern Pedagogy In Educational Institutions.

12. Bakhromovich, S. I. The Phenomenon Of Management And Leadership Personality In The Views Of Oriental Scholars. Chief Editor.

13. Siddikov, I. B. (2021). Modern Models Of Providing Autonomy Of Higher Educational Institutions (Analysis Of Foreign Countries Experience). Current Research Journal of Pedagogics (2767-3278), 2(05), 25-31.

14. Bakhromovich, S. I. (2021). Development Trends And Transformation Processes In Academic Mobility In Higher Education In Uzbekistan And The World.

15. Bakhromovich, Siddikov Ilyosjon, And Maxamadaliev Lutfillo. "Development Of Ecological Culture In Students In The Process Of Education Of History Of Uzbekistan. European Journal of Humanities and Educational Advancements 2 (5), 103-107

16. Siddikov, I. (2021). Traditions Of Philosophy, Fiqh And Philosophy In The Theological Views Of The Middle East. Interconf.

17. Bakhromovich, S. I. (2021). Factors Of Introduction Of Principles Of Institutional Autonomy To The Management Process Of Higher Educational Institutions. Berlin Studies Transnational Journal Of Science And Humanities, 1(1.5 Pedagogical Sciences).

18. Siddikov, I. (2021). Epistemological Significance Of Medieval Culture Of Islamic Intellectual Activity. Interconf.

19. Bakhromovich, S. I. (2021). Views On The Role Of Science In Human And Society Life In Islamic Teaching. International Journal Of Philosophical Studies And Social Sciences, 1(3), 79-86.

20. Bakhromovich, S. I. (2018). Social AndPhilisophical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. European Science Review, (7-8).

21. Siddikov, I. (2021). Epistemological Significance Of Medieval Culture Of Islamic Intellectual Activity. Interconf.

22. Siddiqov, I. (2022). Dialectical And Synergetic Features Of The Development Of Theological And Epistemological Views In Medieval Eastern Islam.

23. Siddiqov, I. B. (2022). Mutual Synthesis Of Medieval Islam Gnoseology And Theology.

24. Siddiqov, I. B. (2018). Social And Philisophical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. European Science Review, (7-8), 296-298.

25. Bakhromovich, S. I. Social And Physical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. July–August, 289.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE MAIN ASPECTS OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Sharipov Abror Anvar ugli[1]

Ministry of Higher and Secondary-Specialized Education of the Republic of Uzbekistan

KEYWORDS

digital technologies, innovation, information and communication technologies, digital technologies, distance learning, electronic education

ABSTRACT

This article analyzed the process of digitization of modern education. The relevance of the study is determined by the special role of education in the life of modern society, which is based on the principles and values of the post-industrial period. The quality of human potential, and the willingness of people to face natural and social difficulties largely depend on the effectiveness of the educational system.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7183879
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Leading expert, Ministry of Higher and Secondary-Specialized Education of the Republic of Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ASOSIY JIHATLARI

KALIT SO‘ZLAR:
raqamli texnologiyalar, innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, masofali o'qitish, elektron ta'lim

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limni raqamlashtirish jarayoni tahlil qilgan. Tadqiqotning dolzarbligi ta'limning zamonaviy jamiyat hayotidagi alohida roli bilan belgilanadi, bu postindustrial davr tamoyillari va qadriyatlariga asoslanadi. Inson salohiyatining sifati, odamlarning tabiiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga dosh berishga tayyorligi ko'p jihatdan ta'lim tizimining samaradorligiga bog’liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari va raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari negizida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul rahbarlarini o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar belgilangan [1].

Shu nuqtai-nazardan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim samaradorligini oshirish, ta'limning yuqori sifat darajasida o'quv mashg'ulotlarini o'tishni ta'minlash, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini mustaqil nazorat qilish imkonini yuzaga keltirish, bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborotni mustaqil o'rganishning turli uslublarini qo'llash, o'quv materiallarni o'rganish vaqtini tejash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida

IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish kabi bir qator mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda innovatsiya va axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqot metodologiyasining ushbu mavzu uchun eng maqbul deb topilgan usullari qo‘llanilgan.Raqamlashtirishning ijobiy salohiyatini aniqlab, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonlarini loyihalashda ko‘plab variantlarni taklif qilishini ta’kidlaymiz. Shu bilan birga, raqamlashtirish orqali shakllantirilgan ta’lim maydoni universallik xususiyatlariga ega. Norasmiy takliflarning xilma-xilligi va ulardan ta'limda foydalanish imkoniyati hozirda juda katta. Virtual va real ta'lim komponentlarining kombinatsiyasi o'qituvchilarga bilimlarni bevosita va bilvosita uzatish imkonini beradi. Ushbu yondashuvning o'ziga xos xususiyati shundaki, siz ushbu usullardan foydalanishingiz va ularning kamchiliklaridan qochishingiz mumkin. Raqamli vositachilik (videolar, slaydlar,

simulyatsiyalar va boshqalar) yordamida o'quvchilar ko'proq erkinlikka ega bo'lib, masalan, taqdimot tadbirlarida boshqa o'quvchilar va o'qituvchi bilan rol almashish imkonini beradi. Fikrimcha, raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi insoniyat taqdirida yangi bosqichni boshlab beradi. Bugungi kunda texnikaning roli nihoyatda ortib borishi va inson hayotida ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tashabbuskori va dvigatelining oldingi rolini yo'qotmoqda. Yangi ijtimoiy-texnologik hayot tarzi insonni innovatsion texnologiyalarsiz har qanday narsani hal qilish qobiliyatidan mahrum qiladi va hatto tashqi ko'rinishi ham nazoratdan chiqib ketadi. Shubhasiz, bu jarayonlar insoniyatni ma'lum bir chiziqqa olib keladi, uning orqasida allaqachon tubdan yangi dunyo chizilmoqda, uning asoslari bugun bizdan chuqur tushunishni talab qiladi. Raqamlashtirish, o‘z mohiyatiga ko‘ra, eng avvalo, inson faoliyatining turli sohalarida samarali foydalanishni ta’minlash, yangi muloqot va kognitiv imkoniyatlarni shakllantirish uchun muhim axborotni raqamli shaklga o‘tkazishni nazarda tutadi. Bu imkoniyatlarni kengaytirgan holda, raqamlashtirishning o'zi allaqachon yangi inson yashash joylarini yaratmoqda - raqamli, texnologik, reallikdan farqli, lekin o'zini yanada mukammal o'rnini egallashga da'vo qilmoqda. Global raqamlashtirish zamonaviy jamiyat madaniyatining yangi turini - raqamli madaniyatni shakllantiradi, bu texnologik innovatsiyalar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga va ularning yordami bilan tegishli kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga tayyor bo'lish yo'nalishi bo'yicha kasbiy ta'lim tizimini va modernizatsiya qilishni talab qiladi. Raqamlashtirish, V.G.Xalin va G.V.Chernov, agar u faqat uning natijalaridan samarali foydalanish bilan birga bo'lsa, samarali jahon taraqqiyotining tendensiyasi deb hisoblanishi mumkin. Zamonaviy ilm-fanning eng muhim vazifasi - bu hodisaning bir qarashda ko'rinadigan darajada aniq bo'lmagan ijobiy tomonlarini aniqlashdir.

Shunday qilib, ta'limni raqamlashtirish tajribasini tavsiflab, D. Kross ta'kidladi: "Biz o'qituvchilarni o'quv jarayonidan olib tashlashimiz va o'quvchilarning mustaqil harakat qilishiga imkon berishimiz mumkin deb o'yladik. Biz xato qildik. Elektron ta'lim tizimlarining birinchi avlodi muvaffaqiyatsiz yakunlandi ” [2]. Kasbiy ta'limda qo'llanila boshlangan raqamli o'yinlar orqali o'qitish shakllari zamonaviy mutaxassisning muhim shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ijobiy ahamiyatga ega. O'yin simulyatsiyasi sizga o'quv profiliga muvofiq sinflarda haqiqiy hayotiy vaziyatlarni takrorlash imkonini beradi. Albatta, ta’lim jarayoniga joriy etilgan raqamli texnologiyalar axborotni samarali qidirish va qayta ishlash, “masofaviy” aloqaning yangi shakllari, o‘rganilayotgan yoki o‘rganilayotgan narsa va jarayonlarni vizuallashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Zamonaviy ta’lim jarayonining voqeliklari shundan iboratki, ta’limning asosiy xususiyati jahonda kechayotgan integratsiya jarayonlari va jamiyat hayotining turli sohalarida davlatlarning o‘zaro ta’siri tufayli uning globalligidir. Shunday qilib, ta’lim rivojlangan mamlakatlardagi milliy ustuvorliklardan jahon ustuvorliklariga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Jamiyatning turli sohalarida texnologiyalarni joriy etish har doim o'zgarishlar bilan birga keladi, chunki yangi va eski (an'anaviy) to'qnash keladi. Shunday qilib, innovatsiyaga "ijodiy yo'q qilish" va ayni paytda yaratilish jarayoni sifatida qarash kerak. Shu munosabat bilan texnologik taraqqiyot va ishlanmalar muqarrar ravishda har xil

ziddiyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. E'tibor bering, raqamlashtirish siyosatining o'zini amalga oshirishda ham, uning kengayishining zamonaviy jamiyat hayoti va ilm-fanida oqibatlarida ham ko'plab muammolar mavjud. Ulardan biri, masalan, "texnologiya" tushunchasining o'zi dastlab gumanitar sohada emas, balki faqat ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan qo'llanilganligi bilan bog'liq.

Bizning tadqiqotimiz ta’lim sohasini raqamlashtirishni xolisona tahlil qilishga urinishni amalga oshirdi va mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning qator muammolari va istiqbollarini aniqlash imkonini berdi. Raqamli inqilobni "qo'llab-quvvatlovchi" dalillar orasida biz mehnat bozoridagi tub o'zgarishlarni, yangi vakolatlarning paydo bo'lishini, hamkorlikni yaxshilashni, fuqarolarning mas'uliyatini oshirishni, ularning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini ajratib ko'rsatamiz; ta'lim jarayonlarini o'zgartirish, ma'lumot izlashda talabaning rolini oshirish va muammolarni hal qilish, muloqot qobiliyatlari va ijodkorlikni rivojlantirish; iqtisodiy samaradorlik, vaqt va geografik chegaralarning yo'qligi, o'qituvchining ishini individuallashtirish, optimallashtirish imkoniyati. Biroq, chuqurroq o'rganib chiqqach, bu dalillarni unchalik aniq talqin qilish mumkin emas.

Milliy ta’limni takomillashtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o‘rni yildan-yilga ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta’limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta’limni ilm-fanga olib borishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar ta'lim faoliyatiga mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek ularning jamiyat va alohida ijtimoiy guruhlarga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ta'limni raqamlashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning juda dolzarb yo'nalishi bo'lib ko'rinadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ta'lim sohasidagi asosiy muammolarni aniqlash va raqamlashtirish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy bilish dialektikasi, falsafiy, sotsiologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni sintez qilish va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ta'lim tizimini raqamlashtirishni rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat: instrumental - ta'lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta'minot, ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlaydigan axborot tizimlari, axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish, onlayn ta'lim, o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarni o'zgartirish va talabalar, yangi tashkiliy ta'lim tuzilmalarining shakllanishi, o'qitishning odatiy shakllari va usullarining muqarrar o'zgarishi, qadriyat-semantik, milliy tarbiyaning eng yaxshi an'analari bilan uyg'un birlikni topish.

Jamiyat uchun raqamlashtirishning xavf-xatarlari ta'lim, keyin esa boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarning insoniylashuvi, odamlarning intellektual madaniyati inqirozining mumkin bo'lgan chuqurlashishi, ularning yaratish qobiliyati, shaxsiy qadriyatlarga asoslangan pragmatizm va individualizmning kuchayishi bilan bog'liq. Mahalliy ta’lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning yaqin istiqbollari uchta belgilovchi yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: birinchidan, ta’lim muassasalarini yuqori sifatli

dasturiy ta’minot, ta’lim resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari bilan jihozlash; ikkinchidan, talaba va o‘qituvchining bilvosita o‘zaro hamkorligini nazarda tutuvchi axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish; uchinchidan, ta’lim faoliyatini tashkil etish va o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi onlayn muloqotni tashkil etish imkonini beruvchi onlayn ta’lim (e-learning). Albatta, raqamlashtirishning rivojlanishi pedagoglar va talabalarga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartiradi, yangi tashkiliy ta’lim tuzilmalarini shakllantirishni rag‘batlantiradi. Raqamli ta'lim formatlarini joriy etish, shu bilan birga, ta'lim arxitekturasida murakkab o'zgarishlarni, o'qitishning odatiy shakllari va usullarida muqarrar o'zgarishlarni nazarda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilishimiz mumkinki, mahalliy oliy ta’limni modernizatsiya qilish muqarrar, u zamon bilan hamnafas bo‘lib bormoqda, ammo innovatsiyalar xavfini hisobga olish va isbotlangan an’anaviy ta’lim texnologiyalaridan voz kechmaslik zarur.Rossiyada samarali ta'lim muhitini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning muhim roli shubhasizdir, chunki ulardan foydalanish bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirishga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va mustaqil fikrlash. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta’lim faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlashning asosiy shartidir. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida jamiyat uchun yangi xavf-xatarlar paydo bo'lishini unutmaslik kerak. Albatta, zamonaviy ta'lim muhitini amaliy o'zgartirishda ilmiy tahlil va mavjud tajriba bilan taqdim etilgan ularning o'ziga xosligini hisobga olish kerak.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Axromeeva T.S., Malinetskiy G.G., Posashkov S.A. Raqamli haqiqatning ma'nolari va qadriyatlari: kelajak. Urushlar. Sinergetika // Falsafiy fanlar. 2017 yil. 6-son. S. 104-120.

2. Бодрийяр Ж. Джим в тени большинства или конец общества. Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2000. 96 с.

3. Буданов В.Г. Новые технологии цифровой жизни – перспективы и риски изменений антропосферы // Философские науки. 2016. № 6. С. 47-55.

4. Дубровский Д.И. Электронная культура. Кто против? // Философские науки. 2017. № 2. С. 50-57.

5. Иванова В.П., Еременко В.В. Интеллектуальная культура цифрового общества // Цифровое общество как культурно-исторический контекст развития человечества: сборник научных статей / общ. изд. Р.В. Ершова. Коломна: Государственный социально-гуманитарный университет, 2016. С. 151-155.

6. Ильин И.А. Я смотрю на жизнь: Книга медитации. М.: Эксмо, 2007. 526 с.

7. Кутырев В.А. О судьбе управления и права в цифровом обществе // Вестник Нижегородской академии МВД России. 2019. Номер 1 (45). С. 278-281.

8. Луман Н. Правда СМИ. М.: Праксис, 2005. 256 с.

9. Маклюэн М. Галактика Гутенберга: Становление принтера / пер. И О. Тюрина. Эд. 2. М.: Академический проект; Gaudeamus, 2013. 496 с.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

RELATION TO THE REALITY OF THE PAST IN THE HISTORICAL NOVEL "AHMED YASSAVI" BY SADULLA SIYOYEV

Azimova Fotima Yashinbek qizi[1]

Andijan State Pedagogical Institute

KEYWORDS

historicity, Sufism, saint, murid, pir, artistic creation, space and time, realistic image

ABSTRACT

This article discusses the principles of historicity of the Uzbek novelist and the issue of reference to him in his works. Basically, the interpretation of the historical person was considered on the example of the novel "Ahmad Yassavi" by Sadulla Siyoyev.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7184946
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Andijan State Pedagogical Institute, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

SA'DULLA SIYOYEVNING "AHMAD YASSAVIY" TARIXIY ROMANIDA O'TMISH VOQELIGIGA MUNOSABAT

KALIT SO'ZLAR:
tarixiylik, so`fiylik, avliyo, murid, pir, badiiy to'qima, makon va zamon, realistik tasvir

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada o`zbek romanchilining tarixiylik prinsiplari va unga asarlardagi murojaat masalasi haqida fikr yuritilgan. Asosan, Sa`dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" nomli romani misolida tarixiy shaxs talqini ko`rib chiqilgan.

Tarix mashhur shaxslar, hayratli voqealar, turli-tuman hodisalarga juda boy. Ajdodlarning shonli hayoti, ular bilan bog`liq voqealarning sirli tafsilotlari barchani ohanraboday o`ziga chorlab, hayollariga erk berishga undaydi. Shunda ayon bo`ladiki, tarix o`zni, o`zlikni idrok etishning asosi, uning mushohadasi esa zamonani anglash va kelajakni tasavvur qilishning kaliti ekan.

O`zbek romanchiligini yaxlit holda olib ko`zdan kechirsak, shunga amin bo`lamizki, tarixiy mavzudagi asarlar qaysidir ma`noda ularning o`zagini tashkil qiladi. Chunki, tarixiylik nafaqat jahon nasri, balki, o`zbek milliy nasri, jumladan romanchiligining asosiy adabiy-estetik prinsiplaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarda tarixiylik prinsiplarining namoyon bo`lishida tarixiy shaxs, makon va zamon, davr va qahramon munosabati kabi ko`plab masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida aytganimdek, tarixiy asar tarixiy voqealarni qayta jonlantirib, kitobxonni o`z davridan olislarga olib ketadi. Biroq tarixiy asarlarda o`tmishda yuz bergan voqea-hodisalar hikoya qilinsa-da, u hamisha zamon xizmatida bo`ladi.[2]

Istiqlol davri voqealarni to`g`ri anglash va to`g`ri yoritish, tarxiy shaxslarni esa davr siyosati, mafkurasi nuqtayi nazaridan emas, hayotiy haqiqat hamda tarixiy jihatdan haqqoniy inkishof etish imkonini berdi. Bu yangi davr romanchiligi haqida so`z borar ekan, avvalo, uning mavzu doirasi kengaygani, haqqoniylik chuqurlasha borganini alohida qayd etish lozim. Bu davrda xalqning uzoq va yaqin o`tmishi haqida "Movarounnahr" (Mirmuhsin), "Ibn Sino", "Beruniy" (Maqsud Qoriyev), "Sarbadorlar", "Ulug` saltanat" (M. Ali), "Ahmad Yassaviy" (Sa`dulla Siyoyev), "Mahmud Torobiy", "Pahlavon Muhammad" (Asad Dilmurod), "Shahidlar shohi" (X.Davron), "Xayyom" (Nabi Jaloliddin) kabi romanlar yaratildi. Bu asarlarning ko`pchiligi tarixiy-biografik material asosida yozilgan. Zero, bu asarlarda Amir Temur, Beruniy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Muhammad singari mashhur tarixiy shaxslar obrazi markaziy o`rinda turadi va ular realistik bo`yoqlarda yangicha talqin etiladi.

Sa`dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" nomli romani ham haqqoniy tarixni yoritgan asarlar sirasiga bemalol kiradi. Bu muborak zotning qanday tarixiy sharoitda o`sib-

[2] Mirvaliyev S. Tarixiylik va zamonaviylik. –Toshkent, 1979

ulg`ayishi, qay tariqa shunday yuksak cho`qqilarga ko`tarilishi, islom va tasavvuf olamidagi dovrug`i haqida, uning nafaqat olim, shoir, ayni vaqtda inson sifatidagi fazilatlari, ichki dunyosi haqida Sharq davlatlari bilan birga olis Yevropadagi bir necha davlatlarda bundan necha yillar avval ko`plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani yaxshi ma`lum. Bizda ham, umuman turkiy xalqlarda ham Ahmad Yassaviy hayoti , u asos solgan yassaviya tariqati, shuningdek uning hikmatlari o`rganilib, ilmiy maqolalar, kitoblar e`lon qilingan. Ammo Sa`dulla Siyoyevning " Ahmad Yassaviy" romani o`zbek adabiyotida Yassaviy hayotida oid yirik izlanishlardan biridir, tarixiy-badiiy asardir. Lekin asarni yozish uchun azaldan ahd qilgan muallif uni yozish uchun fursat poylashga majbur bo`ladi. Bu haqida o`zi shunday deydi: " Yillar o`tib borar, lekin Parpi bobo aytgan zamon kelay, demasdi. Aksincha, Yassaviyni "mistik", "tarkidunyochi" deguvchi "mallayevchi"larning omadi chopgani chopgan edi. Mening hayolimda - Shayx ul-mashoyix Ahmad Yassaviy timsoli…"[3]

Har bir hikmati so`fiyona ruhda yozilgan, olam va odam taqdirini chuqur mushohada qilgan, odamlarni haqiqat va ma`rifat yo`liga chorlagan, ulkan davlatning gullab-yashnashiga beqiyos xizmatlari singgan bu ulug` siymoning keng miqyosdagi o`y-fikrlari, muridlariga bergan oltin maslahatlari, hayot va kurash tajribasi, ba`zan dardli va iztirobli kechinmalari, go`zal sabr-u mushohadasi bilan sug`orilgan bu asarda qanchalar teran ma`no mujassam ekanini ziyrak kitobxon darhol anglashi shubhasiz. Ahmad Yassaviy garchi buyuk shayxul mashoyix, avliyo darajasidagi inson bo`lsa-da, romanda u avvalo inson sifatida tasvirlanadi. Voqealar rivojlangani sari ijodkor turfa voqealarni tasvirlash orqali Yassaviyni barcha sohalar yetakchisi sifatida tasvirlaydi. Muridlariga turli masalalarda maslahatlar berish bilan birga, hatto saltanat ishlarida ham davlatni oqilona boshqarish, o`ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to`g`ri yo`l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati, valiylik karomati har qanday odamni hayratga soladi.

Muallif Ahmad Yassaviy qiyofasini o`sha davrdagi hayot haqiqatlariga mos holda ifodalaydi. Bular adibning tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish uchun jiddiy izlanishlar olib borganligidan dalolat berib turibdi. Sa`dulla Siyoyev o`z romanida Ahmad Yassaviyning tashqi qiyofasini emas, ichki dunyosini, ruhiyatini ochib berish uchun astoydil harakat qilgan. Muallif Yassaviyni faqat zikr aytib turgan, yo hikmat yozib, ilm bilan mashg`ul bo`lgan paytini emas, balki, uni yaqinlar, muridlar davrasida, xalq orasida yurakdan suhbatlashishlar jarayonida ham to`laqonli aks ettirishga e`tibor qaratgan.

Qahramon xarakteri kuchli ziddiyatlarsiz hech qachon bor bo`yi bilan ko`rinmaydi. Ayniqsa, qarama-qarshi kuchlar o`rtasidagi to`qnashuvlarda obrazlar o`zining kamolga yetishish, nihoyat xarakter darajasiga ko`tarilishi mumkin. Sa`dulla Siyoyev bosh qahramonga qarshi kuchlarni Shahobiddin xoji, Ashrafxon qozi kabi salbiy obrazlarni ham mahorat bilan ko`rsatib beradi. Ahmad Yassaviy xalqqa ilm-u irfon sochish, uning farovon turmush kechirishini o`ylasa, dushmanlari fisq-u fujur, g`iybat, insonning dilini xufton qilguvchi g`arazliklarni ko`zlashadi. Sulton ul-orifin bo`lgan zotga ham tuxmat yog`dirmoqchi bo`lishadi.

Pirlar sultoni, avliyo darajasidagi shaxs uchun ham bunday zarbalar ahamiyatsiz

[3] Siyoyev S. Ahmad Yassaviy. 2012.331-b

emasdi. Ijodkor bu vaziyatni shunday hol bilan ifodalaydi: “Bularning barchasi bir bo`lib, Shayxning obid irodasini o`tdan suvga, suvdan o`tga solingan temirdek toblagan edi. U Ayyubdek[4] sabrli edi. Fosiqlarning fitnasiga, qozilarning rishvaxo`rligiga, muftiylarning yolg`on fatvosiga, muhtasiblarning riyosiga, sohibi davronlarning el-ulusga yetkazgan zulmiga, johil mullalarning bid`atiga chidab keldi. Tishini tishiga qo`ydi. Illo, o`z muborak xonadoni oldida, el ko`zi o`ngida qilingan tuxmat yuragiga nayzadek sanchildi. Xalq dardidan darz ketgan dilporasida tag`in bir chandiq paydo bo`ldi. Bul chandiq o`qtin-o`qtin Shayxning mushtdek yuragini bir parcha cho`g`dek bozillatib turibdi…”

Qahramonning ruhiyatini tasvirlashda ichki ziddiyatlarni haqqoniy ochib berish yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. S. Siyoyev ham tarixiy haqiqatni ham, badiiy to`qimani ham asar ruhiga singdirib yuboradi.

“Sizlar birla xo`shlashib, uzlatga chekinishdan burun barchangizga aytar to`rt kalima so`zimiz bor. Bir-biringizga suyanchiq bo`lingiz, malham bo`lingiz. Bir-biringizdan shirin so`zingizni ayamangiz. Oyning o`n beshi qorong`u, o`n beshi yorug`. Inshoollo, bizning eldin ham Xorun ar-Rashidlar chiqsa ajab ermas. Zamona zo`rlarining dasti panjasi toabad uzun bo`lib qolmas, mazlumlarning ko`z yoshini artadigan imon-insof egalari ham bir kun dunyoga kelgay. Tavakkal- Allohga, umid - Yaratgan egamdan”, – deydi Ahmad Yassaviy asar nihoyasidagi nutqida. Hayot haqiqatini ifodalagan, maslahat o`rnidagi ushbu so`zlar, o`ylab ko`rsak, shunchaki aytilmaganligi, hozirgi zamonamiz, bugungi turmushimiz uchun ham muhim va qimmatli ekanligi, barchamizga qaratilganligi ayon bo`ladi. Bu olis tarix bilan bugunni bog`laydigan yozuvchi mahoratidir, tarixdan saboqlar chiqarishga chorlashdir. Tarixiy asarga zamonaviy qimmat, maqsad, ruh va ahamiyat bera olishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirvaliyev S. Tarixiylik va zamonaviylik. –Toshkent, 1979
2. Siyoyev S. Ahmad Yassaviy. 2012. 331-b

[4] Ayyub- sabr-bardoshi bilan nom chiqargan payg`ambarlardan biri.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

PROJECT MANAGEMENT AS AN EFFECTIVE TOOL FOR IMPROVING THE PUBLIC SERVICE SYSTEM

Berdieva Lola Alisherovna[1]

Ministry of Preschool education of the Republic of Uzbekistan

KEYWORDS

project, project management, innovations, state bodies, process activities, project activities

ABSTRACT

The analysis shows that the main goal of project management is a radical change in the culture of government. One of the acute unresolved problems in the implementation of the project approach in public administration is the need to establish the degree of responsibility for non-execution of projects. It is also necessary to establish the normative fixing of the possibility of adjusting the goals, objectives and, if necessary, the tactics of the project when new partners are connected to it. We believe that the widespread introduction of the large-scale digital technological transformation for modern electronic services developed in the unified federal center of state administration into the process of establishing a project approach will allow us to optimize the timing of solving project problems and increase the efficiency of communications between project participants.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7186283
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Head of Control and Analytical Department, Ministry of Preschool education of the Republic of Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ПРОЕКТНОЕ УПРАВЛЕНИЕ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
проект, проектное управление, инновации, государственные органы, процессная деятельность, проектная деятельность.

АННОТАЦИЯ

Анализ показывает, что, главной целью проектного управления является радикальное изменение культуры управления государством. Одна из острых нерешенных проблем при внедрении проектного подхода в государственном управлении - это необходимость установления степени ответственности за неисполнение проектов. Необходимо также нормативное закрепление возможности корректировки целей, задач и, при необходимости, тактики проекта при подключении к нему новых партнеров. Оптимизировать сроки решения проектных задач и повысить эффективность коммуникаций участников проекта, мы считаем, позволит повсеместное внедрение в процесс становления проектного подхода разработанной в едином федеральном центре государственного управления масштабной цифровой технологической трансформации для современных электронных сервисов.

Sulton Abu Said Mirzo Sayid Oshur bilan birga yan o‘zining elchisini Mirzo Jahonshoh huzuriga yuboradi. Shu tariqa dastlab ikki o‘rtada yaxshi munosabatlar yo‘lga qo‘yiladi. Bundan Mirzo Jahonshoh juda hursand bo‘ldi.

Sulton Abu Said Mirzoni qanday qilib bo‘lsa ham Xurosonni egallash niyati bore di. U Xurosonni temuriylar qo‘lidan chiqib ketishini xahlamas edi. Bundan tashqari u Hirotni

saltant poytaxtiga aylantirmoqchi edi. U Hirotdan Samarqand tomonga qaytayotganda shunaday deydi: “Mening Hirotni durussaltana qilib shu yerda turish niyatim bor edi”[1].

Sulton Abu Said Mirzo ellik ming askar[2] bilan Hirot yaqinidagi Ubax qo‘rg‘onida turgan turkmanlar tomon boradi. Bir qancha turkmanlar asirga tushib, bir qanchasi qochib qutilib qoladi. Bu habarni eshitib Mirzo Jahonshoh unga qarshi yurish jilovini tortadi. U dastlab o‘g‘li Pibudoq boshchiligidagi bir guruh askarlani ilg‘or tarzida Sulton Abu Said Mirzo tomon yubordi. Ikki o‘rtada qattiq jang bo‘ldi bunda turkman qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchrab ko‘plari qo‘lga olinib qatl etildi. Pirbudoq esa urush maydonidan yuz o‘girib otasi oldiga qaytadi.

Bundan tashqari Ozarbayjon pytaxti Tabrizda Mirzo Jahoshoh qulog‘iga noxush xabrlar keladi. Aynan ushbu xabarlar ham Mirzo Jahonshohni Sulton Abu Said Mirzo bilan sulh tuzishga majbur qildi.

Buni bayoni quyidagicha. Dorulmulk Tabriz tomondan ketma-ket elchilar kelib, Mirzo Jahonshohning o‘g‘li, bir necha muddat hibsda yotgan amirzoda Husayn Ali hibsdan xalos topib, qo‘lini xazinalarga cho‘zganligi va – misra – barchaga etaklab la’lu qoplab zar berib, katta lashkar to‘plaganligi haqida arz qiladilar. Bu xabarni eshitgan Mirzo Jahonshoh sarosima va iztirobli ahvolga tushdi hamda ilojsizlikdan sulh talab qilishdan bo‘lak chora topolmadi”[1].

U oxiri Sulton Abu Said huzuriga Sayid Oshurni ikki o‘rtada sulh tuzish uchun elchi qilib jonatadi. Sayid Oshur humoyun o‘rduga yetib, amirlar orqali sulh va samimiyat xotirini sharafli quloqlar (mirzo Abu Said)ga yetkazdi. Mirzo Abu Said (unga javoban): “Qachonki (mirzo Jahonshoh) hazrat xoqoni saidning barcha mamlakatlarini bo‘shatib, u hazrat hayotligi vaqtida amir Jahonshoh uchun muqarrar qilgantaqdirdagina sulh ma’nisi shaklga kelishi mumkin va anashu asosdagina men maqsad chexrasini go‘zal tarzda jilvalantirmoq uchun e’tiqod oynasini inkor dengizidan tozalayman,” – deb aytadi[1].

Ikki o‘rtada ancha muzokaralar bo‘ladi. Ancha tortishuvlardan so‘ng nihoyat o‘rtada sulh tuzilishiga muvaffaq bo‘linadi. Shartnomaga ko‘ra, butun Xuroson mamlakatlari Mirzo Sulton Abu Saidning devoniga dohil bo‘lish va Mirzo Jahonshoh qaytib ketib, bu viloyatlarga dahl qilmasligiga qaror qilindi. (Shu asosda) ahdu paymon tuzilib, iymon keltirish shartlari qasamyod etish bilan ta’kidlandi, birdamlik harobi shak-shubha nifoqidan tozalandi[1].

TADQIQOT NATIJALARI

Shu tariqa Ozarbayjon hukumdori Mirzo Jahonshoh bir tomonda Sulton Abu Said Mirzoga qarshi tura olmasligiga ko‘zi yetganidan, ikkinchi tomondan esa, Tabrizda o‘g‘lining isyon ko‘targanligi sabali sulh tuzib ortga qaytishga majbur bo‘ladi. U 1458-yil 8-dekabrda Hirot hududidan chiqib ketdi. Shundan so‘ng Sulto Abu Said Mirzo Hirot tomon otlanadi hamda uni egallaydi.

1462-yil 25-dekabrda Ozarbayjondan yana Sulton Abu Said huzuriga elchilar keldi. Bu paytda Sulton Abu Said Mirzo Movarounnahrga Muhammad Jo‘kiy Mirzoni isyonini bostirish uchun ketgan edi. Elchilarni Sulton Abu Said Mirzo Hirotda qoldirib ketgan Mirzo Sulton Muhammad rasm rusumga ko‘ra kutib olib ulardan hol ahvol so‘ardi. Elchilar kelganligi xabarini Movarounnahga Sulton Abu Saidga yetkazish uchun yubordi. Xuroson

xabrchisi Sulton Abu Said huzuriga kelganda u Shohruxiya qal'asini olish uchun shiddatli jang qilayotgan edi. Bizningcha elchilar Ozarbayjonda Jahonshoh va uning o'g'illari o'rtasidagi nizo tugab Ozarbayjonu Forsda tartib o'rnatilganligi xabarini yetkazgan bo'lsa kerak.

Ozarbayjonda Mirzo Jahonshoh va uning o'g'illaridagi munosabat haqida to'xtalsak, u Sulton Abu Said Mirzo bilan sulh tuzib Hirotni tark etgan so'ng Iroq mamlakatining markazi bo'lgan Isfaxonni o'g'illaridan biri amirzoda Muhammadiyga syurg'ol tarzida tortiq qilgan edi. Mirzo Jahonshoh "Matlai sa'dayin va majmayi bahrayn" asarida keltirilishicha juda adolatli hukumdor bo'lgan. Ammo uning Isfaxondagi o'g'li amirzoda Muhammadiy u yerda raiyatga zulm o'tkazadi. Fors mamlakati va uning markazi Sherozni esa yana bir o'g'li Pir Budoqga syurg'ol tarzda in'om qilgan edi. U Sherozda o'z mustaqillik bayrog'ini tiklab mustaqil tarzda faoliyat olib borar edi. Mirzo Jahonsho bir necha bor Pir Budoq oldiga odamlarni yuborib itoat izhor qilishini aytdi ammo u bunga itoat qilmadi.

Mirzo Jahonshoh Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamirning yozishicha uning saltanat qudrati va mamlakatning kengligi shu darajada yetdiki, uning ota bobolari hayolidan o'ndan biri o'tmagan edi. Arab va Ajam Iroqi, Fors, Ummon dengizi sohillari. Sarir, Ozarbayjon, Arman va Gurjiston mamlakatlarining hammasi toki Shom va Rum mamlakati chegaralarigacha uning hukmi uzugi ostida xuddi mumdek edi [1].

MUHOKAMA

Mirzo Jahonshoh Bag'dodda o'g'li taqdirini bir yoqlama qilib olganddan so'ng Diyorbakr tomonga qarab qo'shin tortadi.

Chunki u yerda Amir Hasanbek bin Amir Ali bin Amir Qora Usmon oqquyunli Diyorbakr o'lkasining bir nechta qal'alarini zabt etib, Mirzo Jahonshohga nisbatan itoat etmay, u yerda o'zini mustaqil qilib olgan edi.

Oqquyunli Amir Hasanbek serzehn va uzoqni ko'ra oladigan shaxs edi. U Mirzo Jahonshoh qo'shini yetib kelayotganini eshitadi hamda u bilan sulh tuzish uchun o'z elchilarini yuboradi.

Mizo Jahonshoh uni sulhini qabul qilmadi. Bizningxha uning sulh tuzmasligiga sabab yana unga qarshi mustaqillik yo'lini tutishi mumkin edi. Mirzo Jahonshoh uni yo'qotish payiga tushdi. Xondamirni yozishicha Mirzo Jahonshoh Mush va Orzum sahrosiga oshiqib Amir Hasanbek manzil tutgan erga yaqin joyda istiqomat chodirini tikdi[3]. Mirzo Jahonsho u yerda bir necha kunni ayshu ishratda o'tkazadi. Havoning namligi va sovuqligi sabab Mirzo Jahonsoh qo'shini ancha toligan edi. Amir Hasanbek va Mirzo Jahonshoh qo'shini orasida bitta to'g' bore di. Amir Hasanbek uzluksiz Mirzo Jahonshohdan xabardor bo'lib turar edi. Bdurazzoq Samarqandiyning ta'kidlashicha Mirzo Jahonshoh ortga qaytmoqchi bo'ladi. U qo'shinining ma'lum qismini Arjiz va Abdujuz viloyati tomon jo'natib o'zi makon tutgan manzilda uchyuz suvoriysi bilan qoladi[1].

Amir Hasanbek dushmanning gaflatdaligi va dushmanning katta qo'shinini yo'q ekanligidan xabar topib, ikki ming nafar boshdan oyoq qurollangan jasur chavandozlari bilan Mirzo Jahonshohni yuq qilish uchun yo'lga otlanadi. Uning o'z qo'shinini qurollanishi haqida Abdurazzoq Samarqandiy shunday deydi. Barcha suvoriylar ustida dovudiy zirh,

boshida darbandiy dubulg‘a har biri mukammal qurol-aslahali, otlarga kejim yopintirgan edi[1].

Amir Hasanbek manashunday mukammal qurollangan qo‘shini bilan erta tongda tusatdan uning qarorgohi yaqiniga yetib bordi. Turkmon podshosining ahlu hushi joyida odamlaridan bir guruhi dushman bostirib kelganidan xabar topib, turga tushgan baliqdek uzlarini u yoq-bu yoqqa urishga tushdilar. Mirzo Muhammad va Mirzo Yusuf olishish uchun ilgari yurdilar, ammo bitta hamlaga ham dosh berisha olmay, qarorgohga qaytib kelib, otasini bu daxshatli voqeadan voqif qildilar. Bu paytda Mirzo Jahonshoh egniga yengil to‘n kiygan, bitta oyog‘ining paytavasinigina o‘rab olgan bo‘lib, dushman haqidagi xabarni eshitgach, ikkinchi paytavasini o‘ramasdan turib, otga minib qochishga tushdi. Amir Hasanbek oqquyunli uchla lahzadayok, qarorgohga kirib, Muhammadiy va Yusufni asir oldi[3]. Ozarbayjonning boshqaa barcha sardorlari qatl etildi.

Bu jangda Mirzo Jahonshoh Amir Hasanbekning Iskandar ismli askari tomonidan o‘ldiriladi. Amir Hasanbek Muhammadiyni o‘q otib o‘ldiradi, Mirzo Yusufni esa ko‘ziga qaynab turgan temirni bostirib ko‘r qiladi.

Amir Hasanbek endi Mirzo Jahonshohning o‘g‘li Husayn Ali tomon yuzlanadi. Bu paytda Husayn Ali 180 ming qo‘shin to‘plab ularga juda katta miqdorda ulufa beradi.

U bu ahvolna voqif etish uchun Sulton Abu Said Mirzoga xabar jo‘natadi. Va u Shunday deydi; “ Fors, Iroq va Ozarbayjon, balki butun jahon onhazratga tobedir”[1]. Husayn Ali Sulton Abu Said Mirzoni Iroq va Ozarbayjonga kelib unga yordam berishini iltimos qiladi hamda o‘zini uning xizmatida bo‘lishini aytadi.

Bu xabarni eshitgan Sulton Abu Said Mirzo Qoshg‘ar viloyati ham Qalmoq chegaralaridan, Turkiston, Movarounnahr va Xurosondan tortib Iroq hududigacha hamda Mo‘g‘ulistonning etaklaridan Hindiston nohiyasigacha bo‘lgan barcha yerlardan ko‘p lashkaru behisob sipoh yig‘ilsin degan farmon beradi.

Sulton Abu said Mirzo qishlov yurtidan juda ko‘p sonli qo‘shin va qurol-yarog‘ bilan birga hijriy 872-yil sha’bon oyi oxirlarida, milodiy 1468-yil 24-martida Ozarbayjon va Iroqi Ajam tomonga yo‘naldi.

Tez orada Sulton Abu Said Mirzo butun Fors viloyatida, jumladan Isfahon va Sheroz shaharlari, Kermon viloyatida ham temuriylar hukmronligi tikladi. Sulton Abu Said Mirzo qo‘shinlari birin ketin Ray, Sultoniya va Tabriz shaharlarini ham qo‘lga kiritdilar.

Sulton Abu Said Mirzo Sultoniyaga kelganida Amir Hasanbek Tabrizdan sakkiz chaqirim uzodlikdan Qorabog‘ tomonga qarab yo‘l moladi. Sulton Abu Said Mirzo bundan xabar topgach, Pahlavon Yusuf Sheroziyni Tabrizga dorug‘a qilib tayinlaydi, o‘shha yoqqa yubordi-da, o‘zzi Sultoniyadan Miyona mavzei sari otlandi. Mazkur mavzeda amirzoda Xusayn Ali va uning o‘gli Sulton Ali va ukasi amirzoda Yusuf Makxul hamda turkmon amirlaridan bir to‘dasi lashkardan ellik ming nafarga yaqin kishi bilan SultonAbu Said Mirzo oldiga keldilar. Ularni Sulton Abu Said Mirzo yaxshi kutib oldi.

Shu orada yana Sulton Abu Said huzuriga Amir Hasanbekning echilari keladilar. Elchilikning mazmuni quyidagicha, “Amir Hasanbek o‘z jiyani Yusufbekni elchilik rasmi bilan a’lo taxt poyiga yubordi. Sulton Abu Said Mirzo g‘oyatda dabdabayu mahobatli yig‘in

yasadi va ulug‘ amirlar to‘la qoida bilan Yusufbekni sayd sulton oldiga eltdilar. Yusufbek shunda ham faqat amirlar orqaligina o‘z amakisi tilidan aytib yuborilgan ushbu og‘zaki so‘zlarni yetkazish imkoniga ega bo‘ldi: Yuz yilga yaqin davrdan beri ota-bobolarimiz Hazrat Sohibqiron Amir Temur hazratlari xonadoniga nisbatan tarafdorlik va davlatxoxlik yo‘lini tutib kelishgan. Mana bugun bu muxlisingiz ham o‘sha yo‘ldan chetga chiqmay, Fors va Iroq viloyatlarini dushmanlar changalidan ozod qildim va oliy dargoh egasi mulozimlari ko‘liga topshirdim. Umid shulki, bu qamishzorda to qish fasli tugab, yo‘llardagi qorlar erib, Diyorbakrga qaytib ketishimiz imkoni yuzaga kelgunga qadar turishimiz uchun ruxsat bersangiz.”[3]

Sulton Abu Said Mirzo Amir Hasanbekning xatxabarini ham o‘qib, ham eshitgach shunday javob berib: Kutlug‘ mavkab ul diyor sari yurmoqda. Borganimizdan so‘ng nima ma’kul kurinsa, ushani amalga oshirajakmiz, derkan o‘z ammasining o‘g‘li Mirzo Maxmud xamda Xoja Loqni Yusufbekka qushib, Amir Xasanbek oqquyunli xuzuriga yubordi[3].

Sulton Abu Said Qorabog‘ tomon yo‘lga otlanadi. Sulton Abu Said Mirzo qo‘shinida o ziq ovqat va yem-xashak taqchilligi vujudga keldi. Bunga sabab Amir Hasanbek imkon qadar hamma narsa tashib ketishga harakat qilayotgan edi. Natijada Sulton Abu Said Mirzoqo‘shini juda og‘ir ahvolga tushib qoldi. Sulto Abu Said Mirzo Mahmudobodda manzil qurdi. Xondamirning aytishicha, Mahmudobod sayhonligi oliy naslli podshohning lashkargohi bo‘lgach, qo‘shin orasida qahatchilik va ochlik shu darajaga yetdiki, bir man g‘allaning bahosi o‘n dinor kepakiygacha ko‘tarildi.

Amir Hasanbek Amir Jahonshoh saroyida yashayotgan Shohruh Mirzoning avlodining so‘nggi vakili Yodgor Mirzoni o‘z qarorgohiga keltirdi va undan Sulton Abu Said Mirzo qo‘shinidagi Xuroson amirlarini o‘z tomoniga og‘dirib olishda foydalandi. Oziq ovqat yetishmovchiligidan qiynalayotgan temuriylar qo‘shini safini birin ketin Xuroson amirlari boshchiligidagi harbiy qismlar tark etib, Yodgor mirzo qo‘li ostiga o‘ta boshladi. 1469-yilning yanvarid Mo‘g‘on dashtida bo‘lgan jangda Sulton Abu Said Mirzoqo‘shini to‘liq porakandalikka uchradi. U jang maydonidan qochayotganda Amir Hasanbek ikki o‘g‘lini uni asirga olishga jo‘natdi Natijada asir olingan Sulton Abu Said Mirzo1469-yilning 5-fevral kuni Yodgor Mirzo tomonidan qatl qilindi. 1468-yili zabt etilgan G‘arbiy va Markaziy Eron hududlari yana temuriylar davlati tarkibidan chiqdi.

XULOSA

Temur va temuriyzodalar yaratgan moddiy va ma’naviy meros hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Bu meroslarni asrab-avaylash va o‘rganish biz, yoshlarning faxrli burchimizdir.

Shunday qilib, temuriylar davrida Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalish davri bo‘ldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur o‘z davrida mamlakatda ilm-fan va ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berdi. Natijada, davlatning iqtisodiy va madaniy qudrati yuksaklikka ko‘tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi tarix fanlar doktori A. O'rinboev. – T.: O'zbekiston, 2008. – B. 444.

2. Alan Hayrunnisa. Sultan Ebu said devri Timurli tarixi(1451-1469) Doktora tezi. Mimar Sinan Universitesi. Istanbul-Kasim. 1996. – S. 75.

3. Xondamir. Xabib us-siyar fi axbori afrodi bashar / Fors tilidan tarjima va muqaddima muallifilari: J. Hazratqulov, I. Bekjonov. – T.: O'zbekiston, 2013. – B. 620.

4. Сиддиков, И. Б. (2019). Государственная Политика В Отношении Молодежи В Узбекистане: Национальный Опыт И Реальная Необходимость Международных Инициатив. In Условия Социально-Экономического Развития Общества: История И Современность (Pp. 38-43).

5. Bakhromovich, S. I. (2020). Effects Of Objective And Subjective Factors To Develop Intellectual Culture Of Youth. Canadian Social Science, 16(2), 55-59.

6. Siddikov, I., &Gulomov, A. (2020). Philosophical And Psychological Features Of The Formation Of Asertive Behavior In The Development Of Cognitive Activity. In Психологическое Здоровье Населения Как Важный Фактор Обеспечения Процветания Общества (Pp. 38-42).

7. Bakhromovich SI. Analysis Of Modern Approaches To Ensuring The Effectiveness Of Management In Higher Education Institutions. The American Journal Of Social Science And Education Innovations. 2020;2(12):364-9.

8. Siddikov, I. B. (2019). Философско-Педагогические Аспекты Развития Интеллектуальной Культуры Студентов. Вестник Ошского Государственного Университета, (3), 38-42.

9. Bakhromovich Si. The Impact Of Managerial Professional Development On The Effectiveness Of Higher Education Institution Management. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020;10(12):1014-20.

10. Bakhromovich, S. I., &Lutfillo, M. (2021). Development Of Ecological Culture In Students In The Process Of Education Of History Of Uzbekistan.

11. Siddikov, I. (2021). Education-The Principal Value Of Medieval Muslim Civilization. Interconf.

12. Siddikov, I. (2021). Gender Management Issues In Modern Pedagogy In Educational Institutions.

12. Bakhromovich, S. I. The Phenomenon Of Management And Leadership Personality In The Views Of Oriental Scholars. Chief Editor.

13. Siddikov, I. B. (2021). Modern Models Of Providing Autonomy Of Higher Educational Institutions (Analysis Of Foreign Countries Experience). Current Research Journal Of Pedagogics (2767-3278), 2(05), 25-31.

14. Bakhromovich, S. I. (2021). Development Trends And Transformation Processes In Academic Mobility In Higher Education In Uzbekistan And The World.

15.Bakhromovich, Siddikov Ilyosjon, And Maxamadaliev Lutfillo. "Development Of Ecological Culture In Students In The Process Of Education Of History Of Uzbekistan. European Journal of Humanities and Educational Advancements 2 (5), 103-107

16. Siddikov, I. (2021). Traditions Of Philosophy, Fiqh And Philosophy In The Theological Views Of The Middle East. Interconf.

17. Bakhromovich, S. I. (2021). Factors Of Introduction Of Principles Of Institutional Autonomy To The Management Process Of Higher Educational Institutions. Berlin Studies Transnational Journal Of Science And Humanities, 1(1.5 Pedagogical Sciences).

18. Siddikov, I. (2021). Epistemological Significance Of Medieval Culture Of Islamic Intellectual Activity. Interconf.

19. Bakhromovich, S. I. (2021). Views On The Role Of Science In Human And Society Life In Islamic Teaching. International Journal Of Philosophical Studies And Social Sciences, 1(3), 79-86.

20. Bakhromovich, S. I. (2018). Social AndPhilisophical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. European Science Review, (7-8).

21. Siddikov, I. (2021). Epistemological Significance Of Medieval Culture Of Islamic Intellectual Activity. Interconf.

22. Siddiqov, I. (2022). Dialectical And Synergetic Features Of The Development Of Theological And Epistemological Views In Medieval Eastern Islam.

23. Siddiqov, I. B. (2022). Mutual Synthesis Of Medieval Islam Gnoseology And Theology.

24. Siddiqov, I. B. (2018). Social And Philisophical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. European Science Review, (7-8), 296-298.

25. Bakhromovich, S. I. Social And Physical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. July–August, 289.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

SOCIO-PEDAGOGICAL NEED FOR THE FORMATION OF THE PHYSICAL CULTURE OF STUDENTS

Usmanov Nematullo Akmalovich[1]

Fergana State University

KEYWORDS

reader, physical culture, integration, didactics, innovation, innovative technologies, pedagogical principle

ABSTRACT

The article analyzes the pedagogical possibilities, didactic support, principles of innovative physical education, and effectiveness of prioritizing integral education and an integrative approach in the formation of Physical Culture in students.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7195045
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Independent researcher at Fergana State University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ

KALIT SO‘ZLAR:
ўқувчи, жисмоний маданият, интеграция, дидактика, инновация, инновацион технологиялар, педагогик тамойил

ANNOTATSIYA
Мақолада ўқувчиларда жисмоний маданиятини шакллантиришда интеграцион таълим ва интегратив ёндашувга устуворлик беришнинг педагогик имкониятлари, дидактик таъминоти, инновацион жисмоний таълим тамойиллари ва самарадорлик жиҳатлари таҳлил қилинган.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ШКОЛЬНИКОВ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
ученик, физическая культура, интеграция, дидактика, инновация, инновационные технологии, педагогический принцип

АННОТАЦИЯ
В статье анализируются педагогические возможности, дидактическое обеспечение, принципы инновационного физического воспитания и эффективность приоритизации интегрального образования и интегративного подхода в формировании физической культуры у студентов.

КИРИШ

Ўзбекистоннинг янги тараққиёт стратегиясида ҳам «жисмоний тарбия ва спортни янада оммалаштириш долзарб вазифа»[1]лардан бири сифатида баҳоланиши ҳамда жамият аъзоларининг “жисмоний, маънавий-интеллектуал саломатлигини асраш, жисмоний саломатлигини мустаҳкамлаш тўғрисидаги ёндашувларни тубдан қайта кўриб чиқиш»[2] асосида ижтимоий муҳитда жисмоний ва маънавий-интеллектуал қадриятлар интеграциясини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу боис ўқувчиларда жисмоний маданиятни интеграцион таълим асосида ривожлантириш, уларда соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантириш, мактаб таълимида жисмоний тарбия ва спорт таълимини бошқа фанлар билан интеграциялаш асосида ўқувчиларда жисмоний ва руҳий иродани мустаҳкамлашга доир кўплаб тадқиқотлар олиб борилмоқда.

ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантириш, уларда соғлом турмуш тарзи, гигиеник маданиятни ривожлантириш, шунингдек, жисмоний тарбия ва спорт таълими асосида жисмоний-интеллектуал қобилиятларини ўстириш масалаларига

доир доир тадқиқотларни уч қисмга – Ғарб мамлакатларида, МДҲ мамлакатларида ва Шарқда ўрганилиши сифатида таснифлаш мумкин.

Ғарб давлатларида олимларда О.Ю.Масалова, М.А.Кондратюк ва И.Ю.Абросимова, Ж.Харгривес, Л.Вольф-Вендель, Д.Браун, Ж.Юнгер, З.Барабас, А.Альперс, В.Бальсевич, Ю.Г.Татур, В.Хутмахер, А.Ветт, Э.Задарколар томонидан жисмоний таълим ва спорт тарбиявий ишининг самарадорлиги, ўқувчиларда жисмоний маданиятни жисмоний тарбия ва спорт таълими, соғлом турмуш тарзини яратиш орқлаи шакллантиришга доир тадқиқот ишлари олиб борилган.

МДҲ мамлакатларида ҳам жисмоний маданиятни шакллантиришга қаратилган кўплаб тадқиқотлар олиб борилмоқда. Айниқса ўқувчиларда жисмоний маданиятни интеграцион таълимни ташкил этиш масалалари Н.Тихонова, В.Медведов, В.Ильинича, О.Фадаева, З.Козбаев, О.Маркевич, О.Фадаева, П.Вертински, И.Мартын, О.Отравенко каби олимлар томонидан ўрганилган. Шунингдек, ўқувчиларни соғлом турмуш тарзига тайёрлаш, жисмоний маданиятини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари Я.Коч, С.Сами, С.Агҳаий, С.Маҳмудийлар томонидан ўрганилган.

Ўзбекистонда ҳам жисмоний тарбия ва спорт давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, унга алоҳғида эътибор қаратилиши асносида бу борадаги илмий тадқиқотлар ҳам ривожлантирилди. Бугунги кунда ҳам жсимоний таълим ва тарбияга доир кўплаб тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Бир қанча педагог олимлар жисмоний маданиятни шакллантиришга доир тадқиқотларни олиб бормоқда. Хусусан, Ш.Х.Хонкелдиев, Э.А.Сейтхалилов, Ў.Қ.Толипов, Ш.С.Шарипов, Ф.Р.Юзликаев, Т.Т.Юнусов, Т.Зайниддинов, Н.Н.Азизходжаева, Р.С.Саломов, А.Маҳкамов, Т.С.Усмонхаджаев, Д.Д.Шарипова, Р.Абдумаликов каби олимлар томонидан ўқувчи-ёшларда ва талабаларда жисмоний маданиятни шакллантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, гигиеник маданиятни ўстириш, ақлий ва жисмоний қобилиятларни интеграцияси асоида баркамол шахсни тарбиялашга доир бир қанча тадқиқот ишлари олиб борилган.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Ўқувчиларнинг жисмоний маданиятини шакллантириш уларнинг соғлом, баракмол, интелектуал салоҳиятли шахс исфатида тарбияланишининг асоси ҳисобланади. Шу боис, бугунги глобаллашув шароитида ўқувчиларни ҳам ақлан, ҳам руҳан юксак сифатлар билан тарбиялаш билан бирга жисмонан соғлом ҳолда вояга етказиш вазифалари ҳам долзарблик касб этмоқда. Шунинг учун умумий ўрта таълим тизимида жисмоний тарбияга алоҳида урғу бериш, ўқувчиларда жисмоний сифатларни ўстириш, соғлом турмуш тарзини шакллантиришга қаратилган таълимий-тарбиявий жараённи такомиллаштириш зарурати ортиб бормоқда.

Маълумки, жисмоний маданият саломатликни ва соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг энг аҳамиятли ва таъсирчан воситаларидан бири ҳисобланади. Замонавий жисмоний маданият ўқувчининг жисмоний ҳолатини оптималлаштириш, соғлом турмуш тарзини ташкил этиш, ҳаётий амалиётга тайёрланиш бўйича муҳим ижтимоий ва биологик функцияларни тўлиқ бажаради. Жисмоний маданият

мазмунининг асосини ҳаракатланиш фаолиятидан ва адекват жисмоний фаолликдан фойдаланиш, ўқувчиларни жисмоний яроқлигини мақсадли ривожлантиришнинг махсус воситаларини ва усулларини яратишни англатади.

Мазкур парагрифда ўқувчиларда жимоний маданиятни шакллантиришнинг ижтимоий педагогик зарурати асоланган. Шунингдек, ушбу вазифани амалга оширишда жисмоний маданият ва унг ёндош тушунчаларнинг мазмун-моҳияти, уларнинг луғатларда тарифланиши ҳам таҳлил этилган.

Умуман олганда, жисмоний маданият меҳнат, маиший ҳаёт, ҳордиқ чиқариш, бўш вақтдан оқилона фойдаланиш, зарарли одатларни бартараф этиш, рационал овқатланиш заруратини яратиш, умумий қоидаларини ўрганиш маданиятини такомиллаштириш сингари долзарб вазифаларни ҳал этишга хизмат қилади. У инсон организми ривожланиши қонуниятларини ва функционал фаолиятини оддий тушунишни таъминлайди, эски одатларни йўқ қилиш ва замонавий ҳаётнинг шаклига, темпига ва сифатига мос бўлган ҳамда унинг маънавий, интеллектуал, ижтимоий фаолиятида ва психофизик ривожланишида инсонга юксак талабларни қўядиган янгиларини шаклланишига хизмат қилади. Бошқа бир тарифга кўра, жисмоний маданият – жамият аъзоларини жисмоний камолотга эришишини кўзда тутувчи махсус воситалар, методлар, шароитларни яратиш ва улардан рационал фойдаланиш бўйича эришилган ютуқларнинг мажмуасидир.

Жисмоний маданият бойликлари, шу жумладан моддий бойликлар (саломатликни мустаҳкамлаш), эстетик (чиройли қадди-қоматни, нафис ҳаракатланишни ва бошқаларни шакллантириш), маънавий (талабчанлик, қизиқиш, иродавий сифатларни тарбиялаш) ларни ўз ичига олади. Биологик ва ижтимоий ривожланишнинг яхлитлигини ва бирдамлигини таъминлаш таълим, тарбия ва соғломлаштириш масалаларини ҳал этиш ёрдамида шахс саломатлиги маданиятини шакллантириш тизимида жисмоний маданиятнинг ролини аниқлайди.

Шу жиҳатдан қаралса жисмоний маданият ҳам ўз ичига турли оммавий-тарбиявий жараёнларни ўзига қаратиши билан мустақил йўналишларга эгадир, яъни:

- ўқувчи ва талаба ёшларнинг жисмоний маданияти;
- катта ёшдаги кишилар жисмоний маданияти;
- хотин-қизлар жисмоний маданияти;
- кенг аҳоли қатламининг жисмоний маданият ва ҳ.к.

Шунингдек, ўқувчиларнинг жисмоний маданияти ва унга ёндош тушунчаларнинг мазмун-моҳиятини кўриб чиқиш ҳам мақсадга мувофиқ иш ҳисобланади.

Жисмоний тайёргарлик – ўқувчининг соғлиги, махсус билимлар билан қуролланиши, ҳаётий зарур ҳаракат, кўникма ва малакаларни шакллантиришни ҳамда жисмоний сифатларининг ривожланиши даражасини белгиловчи бир гуруҳ синов машқлари мажмуасини ифодалайди.

Жисмоний ривожланганлик – ўқувчи организмининг аста-секинлик билан

табиий шаклланиши – ташқи кўриниши ва унинг хизматини ўзгариш жараёнидир.

Жисмоний тайёрлаш – ўқувчиларни жисмоний хусусиятидан келиб чиқиб, жисмоний ҳолатини ривожлантириш.

Жисмоний тарбия ҳаракати – ижтимоий ҳаракатнинг ўз олдига аҳолини жисмоний тарбиялаш даражасини ошириш ва спортни ривож-лантиришга ёрдам беришни мақсад қилиб қўйган махсус туридир.

Жисмоний юклама – организм имкониятлари ва жисмоний ҳолатидан келиб чиқиб, унга бериладиган машқлар миқдори.

Жисмоний соғломлик – жисмоний машқлар ва оммавий спорт билан тизимли шуғулланиш орқали ёки жисмоний етуклик даражасидаги ҳаракат фаоллигига эгалик, организмни ташқи муҳитнинг ноқулай оқибатлари ва касалликларга қарши тура олиши, турмуш, ҳаётий фаолиятларнинг талабларига етарли даражадаги муносабати тушунилади.

МУҲОКАМА

Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари салбий антиижтимоий ҳодисаларга, уларни ўзига хос ахлоқий-маънавий мухолифларига фаол ҳужумкор таъсир учун муҳим рағбат бўлади. Тўғри ўйланган ва ташкил этилган жисмоний маданият тарбияси ўқувчини шундай гармоник ривожланишини таъминлайди-ки, шундай қадриятлар йўналишларини ва кўрсатмаларини такомиллаштиради-ки, улар интизомсизлик, текинхўрлик, тартибсизлик, шулар қаторида ёмон одатлар ва камчиликларни бартараф этишга ҳизмат қилади.

Замонавий жисмоний маданиятда жисмоний тарбиянинг мақсад ва вазифаларини қайта йўналтириш муҳим аҳамиятга эга. У, биринчи навбатда, фақат маълум жисмоний сифатларни, ҳаётий зарур ҳаракатланиш малака ва кўникмаларини шакллантиришгагина йўналтирилган тизимдан инсонга ўз организми, жисмоний ҳолатига мақсадли таъсир воситалари, саломатликни сақлаш ва мустаҳкамлаш, шунингдек унда соғлом турмуш тарзига ва жисмоний такомиллашишга, жисмоний машқлар ва спорт билан фаол шуғулланишга талабни шакллантириш тўғрисида чуқур билимлар берадиган тизимга ўтишни назарда тутади.

Ўқувчиларнинг жисмоний маданияти мактаб таълимидаги жисмоний тарбия таълими, саломатлик тадбирлари, соғломлаштирувчи машқ ва илмий-назарий билимлар асосида шаклланади. Мактабда жисмоний тарбия – бу ўқувчиларнинг жисмоний тайёргарлигидан, жисмоний фаолликни ташкил этиш кўникмаларини ўргатишдан, жисмоний тарбия назариясининг асосий билимларини ўзлаштиришдан иборат бўлган мураккаб, кўпқиррали жараёндир.

Фикримизча, ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантиришда жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишлари уларнинг кундалик эхтиёжига айланмоги зарур ва шу асосда жисмоний тарбия ва спорт ўқувчиларни хар томонлама ривожлантиришда, соғлом турмуш тарзида, баркамол инсон булиб етишишда асосий омил бўлиб хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги «2019 — 2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепциясига кўра, «жисмоний тарбия ва спортни фаол ривожлантириш, аҳолининг барча қатламларини, айниқса ёшларни жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб қилиш, жамиятда соғлом турмуш тарзининг фойдаси ва устунлигини кенг тарғиб қилиш, мамлакатда яратилган жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт инфратузилмасидан тўлақонли ва самарали фойдаланишни таъминлаш»[2] асосий мақсад сифатида кўрсатилган.

Умуман олганда, ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантиришнинг асосий вазифалари қуйидагиларлардан иборат: Соғлиқни мустахкамлашга, чиниқтиришга ҳар томонлама гармоник ва жисмоний ривожланишига, ақлий ҳамда жисмоний иш сифатини оширишга ёрдамлашиш. Соғломлаштириш жисмоний ривожлантириш ҳамда ҳаракат малака ва кўникмаларини шакллантириш вазифалари жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчилар ёши, жинси ҳамда шахсий ҳусусиятларига қараб турли шаклларда бўлади. Ўқувчиларнинг жисмоний тарбияси уларни уйғун жисмоний ривожланиши ва организмини чиниқтиришга қаратилган бўлса, спорт билан шуғулланишда спорт тури бўйича мутахасисликка эришиш ва спортда юксак натижалар кўрсатишга йуналтирилган бўлади.

Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантиришнинг асосий мақсади аста-секинлик билан уларни жисмоний камолотга эришиши ва шу аснода ҳаётга, ижодий меҳнатга ва Ватан мудофаасига тайёрлашни назарда тутади. Бу жараёндаги умумий вазифаларга билим бериш, жисмонан тарбиялаш ва соғломлаштиришни киритиш мумкин. Шунингдек, ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантиришнинг хусусий вазифалари ҳам мавжуд бўлиб, уларга: ўқувиларнинг соғлиғини мустаҳкамлаш, ривожлантириш ва чиниқтириш; турли хилдаги меҳнат фаолиятига тайёр бўлиш учун шу ёшга хос бўлган жисмоний сифатларни ривожлантириш; ҳаёт учун керакли ҳаракат малакалари ва кўникмаларини ривожлантириш ва кейинчалик керак бўладиганлари билан қуроллантириш; ўқувчиларга жисмоний маданиятга оид янги билимларни бериш; ўқувчиларни жисмоний машқлар билан мунтазам шуғулланишига қизиқтириш ва унга одатни шакллантириш кабилар киради.

Ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантириш ва жисмоний имкониятларини спорт орқали намоён қилишга имкон беришнинг асосий восита қилиб бошланғич синфлар учун гимнастика, енгил атлетика, ҳаракатли ўйинлар, экскурсия ва саёҳат ҳамда табиат қўйнида ўйналадиган ўйинлар ва жисмоний машқлар олинган бўлса, умумий ўрта таълимнинг юқори босқичларига жисмоний тарбия ва спорт турлари билан бирга соғлиги ёмонлашган болаларга махсус машғулотлар – даволаш гимнастикаси тарзидаги ёки махсус тиббий гуруҳга ажратилган болалар учун алоҳида машғулотлар йўлга қўйилиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ПФ-5924-сон Фармонида ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантириш учун «Ўзбекистон Республикаси Туризм ва спорт вазирлиги тизимидаги спорт мактаблари ўқувчи-спортчилари ўртасида «Болалар спорт ўйинлари»ни ўтказиш ва бу орқали иқтидорли спортчиларни аниқлаш ва ёшлар терма жамоаларига захира яратишга қаратилган умумтадбирларни алоҳида ўрни мавжуд. Шу билан бирга умумтаълим мактаби ўқувчилари ўртасида жисмоний тарбияни оммалаштириш, улар орасида иқтидорлиларини аниқлаш мақсадида «Умумтаълим мактаб спорти» фестивали, «Жисмоний тайёргарлиги ривожланган муассаса» кўрик-танловини босқичма-босқич ўтказиш тизимини ишлаб чиқиш ва жисмоний тайёргарлик даражаси ривожланган энг яхши умумтаълим мактаби, номинациясини жорий этиш»[3] ҳам ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантиришга кучли мотивация вазифасини ўтайди. Шунингдек, мазкур «Болалар спорт ўйинлари»нинг жамоавий ўйин турлари бўйича республика босқичи «ғолиб ва совриндорларни тайёрлаган жисмоний тарбия фани ўқитувчиларини республика календарь режасида назарда тутилган маблағлар ҳисобидан эгаллаган 1-ўрин учун меҳнатга ҳақ тўлаш энг кам миқдорининг — 6 баравари, 2-ўрин учун — 4 баравари, 3-ўрин учун — 3 баравари миқдорида бир марталик пул мукофотлари билан тақдирла»ниши, «умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчилари ўртасида ўтказиладиган жисмоний тарбия фан олимпиадасининг ғолиб ва совриндорларини тайёрлаган жисмоний тарбия фани ўқитувчилари ва спорт таълим муассасаларининг тренерлари малака аттестациясига жалб этилмасдан, уларга: туман ёки шаҳар босқичи ғолиб ва совриндорларини тайёрлагани учун — иккинчи малака тоифасини, вилоят босқичи ғолиб ва совриндорларини тайёрлагани учун — биринчи малака тоифасини ва республика ва халқаро мусобақалар ғолиб ва совриндорларини тайёрлагани учун — олий малака тоифасини тўғридан-тўғри бериш»[3] тартибининг жорий этилиши ҳам белгиланган бўлиб, бу тартиб ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантиришда ўқитувчи-мураббийлар фаолиятини рағбатларнитириш, бу фаолият жараёнида уларнинг ўрнини ва муносиб меҳнатини эътироф этишга қартаилганлиги билан ажралиб туради. Чунки, умумтаълим мактабларида ўқувчиларда жисмоний маданиятни шакллантиришда жисмоний тарбия ўқитувчиларини рағбатлантириш йўлга қўйилмаганлиги сабабли уларнинг ўз спорт тури бўйича қўшимча машғулотлар олиб бориш мотивацияси пасайиб кетмоқда. Бу эса уларнинг педагогик фаолиятига салбий таъсир кўрсатмоқда. Ўқувчилар билан ишлаш сифати ва самарадорлиги рағбатлантириш тизимнини ёки меҳнатга ҳақ тўлашнинг пастлиги асосида янада пасайиб кетмоқда.

Ўқувчиларда жисмоний қобилиятни, ҳаракат малакалари ва кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам берадиган, ўқувчи шахсини тарбиялашни биргаликда ҳамда айни пайтда ҳар томонлама (аҳлоқий, ақлий, эстетик, меҳнат тарбияси)

амалга оширадиган ёндашишни кўзда тутади. Жисмоний тарбия тизимидаги бундай мажмуавий ёндашиш «кишиларнинг индивидуал хусусиятлари, ёш ривожланиши босқичлари хусусиятлари, ҳаётнинг у ёки бу даврида асосий фаолият сифатида танланадиган жисмоний тарбия фаолияти турлари хусусиятлари ва бошқа вазиятларга кўра конкретлаштирилади»[4]. Демак, ўқувчиларнинг жисмоний имкониятларини ошириш, жисмоний таълим ва турли тадбирлар асосида жисмоний маданиятини шакллантириш орқали миллатни соғломлаштириш, ўқувчиларнинг ақлий салоҳиятини ҳам ўстириш имкониятига эга бўлиш мумкин.

Умумий ўрта таълим тизими ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг жисмоний маданиятини шакллантиришга қаратилган жисмоний тарбия дарс машғулотлари вазифалари болаларни жисмоний тарбия дастурда тавсия қилинган машқларни бажаришга, ўрганилган машқларни мустаҳкамлаш ва такомиллаштиришга, шунингдек, малака ва кўникмаларни ривожлантиришга ҳамда турли шароитда амалиётда қўллашга ўргатишга йўналтирилади ва шу орқали уларнинг жисмоний имкониятлари баҳоланади. Турли жисмоний машқларни бажариш имконияти ва қобилияиларини баҳолаш орқали уларни спорт турларига йўнлтириш мумкин бўлади. Шу билан бирга мактаб таълимидаги жимсоний тарбия ўқувчиларни соғлом турмуш тарзига тайёрлаши, йўналтириш, сағломлаштириш вункциясини юқори даражада бажариши керак бўлади. Ўқувчиларни соғломлаштириш билан боғлиқ фаолиятга йўналтириш жамиятда соғлом турмуш тарзи маданиятини шаклланишига таъсир кўрсатади. Шунингдек, мактабда ўқитиладиган барча фанларни табиат ва инсон саломатлигига боғлиқ эканини тушунтириб ўргатилганда унинг болалар онгига таъсири кучли бўлади. Жисмоний тарбия ўқувчиларнинг соғлиғини мустаҳкамлашда, уларни шахсий ҳар томонлама уйғун камол топтиришда муҳим бўлган кўникма ва малакаларни эгаллашда муҳим ўрин эга ҳисобланади. Зеро, мактаб ёши болаларнинг жисмоний ривожланиши ва тез ўсиш давридир, шунинг учун мактаб ўқувчиларни жисмоний ривожланиш, нормал ўсишни таъминлаш учун ҳам куч қувватни сарфлаш зарур.

Мактаб таълими жараёнида ўқувчиларнинг билим олиши ва ақлий ривожланиши билан бирга жисмоний холати, биологик ривожланиши, организмининг тузилиши ҳам такомиллашиб боради. Шу боис бошланғич таълимдаёқ ўқувчиларнинг табиий шаклланишида гармоник ривожланишини йўлга қўйиш керак бўлади. Бу орқали марказий нерв тизимидаги бошқариш функцияси, ҳаракат таянч аппарати фаолияти ишини, юрак-томир, нафас олиш органлари ишини янада ривожлантиришга эътибор берилади, булардан ташқари қоматни тўғри тута билишга ўргатилади. Бу жараёнга шахсий гигиена қоидаларига оид билимлар қўшиб бериш билан тарбия жараёни такомиллаштириш талаб этилади. Шунинг учун хам ўқитувчи ўз фаолиятини янада такомиллаштириши, ўқитувчи фаолияти самарадорлигининг ўлчови, ўкувчиларнинг дарс ва машғулотларга катта қизиқиш билан катнашишлари ва ундан коникиш хосил килишлари, ўкитувчи билан

ўқувчилар ўртасидаги ижтимоий-рухий муҳит, ўқувчиларда бўлган ижобий ўзгаришлар, уларнинг эришган ютуклари, ўқувчиларда жисмоний тарбия ўқитувчиси бўлиш орзусининг пайдо бўлишидир.

Бугунги кунда узлуксиз таълимда жисмоний маданиятни шакллантириш орқали илм олувчиларнинг ақлий, руҳий ва жисмоний бардошлилигини чиниқтириш, уларнинг ақлий ва жисмоний қувватини интеграциялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бардошлилик глобал аҳамият касб этиб бормоқда ва глобаллашаётган дунёда инсонларнинг иродасини синовчи, мушкуллик туғдирувчи вазифалардан бирига айланмоқда. Янги мингйиллик фарзандларида тоқат ва чидамлилик йўқолиб бормоқда. Ҳаёт синовларининг мураккаблашуви ҳам инсонларнинг руҳий мувозанатсизлик холатига келтириб қўймоқда. Бундай вазиятда инсонларда сабр-тоқат, бардошлилик нозиклашиб бораверади. Шунинг учун ҳам кичик ёшдан бошлаб толерантлик кўникмаларини шакллант ириш долзарб ижтимоий-сиёсий ва педагогик муаммо сифатида гавдаламоқда. Шу боис ўқувчи-ёшларни бошланғич таълимданоқ бошқаларнинг фикри, қарашлари, эътиқоди, ахлоқига саб-тоқат, чидамлилик, тоқатлилик ва барошлилик, бағрикенглик билан муногсабатда бўлишга ўргатиш зарурати ортиб бормоқда. Зеро, «биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак**.** Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим»[5].

ХУЛОСА

Ўзбекистон Республикаси Президенти 2020 йил 29 декабрдаги Мурожаатномасида яна қуйидаги фикрларни юбилдириб ўтган: Шу мақсадда «Янги Ўзбекистон – мактаб остонасидан, таълим-тарбия тизимидан бошланади», деган ғоя асосида кенг кўламли ислоҳотларни амалга оширамиз.

Биринчидан, ёш авлодга боғча, мактаб ва олийгоҳда сифатли таълим-тарбия беришни йўлга қўямиз, улар жисмоний ва маънавий соғлом, ватанпарвар инсонлар бўлиб улғайиши учун барча куч ва имкониятларни сафарбар этамиз.

Иккинчидан, ёшларни замонавий билим ва тажрибалар, миллий ва умумбашарий қадриятлар асосида мустақил ва мантиқий фикрлайдиган, эзгу фазилатлар эгаси бўлган инсонлар этиб вояга етказамиз.

Учинчидан, ўғил-қизларимизни меҳнат бозорида талаб юқори бўлган замонавий касб-ҳунарларга ўргатиш, уларда тадбиркорлик кўникмалари ва меҳнатсеварлик фазилатларини шакллантириш ҳамда ташаббусларини рўёбга чиқариш, иш ва уй-жой билан таъминлашга устувор аҳамият қаратамиз. Бир сўз билан айтганда, бола туғилганидан бошлаб, 30 ёшгача бўлган даврда уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлайдиган, ҳаётда муносиб ўрин топиши учун кўмак берадиган, яхлит ва узлуксиз тизим яратилади»[5]. Бу орқали ўқувчиларни ақлий ва

жисмоний имкониятларини ошириш, улардан оқилона фойдалниш кўникмаларини шакллантириш ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. – Б. 219.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг«2019 — 2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 118-сон. Қарори. 2019 йил 13 февраль

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» тўғрисидаги ПФ-5924-сон Фармони. 2020 йил 24 январь.

4. Губа В.П. и др. Измерения и вычесления в спортивно-педагогической практике. Москва.:Спорт академ Пресс, 2002. –С.86.

5. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси //https://president.uz/uz/lists/view/4057

6. Siddikov, I., &Gulomov, A. (2020). Philosophical And Psychological Features Of The Formation Of Asertive Behavior In The Development Of Cognitive Activity. In Психологическое Здоровье Населения Как Важный Фактор Обеспечения Процветания Общества (Pp. 38-42).

7. Bakhromovich SI. Analysis Of Modern Approaches To Ensuring The Effectiveness Of Management In Higher Education Institutions. The American Journal Of Social Science And Education Innovations. 2020;2(12):364-9.

8. Siddikov, I. B. (2019). Философско-Педагогические Аспекты Развития Интеллектуальной Культуры Студентов. Вестник Ошского Государственного Университета, (3), 38-42.

9. Bakhromovich Si. The Impact Of Managerial Professional Development On The Effectiveness Of Higher Education Institution Management. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020;10(12):1014-20.

10. Bakhromovich, S. I., &Lutfillo, M. (2021). Development Of Ecological Culture In Students In The Process Of Education Of History Of Uzbekistan.

11. Siddikov, I. (2021). Education-The Principal Value Of Medieval Muslim Civilization. Interconf.

12. Siddikov, I. (2021). Gender Management Issues In Modern Pedagogy In Educational Institutions.

12. Bakhromovich, S. I. The Phenomenon Of Management And Leadership Personality In The Views Of Oriental Scholars. Chief Editor.

13. Siddikov, I. B. (2021). Modern Models Of Providing Autonomy Of Higher Educational Institutions (Analysis Of Foreign Countries Experience). Current Research Journal Of Pedagogics (2767-3278), 2(05), 25-31.

14. Bakhromovich, S. I. (2021). Development Trends And Transformation Processes

In Academic Mobility In Higher Education In Uzbekistan And The World.

15.Bakhromovich, Siddikov Ilyosjon, And Maxamadaliev Lutfillo. "Development Of Ecological Culture In Students In The Process Of Education Of History Of Uzbekistan. European Journal of Humanities and Educational Advancements 2 (5), 103-107

16. Siddikov, I. (2021). Traditions Of Philosophy, Fiqh And Philosophy In The Theological Views Of The Middle East. Interconf.

17. Bakhromovich, S. I. (2021). Factors Of Introduction Of Principles Of Institutional Autonomy To The Management Process Of Higher Educational Institutions. Berlin Studies Transnational Journal Of Science And Humanities, 1(1.5 Pedagogical Sciences).

18. Siddikov, I. (2021). Epistemological Significance Of Medieval Culture Of Islamic Intellectual Activity. Interconf.

19. Bakhromovich, S. I. (2021). Views On The Role Of Science In Human And Society Life In Islamic Teaching. International Journal Of Philosophical Studies And Social Sciences, 1(3), 79-86.

20. Bakhromovich, S. I. (2018). Social AndPhilisophical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. European Science Review, (7-8).

21. Siddikov, I. (2021). Epistemological Significance Of Medieval Culture Of Islamic Intellectual Activity. Interconf.

22. Siddiqov, I. (2022). Dialectical And Synergetic Features Of The Development Of Theological And Epistemological Views In Medieval Eastern Islam.

23. Siddiqov, I. B. (2022). Mutual Synthesis Of Medieval Islam Gnoseology And Theology.

24. Siddiqov, I. B. (2018). Social And Philisophical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. European Science Review, (7-8), 296-298.

25. Bakhromovich, S. I. Social And Physical Performance Of Making Youth's Intellectual Culture. July–August, 289.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

TRANSPORT FLOW MODELING ON THE BASE OF PTV VISSIM SOFTWARE

Xakkulov Komil Boxodirovich[1]

Jizzakh Polytechnic Institute

KEYWORDS

parking lot, car, deceleration, road surface, road tests, pneumatic tire, climatic conditions

ABSTRACT

This article aims to study the factors affecting the traffic flow in the city of Jizzakh (parking space on the street network) and develop appropriate proposals. In this article, a parking place was designed on Sh. Rashidov street road network of Jizzakh city and a road sign that works depending on the speed of traffic flow on the street road network was proposed. Also, in the example of the city of Jizzakh, an optimal solution for the optimal location of parking lots has been developed using the Park & Ride system.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7198923
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher of TVM department, Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan (hakkulov1987@mail.ru)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

PTV VISSIM DASTURI BAZASIDA TRANSPORT OQIMINI MODELLASHTIRISH

KALIT SO‘ZLAR:
avtoturargoh, avtomobil, sekinlashuv, yo’l yuzasi, yo’l sinovlari, pnevmatik shina, iqlim sharoiti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Jizzax shaxridagi transport oqimiga ta’sir qiluvchi omillar (ko‘cha yo‘l tarmog‘idagi parkovka joyi)ni o‘rganib maqbul takliflar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqolada Jizzax shaxri Sh.Rashidov ko‘cha yo‘l tarmog‘ida parkovka joyi loyihalashtirildi hamda ko‘cha yo‘l tarmog‘ida transport oqimining jadalligiga qarab ishlovchi yo‘l belgisi taklif qilingan. Shuningdek Jizzax shaxri misolida Park & Ride tizimidan foydalangan holda parkovkalarning maqbul joylashishi bo‘yicha maqbul yechim ishlab chiqilgan.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ ПОТОКОВ НА БАЗЕ ПРОГРАММЫ PTV VISSIM

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
стоянка, автомобиль, торможение, дорожное покрытие, дорожные испытания, пневматическая шина, климатические условия

АННОТАЦИЯ

В данной статье ставится задача изучить факторы, влияющие на транспортный поток в городе Джизак (парковочные места на уличной сети) и разработать соответствующие предложения. В данной статье было спроектировано место для парковки на улице Ш.Рашидова дорожно-транспортной сети города Джизак и предложен дорожный знак, работающий в зависимости от скорости транспортного потока на улично-дорожной сети. Также на примере города Джизак разработано оптимальное решение по оптимальному расположению парковок с использованием системы Park&Ride.

Transport infratuzilmasi shaharlar va mintaqalar hayotini ta'minlovchi eng muhim infratuzilmalardan biridir. So'nggi o'n yilliklarda ko'plab yirik shaharlar transport tarmoqlarini juda keng rivojlantirdi va rivojlantirayabdi. Shu sababli, tarmoqni maqbul rejalashtirish, transport harakatini boshqarishni takomillashtirish va jamoat transporti yo'nalishlari tizimini optimallashtirish alohida ahamiyatga ega.

Bunday masalalarni transport tarmoqlarini matematik modellashtirishsiz hal qilish mumkin emas. Matematik modellarning asosiy vazifasi transport tarmog'ining barcha parametrlarini aniqlash va prognoz qilishdan iborat, masalan, barcha tarmoq elementlaridagi trafik intensivligi, jamoat transporti tarmog'idagi trafik hajmi, trafikning o'rtacha tezligi, vaqtning kechikishi va yo'qotilishi va boshqalar.

Transport tarmog'ining transport infratuzilmasi va transport oqimlarini

modellashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Trafik oqimlarini simulyatsiya qilish
- Trafikni boshqarish loyihalari uchun simulyatsiya modellarini yaratish
- Trafikni boshqarish loyihalarini tahlil qilish.
- Simulyatsiya modellari bo'yicha mehmonxona ishi
- Optimal svetoforni boshqarish davrini tanlash
- Muayyan hududlarda to'xtash joylarini tashkil etish
- Trafikni boshqarish loyihalarini optimallashtirish
- Transport infratuzilmasi ob'ektlarining 3D modellarini yaratish (Vizualizatsiya va animatsiya maqsadida qo'shni me'morchilikka ega yo'l va ko'cha uchastkalarining simulyatsiya modellarini yaratish)
- Yo'l harakati video-simulyatsiyasini yaratish

Transportni boshqarish arxitekturasi

Transport telematika tizimlari arxitekturasi ITTni tashkil etishning. asosiy tamoyillarini va ITT bo‘limlari o‘rtasidagi o‘zaroaloqalari va tashqi muxit bilan bo‘lgan aloqalarini belgilaydi hamda ITTni ishlab chiqish, tadbiq etish va foydalanish samaradorliti baholash kabi masalalarnn yoritadi. ITT arxitekturasi chegarasi doirasida zarur foydalanuvchilar va buyurtmachi individual extiyojidan kelib chiqqan xolda loyihalashtirish jarayonida multimezonln yondashuvlar taklif etilishi mumkin.

Xozirgi kunda ITT arxitekturasini ko‘rishda ikkita asosiy yondashuvlardan amaliyotda keng foydalanilayapti. ITT arxitekturasidan amaliyotda foydalanish davlat va tijorat tarkibidagi tashkilotlarga mo‘ljallangan maxsus ta’lim dasturn bilan qo‘llab - quvvatlanadi. ITT arxitekturasi uchta darajadan iborat: ikkita texnik (transport va kommunikasion) va tashkiliy daraja. Texnik darajalar tizimining komponetlarini o‘z ichiga qamrab oladi, tashkiliy esa - ularning o‘zaro xatti-xarakatlarni qo‘llab - quvvatlashni ta’minlaydi.

Transport darajasi o‘zarobog‘liq bo‘lgan 22ta kichik tizimlarni qamrab olgan va ular to‘rt sinflarga taksimlangan: yo‘lovchilar, boshqarish markazlari, transport vositasi va yo‘l. Kommunikasiya darajasi kichik tizimlar orasidagi aloqal arni ko‘rsatadi. Xar bir kichik tizim uskunalar yig‘indisiga (Equipment Packages) ajratiladi. ular o‘z navbatida ITT xizmatlari va extiyojlarini xisobga olgan xolda xar xil kichik tizimlarni alohida guruxlarga mustaqil ravishda birlashtiradi.

Tizimning funksionalligi ITTni logistik arxitekturasini ishlab chiqish bilan belgilanadi va tizimdagi ma’lumotlar oqimini diagramma ko‘riniщida ifoda etadi. Bundan keyin yagona telematik yechimni shakllantiruvchi kichik tizimlar tanlanadn. Shunday qilib, soddalashtirilgan tuzilmaning funksional va informasion aloqalari aniklanadi va boshqaruvning ma’kul bo‘lgan strategiyasi tanlanadi.

Transport oqimlarini shahardagi boshqarish tizimining amaliyotdagi mavjud bo‘lgan taqsimlanishi transport jarayonlarini boshqarishning klassik yondashuvidan kelib chiqqan xolda eng kuyi darajada chorraxada svetoforlar ishlab turgan davrda odatda uch bosqichli pog‘onalar bilan tavsiflanadi.

Odatda ushbu darajada transport oqimlarini boshqarish vositalaridan master deb nomlangan turi tanlanadi va ular slave turidagi boshqarish vositalari faoliyatini muvofiqlashtiradi yoki bir xil xarakatlantiradi. “Yashil to‘lqin” deb nomlangan transport oqimini boshqarish ilovasidan ketma - ket xarakatlanuvchi transport vositalar oqimini boshqarishda foydalaniladi.

Ikkinchi darajada boshqarish vositalarining ma’lumotlari mujassamlashtiriladi. Natijada yuqorida keltirilgan markaz va transportni boshqarish vositalari o‘rtasidagi aloqa kanallariga talablar pasayadi. Istisno tarzda bu darajada xam boshkarish jarayonida svetoforlardan foydalaniladi. Bunday xolatda ma’lumotlarni yig‘uvchi sifatida lokal transport markaziy stansiyasi ishlatiladi.

Uchinchi eng yukori darajada ma’lumotlarga ishlov beruvchi va boshqarish vositalari bilan aloqani bog‘lovchi kompyuter ishlaydi. Ushbu darajada odatda dispetcherlik nazorati olib boriladi va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining faoliyati doirasida dispetcherlar yordamida transport oqimidagi favkuloddagi vaziyatlar va talablarga mos ravishda transport vositalarni xarakatlari tashkil etiladi.

Quyida telematik tizimlarni batafsil va bosqichma - bosqich ko‘rib chiqamiz.

Birinchi daraja shahar tizimidagi alohida transport uzellaridan tashkil topgan. Oddiy ko‘rinishda transport uzeli sifatida chorraxadagi svetofor hamda yopiq to‘xtab turish joylari, ogohlantirish vositalari, transport okiminining teligini chegaralovchi, tonnellarni boshqarish tizimi va x.k. faoliyatni amalga oshiradi. Doimiy ravishda so‘z nisbatan transport detektorlari, svetofor signallari yoki boshqariladigan yo‘l belgilari va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi tomonidan shakllantirilgan yopik uzeli to‘g‘risida yuritiladi. Bunday konsepsiyaga asoslangap lokal boshqarish tizimi boshqa transport uzellari yoki yuqoridagi boshqarish markazi bilan belgilaigan axborot va funksional aloqalarga ega

Ikkinchi daraja. Shahar xududining transport tizimi transport uzellaridan shakllangan, ular o‘z navbatida bir xil ko‘rinishidagi texnologiyalar asosida nisbatan yopiq topologik majmualaridan tashkil topgan. Topologik majmua deb misol, alohida belgilangan shahar xududida o‘zaro aloqalarga ega bo‘lgan transport oqimlarini boshqarish vositalari xisoblanadi. Bunga teskari misol, shahar ichida xar xil xududlarda joylashgan o‘xshash texnologiyalarni namoyish etuvchi to‘xtab turish bekatlarini Park and Ride turidagi boshqarish tizimi yoki avtotransport tonnellarida xarakatlarni boshqarish tizimlari. Shuning uchun ikkinchi darajadagi boshqarish viloyat darajasidagi boshqaruv deb xisoblanadi mazmunida topologik va texnologik uzellaridagi boshqaruvga bo‘linadi.

Boshqarish jarayonlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan bu darajadagi vaqtinchalik boshqarish oddiy ko‘rinishida svetofor ob’yektlari tomonidan bajariladi lekin ularning kamchiligi transport oqimini tezkor o‘zgarish xolatiga reaksiya bera olmaydi. Shuning uchun xam zamonaviy telematik tizimlarida transport oqimlariga bog‘liq va moslashuvchan boshqaruv amalga oshiriladi va unda asosiy e’tibor transport uzellarining konfigurasiyasiga (tuzilmasi) karatiladi.

Nisbatan oddiy vaziyat deb uzellarni chiziqli joylashuvi hisoblanadi va uni boshqarish algoritmlarini oson yo‘l bilan aniqlash mumkin, chunki transport oqimlarini

optimallashtirish ikki tomonlama yo‘nalishiga tegishli.

Bunday xolatda nisbatan murakkab optimallashtirish turlaridan tarmoqdagi transport vositalarining ko‘pyo‘nalishli xarakatlarini qamrab oluvchi TRANSYT usulini tanlash lozim. Uzellarning joylashuvi bo‘yicha topologik xududlari quyidagicha bo‘linadi:

- yassi (tekis) konfigurasiya xududiga;
- chiziqli (arterial) konfigurasiya xududiga.

Uchinchi daraja. Transport majmuasini boshqarish eng yuqori iyerarxiya darajasiga ega. Odatda u bir nechta doiradan (qism, bo‘lim) iborat.

Uchinchi darajada alohida viloyatlar markaziy boshqarish punktlari mujassamlashtirilgan (svetofor ob’yektlari, tonnellar, to‘xtab turish joylari va boshqalar). Xozirgi vaqtda boshqarish tizimi majmuasini loyihalashtirganda transport oqimlarini integrallashgan boshqarish tizimi tushunchasi kiritish lozim (Integrated Traffic Management - ITM).

Ushbu darajada transport vositalarning tiqilib (zator) qolishi yoki boshqa favquloddagi vaziyatlarda boshqarish tizimi va nazorat qiluvchi televizion tizimlari ishlatiladi. Odatda ushbu tizimlar avtomatik ravishda ishlaydi va zarur bo‘lgan xollarda dispetcher tomonidan aralashuvga imkon yaratadi. Favqulotdagi vaziyatlarda boshqarishni amalga oshirishda ekspert tizimlari yordam beradi va avtomatik ravishda favquloddagi vaziyatda paydo bo‘lgan muammolarni yechishga imkon yaratadi. Barcha mavjud tizimlarning o‘zaro faoliyatini muvofiqlashtirishni ta’minlash va yagona tuzilmani shakllantirish juda muxim hisoblanadi. Telematik boshqaruv tizimi uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar tarmoqlarning barcha joylarida hohlagan vaqtda foydalanish uchun mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shahar xududida nafaqat uzellar tarmog‘i balki mamlakat xududida avtomagistrallarni boshqarish tizimi ham majmua sifatida qabul qilinishi mumkin, masalan, xalqaro darajada xavfli yuklarni tashish tizimi (RISC management).

Transport oqimi o‘rganilayoyotganida ular grafik, epyura, kartogramma, siklogramma yoki jadval ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin.

Transport oqimi yo‘nalishning uzunligi va kunning soatlari bo‘yicha notekis taqsimlanadi. Transport oqimini kunning soatlari bo‘yicha o‘zgarishini ko‘radigan bo‘lsak unda ikkita transport oqimi eng katta bo‘lgan davrlarni kuzatish mumkin. Bu davrlar tig‘iz vaqt (pik) deb nomlanadi.

Transport oqimini kunning soatlari bo‘yicha o‘zgarishi “Transport oqimini kunning soatlari bo‘yicha notekislik koeffitsienti” orqali tavsiflanadi:

$$\eta = \frac{Q_{\max}}{Q_{ypm}} \quad 1$$

bu erda: Q_{max} - eng katta bir soatlik transport oqimi (ikkala yo‘nalish bo‘yicha); $Q_{o‘rt}$ - ikkala yo‘nalish bo‘yicha transport oqimining bir soatlik o‘rtacha qiymati.

Transport oqimining miqdori transport vositalari qaysi tarafga harakatlanayotganligiga qarab ham har xil taqsimlanishi mumkin. Bu notekislik “Transport oqimini yo‘nalish bo‘yicha notekislik koeffitsienti” yordamida baholanadi:

$$K_y = \frac{Q_{o'rt\max}}{Q_{o'rt\min}} \quad 2$$

bu yerda: $Q_{o'rtmax}$ -eng ko‘p transport oqimi bo‘lgan harakat yo‘nalishidagi transport vositalari oqimining o‘rtacha qiymati;

$Q_{o'rtmin}$ - eng kam transport oqimi bo‘lgan harakat yo‘nalishidagi transport vositalari oqimining o‘rtacha qiymati.

PTV Vissim dasturi bazasida transport oqimini modellashtirishda obyekt sifatida Jizzax shaxrining Sh. Rashidov ko‘chasi *(https://www.google.com/maps/@40.1357156,67.8235391,442m/data=!3m1!1e3)* ko‘cha yo‘l tarmog‘i olindi.

Sh. Rashidov ko‘chasi transport oqimi jadval usuli yordamida o‘ganildi.

Jadval usuli odatda haftaning bironta ish kunida (ko‘pincha chorshanba va payshanba) bir paytda shahar yo‘lovchi transportining barcha turida (istisno tariqasida tanlab olingan yo‘nalishalarda) bir paytda yo‘lovchilar talabini o‘rganish uchun qo‘llaniladi.

Bunda transport korxonalaridagi odamlar kamchilikni tashkil qilgani uchun unga kollej va institut talabalari ham jalb etiladi.

Kuzatishni o‘tkazish uchun maxsus jadvallar tayyorlanadi va yetarli miqdorda ko‘paytiriladi. Bir nechta yo‘nalishlar uchun hisobchilar guruhi va uning rahbari tayinlanadi. Hisobni boshlashdan oldin guruh rahbarlari jadvalni to‘ldirish qoidalari bo‘yicha hisobchilarga yo‘riqnomalar berishadi. SHu bilan bir paytda yo‘lovchi oqimini o‘rganish uchun ba’zi bir tashkiliy masalalar ham hal etilishi kerak. Masalan, hisobchilar kuzatish kuni qaerda to‘planadilar va hisobni boshlash joylariga va hisobot tugagandan keyin o‘z manzillariga qanday etkazib qo‘yiladi, dam olish grafigi va boshqalar.

O‘rganish natijasida Sh. Rashidov ko‘chasining transport o‘tkazuvchanlik qobilyati aniqlandi (1-jadval).

1-jadaval

Vaqt	Yengil avtomobil	Yuk avtomobil	Avtobus	Mikroavtobus	Jami
7:00	32		5	0	37
7:05	46		3	0	49
7:10	32		3	0	35
7:15	53		5	0	58
7:20	65		6	0	71
7:25	67		2	1	70
7:30	75	1	0	2	78
7:35	95		6	0	101
7:40	122		3	0	125
7:45	174		2	0	176
7:50	129		6	0	135
7:55	194		1	0	195
8:00	170		3	0	173
8:05	131		5	0	136
8:10	174		2	1	177
8:15	127	1	4	0	132
8:20	120		4	0	124
8:25	142		4	0	146
8:30	117		7	1	125
8:35	133		3	0	136
8:40	164		5	0	169
8:45	152		4	0	156
8:50	176		5	0	181
8:55	164		6	0	170
Жами	**2854**	**2**	**94**	**5**	**2955**

Taxlil natijalariga ko‘ra Transport oqimining tig‘iz (pik) vaqti soat 7:45 dan 8:10 gacha ekanligi aniqlandi (3-rasm).



1-rasm. Transport oqimining diagrammasi

Transport oqimining taxlil natijalariga asosan PTV Vissim dasturi bazasida transport oqimini modellashtirish orqali yo‘lning o‘tkazuvchan qobilyatiga doir bir qancha ko‘rsatgichlar aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Joriy holat
1.	Xizmat ko‘rsatish darajasi (LOS)	D
2.	Navbatning o‘rtacha uzunligi	44
3.	Transport vositalari soni	1824
4.	O‘rtacha kechikish (av/sekunt)	30.4
5.	Zarrali gazlar CO (gram)	2743
6.	NOx (gram)	533
7.	Yonlig‘i sarfi (litr)	39.2

2-rasm. Sh.Rashidov ko‘chasi. Tadqiqot ob’ekti

3-jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Modellashtirishdan keyingi holat
1.	Xizmat ko‘rsatish darajasi (LOS)	B
2.	Navbatning o‘rtacha uzunligi	102
3.	Transport vositalari soni	3140
4.	O‘rtacha kechikish (av/sekunt)	1.04
5.	Zarrali gazlar CO (gram)	3878
6.	NOx (gram)	754.4
7.	Yonlig‘i sarfi (litr)	55.47



3-rasm. Sh.Rashidov ko‘chasi. Tadqiqot ob’ekti

Ko‘cha yo‘l tarmog‘ida transport vositalari harkat oqimining tig‘iz (peak) vaqtida ya’ni soat 7:45 dan 8:45 gacha ko‘cha yo‘l tarmog‘ida parkovka qilishga ruxsat berilmaydi. Ushbu yo‘l belgisi elektron tablo ko‘rinishida bo‘lib belgilangan ya’ni tig‘iz vaqt tugagandan so‘ng parkovka qilishga ruxsat beruvchi belgi bilan almashadi (4-rasm).

4-rasm. Belgilangan vaqt mobaynida parkovka qilishga ruxsat berilmaydi.

Ko‘cha yo‘l tarmog‘ida transport vositalari harkat oqimining tig‘iz (peak) bo‘lmagan vaqtida ya’ni soat 8:45 dan 18:15 gacha ko‘cha yo‘l tarmog‘ida parkovka qilishga ruxsat

beriladi. Ushbu yo‘l belgisi elektron tablo ko‘rinishida bo‘lib belgilangan ya’ni tig‘iz vaqt tugagandan so‘ng parkovka qilish taqiqlanadi yo‘l belgisi bilan almashadi (5-rasm).

5-rasm. Belgilangan vaqt mobaynida parkovka qilishga ruxsat beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T: O‘zbekiston, 2017.

2. Sh.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. T: O‘zbekiston, 2017.

3. Sh. Mirziyoyev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” .- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza : O‘zbekiston, 2017.

4. «Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Jizzax, Sharq nashriyoti matbaa konserni, 1998

5. “Ta’lim To‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘RQ-637, 23.09.2020 yil [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/-5013007.

6. “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (1998 yil 29-avgust, 674-I-son).

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2019 yil 19 apreldagi VM-336-sonli Qarori [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/-4300863.

8. O‘zbekistonda jamoat transportida yo‘lovchilarni tashishni tashkil etishda “Transport to‘g‘risida” (O‘RQ-706 09.08.2021)

9. Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida” (419-I 25.04.1997)

10. “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (370 24.12.2015)

11. Vazirlar Mahkamasining “Shahar yo‘lovchi tashish transporti tizimini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (13.11.2013 yildagi 308-son).

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

WATER-PHYSICAL PROPERTIES OF IRRIGATED SOILS IN ZHAMBAY REGION

B.R. Kuchkarov

KEYWORDS

water-physical properties, field capacity, capillary capacity, total capacity, meadow-alluvial, hygroscopic moisture, maximum molecular moisture

ABSTRACT

The article analyzes the current state of the water-physical properties of irrigated meadow-alluvial soils of the Zhambay district of the Samarkand region. The general physical properties of irrigated soils, indicators of maximum hygroscopic and fading moisture, moisture capacity, and the number of water-resistant aggregates directly affect their water, air, heat, and nutritional regimes. The presence of these factors at the optimal level leads to the growth and development of crops, and high yield.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7198997
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ЖОМБОЙ ТУМАНИ СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРИНИ СУВ-ФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИ

KALIT SO‘ZLAR:
сув-физикавий хоссалар, дала нам сиғими, капилляр нам сиғими, тўла нам сиғими, ўтлоқи-аллювиал, гигроскопик намлик, максимал-молекуляр намлик

ANNOTATSIYA
Мақолада Самарқанд вилояти Жомбой тумани суғориладиган ўтлоқи-аллювиал тупроқларининг сув-физикавий хоссаларининг ҳозирги кундаги ҳолати таҳлил қилинган. Суғориладиган тупроқларнинг умумий физикавий хоссалари, максимал гигроскопик ва ўсимликнинг сўлиш намлиги кўрсаткичлари, нам сиғимлари, сувга чидамли агрегатлар миқдори бевосита унинг сув, ҳаво, иссиқлик, озиқа режимига таъсир қилади. Ушбу омилларнинг мақбул кўрсаткичларда бўлиши қишлоқ хўжалиги экинларининг ўсиши ва ривожланишига, ҳосилдорлиги юқори бўлишига олиб келади.

ВОДНО-ФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ ЖАМБАЙСКОГО РАЙОНА

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
водно-физические свойства, полевая влагоемкость, капиллярная влагоемкость, полная влагоемкость, лугово-аллювиальная, гигроскопическая влага, максимально-молекулярная влага

АННОТАЦИЯ
В статье проанализировано современное состояние водно-физических свойств орошаемых лугово-аллювиальных почв Жамбайского района Самаркандской области. Общие физические свойства орошаемых почв, показатели максимальной гигроскопической и увядающей влаги, влагоемкость, количество водоупорных агрегатов непосредственно влияют на ее водный, воздушный, тепловой и питательный режимы. Наличие этих факторов на оптимальном уровне приводит к росту и развитию сельскохозяйственных культур, высокой урожайности.

КИРИШ.

Ҳозирги вақтда республикамизда ер ва сув ресурсларидан, айниқса қишлоқ хўжалиги ерлари тупроқларидан оқилона ва самарали фойдаланишни ташкил этиш, уларни муҳофазалаш, экологик-мелиоратив ҳолатини яхшилаш, унумдорлигини сақлаш ва ошириш энг устивор вазифалар қаторида Ҳукуматимиз диққат-эътиборида бўлиб келмоқда. Хусусан, Республикамизда суғориладиган тупроқларнинг экологик-мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва улардан самарали фойдаланишга қаратилган бир қатор фармонлари, фармойишлари ва қарорлари қабул қилинган.

Ўтлоқи-аллювиал тупроқларнинг сув-физик хоссалари тупроқни унумдорлик

ва ишлаб чиқариш қобилиятларини баҳолашда, турли гидромелиоратив тадбирларини ишлаб чиқиш, қолаверса тупроқнинг ички нурашини баҳолашда ва тупроқда рўй бераётган бошқа кўпгина физик- кимёвий, биологик жараёнларни баҳолашда, сув турлари ва режими тўғрисидаги маълумотлар амалий ва назарий аҳамиятга эга.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ.

Чўл ва бўз тупроқлар минтақасидаги суғориладиган тупроқларнинг ўрганиш тарихи ва Ўзбекистон Республикаси тупроқшунослик фанининг ҳолати, ютуқлари ва келажакдаги асосий ривожланиш йуналишлари Н.В.Кимберг, М.У.Умаров, А.З.Генусов, Б.В.Горбунов, Н.А.Буцков, О.Камилов, Х.М.Махсудов, Г.И.Вайлерт, К.П.Паганяс, Е.К.Круглова, Горбунов Б.В., Кимберг Н.В, Қўзиев Р.Қ., Курвантаев Р ва бошқаларнинг ишларида атрофлича кўрсатилган ва ҳар томонлама таҳлил қилинган [1,2,3,4,5,6].

ТАДҚИҚОТНИНГ ОБЪЕКТИ ВА УСУЛЛАРИ.

Зарафшон дарёсининг ўрта оқими ҳисобланган Жомбой туманида тарқалган ўтлоқи-аллювиал тупроқлари ҳисобланади. Тупроқ тадқиқотлари Республикада умумқабул қилинган услублар асосида олиб борилди.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМАЛАР.

Тупроқда сувнинг кўп турлари учрайди ва уларнинг барча тупроқ ҳосил бўлиш жараёнига ўз таъсирини ўтказади. Бироқ шуни таъкидлаш жоизки, тупроқдаги барча сув турлари ҳам қишлоқ хўжалиги экинлари фаолиятига бир хил таъсир қилмайди. Қуйида биз ўрганилган тупроқнинг сув хоссалари, уларнинг турлари тўғрисида батафсил тўхталиб ўтамиз.

Тупроқда мавжуд адсорбцион ва молекуляр кучлар таъсирида ушлаб туриладиган ва ўсимликлар томонидан қийин ўзлаштириладиган сув шакллари мавжуд. Булар - гигроскопик, ўсимлик сўлиш намлиги (СН) ва максимал молекуляр сувлар киради [1,2,3,4,5,6].

Гигроскопик сувнинг миқдори, даставвал тупроқларнинг механик таркиби, гумус, сувда эрувчан тузлар миқдорига, қолаверса тупроқларнинг сингдириш сиғимига, сингдирилган элементларнинг турига хам боғлик бўлади. 1-жадвалда келтирилган маълумотларнинг далолат беришича, ўрганилган барча аллювиал тупроқларда гигроскопик намлик бугун профил буйича *1-2 %* ўртасида тебраниб туради. Бу тебраниш юқори қатламларда гумус миқдори билан боғлиқ бўлса, пастки қатламларда эса асосан тупроқнинг механик таркиби билан боғлиқ бўлади. Юқорида баён қилганимиздек, аллювиал тупроқлар асосан оғир қумоқли бўлганликлари сабабли паст солиштирма юза ва юза энергиясига эга.

МГ ўрганилган тупроқларда бутун профил буйича 3-6 % ўртасида тебраниб туради ва бу тебраниш асосан тупроқларнинг гумуси ва механик таркибига боғлиқ бўлади. Тупроқдаги яна бир мухим қийин ўзлаштириладиган сув тури-бу ўсимлик сўлиш намлигидир (СН). Биз томонимиздан ўрганилган ўтлоқи аллювиал тупроқларда СН максимал гигроскопик намликни 1,75 коэффициента кўпайтириш

йўли билан ҳисобланади ва у 1-жадвалда ўз ифодасини топади. СН кўрсатгичи қийин ўзлаштириладиган бошда сув шакллари сингари энг олдин тупроқларнинг механик таркибга боғлиқ холда ўзгаради. СН таъсир қилувчи иккинчи омил борки, бу тупроқларнинг шўрланганлик даражаси ҳисобланади, бирок СН га таъсир қилувчи бу омил биз томондан ўрганилган тупроқларда йуқ.

Ўсимликларни сўлиш намлигини аниклаш, энг олдин экинлар ҳосилдорлигини мунтазам холда ошишини таъминловчи омил ҳисобланади. Вегетация даврида СН гини бир неча соатга тушириш асосий қишлоқ хўжалик экинларини, жумладан пахтани, қолаверса барча экинлар ҳосилдорлигини 15-20 % гача камайишига олиб келиши исботланган [1,2,3,4,5,6].

1-жадвалда 0-30; 30-50; 0-50; 50- 100; 100-200; 0-200 см чуқурликларда СН захираси м^{3}га хисобида берилган. Бу маълумотлардан кўриниб турибдики, суғориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқларда СН кўрсатгичидаги сув заҳираси 0-50см да 600-700 м^3 га, 0-100 см да эса 800-1200 м^3 га ташкил қилиб, дала нам сиғимининг деярлик 1/3 қисмига тенг. Бу деган сўз-актив нам сиғимининг 30-33 % қийин ўзлаштириладиган сув шаклига тенг бўлади. С.Н.Рижов, А. А. Роде, Л. Турсунов [1,2,3,4,5,6] кўрсатишича, ММН кўрсатгичида тупроқ суви тупроқда мавжуд капиллярларда ўзининг бир бутунлигини, яхлитлигини йуқотади, капиллярларда сув айрим-айрим автоном холатда сақланадилар ва ўсимлик илдиз системаси бу сувларни истеъмол қилишдан анча қийналади.

1-жадвал.

Зарафшон дарёси ўрта оқими суғориладиган тупроқларнинг сув-физик хоссалари, 2018 йил

№	Туманларни номи	Кесма чуқурлик см	ГН%	МГН%	УСН%	ММН%	ДНС%	АНД%
1	Жомбой тумани Жомбой массиви ўтлоқи алювиал	0-23	1,07	4,11	6,80	12,10	21,01	14,21
		23-38	1,23	4,60	6,30	11,30	19,25	12,95
		38-87	1,45	4,90	7,15	11,05	18,17	11,02
		87-130	1,15	3,01	7,65	9,80	16,25	8,6
		130 дан паси шағал						
2	Самарқанд тумани Ш.Рашидов массиви ўтлоқи	0-20	1,28	3,89	6,10	14,15	20,30	14,2
		20-35	0,98	3,12	5,70	13,25	19,05	13,35
		35-70	1,12	4,05	6,15	12,36	17,35	11,2
		70 дан пасти шағал						
Зарафшон дарёси ўрта оқими суғориладиган тупроқларнинг сувли физик хоссалари 2019 йил								
3	Жомбой тумани Жомбой массиви ўтлоқи алювиал	0-23	1,10	4,20	6,78	12,30	22,0	15,22
		23-38	1,30	4,46	6,40	12,05	20,5	14,1
		38-87	1,46	4,79	7,20	11,15	19,0	11,8
		87-130	1,19	3,86	5,16	8,35	14,3	9,14
		130 дан паси шағал						
4	Самарқанд тумани Ш.Рашидов массиви ўтлоқи	0-20	1,36	3,65	5,67	14,63	20,46	14,79
		20-35	1,10	3,21	6,05	13,26	20,17	14,12
		35-70	1,15	3,76	4,25	11,73	16,47	12,22
		70 дан пасти шағал						

ММН ўрганилган барча аллювиал тупроқларда тупроқ вазнига нисбатан бутун профил бўйича 9-16 % ни ташкил қилади. Энг катта ММН кўсатгичи одатда хайдалма ёки чим, чимости қатламлари учун характерлидир ва унинг 0-50; 0-100; 0-200 см қатламларидаги заҳираси ДНС даражадаги заҳирасини деярли 50-60 % ни ташкил қилади.

Аллювиал тупроқларда қийин ўзлаштириладиган тупроқ сув шаклларини ўрганиш бўйича олинган маълумотлардан шундай хулоса чиқариш мумкинки, ўрганилган барча аллювиал тупроқлар оғир механик таркибли бўлганликлари муносабати билан мазкур тупроқларда кўп микдорда сув заҳираси қийин ўзлаштириладиган шаклда бўладилар. ўрганилган барча аллювиал тупроқларнинг табиий (ТН), дала нам сиғими ДНС, физиологик актив намлик (ФАН), хамда ДНС, СН кўрсатгичлари бўйича маълум чуқурликлардаги сув захиралари келтирилган.

Биринчи ўринда диққат эътиборни тупроқларнинг намлик даражасига қаратиш лозим. Маълумотларининг кўрсатишича, тупроқ кесмаси девори намлиги 3 кун очиқ қолдирилган шароитда 0-40 см чуқурликкача табиий намлик СН даражасигача пасайди, вахоланки очиқ қолдирмаган, яъни тупроқ қопламининг ўзининг табиий намлиги 0-40 см да 11-15 % ни, яъни СН анча юқори бўлганлиги кўринади. Кейинги чуқурроқ қатламларда эса ТНС 50-100 смли қатламларда ММН кўрсатгичидан юқори бўлиб, бемалол мойли ва толали экинларни эркин сув заҳираси билан паст даражада бўлсада таъминлаши мумкин. Табиий намликни (ТН) очиқ қолдирилган ва янги қазилган тупроқ кесмаси девордаги миқдорини ўрганиш орқали биз бу тупроқларда ер ости (сизот) сувларини кўтарилиши баландлигини аниқладик. Олинган маълумотларнинг далолат беришича сизот сувларининг кўтарилиши баландлиги тупроқ юзасидан 100-120 см баландликни ташкил қилади. Тупроқ кесмаларини қазиш вақтида сизот сувлари суғориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқларда 200-220 см ни ташкил қилса, капилляр кўтарилиш (ҳошия) баландлиги деярлик 100-120 см ни ташкил қилади. Тўқай-ўтлоқи ва ботқоқ-ўтлоқи тупроқларда эса сизот сувлари сатҳи 140-150 см ни ташкил қилганлиги сабабли капилляр ҳошия бу тупроқларда тупроқ юзасидан 60-80 см гача бўлди.

Тупроқ суви шакллари ичида барча турдаги маданий ўсимликлар учун энг фойдали сув шакли - бу дала нам сиғими (ДНС) ҳисобланади. ДНС - бу тупроқ капиллярларда у тўла намлангандан кейин ўз муддат давомида капиллярларни тўлдирган ҳолатда пастга, ён томонларга харакатланмасдан ўшлаб турилган капилляр осилган сувлар демакдир [1,2,3,4,5,6].

Дала нам сиғими (ДНС) ўрганилган барча аллювиал оғир қумоқли тупроқларнинг 0-30 см ли қатламида 28-30, ўрта қумоқлида- 26-27, енгил қумоқлида 22-23 % ни ташкил қилади. Одатда ДНС кўрсатгичи пастки қатламлар томон камайиб бориш қонуниятига эга бўлиши лозим. Бу қонуниятни асосида,

биринчидан, юқори қатламдаги гумус миқдори бўлса, *иккинчидан,* юқорига қатламларда агрегатлик холати мавжуд. Мана шу иккала омил юқорига қатламларда юқори умумий говакликни вужудга келишига сабаб бўлади. Шунинг учун ҳам ДНС кўрсатгичи юқорига қатламларда сезиларли бўлмасада каттароқ рақамларда ифодаланади. Бироқ, аллювиал гидроморф тупроқларда юқорида кўрсатилган қонуний бироз бўзилади. Бунинг асосий сабаби - сизот сувларининг тупроқ юзасидан 2,0-2,5 м чуқурликда бўлиши хамда капилляр кўтарилиш ҳодисасидир. Юқорида кўрсатганимиздек, ўрганилган тупроқларда капилляр ҳошия 100-120 см баландликкача кўтарилади. ДНС кўрсатгичи хам айнан мана шу чуқурликдан бошлаб кўтарила бошлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Абдуллаев С.А., Турсунов Л.Т., Комилова Д., Фахрутдинова М. Амударё қуйи оқими тупроқларининг муҳофазасининг баъзи бир муаммолари / Тупроқдан оқилона фойдаланишнинг экологик жиҳатлари: Илмий-амалий конференция маъруза тезислари.- Тошкент. 1997. – Б. 21-22.

2. Бобомуродов Ш.М. Плодородие орошаемых почв нижнего течения р. Зарафшан и пути его повышения. Авторефе. канд. дисс.-Ташкент. 2001.- 25 с.

3. Горбунов Б.В., Кимберг Н.В. Классификация почв. Почвы Узбекистан, «Фан», -Ташкент, 1975. - 222 с.

4. Курвантаев Р., Назарова С.М. Зарафшон воҳаси қуйи оқими суғориладиган ўтлоқи тупроқларининг агрофизикавий ҳолати. Монография. Бухоро, 2021.

5. Қўзиев Р.Қ., Бобомуродов Ш.М. Зарафшон қуйи оқими суғориладиган тупроқлари ва уларнинг унумдорлигини ошириш йўллари. -Тошкент. “Фан “. 2004.- 120 б.

6. Hakimova N., Kurvantaev R. Evolution of raflux soils of the midrange of the vallewy Zerafshan / ANNALI D/LTALIA Scientific Journal of Italy, - Rim, 2020, VOL.2. (4). -Pp.68-71

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

INTERPRETATION OF THE SPIRITUAL AND SPIRITUAL WORLD IN NATURAL AND HUMAN RELATIONS

Ravshanov Hamro[1]

School No. 56, Denov district

KEYWORDS

nature and man, spiritual nightmare, beach, conflict

ABSTRACT

This article describes the artistic expression of spirituality and spiritual nightmares in human and natural relations depicted in the works of Normurod Norqobilov, a major representative of modern Uzbek literature. As a result of man's attitude toward nature, his inner nightmares, changes in people, the moral and ethical world of heroes, and their worldviews have been analyzed from a literary point of view.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7199113
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher of native language literature, School No. 56, Denov district, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

TABIAT VA INSON MUNOSABATLARIDA MA'NAVIY-RUHIY OLAM TALQINI

KALIT SO'ZLAR:
tabiat va inson, ruhiy kechinma, pyezaj, konflikt

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyoti yirik vakili Normurod Norqobilovning asarlarida tasvir etilgan inson va tabiat munosabatlarida ruhiyati va ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi talqin etilgan. Insonning tabiatga munosabati, ichki kechinmalari natijasida, insonlardagi o'zgarishlar,bu munosabatlar asnosida qahramonlar ma'naviy-axloqiy olami, ularning dunyoqarashlari adabiyotshunoslik nuqtaiy nazaridan tahlilga tortilgan.

Ommaviy harakatlar rivojlanib borayotgan hozirgi XXI asrda bir kishining, alohida insonning olamga ta'sir ko'rsatish imkoniyati keskin oshib bormoqda. Lekin inson tabiatning ajralmas qismidir. Insonni qurshab turgan tabiat, uning paydo bo'lishi va rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy nuqtai nazardan fahmlash, ilmiy bilish bilan bir qatorda inson va tabiat munosabatlarining badiiy talqini, inson ruhiyatida tabiatning o'rni, inson psixologiyasi, ma'naviyatida hayvonot, nabotot, jamodotning tutgan o'rni beqiyosdir. Inson ba'zi hollarda tushkun holga tushib qolganda, o'zini yolg'iz qolishini xohlab qoladi. Atrofida odamlar, do'stlari ko'p bo'lsa ham o'zini dardiga malham topolmay qoladi. Shunday paytlarda tabiat qo'ynida (tog'-u daryo bo'yida, dengizning sohilida,) sayr qilinganda o'zi izlab yurgan halovatni topganday, o'ziga nima kerak ekanligini tushunganday bo'ladi. Hozirgi o'zbek nasrida inson va tabiat munosabatlari haqida bir qancha fikrlar yuritiladi va ular ijodidagi adabiy asarlariga to'xtalib o'tamiz. Shukur Xolmirzayev "Bandi burgut'', "Qushlar qishlovdan qaytdi'', "Quloqcho'zma", "Omon ovchining o'limi'' hikoyalari. Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar'', "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi'' romanlari. Mengniyoz Safarov "Ayrishoh'' qissa va hikoyalar to'plamida inson va tabiat munosabatlari juda mohirona tarzda ifodalangan.

Yozuvchi Normurod Norqobilovning "Tog'dagi yolg'iz odam'' qissasi tahlil va talqin qilinar ekan, asar qahramonlari, epizodlari va obrazlari o'zi alohida majoziy ma'no bildirishi tushuniladi. Asarda inson va tabiatning o'zaro ruhiyati uyg'unlashib ketgandek. Asar qahramonlarini tabiatga bo'lgan o'y-xayoli, dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasiga qarab ikki guruhga ajratilsa maqsadga muofiq bo'lar edi. Birinchi toifa guruhiga Omonali, Gulasal, Tog'begi, Irina kabi obrazlar tabiatga bo'lgan jonkuyarligi, tabiatni asrashga bo'lgan ishtiyoqi, unga bo'lgan mehri va tabiat bilan ruhan uyg'unlashib ketishi bilan yaqqol ajralib turadi.Ma'lumki asarda tasvirlanayotgan har bir obrazning o'z badiiy vazifasi, adib badiiy niyatiga hamohang harakat maydoni bo'ladi. Yozuvchi Gulasal obrazi orqali Omonalining ruhiyatdidagi hayvonot, nabotot, jomodotga hayrat ko'zi bilan qarovchi qalb bulog'ini qayta ochib yuboradi. Omonali Gulasal bilan bo'lib o'tgan vaqt oralig'ida tabiatga boshqacha ko'z

bilan qaraydigan, boshqacha fikrlaydigan insonga aylanadi. Ayniqsa uning Hamidqul oqsoqolning Oqmanglayni ovlash haqidagi iltimosidan so‘ng o‘y – fikrlariga e’tibor qaratilsa Omonalining ruhiyati tabiat bilan uyg‘unlashib ketganiga guvoh bo‘linadi. “Oqmanglay qorli tog‘lardagi sanoqli qoplonlardan biri ekani va uni avaylab-asrash lozimligi xususidagi biror kimsaning boshiga kelmaydi. Bu qo‘riqxona mutasaddilari, jumladan, Meliqul tog‘begining tashvishidek, qishloq ahli bu masalaga o‘gay ko‘z bilan qaraydi.”[2]

Parchadan shu ma’lumki inson psixologiyasida tabiatga berish emas, balki olishdek istak hukmronlik qiladigan insonlar talaygina topiladi. Voqelar rivojida biz bunga amin bo‘la boramiz. “Obrazli yo‘sinda aytganda, sarxadsiz qo‘riqxona xududi kishilar uchun go‘yo begona bir bog‘- har kim chog‘i va uquvi yetguncha bu tog‘dan ko‘proq meva o‘marish payida boladi. Bu ishda ular qanoatni bilishmaydi, “insof” degan tushunchani negadir unutib qo‘yishadi.Syujetlar ketma-ketligiga e’tibor qilinganda Omonali va Asilbekning ziddiyati nimadan kelib chiqqani ma’lum bo‘ladi. Omonali jondan sevgan Gulasal Asilbek tufayli, uning jirkanch maqsadi tufayli o‘zini ximoya qilaman deb Oqartoshga tushib ketishi natijasida vafot etadi. Shu o‘rinda irim-sirimga ishonadigan odamlar tomondan Oqartoshning har yili qonsirashi haqida eshitgan qiz o‘zining falsafiy qarashi bilan yana bir bor ajralib turadi. “U birda Oqartoshni qonsirab, har yili qurbonlik talab qilishi haqida qizga aytganida, Gulasal kulib, yoq, biz tabiatning emas, extiyotsizlikning qurboni bo‘lishimiz mumkin degandi.”[3] Ha Gulasal ham tabiat talabi bilan emas, balki o‘zining aytganidek extiyotsizlik qurboni bo‘ladi. Yozuvchining mahorati shundagki asar qahramonlari va obrazlarni bir biriga konfilikda va parallel holatda qo‘llaydi. Insonniy tuyg‘ularni e’zozlash, ardoqlash va extirom qilishda Omonali psixologiyasiga konflikt tarzda Asilbek obrazi qiyoslanadi. Asilbek o‘z nafsini qondirish uchun eng yaqin do‘stini ayoliga tajavuz qilib, o‘zining aybini qasos oldim deya yolg‘on gapirishi va bu qilmishlari natijasida bir begunoh qizning fojiaviy halok bo‘lishi bilan yakun topishi, Omonali bilan yuzma-yuz bo‘lganda faqat o‘zining nomini oqlamoqchi bo‘lishi, aybdorlikni his qilmasligi bo‘lsa, Omonali va Oqmanglay ruhiyatini parallel tarzda tasnif qilinadi. Tabiatni jonli seva oladigan, tabiat bilan ruhan uyg‘unlashib ketgan Gulasaldan ayrilgach odamlar orasida yolg‘izlanib qoladi. Qissada yana shunga urg‘u berilganki, noyob hayvonlarni yani oxirgi vaqtlarda yo‘qolib ketish xavfidagi hayvonlar turiga kiruvchi qor qoploni haqida hech kim qayg‘urmaydi. Odamlarga ziyoni tegmasa bo‘ldi. Bunga misol sifatida Omonalining quydagi o‘y-xayoli orqali bunga kim sababchi ekanni bilsa bo‘ladi. “Qisqasi, tog‘ning qaysi bir puchmog‘ida o‘z maylida yurgan qoplon Omonali uchun o‘lja emas, balki Asilbekka o‘xshash yomon o‘roqchilar tomonidan payxon qilinmasligi uchun ko‘klab turgan maysalar orasidan avaylab yulib tashlanishi lozim bo‘lgan yovvoyi bir o‘t edi. Qishloqda chorvasi yilning iliq faslida tog‘dan beri tushmaydigan odam borki, qoplonga ko‘z tikkan, tezroq uni bir yoqli bo‘lishini istaydi. Qolganlar esa shunchaki xangomatalab, qani, Omonali bu ishni eplay oladimi – yo‘qmi deganday. Xullas, jo‘yali bir fikr yurituvchidan ko‘ra, tomoshabin ko‘p. Oqmanglay qorli tog‘lardagi sanoqli qoplonlardan biri ekani va uni avaylab-asrash lozimligi xususidagi

[2] Norqobilov.N.„Tog’dagi yolg’iz odam’’.Toshkent„O’zbekiston’’.2011.25-b
[3] Norqobilov.N.„Tog’dagi yolg’iz odam’’.Toshkent„O’zbekiston’’.2011.37-b

o‘y biror kimsaning boshiga kelmaydi.”[4].

Inson yaralibdiki, tabiatdan o‘ziga zarur barcha xomashyolarni oladi, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak deysizmi, qurulish materiallari hammasini tabiatdan oladi. Ammo tabiatdan o‘zga zarar yetsa tezlik bilan qasos olishga harakat qiladi. Lekin bo‘layotgan voqea va hodisalarga o‘zi sababchi ekanligini o‘ylab ko‘rmaydi. Oddiy misol tog‘li qorda yashaydigan qor qoploni nega tog‘dan quyiga endi, nega suruvdagi qo‘ziga xujum qildi. Biologik bilimlarga asoslangan holda shunday xulosa mavjudki qoplon yirtqich hayvonlar turiga kiradi va baland tog‘larda yashaydi. Qoplonlar asosan yovvoyi hayvonlar, kiyik, tovushqon (yovvoyi quyon), paranda va boshqa hayvonlarni ovlaydi. Shunday ekan nega Hamidqul oqsoqolni suruviga xujum qildi. Bunga Omonalining quydagi fikri javob bo‘ladi. “Mabodo odam bolasi bilan yovvoyi hayvonlarni yuzlashtirishning iloji bo‘lganidami, qoplon deganlari odamni kurakda turmaydigan qator kirdikorlarini ochib, birma-bir sanab tashlagan bo‘lardi. U shunchaki gapirmagan, balki ajdodlari xotirasida jamlangan quydagi ma’lumotlarni pesh qilib so‘zlagan bo‘lardi, derdiki, sizlar bu tomonga kelgunga qadar tog‘lar kiyikka to‘la, daryo bo‘ylari qunduzga serob, o‘tloqlarga g‘ujg‘on o‘ynagan turli yerteshar jonivorlarning son-sanog‘i yo‘q edi. Sizlar kelib bariga qiron keltirdilaring. Yaylov to‘la qo‘ylaring bo‘la turib, eti mazali deya kiyiklarni otdinglar, moyi dardga davo deya qunduzlarni qurutdinglar, olachipor mo‘ynamizga havaslaring kelib bizga chang soldilaring. Oqibat, biz o‘ta sanoqli qoldik, bu yoqda kiyiklar kamayib, qunduz deganlari osmondagi yulduzlarday, unda – bunda ko‘zga chalinadigan bo‘lib qoldi. Tog‘da emagimiz kamayib qolgach,yendi olgan qarzlaringni qaytaringlar, deya suruvlaringdan atigi bittagina qo‘zini o‘margandim, shuni ham ko‘p ko‘rdilaring.”[5]. Yozuvchi yuqoridagi fikrlarni Oqmanglay tilidan aytgan bo‘lsada, aslida inson faqat hayvonot va nobotot dunyosi bilan cheklanib qolmaganini, balki azal – azaldan uning bir – biri bilan ham yovlashib kelganini ta’kidlab, bunga misol sifatida choqqidagi xarobalarni ko‘rsatib maqtanmoqchi bo‘lgan Omonaliga Gulasalning bildirgan quydagi fikrilari e’tiborga molik. “Siz meni tanganing bir tomoniga razm solishga undayapsiz, - degandi qo‘rg‘on xarobasiga shunchaki bir qarab qo‘yib Agar uning ikkinchi tomonini o‘girib qaraydigan bo‘lsak, bu kabi xarobalar timsolida insoniyatning johilligi va nodonligi, qolaversa, yovuzligini ko‘rish mumkin.”[6].

Inson ong ostida mavjud bo‘lgan “men”ligi’’ sabab ko‘plab konfiliktlarga boradi, o‘z manfatlari yo‘lida hech narsada tap tortmaydi. Hattoki bir – bir bilan ziddiyatga borib urush, talon – taroj qilish, ozod insonlarni qul qilishdan ham qaytmaydi. Buning yorqin dalili sifatida cho‘qqidagi qo‘rg‘on xarobasi keltiriladi.

Normurod Norqobilov asarlarini o'qib, asarlarda inson va tabiat, ayniqsa inson ruhiyatiga alohida urg'u berilgan. Asar qahramonlari ruhiyatidagi ichki kechinmalarga mos tarzda peyzdan, tabiat tasviridan unumli foydalangan holda inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni tabiat tasvirlari orqali yanada badiiylikni pafosini oshiradi.

[4] Norqobilov.N.„Tog’dagi yolg’iz odam’’.Toshkent„O’zbekiston’’.2011.25-b
[5] Norqobilov.N.„Tog’dagi yolg’iz odam’’.Toshkent„O’zbekiston’’.2011.26-b
[6] Norqobilov.N.„Tog’dagi yolg’iz odam’’.Toshkent„O’zbekiston’’.2011.46-b

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / Xalq so'zi. 2017. 4 avgust.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir// Xalq so'zi, 2017-yil, 4 avgust.

3.Norqobilov.N.„Tog'dagi yolg'iz odam''.Toshkent„O'zbekiston''. 2011.276-b.

4. Quronov D„Adabiyot nazariyasi asoslari''. Toshkent:Akademnashr, 2018. 460-b.

5. Rasulov A.„badiiylik – bezavol yangilik''.„Sharq'' nashiryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati,2007. 370 -b.

6. Norqobilov N. „Zangori ko'l: Hikoyalar'', - T. „Yulduzcha'' nashryoti.1987-y. 170-b

7. Normatov U. Ijod sehri: -T.; Sharq – 2006. 230- b

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

ANALYSIS OF TECHNICAL DATA OF TWO-SPEED MOTORS. COMPARISON OF A MULTI-SPEED MOTOR WITH ONE WINDING AND TWO WINDINGS

Bobozhanov Makhsud Kalandarovich[1]

Matkarimova Mahfuza Komiljon qizi[2]

Tashkent State Technical University, Urgench State University

KEYWORDS

two-speed engine, rotation frequency, electric power, power factor, phase voltage, winding coefficient, number of turn

ABSTRACT

In this article paper analysis of the technical data of two-speed motors. Comparison of a multi-speed motor with one winding and two windings.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7214715
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Doctor of technical sciences, Professor, Tashkent State Technical University, Uzbekistan (m.bobojanov@ima.uz)
[2] Assistant of the Faculty of Engineering, Urgench State University, Uzbekistan (matkarimovamaxfuza528@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

АНАЛИЗ ТЕХНИЧЕСКИХ ДАННЫХ ДВУХСКОРОСТНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ. СРАВНЕНИЕ МНОГОСКОРОСТНОГО ДВИГАТЕЛЯ ПРИ ОДНООБМОТОЧНОМ И ДВУХОБМОТОЧНОМ ИСПОЛНЕНИЯХ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:
двухскоростных двигател„ частота вращения, электрической энергии, коэффициент мощности, фазное напряжение, обмоточный коэффициент, число витко

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются анализ технических данных двухскоростных двигателей Сравнение многоскоростного двигателя при однообмоточном и двухобмоточном исполнениях.

Рассмотрим, как изменяется мощность многоскоростного двигателя при однообмоточном и двухобмоточном исполнениях.

Обозначим:

P – мощность на валу;

U – номинальное фазное напряжение;

I – номинальный фазный ток;

η - номинальный к.п.д.;

cosφ - номинальный коэффициент мощности;

Q – сечение провода фазы;

Δ - плотность тока;

E – э.д.с. самоиндукции;

Ф – магнитный поток статора;

B_δ - амплитуда индукции в воздушном зазоре, считая поле синусоидальным;

ω - число витков фазы;

k – обмоточный коэффициент основной волны;

F – площадь паза статора;

D – внутренний диаметр статора;

l – длина пакета статора.

$$P = UI\cos\varphi \cdot \eta;$$

принимая

$$U = E \quad u \quad I = \Delta Q,$$

получим:

$$P = EQ\Delta\cos\varphi \cdot \eta, \qquad (1.1)$$

но

$$E \equiv \Phi \varpi k \equiv \frac{B_\delta Dl}{2p} \varpi k, \qquad (1.2)$$

Следовательно,

$$P \equiv \frac{B_\delta Dl}{2p} \varpi k Q \Delta \eta \cos\varphi,$$

откуда

$$P \equiv \frac{B_\delta \Delta Dl}{2p} kF\eta \cos\varphi. \qquad (1.3)$$

Мощность на валу многоскоростного двигателя прямо пропорциональна площади сечения паза статора и обратно пропорциональна числу полюсов.

При двухобмоточном исполнении площадь паза статора делится между двумя обмотками, из которых каждая занимает лишь часть площади паза. Следовательно, уже заранее можно полагать, что при двухобмоточном исполнении мощность на валу многоскоростного двигателя будет меньше, чем при однообмоточном исполнении.

Предположим, что в пазах двигателя помещены две отдельные обмотки а и б, из которых обмотка а, включаемая при наименьшей скорости двигателя, занимает Н% площади паза.

Тогда обмотка б займет оставшуюся часть площади паз F(100-H) (в процентах).

На основании выражения (4.3) можно считать, что полезная мощность двигателя при включенной обмотке (а):

$$P_a \equiv \frac{B_a \Delta_a}{2p_a} \cdot \frac{HF}{100} k_a \eta_a \cos\varphi_a, \qquad (1.4)$$

а мощность двигателя при включенной обмотке (б):

$$P_б \equiv \frac{B_б \Delta_б}{2p_б} \cdot \frac{F(100-H)}{100} k_б \eta_б \cos\varphi_б, \qquad (1.5)$$

Обозначим *N* коэффициент распределения площади паза между обмотками *а* и *б*. Для двухобмоточного двигателя *N* будет представлять собой отношение площади паза, занятой обмоткой для низшей скорости вращения, к площади паза, занятой обмоткой для более высокой скорости,

$$N = \frac{H}{100-H}. \qquad (1.6)$$

Тогда

$$\frac{P_a}{P_б} = N \frac{B_a \Delta_a B_a k_a \eta_a \cos\varphi_a p_б}{B_б \Delta_б B_a k_б \eta_б \cos\varphi_б p_a} \qquad (1.7)$$

или

$$N = \frac{P_a p_a \Delta_б B_б k\ \eta_б \cos\varphi_б}{P_б p_б B_a \Delta_a k_a \eta_a \cos\varphi_a}. \qquad (1.8)$$

Следовательно, в многоскоростных двигателях с двумя обмотками

коэффициент *N* распределения площади паза между обмотками будет определяться соотношениями между соответствующими каждой скорости вращения:

а) полезными мощностями (*P*);

б) числами полюсов (*p*);

в) обмоточными коэффициентами (*k*);

г) электрическими и магнитными нагрузками (*B, Δ*);

д) энергетическими показателями *(η, cosφ*).

Соотношения между полезными мощностями и между числами полюсов при каждой скорости бывают известны из задания на проектирование многоскоростного двигателя. Поэтому для определения *N* следует знать соотношения между электромагнитными нагрузками и энергетическими показателями на каждой скорости.

Зная *N*, можно, не производя подробного электрического расчета двухобмоточного многоскоростного двигателя, определить возможность получения на данном сердечнике при заданных числах полюсов требуемой мощности, а также установить соотношения между полезными мощностями однообмоточного (*N*=100%) и двухобмоточного двигателей, выполненных на одном и том же сердечнике.

Поэтому представляет практический интерес хотя бы приблизительное определение коэффициента распределения площади паза между обмотками *N* в зависимости от режима работы и соотношения между скоростями двухобмоточного двигателя, для некоторых наиболее часто встречающихся соотношений между числами полюсов двухобмоточных многоскоростных двигателей.

В двухобмоточных двигателях, как и в любых двигателях вообще, всегда стремятся к максимальному использованию обмотки, поэтому каждую обмотку выполняют с наибольшим возможным обмоточным коэффициентом *k*.

Для двухскоростных двухобмоточных двигателей, когда обе обмотки выполняются, как правило, однослойными с распределением обмотки на 1\3 полюсного деления (например, 1000\1500 об\мин или 750\1000 об\мин), и для четырехскоростных двухобмоточных двигателей, когда каждая обмотка выполняется двухслойной, переключаемой на две скорости вращения. Относящиеся, как 1:2, с распределением обмотки на $\frac{2}{3}\tau$:

$$\frac{k_a}{k_б} \approx 1.$$

Для двухобмоточного трехскорсотного двигателя, у которого одна обмотка выполняется однослойной на одну скорость, а другая обмотка выполняется двухслойной на две скорости, соотношение между обмоточными коэффициентами будет примерно

$$\frac{k_{односкор}}{k_{двухскор}} \approx 1{,}1.$$

Учитывая приведенные выше соотношения между обмоточными коэффициентами, для наиболее часто встречающихся режимов работы многоскоростного двигателя *P=const* и *M=const* формулу (1.8) можно упростить.

Для двухобмоточного двух- или четырехскоростного двигателя при *P=const*

$$N = \frac{p_a \Delta_б B_б k_б \eta_б \cos\varphi_{,б}}{p_б B_a \Delta_a k_a \eta_a \cos\varphi_a}; \qquad (1.9)$$

при M=const

$$N = \frac{\Delta_б B_б \eta_б \cos\varphi_б}{B_a \Delta_a \eta_a \cos\varphi_a}. \qquad (1.10)$$

Для двухобмоточного трехскоростного двигателя, у которого обмотка для низшей скорости вращения выполнена двухслойной с переключением полюсов 2:1, а однослойная обмотка соответствует какой-либо из больших скоростей (например, для переключения полюсов 2p=8\6\4):

Для режима *P=const*

$$N = \frac{1{,}1 p_a \Delta_б B_б \eta_б \cos\varphi_{,б}}{p_б B_a \Delta_a \eta_a \cos\varphi_a}; \qquad (1.11)$$

для режима *M=const*

$$N = \frac{1{,}1 \Delta_б B_б \eta_б \cos\varphi_{,б}}{B_a \Delta_a \eta_a \cos\varphi_a}. \qquad (1.12)$$

Для двухобмоточного трехскоростного двигателя, у которого обмотка для низшей скорости выполнена однослойной, а обмотка на промежуточную и высшую скорости выполнена двухслойной с переключением полюсов в отношении 2:1 (например, для переключения полюсов 2p=6\4\2), распределение площади паза между обмотками для *P=const* будет:

$$N = \frac{p_a \Delta_б B_б \eta_б \cos\varphi_б}{1{,}1 p_б B_a \Delta_a \eta_a \cos\varphi_a}, \qquad (1.13)$$

а для *M=const*

$$N = \frac{\Delta_б B_б \eta_б \cos\varphi_б}{1{,}1 B_a \Delta_a \eta_a \cos\varphi_a}. \qquad (1.14)$$

Формулы (1.9) и (1.14) позволяют без затруднений при конструировании многоскоростных двигателей с двумя статорными обмотками определить коэффициент распределения площади паза *N* между отдельными обмотками в зависимости от заданного режима работы двигателя на различных скоростях.

Электромагнитные нагрузки и энергетические показатели, входящие в эти формулы, следует выбирать, руководствуясь аналогичными данными для обычных односкоростных двигателей соответствующей мощности, скорости и исполнения по роду защиты.

Из анализа коэффициентов распределения площади паза двигателя *N* для

различных многоскоростных двухобмоточных двигателей следует, что *n* характеризует использование сердечника двигателя на низшей скорости: чем больше *N*, т.е. чем большую часть площади паза занимает обмотка, предназначенная для низшей скорости вращения, тем лучше использован на низшей скорости двигатель и тем меньше удельные затраты материала (кг\квт).

Сравнивая однообмоточные и двухобмоточные двигатели по полезной мощности, которую они могут развить на низшей скорости, будучи выполнены на одном и том же сердечнике, целесообразно ввести понятие об относительном коэффициенте использования материалов двигателя. Будем называть относительным коэффициентом использования k_u отношение мощности на валу двухобмоточного двигателя при низшей скорости вращения к полезной мощности на валу при низшей скорости однообмоточного двигателя, выполненного на те же числа полюсов, на одном и том же сердечнике.

Подставляя в выражение (1.7) $N = \frac{H}{100}$ и обозначая индексом *о* все величины, относящиеся к однообмоточному электродвигателю, а индексом *дв* – к двухобмоточному, получим при $p_a = p_o$:

$$k_u = \frac{P_{дв}}{P_o} = \frac{H}{100} \frac{\Delta_{дв} B_{дв} k_{дв} \eta_{дв} \cos\varphi_{двб}}{\Delta_0 B_0 k_0 \eta_0 \cos\varphi_{0б\,a}}. \qquad (1.15)$$

Для многоскоростных двигателей с одной и двумя обмотками, выполненных на базе обычных двигателей определенной серии или типа, в большинстве случаев будут иметь место следующие соотношения:

$$\frac{B_{дв}\Delta_{дв}}{B_0\Delta_0} = 0{,}9-1{,}0; \qquad \frac{k_{дв}}{k_0} = 1.1-1{,}2; \qquad \frac{\eta_{дв}\cos\varphi_{дв}}{\eta_0\cos\varphi_0} = 0{,}85-0{,}9. \qquad (1.16)$$

В среднем принимаем:

$$\frac{\Delta_{дв} B_{дв} k_{дв} \eta_{дв} \cos\varphi_{двб}}{\Delta_0 B_0 k_0 \eta_0 \cos\varphi_{0б\,a}} = 0{,}85-1{,}05 \approx 0{,}95. \qquad (1.17)$$

Отсюда находим, что в среднем

$$k_u = \frac{0{,}95H}{100}. \qquad (1.18)$$

В двухобмоточных двигателях, работающих в режиме *P=const* обмотка для низшей скорости вращения занимает примерно 60% площади паза. Для этого случая $k_u \approx 0{,}95 \cdot 0{,}6 \approx 0{,}57$, т.е. при двухобмоточном исполнении мощность многоскоростного двигателя составит на низшей скорости вращения всего лишь около 60% от мощности однообмоточного.

При сравнении однообмоточных и двухобмоточных двигателей, работающих в режиме *M=const*, расчет показывает, что в среднем k_u*=0,4-0,5*. В этом случае мощность однообмоточного двигателя будет превосходить мощность двухобмоточного, выполненного на этом же сердечнике, в *2-2,5* раза.

При анализе технических данных однообмоточных и двухобмоточных

двигателей основное внимание следует уделять сравнению показателей двигателей на низшей скорости, так как мощности и энергетические показатели на высших скоростях могут в зависимости от схемы переключения обмотки сильно изменяться. Из анализа технических данных однообмоточных и двухобмоточных двигателей можно сделать следующие выводы:

1. Во всех случаях, когда однообмоточные и двухобмоточные двигатели выполняются на одной и той же модели (марке) двигателя, мощность однообмоточного исполнения на низшей скорости вращения примерно в 1,6 раза превышает мощность двухобмоточного. При этом, как правило, однообмоточные двигатели имеют более высокие, в среднем на 10-15%, энергетические показатели (к.п.д. и $cos\ \varphi$), повышенные кратности начальных моментов и пониженные кратности пусковых токов.

Удельный расход активных материалов (кг\квт) при однообмоточном исполнении в 1,6 раза меньше, чем при двухобмоточном, что определяет в 1,6 раза меньшую себестоимость по материалам.

2. Во всех случаях, когда от однообмоточного и двухобмоточного исполнении требуется одинаковая полезная мощность, многоскоростной двигатель с одной полюсопереключаемой обмоткой может быть выполнен на модели меньшего габарита, с меньшими затратами материалов.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бобожанов М.К. Электрические машины с полюсопереключаемыми обмотками, используемые в целях энерго- и ресурсосбережения. Под редакцией проф.Х.Г.Каримова. «Фан ва технологиялар марказининг босмахонаси», Ташкент, 2012, 179 с.

2. Каримов Х.Г., Рисмухамедов Д.А. Энергосбережение в двигателях с вентиляторной нагрузкой //Техника фанлари ва XXI аср глобал муаммолари / Республика микёсидаги профессор-укитувчиларининг илмий-амалий анжумани. Маърузалар туплами. 2-кисм, Тошкент, 2001, 9-10 б.

3. Каримов Х.Г., Бобожанов М.К., Рисмухамедов Д.А. и др. Разработка и анализ свойств полюсопереключаемых обмоток и двигателей на их основе // Промеж. отчет по ГНТП – 18.4 «Энерго- и ресурсобережение посредством двухскоростных полюсопереключаемых асинхронных машин».– Ташкент, 2004.– 73 с.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE IMPORTANCE OF THE TEACHINGS OF ABU RAYHAN BERUNI IN THE CIVILIZATION OF EASTERN SCIENCE AND EDUCATION

Begmanova Gulsara[1]

Asadova Urazgul Kengash qizi[2]

Navoi State Pedagogical Institute, General Secondary School No. 15, Almazor district, Tashkent city

KEYWORDS

Beruni, knowledge, subject, Earth, Sun, map, history, geography, philology, astronomy, mathematics, geodesy, mineralogy, pharmacology, geology

ABSTRACT

This article presents a scientific approach to the work and activities of Abu Rayhan Beruni and the role of his works in the world's scientific civilization.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7214773
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher of Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan

[2] Teacher of General Secondary School No. 15, Almazor district, Tashkent city, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

SHARQ ILM – FANI VA TA'LIM – TARBIYA SIVILIZATSIYASIDA ABU RAYHON BERUNIY TA'LIMOTINING TUTGAN O'RNI

KALIT SO'ZLAR:

Beruniy, ilm, fan, ta'lim – tarbiya, Yer, Quyosh, xarita, tarix, geografiya, filologiya, astronomiya, matematika, geodeziya, minerologiya, farmokologiya, geologiya

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning ijodi va faoliyati, uning yaratgan asarlarining dunyo ilm – fani va ta'lim – tarbiyasi sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida ilmiy yondashib, fikrlar bayon etilgan.

Hamma zamonlarda ham jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida inson shaxsini barkamol etib tarbiyalash dolzarb masalalardan hisoblangan. Bu masala har bir davrda o'ziga xos yondashuvlar va tendensiyalarga ega bo'lgan. Uzoq davrlar o'tishiga qaramasdan ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan ta'lim – tarbiyaga oid pedagogik qarashlar bugungi kunda shu darajada ahamiyatga egaki, ular hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asrda pedagogik faoliyatda qimmatlidir.

Markaziy Osiyo hududida dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimlar, allomalar, sarkardalar, islom bilimdonlari yashab o'tishgan. Dunyo tan olgan qomusiy olimlarimizdan Al – Farg'oniy, al – Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi bobokalonlarimizilmu fanning turli sohalarida samarali mehnat qilib ulkan ilmiy merosni bizga qoldirganlar.

Mamlakatimizda bugungi kunda ulug' ajdodlarimiz merosidan foydalanish orqali yosh avlodga ta'lim – tarbiya berish va o'sib kelayotgan yosh avlodni munosib voris sifatida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Uchinchi Rennesans davriga mos avlod tarbiyasi masalasini yetakchi masala sifatida ko'tarib chiqdilar. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, mamlakatimizda ta'lim – tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib, shiddat bilan ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Biz faxr bilan tilga oladigan buyuk allomalar orasida Abu Rayhon Beruniyning alohida o'rni bor. "Abu Rayhon Beruniy birinchi sharqshunos olim sifatida jahon ilm – fan vakillari tomonidan o'z davrining eng buyuk aql – zakovat egasi misolida e'tirpof etilgan"[3][1]. Xorazmning buyuk allomasi, tarix, geografiya, filologiya, astronomiya, matematika, geodeziya, minerologiya, farmokologiya, geologiya va boshqa ko'plab fanlarga oid qomusiy asarlar muallifi hisoblanadi. Beruniy O'rta Sharqda ilk bora Yer Quyosh atrofida aylanishi mumkinligini aytib, Yerning aylana o'lchamini aniqladi. Beruniyni chinakam o'rta asrlarda Sharqning ilm – fan qomusiy olimi desak mubolag'a bo'lmaydi. Dunyo olimlari Beruniyning faoliyatini o'rganib, uning jahon faniga qo'shgan hissasini yuksak baholashgan. Amerikalik

[3] N.M.Koshanov., A.Alimuhammedova. inson kamolotida Abu Rayhon Beruniy pedagogik qarashlari ahamiyati. 2022.

tarixchi Dj. Sarton buyuk olim haqida: “Astronomiya va matematika, astrologiya va jug’rofiya, antropologiya va etnologiya, arxeologiya va falsafa, botanika va minerologiya uning buyuk nomisiz qashshoqlashib qolgan bo’lardi ”[4] [2. 235 – bet.], degan edi.

Abu Rayhon Beruniy mukammal matemaik va falsafiy bilim egasi edi. Uning birinchi ustozi astronomiya, matematika va trigonometriya bo’yicha tayanch asarlar muallifi Abu Nasr Mansur ibn Iroq al – Jadiy bo’lgan. Beruniy o‘z davridagi jami fanlarning barcha sohalarida nihoyatda samarali ijod qilgan tom ma’nodagi allomadir. Yozma manbalarda keltirilishicha, u jami 152 ta kitob va risolalar yozgan bo‘lib, shulardan faqat 28 tasi bizgacha etib kelgan. Tarixdan ma’lumki, Amerika qit’asini 1492 yilning oktyabrida ispan sayyohi Xristofor Kolumb kashf qilgan. Biroq undan 450 yil avval Beruniy o‘zining “ Hindiston ” va “ Al – Qonun al – Ma’sudiy ” kabi asarlarida kurramiz ortida quruqlik borligi va uning koordinatalari haqida ta’kidlab o‘tgan. Suu singari misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Masalan, geografik kenglikni aniqlash uchun Beruniy qo‘llagan usulni XVI asrda Tixo de Broge kashf qilgan deb hisoblanadi. Bugungi kunda alloma merosi mamlakatimizda va jahon miqyosida chuqur o‘rganilmoqda. Olimning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima qilinib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilinayapti.

Beruniy Aristotelning natur filosofiyasi bilan bevosita shug‘ullanishi natijasida Aristotel qarashlariga tanqidiy yondashib, hatto zaif tomonlarini ham tanqid qilgan. Beruniyning Aristotelga munosabati Ibn Sino bilan yozishmasida o‘z ifodasini topgan. Ularning yozishmalari asosan Aristotelning “ Fazo haqida” va “Fizika” asarlari bo‘yicha olib borilgan edi. Beruniy Aristotelni “qadimgi dunyoning eng qomusiy yetuk olimi”[5], [3.65 – bet.] deb zo‘r hurmat bilan tilga oladi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to‘g‘risidagi taxmini uning ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Olimning fikrlari, bir tomondan, O‘rta Osiyo, qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg‘or an’analarini ijodiy rivojlantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Beruniyning yetukligi, tafakkur doirasining kengligidan dalolat beradi. Beruniy tomonidan “sabablarning sababi” – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo‘yilishi diqqatga sazovor. “Qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”. Bu yerda Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi haqida ratsionalizm pozitsiyasida turganini ko‘ramiz.

Beruniy insonlar o‘rtasidagi tafovut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to‘g‘risida fikr yuritgan. Lekin kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumiydir. U inson bilan maymun o‘rtasida o‘xshashlik borligini qayd etadi.

Beruniy ijtimoiy hayot o‘ziga xos “shartnoma” asosida tuzilishini e’tirof etadi: “Inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi “shartnoma” tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir”. Bu fikrni davom

[4] Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent. 2001 yil. 235 – bet.
[5] O’zbekiston tarixi jurnali. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Toshkent.2009. 65 – bet.

ettirib, “insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi”[6], [2. 237 – bet.] deb yozgan edi u.

Berunyning fikricha, tabiatda barcha narsa tabiat qonuniyati asosida o’zgaradi, bu qonuniyatlarni esa faqatgina ilm – fan yordamida anglash mumkin. Uning asosiy asarlari matematika va astronomiyaga bag’ishlangan bo’lib, Xorazmning xo’jalik hayotida ulkan amaliy ahamiyatga ega bo’lgan yerlarning sug’orilishi, savdo – sayohatlari haqida yozilgan. U davrda astronomiya fani oldidagi masalalar solnomani mukammallashtirish hamda osmondagi yulduzlar orqali Yerning joylashuvini aniqlashtirishdan iborat bo’lgan. Quyosh va Oyning osmondagi aniqroq joylashuvini belgilab, ekliptikning ekvatorga engashishi, Quyosh va yulduz yillarining uzunligi va boshqalar kabi astronomik doimiyliklarni o’lchay olish muhim bo’lgan. Bundan tashqari Abu Rayhon Beruniy tabiatga ham bee’tibor bo’magan. U chizgan dunyoning geografik xaritasi ko’p yillar sayyohlarga yo’llanma bo’lib kelgan. Beruniy o’z asarlarida Xristofor Kolumbdan 460 yil oldin Amerika qit’asini borligini bashorat qilgan. Geograf Hamidulla Hasanovning quyidagi fikrlari g’oyatda qimmatlidir. “Ba’zi tarixchi geograflarimiz XV – XVI asrdagi buyuk kashfiyotlar tarixini yoritishda masalani yo mutlaqo tilga olmaydilar, yoki faqat g’arbchasiga izohlaydilar”,[7] [3]- deydi. Jumladan, Amerika qit’asining ochilishi masalasida fikr yuritgan rus olimi V.Gulyaev Beruniyning “…u tomonda yo’llar notinch, xavf – xatar ko’pligi sababli kema qatnovi bo’lmaydi ”,[8] [3. 34 – bet.] - degan gaplarini keltirish bilan chegaralanadi.

Abu Rayhon Beruniyning mashhur asarlaridan biri “Qonuni Ma’sudiy” bo’lib, muallif uni “Tafhim” va “Hindiston” asarlaridan keyin yozgan. Asar sulton Mahmud G’aznaviyning o’g’li sulton Ma’sudga bag’ishlangan. Bu haqda Beruniy shunday deb yozgandi: “Ma’sudning al – Hikmat” deb ataluvchi xazinasiga ilmu nujumga xos bir qonun bilan xizmat qilishni ixtiyor etdim va “Qonun” uning oliy ismi va nishoni bilan sharaflanadi[9] [5]. Bu asar o’z davrida mashhur bo’lgan. masalan, Mirzo Ulug’bekning shohidlik berishicha, u yulduzlar katalogini tuzishda Beruniyning “Qonuni Ma’sudiy” asaridan foydalangan[10][5], ya’ni u davrlarda ilmiy vorislik aloqalari uzilmagan edi.

Xullas, Qomusiy alloma Abu Rayhin Beruniy 150 dan ortiq yirik ilmiy asar yaratgan. Shular orasida har birini butun boshli ilmiy muassasalar jamoasi ham yozishni uddalashi amri mahol bo’lgan “Hindiston”, “Saydana”, “Minerologiya”, “Geodeziya”, “Qonuni Ma’sudiy” kabi fundamental asarlar tahsinga loyiq. Bu asarlar millatimizning boy ilmiy va ma’naviy merosi bo’lib hisoblanadi. Ko’rinib turibdiki, Beruniy ijodi turli – tuman va rang – barangdir. Uning ijodi bamisoli tengsiz xazina. Bu xazina yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalqimizning ma’naviy boyligi, milliy iftixorimiz, g’ururimizdir. Uni o’rganish va bilish har bir o’zbek farzandining burchidir. Hozirgi zamon nuqtayi nazari bilan qaraganimizda Beruniyning ta’limoti to hozirga qadar ilm – fan rivojida va bugungi zamonaviy yoshlarning ta’lim –

[6] Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent. 2001 yil. 237 – bet.
[7] H. Hasanov. Geografik bilimlarga chizgilar. Toshkent. “Fan”. 1991. 34 – bet.
[8] O’sha asar.
[9] B.O.To’rayev. Beruniy tavalludining 1048 yilligiga.
[10] B.O.To’rayev. Beruniy tavalludining 1048 yilligiga.

tarbiyasida alohida o’rin tutadi. Oltin zanglamaganidek, Beruniy asarlari oltindek toblanib, zamonlar osha kelajak uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.M.Koshanov., A.Alimuhammedova. Inson kamolotida Abu Rayhon Beruniy pedagogik qarashlari ahamiyati. 2022.
2. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent. 2001 yil.
3. O’zbekiston tarixi jurnali. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Toshkent. 2009.
4. H. Hasanov. Geografik bilimlarga chizgilar. Toshkent. “Fan”. 1991.
5. B.O.To’rayev. Beruniy tavalludining 1048 yilligiga.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

GEOCHEMICAL KNOWLEDGE OF THE BUKANTOV MOUNTAINS REGION

Murotov Feruzjon Boboqulovich[1]

University of Geological Sciences

KEYWORDS

Bukantov Mountains, geological map, metallometric research, spectrogram, geochemical halos, ore deposits

ABSTRACT

In this article, we will get acquainted with the geochemical knowledge obtained from the research work carried out in order to allocate potential prospective areas for gold and other minerals in the Central and Western parts of Bukantov mountain.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7214806
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Master of University of Geological Sciences, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

BUKANTOV TOG‘LARI HUDUDI TO‘G‘RISIDA GEOKIMYOVIY BILIMLAR

KALIT SO‘ZLAR:
Bukantov tog‘lari, geologik xarita, metallometrik tadqiqot, spektogramma, geokimyoviy halolar, ruda konlari

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada Bukantov tog‘ining Markaziy va G‘arbiy qismlarida oltin va boshqa foydali qazilmalarga potensial istiqbolli maydonlarni ajratish uchun o‘tkazilgan tadqiqot ishlaridan olingan geokimyoviy bilimlar bilan tanishamiz.

Bukantov - O‘zbekiston shimolidagi tog‘ tizmasi, Qizilqum cho‘li. Eng baland joyi Irlir (764 m). Massiv asosan kristall shistlar, ohaktoshlar, granitlar va granodioritlardan tashkil topgan. Yuqori qismi tekis. Nishablarning pastki qismida sug'orish uchun ishlatiladigan buloqlarning chiqish joylari mavjud. Bukantov tog‘lari hududining deyarli butun maydoni mezozoygacha bo‘lgan yerto‘laning chiqindi qismidagi litogeokimyoviy tadqiqotlar bilan asosan 1:50000 va 1:25000 masshtabdagi ikkilamchi sochilish halolari, alohida 1:10 000 masshtab rudali rayonlar bo‘yicha o‘rganilgan. Geokimyoviy tadqiqotlar turli mualliflar tomonidan turli vaqtlarda, turli usullardan foydalangan holda va har xil sezgirlik bilan amalga oshirildi.

Bukantovda birinchi geologik ishlarni A.S.Kushnar (1939) olib borib, Bukantov va Jetimtov tog‘larining 1:1 000 000 masshtabdagi geologik xaritasini tuzgan. Xaritada yuqori silurning graptolitik syuitasi, devon davriga oid Ko‘kpatas va Ko‘ksoy suitlari, Famen va Vize ohaktoshlari, quyi karbon effuziv ketma-ketligi, yuqori paleozoyning Jusquduq va Arxar syuitalari aniqlangan. Ko‘kpatas va Ko‘ksoy tuzilmalaridan tashqari barcha stratigrafik birliklar faunistik ta’rifni olgan.

Tog'lar ichida tizimli geokimyoviy qidiruv ishlarining boshlanishi. Bukantov 1961-yilda 1415 kv.km maydonda o'tkazilgan 1:50 000 miqyosdagi metallometrik tadqiqot deb hisoblanishi kerak (Miroshnikov L.V., Vasilev A.I., 1962). 1962-yilda N.G.Degtyarev, G.N.Korobeinikovlar metallometrik tadqiqotlar natijalarining spektrogrammalarini qayta ko'rib chiqdilar (57 mingga yaqin geokimyoviy namunalar) va qo'shimcha ravishda surma va mishyakning geokimyoviy halolarini aniqladilar.

Bukantov vulkanogen-cho'kindi ketma-ketligining litologik-stratigrafik bo'linishidagi rivojlanishlar ayniqsa rang-barang edi. Yangi shakllanishlar ajratildi va tavsiflandi, ayrim shakllanishlarning yoshi, tarkibi va tarqalishi haqidagi qarashlar qayta-qayta o'zgartirildi. Bu, birinchi navbatda, Markaziy va Sharqiy Bukantov hududida joylashgan Ko'kpatas formatsiyasiga tegishli. Ko‘kpatas qatlam yotqiziqlari to‘qilish bo‘yicha katta litologik o‘zgaruvchanlik bilan ajralib turadi va tektonik jihatdan kuchli buzilgan. Bundan tashqari, suite konlarining uzluksiz bo'limlari mavjud emas.

1965-69 yillarda Zarafshon geologiya boshqarmasi Ko‘kpatas davlat qo‘riqxonasi V.I.Zonov rahbarligida Ko‘kpatas ruda koni va unga tutash hududlarni 1:50000 masshtabda

geologik tadqiqot ishlarini olib bordi (Zonov V.I. -1969). Qidiruv ishlari natijasida o'rtacha sulfidli va past sulfidli rudalarning yangi konlari va rudalari topildi. Katta hajmdagi (11190 geokimyoviy namuna) qo'lda namuna olish yo'li bilan amalga oshirildi.

1968-71 yillarda Bukantov tog'larida VP, EP usulidan foydalangan holda elektr qidiruv ishlari olib borildi. Bunda ikkilamchi halolar ustida ko'p miqdorda litokimyoviy izlanishlar olib borildi. (Popov I.I., 1970, 1973; kontur 4).

1969-71 yillarda Zarafshon Davlat geologiya boshqarmasining Jetimtov GSP ning 1:50 000 masshtabdagi geologik tadqiqoti davom ettirildi (Zonov V.I., 1971) va 9812 geokimyoviy namunalar olindi.

1978-yildan boshlab V.I.Zonov boshchiligida Qirqquduq XRPda umumiy va batafsil qidiruv ishlari olib borildi. 1978-82 yillarda Koʻkpatas braxiantiformasining gʻarbiy va sharqiy qanotlari boʻlgan Derbez va Qirqquduq hududlarida (Zonov V.I., 1982) batafsil qidiruv ishlari olib borildi. 7424 ta namuna miqdorida geokimyoviy namunalar olindi. 1983-86 yillarda Ko'kpatas braxiantikliniyasining sharqiy qanotida batafsil qidiruv ishlari davom ettirildi. (Zonov V.I. -1986).

1975-87 yillarda katta hajmdagi geokimyoviy ishlar bilan birgalikda Ko'kpatass konida batafsil qidiruv ishlari olib borildi (Pazdzerskiy V.A. -1979 .; 1988).

1976-78 yillarda Oltintov PP (Kotunov A.Ya. va boshqalar, 1978; kontur 11) Oltintov hududida umumiy qidiruvlar, shuningdek, ilgari aniqlangan rudalar doirasida 1: 10 000 miqyosda batafsil qidiruvlar o'tkazdi.

1978-81 yillarda Ko'kpatas ruda konining shimoli-sharqiy va g'arbiy qismlarida Karashaxinskaya PRP bir qator hududlarda batafsil qidiruv ishlarini olib bordi, bunda katta hajmdagi (21 mingga yaqin geokimyoviy namunalar) geokimyoviy tadqiqotlar olib borildi. (Gvizdon V.F. va boshqalar, 1975, 1978, 1981; kontur 14).

1983-86 yillarda Boʻztov hududida (taxminan 50 kv.km) 1: 25000 masshtabda umumiy qidiruvlar oʻtkazildi (Abramov Yu.G., Yastrebov P.V., 1986), birlamchi haloslarni litokimyoviy qidiruvlar bilan birga olib borildi.

Shunday qilib, 1961-yildan beri Markaziy Bukantov chegaralarida kimyoviy elementlarning yetarlicha keng diapazoni (9 dan 25 gacha) uchun tahlil qilingan ko'plab geokimyoviy namunalarni tanlash bilan birga ko'plab geokimyoviy ishlar olib borildi.

Markaziy Bukantovning geokimyoviy bilimlarini tahlil qilish, shuningdek, oldingi geokimyoviy ishlar natijalarining tahliliy materialining holati va sifatini hisobga olgan holda, OMGP-2 MOMGE geokimyoviy ma'lumotlarni tayyorlash bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirdi.

1:50000 va 1:10000 masshtabdagi geokimyoviy tadqiqotlar Janubiy Bukantovning mezozoygacha bo'lgan yerto'lasining ochiq qismida geologik qidiruv va tadqiqot ishlari olib borilgan (Shapkin, 1974; Kotunov, 1978; Zonov, 1982, 1984). Tadqiqotlar birlamchi va ikkilamchi tarqaladigan halolarda o'tkazildi.

Tekshiruvlar natijasida oltin, mishyak, volfram va boshqa elementlarning ko'plab dispersion halolari aniqlandi. Bu oltin va boshqa foydali qazilmalarning minerallashuv ko'rinishlari va nuqtalarini aniqlashga yordam berdi.

Ko‘kpatas tog‘lari hududida birinchi geokimyoviy ish (1:50000 masshtabda metallometrik suratga olish) 1961-yilda o‘tkazilgan (L.V. Miroshnikov va boshqalar), buning natijasida mishyak, oltin, surma va misning ko'plab anomaliyalari topildi.

1966-70-yillarda Yujniy-I uchastkasida ruda zonalarining endogen halolarini (IMGRE) o'rganish bo'yicha ishlar olib borildi, uning natijalari bir qator eslatma-tavsiyalarda o'z aksini topdi (Atabekyants K.P., 1971). Oltin-sulfid minerallashuvining element-ko'rsatkichlari aniqlandi, oltin va mishyak o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi, u Ko'kpatas PGREda qidiruv va baholash ishlarida qo'llaniladi.

1982-85 yillarda Ko‘kpatas ruda konining sanoat minerallashuvini mahalliylashtirishning geokimyoviy sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha tematik ishlar olib borildi (Bertman E.B., Bronnikov A.G.). O'tkazilgan geokimyoviy tadqiqotlarning muhim yutug'i ma'dan mineral birlashmalari va ularga mos keladigan geokimyoviy halolar makonidagi o'zgarishlar davriyligini aniqlash edi.

1989-92 yillarda Bukantov tog'lari - Ko'kpatas-Oqjetpes (IMGRE) hududini o'z ichiga olgan Markaziy Bukantovning 1:50000 masshtabida prognoz xaritasining geokimyoviy asoslarini tuzish ishlari olib borildi.

Bu hududda geofizik tadqiqotlar 50-yillarda hududiy xarakterdagi kichik hajmdagi aeromagnit va gravimetrik suratga olishlar (masshtab 1:500000 - 100000) ishlab chiqarish bilan boshlangan. Keyingi yillarda Bukantov tog'lari hududida keng ko'lamli geofizikaviy ishlar amalga oshirildi: aeromagnit o'lchash shkalasi 1:500000-1:25000, aerogamma spektrometriya shkalasi 1:25000-1:10000, magnit o'lchash shkalasi 1:50000-1:1000, tortishish shkalasi 1:200000-1:25000, electrik -1:5000 va 1:100000-1:10000 masshtabdagi seysmik qidiruv. Geologik xaritalash va turli foydali qazilmalar konlarini qidirish muammolari hal qilindi. Konsolidatsiyalangan geofizik xaritalarni tayyorlash uchun loyihada ko'zda tutilganidek, 1:50 000 va 1: 25 000 masshtabdagi (1:50 000 masshtabdagi hisobot xaritalari) o'rganishlar natijasida olingan materiallar ishlatilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev R.N., Navrozov S.S., Nurkhojaev A.K., Djuliev A.Kh. Geotectonics. Tashkent 2016. Textbooks, 107 p.

2. Asadov A.R., Akhmadov Sh.I. Methodology of creating a spectral electronic library of rocks and minerals / Materials of the scientific and technical conference "The importance of information and communication technologies in the innovative development of economic sectors". Tashkent. TUIT. March 4-5, 2021.

3. 3. Goipov A.B., Sh.I. Akhmadov, J.J. Movlanov / "Study of Mineralized Zones of Bukantau Mountains Using Satellite Images in the Short-wave Infrared Range" / Mining Journal of Kazakhstan / No. 8 (184) / Almaty, Kazakhstan, August 2020 / Pages 10-14.

4. Goipov A.B., M.K. Turopov, Sh.I. Ahmadov and N.R. Khasanov / Use of combined space imagery in mineral mapping in the main Kokpatas-Okjetpes direction (Gor Bukantov) / Mountain Bulletin - Journal of Scientific and Technical Production / No. 3 (82) / Navoi, Uzbekistan, September 2020.

5. Kucherevsky P.G. Geological conditions of the formation and assessment of prospects of gold-bearing sulfide and gold-sulfide disseminated mineralization in the North-Bukantov zone of Central Kyzylkum: Dissertation abstract. Sciences. - Tashkent, 1988. 23 p.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

OWNERS OF LITTLE HEARTS

Nabiyeva Munavvar Yolliyevna[1]

360th DMTT named after "Asaloy", Uchtepa district, Tashkent city

KEYWORDS

education, morality, family environment, pedagogical-psychological morality, adolescence, motivation

ABSTRACT

This article describes the factors affecting the development of children with small hearts and the influence of upbringing on personality development. The progress of our rapidly developing country depends directly on the education of the young generation. Heredity, social environment, and education are important in the development of a person.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7216665
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Educator of the 360th DMTT named after "Asaloy", Uchtepa district, Tashkent city, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

JAJJI QALB EGALARI

KALIT SO‘ZLAR:
ta’lim-tarbiya, axloq, oilaviy muhit, pedogogik-psixologik axloq, o‘smirlik davri, motivatsiya

ANNOTATSIYA
Ushbu maqola jajji qalb egalari bo‘lmish bolalarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda tarbiyaning shaxs kamolotiga ta’siri haqida bayon etilgan. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan mamlakatimizning qay darajada yuksalishi, o’sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim tarbiyasiga bevosita bog’liq hisoblanadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek millati qadim-qadimdan bolajon xalq sifatida e’tirof etiladi. Ikkinchi jahon urushida yetim qolgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilinishi, ularning ko‘pchiligini oilalar o‘z tashabbuslari bilan asrab olinishi buning yorqin misolidir. Oila bor ekan, uning baxtu iqboli farzandlar kamoli bilan belgilanadi. Bola quvonchi, uning beg‘ubor kulgisi nafaqat ota-onasi, balki dunyo quvonchi sifatida e’tirof etiladi.

Navoiy tarbiya usuli sifatida ibratga alohida e'tibor berib, odamlarni, ayniqsa yoshlarni yaxshi odamlardan o'rganishga, ulardan o'rganishga, yonida bo'lishga, ular bilan tez-tez suhbatlashishga da'vat etdi. U bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning misoli haqida shunday yozadi: Bola ota xizmatiga o'rganib qolsin, Kasbini odat bilan xursand qilsin, Hamma otaga juda ko'p hikoya qilsin, Ushbu asar unga O'g'ildan yuqsin degan satrlarini keltirish mumkin. Yana bir Sharq mutafakkirlaridan biri Nasriddin Tusiy "Ahlaqi Nasri" kitobida yaxshi tarbiya muhimligini ta'kidlaydi. U ota-onalarning huquqlari va burchlari, saxovati, baxt-saodati, insonning olijanob fazilatlari, qadr-qimmati, sadoqati va samimiyligi, sog'lig'i haqida qimmatli tushunchalar berdi va yetti asr o'tgach, ular xali ham o’z ma’nosini yo’qotmagan.

Bola o‘smirligida mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganmasa, katta hayotda ham uni kimdir boshqarishi kerak bo‘ladi**.** O‘smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o‘z fikrini eng to‘g‘ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o‘z fikrini, o‘z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo‘ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g‘amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o‘zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo‘lib qolganday his qilishlari mumkin. Bolalar ham o‘zlarini aqlan katta bo‘lganday his qilishsa-da, moddiy va jismoniy jihatdan ota-onaga tobe bo‘lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar shundan kelib chiqadi.

Agar oila faqat shaxsiy zavq-shavq bilan shug'ullanadigan ma'nosiz hayot kechirsa, agar oilada shafqatsizlik va xudbinlik ustun bo'lsa, bularning barchasi, albatta, bolaning ahloqiy qiyofasiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ota-onalar uchun oilaviy tarbiya, avvalambor, o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lishi kerak. Otaonalarning yuqori ijtimoiy ongi bolalarga bir xil ongni rivojlantirishga yordam beradi. Oilada kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik qilish kabi qoidalar kundalik odat bo'lib qolishi kerak. Ota-ona

mas'uliyatining ahamiyati shundaki, ular bolaning har bir harakatini diqqat bilan kuzatib boradilar. Bolalar har qanday to'qnashuvlarni, yomon so'zlarni uzoq vaqt eslaydilar va vaziyat yuzaga kelganda ularni amalda qo'llashga harakat qiladilar.

Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o‘smir yoshda bola o‘qishi, maktabi, baholari bilan bog‘liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o‘rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo‘ladi.

Bola do‘stga muhtoj. Bolani uyga qamash yoki kim bilandir do‘stlashishini taqiqlash unda yanada katta qarshilik uyg‘otadi. Farzandi noqobil do‘st tanlagan ota-ona unga shunday boshqa bir jamoani yoki do‘stni taklif qilishi mumkin.

Masalan, bolaning birga o‘ynaydigan do‘stlarini ota-onasi yoqtirmaydi. Uni o‘sha noqobil boladan ayirish uchun, farzandingiz u bilan vaqt o‘tkazadigan paytni mo‘ljallab boshqa bir davrani – sport to‘garagi, qo‘shimcha mashg‘ulot kabilarni taklif qilishi kerak. Bunda majburlash yaramaydi, tanlash imkoniyatini berish kerak – shunda bola o‘zi tanlov qilganday his qilishiga erishish mumkin.

Ota-ona hamma narsani muhayyo qilishi bolada hech narsaga intilmaslikni keltirib chiqaradi. Barcha muammolarini ota-onasi hal qilib berishi – kelajakda uning hayotini ham ular boshqarishiga zamin yaratadi. Oqibatda ular kelgusida boshqalarning xohishlari bilan yashashga o‘rganib qolib, qachondir afsuslanishadi. Shuning uchun o‘smirlarda kelajak haqida o‘ylash, to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun imkon va tushuncha berishda yordam ko‘rsatish kerak. «Sen kelajakda nima qilmoqchisan? Kim bo‘lmoqchisan?» kabi savollar bolani o‘ylashga majbur qiladi. Birdaniga javob bermasligi mumkin, ammo vaqt o‘tib bu haqda o‘ylab ko‘radi. Ularga o‘zi yoqtirgan biror mashhur shaxslarni namuna qilib ko‘rsatish ham unga motivatsiya berishi mumkin. Aslida ota-ona bolaga hamma narsani yaratib bermasligi, u nimagadir intilishi, orzu qilishi uchun imkon qoldirishi kerak. Nimagadir o‘z mehnati bilan erishsa, u uchun qadrli bo‘ladi.

Jinoyatga moyil yoki xato qilgan bolalarni to‘g‘ri yo‘lga solish mumkin! Yoshligida yetarlicha mehr ko‘rmagan bolalar o‘smirlikda jinoyat qilishga ko‘proq moyil bo‘lishadi. Ular buni xohlashmasa ham, o‘zlari sezmagan holda ota-onalari, atrofdagilar va umuman dunyo bilan o‘chakishib jinoyat qiladi. Bunday holatlarda psixologlar bilan ishlash yordam berishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar bolaga ta'sir o‘tkazmoqchi bo‘lishlari to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki boladagi bu yaralar ularning xatosi tufayli yuzaga kelgan.

Ota-ona farzandi oldida uning o‘qituvchisi haqida hurmat bilan gapirishi lozim. Bu bilan bolada ustoziga nisbatan hurmat paydo bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida nizoli vaziyat kelib chiqqanda bolaning his-tuyg‘ularini ham eshitish, uni doim tushunishlarini anglatish yaxshi samara beradi. So‘nggi paytlarda shunday vaziyat yuzaga kelganda borib o‘qituvchini urib kelayotgan ota-onalar ko‘paydi. Bunda ular yutqazadi, bu holat oqibatida sinfdoshlarida bolaga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘lishi, bola bundan keyin ham o‘z munosabatlarini shunday hal qilishga o‘rganishi mumkin. Bu bilan ular farzandiga juda yomon namuna ko‘rsatishadi. Shunday tushunmovchilik holati sodir bo‘lganda o‘qituvchi bilan vazmin gaplashish va farzandining ruhiyati haqida tushuntirish, uning sinfdagi

obro‘sini tiklash, o‘ziga ishonchini orttirish uchun maslahatlashish kerak bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun bolani o‘sha o‘qituvchiga qo‘shimcha darslarga berish ham yaxshi natija berishi mumkin. Bu bilan bola yoqtirmagan odamlari bilan ham munosabat qurish mumkinligi, hamma narsaga imkon topish mumkinligini anglaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-2707-son qarori. - «O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.
2. Quronov M. Maktab ma‟naviyati va milliy tarbiya. -T.: O‘zbekiston Respublikasi "Fan" nashriyoti. 1995.
3. Malika Inomova. “Oilada bolalarni ma‟naviy-axloqiy tarbiyasi”. T.: 1999 yil.
4. Musurmonova O. O„quvchilarning ma‟naviy madaniyatini shakllantirish – T.: Fan, 1993.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

ETHICAL PROBLEMS OF MODERN EDUCATION

Tursunbayeva Nargiza Komiljonovna[1]

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

KEYWORDS

modern education, student, system, solution, trend, moral norm

ABSTRACT

This article analyzes the negative and positive aspects of modern education, its moral problems. The importance of the educational system in the social life of pupils and students is considered.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7216776
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

ZAMONAVIY TA'LIMNING AXLOQIY MUAMMOLARI

KALIT SO‘ZLAR:
zamonaviy ta’lim, talaba, tizim, yechim, tendentsiya, axloqiy me’yor

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada zamonaviy ta’limning salbiy va ijobiy tomonlari, uning axloqiy muammolari tahlil etilgan. Ta’lim tizimining o’quvchilar va talabalar ijtimoiy hayotidagi ahamiyati ko’rib chiqilgan.

Ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan jahon taraqqiyotining asosiy zamonaviy tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatning rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish va buning natijasida odamlarni tez o'zgaruvchan sharoitlarda hayotga tayyorlash zarurati;
- xalqaro hamjamiyat doirasidagi hamkorlik natijasidagina hal etilishi mumkin bo‘lgan global muammolarning paydo bo‘lishi va kuchayishi, bu esa yosh avlodda zamonaviy tafakkurni shakllantirishni taqozo etadi;
- jamiyatni demokratlashtirish, siyosiy va ijtimoiy tanlash imkoniyatlarini kengaytirish fuqarolarning bunday tanlovga tayyorlik darajasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi;
- iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, raqobatning kuchayishi, malakasiz va past malakali ishchi kuchining qisqarishi, bandlik sohasidagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar, bu xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga doimiy ehtiyojni belgilab beradi. ularning professional harakatchanligi;
- yoshlar va kattalar uchun ta'limning jadal, jadal rivojlanishiga olib keladigan inson kapitali ahamiyatining oshishi.

Rivojlanayotgan jamiyatga zamonaviy bilimli, ma’naviyatli, ishbilarmon, har qanday sharoitda mustaqil qaror qabul qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, harakatchanligi, dinamikligi, konstruktivligi bilan ajralib turadigan, madaniyatlararo hamkorlikka tayyor, taqdiri uchun mas’uliyatni his qiladigan insonlar kerak. mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi uchun. Ta’lim tizimi nafaqat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida yashashga, balki ularni yaratishga ham qodir insonlarni tayyorlashi kerak.

Ta’lim tizimiga – yuksak ma’lumotli, raqobatbardosh, turli xil malaka, bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash alohida o‘rin tutadi. Ta'lim jarayonida inson ko'nikma, qadriyatlar va xulq-atvor tizimini shakllantirishi kerak, ularning umumiy asosi jahon miqyosida tan olingan qadriyatlardir. Ta'lim shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak, u quyidagilar bilan tavsiflanadi: odoblilik, halollik, adolat; ochiqlik, muhokama qilish va tinglashga tayyorlik; odamlarga do'stona munosabat; o'z-o'zini hurmat qilish; boshqalarga (shaxslarga, etnik va madaniy guruhlar vakillariga), ularning turmush tarziga hurmat va bag'rikenglik; jamiyat farovonligi uchun g'amxo'rlik; demokratiya g'oyalariga sodiqlik; vatanparvarlik va fuqarolik; ta'limning qadr-qimmatini yangi g'oyalar,

tushunchalar, ijodiy imkoniyatlarga yo'l ochish sifatida tushunish.

Shu bilan birga, bir qator asarlarda ta'lim tizimidagi asosiy e'tibor tarbiyaviy jihatga o'tkaziladi, chunki "bilim nafaqat foyda olish uchun, balki dunyoqarash qadriyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ham kerak"; ehtiyojlar madaniyatini shakllantirish; hamkorlik, muloqot, hurmat, birgalikda yashash, hayotni, tabiatni, axloqiy, ekologik qadriyatlarni tarbiyalash tamoyillariga asoslangan shaxslararo muloqotning yangi shakllarini izlash.

Shunday qilib, ta'lim inqirozidan chiqish yo'llarining xilma-xilligi ilgari suriladi va muhokama qilinadi, ularning amalga oshirilishi muayyan sohalarda ma'lum natijalar beradi.

Har qanday sohadagi, jumladan, ta’lim sohasidagi inqiroz ilgari hukmron bo‘lgan taraqqiyot modelining o‘ziga xos “charchaganligi”dir. Inqirozdan chiqish yo'li (inqiloblar, tub tanaffuslar, islohotlar) - bu eski model yordamida dunyo talqin qilingan va haqiqatda sodir bo'layotgan mazmun o'rtasidagi bo'shliq.

Ta'lim usullari va usullarini o'zgartirish zarurati asosidagi yana bir muammo - bilishning asosiy bosqichlari va ularning o'zaro bog'liqligi masalasidir. Klassik ta'lim tizimining negizida an'anaviy ravishda bilishning konkret-sezgi, hissiy va mavhum-mantiqiy, nazariy bosqichlari ajratilgan. Idrokning bu ikki darajasining o‘zaro bog‘liqligi so‘zda e’tirof etilgan bo‘lsa-da, aslida u, demak, unga asoslangan ta’lim tizimi mantiq, aql, aql va nazariy ilmiy darajani rivojlantirishga ustunlik berib, ratsionalistik edi. Bu jarayon 7 yoshdan 14 yoshgacha eng faol ekanligiga ishonishgan. Bu degani ushbu davr mobaynida o’quvchilarda ta’lim jarayonida axloqiy me’yorlarni bir qatorda singdirish kerak ekanligidir.

Shaxsning har bir psixologik va xulq-atvor xususiyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun bolalarni o'qitish va tarbiyalashni boshlash va faol ravishda olib borish eng oqilona bo'lgan muayyan davr mavjud. Bu xususiyatning rivojlanishining sezgir davri deb ataladi. Har bir bolaning individual rivojlanish jarayoni muayyan sharoitlarda, moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xos ob'ektlari, odamlar va ular o'rtasidagi munosabatlar bilan o'ralgan holda amalga oshiriladi. Bularning barchasi birgalikda bolaning psixologik rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tashkil qiladi. Ularga uning individual xususiyatlari, tug'ilishdan beri mavjud bo'lgan ma'lum moyilliklardan foydalanish va tegishli qobiliyatlarga aylantirish, sifat jihatidan o'ziga xoslik va rivojlanish jarayonida olingan psixologik va xulq-atvor xususiyatlarining kombinatsiyasi bog'liq. Rivojlanish omillari bir xil bo'lgan bir xil bolalar turli xil sharoitlarda psixologik va xulq-atvorda turlicha rivojlanishi mumkin.

Bu ularning rivojlanish tezligi va yutuqlar darajasiga tegishli. Bolaning rivojlanishi uchun sharoitlar qanchalik qulay bo'lsa, u xuddi shu vaqt ichida ko'proq narsaga erisha oladi. Psixologik rivojlanish bilan bog'liq yana bir nazariy tushuncha rivojlanish omillaridir. Bu o`qitishning metod va vositalari, o`qitishni tashkil etish va mazmuni, o`qituvchilarning pedagogik tayyorgarlik darajasidir. Rivojlanish omillari unga yordam berishi yoki to'sqinlik qilishi, bolaning rivojlanish jarayonini tezlashtirishi yoki aksincha, sekinlashtirishi mumkin. Bolalarning yoshga bog'liq rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda faoliyatning etakchi turi va aloqaning etakchi turi tushunchalari alohida rol o'ynaydi.

Yosh tushunchasi bolalarning psixologik rivojlanishi haqidagi g'oyalar bilan ham

bog'liq. Psixologiyada yoshning ikkita tushunchasi mavjud: jismoniy yosh va psixologik yosh. Birinchisi, bolaning tug'ilishidan keyin o'tgan yillardagi hayot vaqtini tavsiflaydi, ikkinchisi esa o'sha vaqtga qadar erishilgan psixologik rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Bolalarning yoshi va kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har bir yoshda bolalarni tarbiyalash o'ziga xos xususiyatlarga ega va zarurat tug'ilganda, bu xususiyatlarni hisobga olgan holda boshqacha tarzda qurilishi kerak. Ta'lim psixologiyasining vazifasi turli yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishidagi eng tez rivojlanishini ta'minlashni kutgan holda, o'qitishning maqsadlari, mazmuni va usullarini belgilashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Har bir xalqning yoki millatning o’ziga xos axloqi bilan bir qatorda umumbashariy axloq me’yorlari xam bor. Bunday axloq me’yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga albatta samarali ta’sir ko’rsatmasdan qolmaydi. Axloqiyotning muhim xususiyati shundaki, u odamlarning harakatlariga ko’rsatma bo’lib xizmat qiladi. Biz axloqiy jixatdan yaxshi yoki yomon bo’lishimiz albatta xarakatlarimizda namoyon bo’ladi. Axloqiy fazilatlar - bu odamning fe’l atvori, temperamentining xususiyatlari, ular haqidagi bilimlarni maxsus fan sifatida ta’kidlash uchun Aristotel ‘axloq’ atamasini kiritdi [1].

Har bir inson yaxshi va yomon kontseptsiyalarga asoslanib, qandaydir vaziyatda qanday ishlashni o'zlari hal qilish huquqiga egadir. Bunday vaziyatlarda uning axloqiy va axloqiy nuqtai-nazari haqida fikr yuritish mumkin. Nima uchun axloqiy tanlov kerak va uning ta'siri nimani anglatishi kerak, shuning uchun tanlangan yo'nalishda qadam qo'yadi, shaxs uning shaxsiyatini va uning atrofidagi odamlarning fikrini shakllantiradi. Axloqiy tanlov xalqlarning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin, chunki ko'pincha prezidentlar o'zlarining axloqiy me'yorlariga asoslangan tanlovlarni amalga oshiradilar. Insonning odob axloqlari haqida bir qancha alommalarimiz ham o’z fikrlarini bayon etganlar. Arastu ham «Kim fanda ilgarilab, axloqda oqsasa, u oldinga emas, ko’proq orqaga ketadi» degan o’z fikrlari bilan insoning axloqi haqida juda ma’noli gaplar yozib qoldirganlar. Va bu bizning fanimizni yanada kengroq boyitishga o’z xissasini qo’shib kelmoqda [2].

Xulosa qilib aytganimizda, Yangi sivilizatsiya rivojlanishining belgilari - mehnat, ta'lim va dam olish o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, intellektual faoliyatning ustuvorligi; boylik yaratishdan xizmatlar ishlab chiqarishga o'tish; axborot sohasini rivojlantirish, axborot mehnatning yangi universal o‘lchovi, asosiy ishlab chiqarish resursi, sanoat sifatida; ijtimoiy maqomning ta'limdagi farqlarga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Bularning barchasi jamiyat taraqqiyotida ta'limning o'rni, axloqiy me’yorlar rolining o'zgarishiga olib keladi, bu esa har tomonlama bilimli odamlarni talab qiladi; ta'limni inson huquqlarini amalga oshirish shakllaridan biriga aylantiradi; inson hayotining strategik muhim sohasida; ta'lim, tarbiya, pedagogik faoliyat tizimining o'zida o'zgarishlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MuxamyedovaZ.M., Umirzakova N.A O’quv Qo’llanma, Toshkent
2. G. J. Abdullayeva. GLOBAL BIOETIKANING AXLOQIY MUAMMOLAR. TSDI & TMA | International Conference | 2022

3. Belyaeva L. A. Ta'lim falsafasi pedagogik faoliyatning asosi sifatida / Uralsk, shtat. ped. in-t. - Yekaterinburg, 1993. - 125
4. Ta’lim falsafasi. - M.: "Yangi ming yillik" jamg'armasi, 1996. - 288 b.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

ENERGY SAVING TECHNOLOGIES AND ALTERNATIVE ENERGY SOURCES. THE IMPAKT OF ENERGY ON THE ENVIRONMENT

Kambaraliyev Kuvonchbek Yodgorjon ugli[1]

Khasanova Gulrukh Farrukh qizi[2]

Z.T. Karabayeva[3]

Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

KEYWORDS

electricity, energy efficiency, renewable energy, solar power, biomass, wind power, thermal power, solar panels

ABSTRACT

This article covers energy saving technologies and alternative energy sources. Scientific research work on the impact of energy on the environment presents problems and solutions. Energy is an essential element in all productive processes. In both the agricultural and transformation industries, however, its irreplaceable importance is often underrated. Alternative sources of energy which are irreplaceable can have a direct impact on the environment and does not seem to be sustainable to meet the future demands of human beings. This article is meant to be a brief guide to energy sources and technologies.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7216932
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Student of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Uzbekistan (quvonchbekqambaraliyev@gmail.com)
[2] Student of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Uzbekistan
[3] Associate professor of the Department of Ecology of the Faculty of Engineering Technologies of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Uzbekistan

INTRODUCTION.

A climate change, which is caused by carbon pollution from the production and burning of fossil fuels, will take a particularly hard toll on the mountain and desert West. The consequences of climate change are already visible: increased risk and duration of drought and wildfires, reduced snowpack, and extinction of vulnerable wildlife species. Conventional energy sources such as coal and natural gas are huge contributors to climate change. Electricity production accounts for more than one-third of U.S. global warming emissions, with the majority generated by coal-fired power plants. Renewable energy provides substantial benefits for our climate, our health and our economy. Most renewable energy resources emit no carbon pollution. In the Mountain West, we enjoy abundant renewable resources that can be used to generate electricity, like wind, solar, and geothermal. While geothermal energy systems emit some air pollutants, total air emissions are generally much lower than those of coal- and natural gas-fired power plants.

MATERIALS AND METHODS.

What's energy efficiency? The impact of energy on the environment.

Energy efficiency is the approach of controlling and reducing energy consumption without compromising the demands of society. A system is more energy efficient if it delivers more useful-work (service) for the same energy input, or the same useful-work for less energy input. An example is a compact florescent light (CFL) bulb that uses less energy (one-third to one-fifth less) than an incandescent bulb to produce the same amount of light. Here, the CFL is considered to be more energy efficient.

Energy has been used by mankind for thousands of years. It was originally used for fire, lighting, heating, cooking, and safety, and its use spans at least 1.9 million years. [3] In recent years, there has been a trend to increase the commercialization of various renewable energy sources. Rapidly evolving technologies can enable energy production, water and waste management, and food production to transition to environmental and energy management practices using ecological and industrial ecology systems. Rapidly evolving technologies can enable energy production, water and waste management, and food production to transition to environmental and energy management practices using ecological and industrial ecology systems. The impact of electricity generation on the environment is of great importance because modern society uses large amounts of electricity. Power plants convert several types of electrical energy, while this power is usually generated. Each such system has advantages and disadvantages, but most of them cause environmental problems.

RESULTS.

As with any power plant, large solar power plants can affect the environment where they are located. Land clearing for construction and the placement of a power plant can have a long-term impact on local plant and animal habitats. Some solar power plants may require water to clean solar collectors and concentrators or to cool turbine generators. In some arid areas, the use of large amounts of groundwater or surface water can affect ecosystems that depend on these water resources. In addition, the concentrated sunlight created by the solar power tower can kill birds and insects that fly into the light. Renewable energy causes a number of other effects that can affect the environment. On the downside, renewable energy can render many land areas unsuitable for competitive use, disrupt marine life, bird life and flora / fauna, and pollute with visual and noise. Typically, these effects, which can affect the environment, are specific to the field, and there are several ways to minimize the effects, which are usually small and irreversible.

RENEWABLE ENERGY SOURCES:

Solar energy is radiation from the Sun capable of producing heat, causing chemical reactions, or generating electricity. The total amount of solar energy incident on Earth is vastly in excess of the world's current and anticipated energy requirements. If suitably harnessed, this highly diffused source has the potential to satisfy all future energy needs. In the 21st century solar energy is expected to become increasingly attractive as a renewable energy source because of its inexhaustible supply and its nonpolluting character, in stark contrast to the finite fossil fuels coal, petroleum, and natural gas. The potential for solar energy is enormous, since about 200,000 times the world's total daily electric-generating

capacity is received by Earth every day in the form of solar energy. Unfortunately, though solar energy itself is free, the high cost of its collection, conversion, and storage still limits its exploitation in many places. Solar radiation can be converted either into thermal energy (heat) or into electrical energy, though the former is easier to accomplish.

Wind - wind turbines.

DISCUSSION.

The power of wind has been used for many years to produce mechanical power for milling grain and pumping water. In recent times wind turbines harness wind to generate electricity. The electricity is then exported either to the grid for use locally or to power a standalone application. This renewable source of energy has great potential in both onshore and offshore wind farms and may also be used at a smaller scale on farms. Wind power is one of the cleanest and safest of all the renewable commercial methods of generating electricity.

Biomass - fuel from wood or other plants.

Светодиод нурланишида инфрақизил ва ультрабинафша нурланишлар бўлмайди, светодиод деярли қизимайди. У механик жиҳатдан мустаҳкам, ишлаш муддати назарий жихатдан 100 минг соатгача етади. Светодиод лампалар чўғланма лампаларга нисбатан 100 мартагача, люминесцент лампаларга нисбатан 5-10 мартагача кўпроқ ишлайди (чўғланма лампаларнинг иш муддати 1000 соат, люминесцент лампаларнинг иш муддати 5000 соат қилиб белгиланган). Светодиод лампалар электр энергияси сарфи тежалишини кафолатлайди, муқобилэнергия манбалари ҳисобига ҳам ишлайди [6-8], замонавийлик ва қулайликни яратади, ишлаш муддати эса 100000 соатга тенг, яъни 12-13 йил узлуксиз ишлаши мумкин. Симоб моддаси бўлмагани эса экологик софликни таъминлайди.

Қуйида CD-LM 3 w ва LM-LBL 5-7 w моделларда яратилган светодиод

лампаларининг техник-иктисодий кўрсатгичларини келтирилади [4].

Иш кучланиши	160-240 v	130-265 v	130-265 v
Ток кучи	0.01-0.02 A	0.03-0.04 A	0.03-0.04 A
Ёруғлик оқими	200-210 lm	595-630 lm	595-630 lm
Самарадорлиги	85-90 lm/w	85-90 lm/w	85-90 lm/w
Қуввати	3 w	5 w	7 w
Ишлаш муддати	25000 соат	10000 соат	10000 соат
Қувват коэффициенти	0.5-0.6	0.5-0.6	0.5-0.6

Яримўтказгич материалга тақиқланган зонаси кенглиги ҳар хил бўлган аралашмаларни киритиш-легирлаш орқали битта светодиодда спектрнинг кўриниш областида бир неча хил нурланишларни ҳам ҳосил қилиш мумкин. Бу светодиод лампаларда оқлик даражаси, ёруғлик ранги-ҳарорати 6500 К бўлиб, бу кундузги ёруғликка якин.

Хулоса: Светодиодларнинг ишлаш муддати люминесцент лампаларнинг ишлаш муддатидан 6-8 марта ортик. Светодиод лампа 100000 соат ишлаш ресурсига эга, бу, демак 10-12 йил узлуксиз ишлаш дегани. Неон ва люминесцент лампалар 10 минг соат ишлаши мумкин. Агар бу вақтда люминесцент лампалар ишлатилса, уларни 8-10 марта алмаштиришга тўғри келади. Чўғланма лампаларни ишлатсак, 40 мартагача лампаларни алмаштириш керак бўлади. Светодиод лампаларни ишлатганимизда энергия сарфи 87% гача камаяди. Ишлаш ҳарорати ҳам кенг диапазонга эга бўлиб, энг замонавий энергиятежамкор қурилма ҳисобланади.

Адабиётлар:

[1]. Спроул Р. Современная физика.Пер.с англ. М.1974. Изд-во “Наука”. стр. 356, 445.

[2]. Моделунг О. Локализаванные состояние. Пер.с. англ. М.1985. Изд-во “Наука”. стр. 112

[3].Гаркуша И.П. Элементы физики и полупроводников. Днепропетровск. Учеб.пос. НГУ. 2012. стр. 45.

[4]. egl-nur@mail.ru

[5]. Mustafakulov A., Ahmadjonova, U., Jo’raeva, N. ., & Arzikulov , F. . (2021). Свойства Синтетических Кристаллов Кварца . Физико-технологического образование, 3(3). извлечено от https://education.jspi.uz/index.php/phys-tech/article/view/2429.

[6]. Mustafakulov, A., & Akhmadjonova, U. Экономика И Социум. Экономика, 141-144.

[7]. Mustafakulov, A. A., Yuldashev, U., & Devaraj, N. (2022). Prospects For The Use Of Alternative Energy Sources. *Telematique*, 5421-5428.

[8]. Мустафакулов, А., & Джураева, Н. Экономика И Социум. *Экономика*, 538-541.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE DEPENDENCE OF THE FIELD WET CAPACITY OF LEVELED SANDBLASTING ON WATER PERMEABILITY

S.Kh. Zakirova[1]
M.F. Gaybullayeva[2]
M. Muminova[3]
M.B. Odilova[4]

Fergana State University

KEYWORDS
sand, soil, fertility, moisture content, soil, sand, water permeability, erosion

ABSTRACT
The high permeability of water on sandy lands creates great difficulties in the cultivation of agricultural crops, therefore, the development of resource and energy-saving, cost-effective technologies for using sandy lands is in accordance with the purpose of studying the agro-physical properties of the soil.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7258329
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Doctor of Agricultural Sciences, Prof., Fergana State University, UZB
[2] Teacher, Fergana State University, UZB
[3] Master, Fergana State University, UZB
[4] Student, Fergana State University, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

TEKISLANGAN QUMLIKLARNING DALA NAM SIG‘IMINING SUV O‘TKAZUVCHANLIKKA BOG‘LIQLIGI

KALIT SO‘ZLAR:
qum, tuproq, unumdorlik, nam sig’imi, yer, barxan, suv o’tkazuvchanlik, erroziy

ANNOTATSIYA
Qumlik yerlarda suv utkazuvchanligining yuqori bo’lishi qishloq xo’jalik ekinlarining yetishtrishda katta qiyinchiliklar yuzaga keltiradi shu sababli qumli yerlardan foydalanishda resurs va energiya tejamkor, iqtisodiy samarali tenologiyalarni ishlab chiqish tuproqning agro fizikaviy xossasini o’rganish maqsadga muvofiq.

Dunyo paxtachiligi amaliyotida qumlik yerlarda qishloq xo‘jaligi sohasida unumdorlik darajasi juda past bo‘lib, bunday yerlarni o‘zlashtirish va qo‘shimcha ozuqa berib, samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Qumliklarning suv o‘tkazuvchanligi juda yuqori, suv saqlash xususiyati juda past. Bunday holatda qishloq xo‘jalik ekinlarini suv bilan ta’minlash uchun ko‘p marotaba sug‘orishga to‘g‘ri keladi, qolaversa, oziqlantirish maqsadida solingan o‘g‘itlar sizot suvlargacha yuvilib ketadi, yo‘qoladi. Shu sababli, bunday sharoitda nisbatan bo‘lsa-da yuqori hosil olish alohida agrotexnologiyani talab qiladi. Markaziy Farg‘onada shamol eroziyasiga chalingan qumliklar, qum barxanlar, qum qatorlarini shamoldan muhofaza qilish, qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish, sug‘orish, o‘g‘itlash, g‘o‘za va bug‘doy hosildorligini oshirish masalalarini yechimida tabiiy va sun’iy ekranlardan foydalanish, o‘g‘it meyorlarini ishlab chiqish shu kunning dolzarb muammolari qatoridan joy olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi PF-4533-son “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dunyoda qumliklarning xossalari, genezisi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda: qumliklar va qum barxanlarini eroziyadan saqlash; qumli tuproqlar agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalarini yaxshilash; qumli va yengil tuproqlarning unumdorligini oshiruvchi agrotexnologiyalarni takomillashtirish; qumli yerlardan foydalanishda resurs va energiya tejamkor, iqtisodiy samarali tenologiyalarni ishlab chiqish. Jahon mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda olimlar va amaliyotchilar tomonidan qumli tuproqlarning xossa va xususiyatlari o‘rganilgan, shamol eroziyasi tarqalishining asosiy o‘lchamlari o‘rganib chiqilgan, unga qarshi kurashish yo‘llari aniqlangan va asosiy tadbirlar sinovdan o‘tkazilgan. Ammo qumlar tuproqlar agrofizikaviy xossa-xususiyatlarini yaxshilash, unumdorligini tiklash va oshirish bo‘yicha alohida ilmiy-amaliy yechimga ega

bo‘lgan resurstejovchi agrotexnologik usul, ya’ni tabiiy va sun’iy ekranlar sharoitida turli o‘g‘itlarni (N, P, K, mahalliy o‘g‘it-go‘ng, lignin) mutanosib nisbatlarda, qulay muddat, meyor va usullarda qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqilmagan.

G‘o‘za va bug‘doyning bir meyorda o‘sishi va rivojlanishiga imkon beradigan qumlarni meliorativ, suv-o‘g‘it rejimini maxsus ekranlarni tashkil qilish yo‘li bilan yaxshilash; yuqori sifatli paxta va bug‘doydan rejalashtirilgan hosil olish uchun qulay bo‘lgan sharoit yaratish, qumlarni suv-fizik, oziqa rejimini yanada yaxshilaydigan sun’iy va tabiiy ekranlarni hosil qilishni baholash; mineral va organik o‘g‘itlarni eng qulay meyorini qo‘llash yo‘li bilan Markaziy Farg‘onaning deflyatsiyaga uchragan qum-barxanlarida g‘o‘za va kuzgi bug‘doyni yetishtirishda ularning samaradorligini oshirish; mineral va organik o‘g‘itlarni optimal miqdorini aniqlash yo‘li bilan g‘o‘za va bug‘doy hosildorligi, rentabelligi do‘ng-barxanli, qumli yerlarda, deflyatsiya ta’sirida bo‘lgan joylarda yetishtirish vaqtida sifatini yaxshilanishi isbotlangan; qumlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilangan hamda oziqa rejimi boyiganligi isbotlangan; tuproq ustki qatlamida yotgan qumlarning morfologik tuzilishi aniqlangan.

Dala va laboratoriya tekshiruvlari natijalari asosida tekislangan qumlarni fizik, suv-fizik, agrokimyoviy, meliorativ xususiyatlarini yaxshilashni va ekrani bo‘lmagan maydonlardagi 18 s/ga qaraganda paxtani 39 s/ga olishini ta’minlaydigan do‘ng-barxanli tekislangan qumlarda tabiiy ekranni yuzaga keltirib eng qulay yo‘llarini ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan. Tuproqning ustiga qumni tekislash orqali, g‘o‘zani shamol zararidan himoyalash uchun qumlar o‘zlashtirilgan joylarda ko‘zlangan hosil olishga imkon yaratadigan maxsus agrotexnika, javdar ekinlarini ekish va parvarish qilish hamda ularni aprel oyida 14-15 sm poyasini qoldirgan holda qalinligi 170-200 dona/m2 qoldirish, gullash fazasida yig‘ishtirib olishni tashkil qilish samaradorlikni ta’minlagan. Hajm massasi o‘zgarishi bilan tuproqning suv o‘tkazuvchanligi ham o‘zgaradi. Tajriba maydonida suv o‘tkazuvchanlik nazorat vaqtida 6 soat mobaynida sun’iy ekransiz 15350 m3/ga ni tashkil qildi, 1000 t/ga yerga solinganda u 6026 m3/ga gacha kamaydi. Suv o‘tkazuvchanlikning bunday kamayishi A.F.Lebedev, S.N.Rijovlar ta’kidlab o‘tganidek, birinchi va ikkinchi havo o‘tkazuvchanlik kirish yo‘llarining mayda donachali va yirik donalar orasidagi bo‘linish chegaralarida uning ostidagi yanada yirikroq qatlamda o‘z davomini topolmay yirik kirish yo‘llari ustida osilib turganday qolib ketadi.

Suv o‘tkazuvchanlik tuproqning tabiiy holati bilan tajriba maydonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuproq holatining chuqurligiga bog‘liqdir, qanchalik qumning qavati ko‘p bo‘lsa, shuncha tuproqning suv o‘tkazuvchanligi yuqoridir.

Masalan, tuproq yotishi 0-110 (130) sm chuqurligida u 6 soat mobaynida 11758 m3/ga ni tashkil qiladi, tuproqning yotishi 0-50 (75)da esa 5868 m3/ga.

Suv tuproq ichida va o‘simliklarning o‘sish jarayonida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Tuproqdagi suv miqdoridan o‘simlik qoldiqlarining gumifikatsiya tezligi, uning chirishi, oddiy tuzlar minerallashuvi o‘zgaradi.

Tadqiqot natijalari tuproqni sun’iy qatlami bo‘lgan tajriba maydonida o‘suv davrida

eng kam namlik nazorat variantida belgilangan. 0-40 sm qatlamda tuproq namligi sug‘orishgacha yalpi gullash davrida 64% teng bo‘lib, sug‘orishdan keyin uchinchi kuni 7,87; 6-chi kuni - 6,18; 9 kuni - 3,96% teng bo‘lgan. Yuqori qatlamlarda namlik kam bo‘lsada, ammo shunday muvofiqlik saqlanib kelindi.

ADABIYOTLAR

1.Юлдашев Ғ.Закирова С., Исағалиев М. Орошаемый земельный фонд Ферганской долины. Ўз. қ/х 2008 № 8.

2.Закирова С. Объемная масса исследуемых бугристо-барханистых песков. Ўз.қ/х ж. 2008 № 4.

3.Юлдашев Г., Зокирова С. Свойства и некоторые особенности песков в Фергане // Ўзбекистон қ/х. Т.: №11 2014 й.

4.С.Зокирова,Г.Юлдашев. Влияние экрана на свойства почв и растения. Фан. Т., 2008 г.

5.Mirzajonov Q., Nurmatov Sh., Eshmuratov B., Zakirova S. “Shamol eroziyasiga qarshi kurashda mexanik tarkibi yengil tuproqlarda chigitni egat tubiga ekishning ahamiyati” Agro-ilm jurnali. T., 2010., №1.

6. Mirzajonov Q, Satipov G‘., Zakirova S. Ekinni qachon sug‘orish kerakligini o‘zidan “so‘rash” lozim. Agro-ilm jurnali. T., 2010., №2.

7. Юлдашев Ғ., Закирова С., Исағалиев М. Влияние гидрокарбонатно-сульфатных вод на свойства орошаемых луговых почв. Агро-илм журнали. Т., 2014., № 4.

8. Юлдашев Ғ., Закирова С., Свойства и некоторые особенности песков в Фергане. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали.-Т., 2014. №11.

9. Юлдашев Ғ., Закирова С., Холдарова М. “Влияние экрана на свойства песков и хлопчатника” аграрный вестник Урала, 2015. №1.

10.Mirzajonov Q., Eshmurodov B., Satipov G‘., Zakirova S. Qum tepalik va barxanlarni tekislab, ekin ekiladigan hududlarda shamol eroziyasiga qarshi kurash, suv tejovchi tartiblarni yaratish to‘g‘risida instruktiv ko‘rsatma. Tavsiyanoma. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi.-T., 2011.

11.С.Закирова, Ғ.Юлдашев Влияние экрана на свойства почв и растений. Фан 2008.

12.Закирова С., Тешабоев Н., Муқимов З., Мамадалиев М. Харктеристика скелетно дефилированных светлых сероземов Ферганский долины и их пути улучшению.

13.Закирова С.Х. Режим орошения различных сортов хлопчатника на склети дефлированных светлых сероземов Ферганской долины. Автореферат.-Т. 1987.

14. Закирова С., Эгамбердиев С. Характер развития корневой системы хлопчатника при различных режимах орошения в условиях галечниковых почв. Центральная Азия проблемы опустынивания журнал. –Ашхабад, 2000. № 22. 0

15. Юлдашев, Ғ., Сотиболдиева, Г. Т., & Абдухакимова, Х. Х. (2020). Biogeochemical

properties of calcium and strontium in gray soils. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(5), 61-67.

16. Юлдашев, Ғ., Сотиболдиева, Г., & Абдухакимова, Х. (2020). Biogeochemical features of rare elements in irrigated, colmated soils. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(11), 105-110.

17. Sotiboldiyeva, G., Abdukhakimova, K., & Niyozov, Q. (2021, August). About digital mapping of biomicroelements: https://doi. org/10.47100/conferences. v1i1. 1366. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CHANGES IN SOIL POLLUTION STATUS AND FERTILITY INDICATORS

Akhmedova Dilfuzahon[1]
Nizomov Nizomiddin[2]
Akhmedov Rakhmiddin[3]
Turdiyev Nilufar[4]

Fergana State University

KEYWORDS
soil, fertility, protection, texture, Ecology, Environment, Pollution, agriculture, land, vegetation

ABSTRACT
In the influence of anthropogenic and natural factors on soil fertility indicators, the factors that are carried out for the occurrence and Prevention of the pollution process are touched upon.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7258360
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Candidate of biological sciences, docent, Fergana State University, UZB
[2] Master, Fergana State University, UZB
[3] Master, Fergana State University, UZB
[4] Master, Fergana State University, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

TUPROQLARNING IFLOSLANISH HOLATI VA UNUMDORLIK KO‘RSATKICHLARINING O‘ZGARISHI

KALIT SO‘ZLAR:
tuproq, unumdorlik, muhofaza, xossa, ekologiya, atrof-muhit, ifloslanish, qishloq xo’jaligi, yer, o’smlik

ANNOTATSIYA

Tuproqning unumdorlik ko’rsatgichlariga antropogen va tabiiy omillar tasirida ifloslanish jarayonining yuzaga kelishi va ularni oldini olish uchun olib boriladigan omillar haqida to’xtalgan.

Dunyoda tuproq unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbaalar ko‘p bo‘lib ularning kelib chiqish sabablarini va oqibatlarni bartaraf etish va undan iqtisodiy jixatdan foydalanish uchun qayta tiklash va oshirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tuproqlar muxofazasi borasida olib borilayotgan ishlardan biologik, fizik, kimyoviy xossalarini aniqlash xamda antropagen omillar tasirida o‘zgarish jarayoni natijasida yuz beradigon xodisalarni chuqur o‘rganib chiqib tadqiqotlar olib bormoqdalar. Shu sababli xam O‘zbekistont Respublikasi rivojlanishining Xarakatlar strategiyasida“Tuproq unumdorligi va qishloq xo‘jaligi ekinlari xosildorligni oshirish ,yer resurslaridan oqilona foydalanish“xamda 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Xarakatlar strategiyasida”Ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish,shaxar va tumanlarda ekalogik xolatini yaxshilash,maishiy chiqindilar yig‘ishni 100% ga ularni qayta ishlash darajasni 2026-yilga qadar 21%dan 50%ga yetkazish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu boisdan xam Tuproqlarning ifloslanish xolatini o‘rganib chiqib uning unumdorlik ko‘rsatkichiga salbiy tasirini ochib berib kelajakda qanday foydalanish zarurligiga axamiyat berilmoqda.

Yer maydonining o‘simlik o‘sadigan qismi insoniyat uchun ulkan boylikdir. Tuproqda turli jarayonlar, eroziya, sho‘rlanish, botqoqlanish, ifloslanish, nurlanish va shu kabilar sodir bo‘laverishi natijasida xamda insoniyatning beparvoligi oqibatida XXI asr bo‘sag‘asida zaxarlanishi xavfi paydo bo‘ldi. Jaxonning ilg‘or fikrli kishilari koinotni saqlash zarurligini targ‘ib qila boshladilar. Insoniyatga Tuproqni, koinotni, umuman yashash makoni bo‘lgan biosferani saqlab qolish zarurligi ayon bo‘lib qoldi.

Yerdan noto‘g‘ri foydalanish uni buzilishiga olib keladi. Sug‘oriladigan maydonlarda xamda mintaqada tarqalgan quriq; yerlarda, yonbag‘irlarda eng avvalo yuza oqimlar ta’sirida suv eroziyasi sodir bo‘ladi. Cho‘l va chala Cho‘l mintaqalarda suv eroziyasidan tashqari shamol eroziyasi xukmronlik qiladi. Sug‘oriladigan dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik maxsulotlarini yetishtirishda katta miqdorda mineral va organik o‘g‘itlardan, pestitsidlardan, defoliantlardan foydalaniladi. Bu kimyoviy moddalar Tuproqda turli o‘zgarishlarga yuz tutadilar, atmosfera — Tuproq — O‘simlik — xayvonot olami qolaversa suv zanjiri orqali inson organizmiga kirib boradi, ma’lum darajada landshaftni ifloslaydi. Bu vazifalar ichida Tuproqni suv, shamol, o‘pirilish kabi xodisalardan saqlab antropogen va texnogen

ifloslanishdan extiyot qilish , sho‘rlanish va botqoqlanishni yo‘qotish kabi dolzarb muammolar turibdi.

O‘zbekistonning ayniqsa eng qimmatli bo‘lgan Sug‘oriladigan yerlari uchun juda xavfli. Demak, bundan buyon Tuproqni eroziya va deflyatsiya, meyoridan ortiq bo‘lgan agroximikatlardan va texnogen ifloslanuvchi omillardan saqlash, unumdorlik xossalarini yaxshilash choralarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Yer ustki qismining xarakatga kelishiga insonlar olib boradigan xo‘jalik faoliyati xam tasir etadi,masalan foydali qazilmalarni kovlab olishda katta katta bo‘shliqlar xosil bo‘ladi,ayniqsa ko‘mir qazib olinganda yer qatlamining surilishi yuz beradi.Katta suv omborlarining to‘ldirilganda uning atrofining o‘trib cho‘kishi ro‘y beradi, yer osti suvlarini chiqarib tashlaganda xam cho‘kishi kuzatiladi.

Deflyatsiyaga uchragan tuproqlardai yuqori xosil olishning muxim omillaridan biri optimal darajasidagi o‘simlik qoplamiga erishishdir. Olimlar ko‘chat qalinligini maqsadga muvofiq bo‘lishi ko‘p jixatdan g‘o‘za naviga, Tuproq-iqlim sharoitlariga va agrotexnik tadbirlarga bog‘liqligini aniqlaganlar. Farg‘ona vodiysi sharoitida bu masala K.Mirzajonov va M.Nazarov (1976) va boshqalar tomonidan batafsil o‘rganilgan. G‘o‘zadan yuqori xosil olish omillaridan yana biri meneral o‘g‘itlardan to‘g‘ri foydalanish hamda siderat ekinlarni ekish.

Eroziyaga uchrovchi tuproqlarda oziq moddalar miqdori keskin kamayib ketishi sababli, yerning unumdorligini oshirish muxim agrotexnik axamiyatga ega. Chunki eroziyaga qarshi kurash o‘simliklarni to‘g‘ri o‘g‘itlash masalalarini xam o‘z ichiga oladi. Demak, eroziyaga uchrovchi yerlar o‘g‘itga muxtoj bo‘ladi. Ammo o‘g‘it o‘simlik uchun oziq bo‘lish bilan birga Tuproqning mikrobiologik xususiyatlariga xam yaxshi ta’sir etadi. Mikroorganizmlar esa oziq moddalarni o‘simlik oson o‘zlashtiriladigan xolatga keltiradi. O‘simlikning o‘sishi, rivojlanishiga yordam beradi va xosilni oshiradi hamda o‘g‘itlardan foydalanishda meyoriy ko‘rstagichlardan to‘g‘ri foydalanish eng muhim omil hisoblanadi.

Olimlar eroziyadan zarar ko‘rgan tuproqlarga ekilgan turli xil ekinlardan yuqori xosil olishda o‘g‘itlar muxim axamiyatga ega ekanligini aniqlaganlar, ular xar xil tuproq sharoitlarida o‘g‘itning qishloq xo‘jalik ekinlariga ta’sirini ilmiy asoslash bilan birga, eroziya natijasida tuproqning suvga talabchanligini, fizik xususiyatlari yomonlashib, oziq moddalari kamayib borishi sababli bu tuproqlarga deflyatsiyaga chalinmaydigan tuproqlarga nisbatan ko‘proq o‘g‘it berilishi kerak degan xulosaga kelganlar. Shuningdek tuproqlarni muhofaza qilishda suv eroziyasiga uchragan yer maydonlarining agrokimyoviy agrofizikaviy xususiyatlari ageotexnik tadbirlar agromeliorativ ko‘rstagichlarni qishloq xo‘jaligiga keltirayotgan iqtisodiy zararni aniqlash tizimini ishlab chiqish tuproqning himoyalanishda eng muhim ko‘rsatgichlardan hisoblanadi. Shuningdek o‘g‘itlardagi ba’zi toksin moddalarni tuproqqa tasiri og‘ir metallar va radionukleititdlar bilan hamda petsidsitlar bilan ifloslanishi ularning meyoriy ko‘rsatgichlardan ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik shu kunning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Misol uchun adabiyotlardan ma’lumki fosfor o‘g‘itining manbai hisoblangan tabiiy xom-ashyo apatit va fosforitda yetarlicha radioaktiv moddalar

uchraydi. Atrof-muhitni ftor bilan ifloslanishi manbai qishloq xo‘jaligi tuproq va o‘smliklarni ifloslantiruvchi manbai bo‘lib fosfor o‘g‘iti hisoblanadi. Demak agrokimyoviy moddalar biosferaga anig‘i tuproqqa salbiy tasir etadi. Uning asosiy sababi quyidagilar: O‘g‘itlardan noto‘g‘ri foydalanish, o‘g‘itlarni qo‘llash texnologiyasini buzilishi makro va mikro elementlarning o‘zaro nisbatining buzilishi, solingan o‘g‘itlarni yer osti suvlariga o‘tishi oqibatida suvo‘tlarning ko‘payishi suv ifloslanishiga olib keladi, azotni atmosferaga uchib ifloslantirishi oqibatida aholi yashaydigan joylarda mikro iqlimning yomonlashuvi tuproqda turli birikmalar hosil qilib o‘zlashtirilmaydigan holatga o‘tishi natijasida ifloslanish yuzaga keladi. Shu sababli ham yerlardan yo‘g‘ri foydalanishda barcha omillarni to‘g‘ri belgilash maqsadli deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.С.Закирова, Ғ.Юлдашев Влияние экрана на свойства почв и растений. Фан 2008.

2.Закирова С., Тешабоев Н., Муқимов З., Мамадалиев М. Харктеристика скелетно дефилированных светлых сероземов Ферганский долины и их пути улучшению.

3.Закирова С.Х. Режим орошения различных сортов хлопчатника на склети дефлированных светлых сероземов Ферганской долины. Автореферат.-Т. 1987.

4. Закирова С., Эгамбердиев С. Характер развития корневой системы хлопчатника при различных режимах орошения в условиях галечниковых почв. Центральная Азия проблемы опустынивания журнал. –Ашхабад, 2000. № 22. 0

5. Юлдашев, Ғ., Сотиболдиева, Г. Т., & Абдухакимова, Х. Х. (2020). BIOGEOCHEMICAL PROPERTIES OF CALCIUM AND STRONTIUM IN GRAY SOILS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(5), 61-67.

6. Юлдашев, Ғ., Сотиболдиева, Г., & Абдухакимова, Х. (2020). BIOGEOCHEMICAL FEATURES OF RARE ELEMENTS IN IRRIGATED, COLMATED SOILS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(11), 105-110.

7.Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM. In Конференции.

8.Akhmedova, M., & Akhmedova, D. (2021). Clinical features and risk factors for the development of atopic bronchial asthma combined with allergic rhinosituitis in children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 1015-1020.

9.Abarjon o‘g‘li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). yer usti va osti suvlarini ifloslantiruvchi asosiy manbalar. ijodkor o'qituvchi, 2(20), 216-219.

10.Abarjon o‘g‘li, A. A. (2022). sho ‘rlangan erlarda dukkakli don ekinlarini ekishning afzalligi. innovation in the modern education system, 2(18), 351-354.

11.Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 547-554.

12.ahmedova, d. m., & maksudova, g. m. (2020). the role of moisture as an ecological

factor in growth of cotton plants. theoretical & applied science, (8), 73-76.

13.ahmedova, d. m., & maksudova, g. m. (2020). морфология пыльцы некоторых видов и гибридов хлопчатника. theoretical & applied science, (5), 84-87.

14.халматова, ш., усманова, т., & акрамов, а. (2022). экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 547-554.

15.холикулов, м., & ёқубов, ж. (2022). гулширанинг қайта-қайта олинишини унинг умумий миқдорини оширилишига ижобий таъсири. innovative developments and research in education, 1(6), 81-86.

16.abdullayeva, m., & gaybullayeva, m. (2022). no ‘xatni fotosintez jadalligi va maxsuldorligiga ekologik omillar ta’siri. ijodkor o'qituvchi, 2(22), 341-346.

15.Гайбуллаева, М. Ф., & Абдулазизова, Н. (2019). Роль развития экологического образования в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (17), 64-66.

16.Turdaliyev, A., Asqarov, K., & Xodjibolayeva, N. (2019). Geoenergetic features of lanthanoids and radioactive elements in irrigated soils. Scientific journal of the Fergana State University, 2(4), 53-57.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

FERGANA VALLEY VARIETY OF PLANTS AND ITS PRESERVATION

Sh.M. Khalmatova[1]
Kh. Mamasidiqov[2]
Sh. Magripov[3]

Fergana State University

KEYWORDS

building material, essential oil, dye, honey, tanning agent supplier

ABSTRACT

In this regard, in the Fergana Valley, in the desert region, it is necessary to establish a nature reserve embodying forest and forest plants, and on the basis of this, to preserve the natural appearance typical of the desert, to preserve rare plant species and to create ecological-geographical conditions favorable for restoration and enrichment of lost species.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7258386
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Docent, Fergana State University, UZB
[2] Master, Fergana State University, UZB
[3] Master, Fergana State University, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

FARG'ONA VODIYSI O'SIMLIKLARNING XILMA-XILLIGI VA UNI ASRASH

KALIT SO'ZLAR:
qurilish materiali, efir moyi, bo'yoq ,asal, oshlovchi modda beruvchi

ANNOTATSIYA

Bu borada, Farg'ona vodiysida cho'l mintaqasida tabiiy to'qay, to'qay o'simliklarini mujassamlashtiruvchi qo'riqxona tashkil qilish va shu asosida cho'lga xos tabiiy ko'rinishni saqlab qolishni, noyob o'simlik turlarining saqlab qolish va yo'qolgan turlarni qayta tiklashga va boyitishga qulay bo'lgan ekologik-geografik sharoitni yaratib berishni.

Farg'ona vodiysi tabiati o'ziga xos bo'lib o'simliklar olami alohida ahamiyatga ega. Vodiyda tarqalgan 97 oilaga mansub 717 turkum, 2625 turdan ko'pchiligi foydali o'simliklardir. Ular orasida oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak, turar joy uchun qurilish materiali, efir moyi, bo'yoq ,asal, oshlovchi modda beruvchi, sanoat uchun xom-ashyo yetkazib beradigan o'simliklar ko'plab uchraydi. Lekin ulardan foydalanishni talab darajasida olib bo'lmaydi. Farg'ona vodiysining yaqin yarmi tekisliklardan qolgan qismi esa adir va tog'lardan tashkil topgan. Tekislik qismining 500ming gektari Markaziy Farg'onaga to'g'ri kelib uning120 ming gektari qumliklar, 80 ming gektari sho'rxok yerlar, qolgan qismi esa to'qaylar, ko'llar va madaniy landshaftlardan iborat.

Markaziy Farg'ona yodgorligi xududida sof turang'ilzor 35 gektar maydonni, Qo'qon o'rmon xo'jaligi hududida esa, turang'ilning aralash xoldagi to'qayzorlari ming gektarni tashkil etadi, lekin qo'shjiyda sof xolda shu o'rmon xo'jaligining Yangi Obod bo'limida kichik maydonlarda saqlanib qolgan xolos. Ylidan yilga ular egallagan maydonlar qisqarib, bormoqda.

Qumtepaliklardagi qora saksovul, oq saksovul, cherkez, qandim, qum uzini, quyon suyak kabi va butazorlar xam yil sayin siyraklashib, ayrim joylarda esa mutlaqo yo'qotish xavfi ostida turibdi. Bular o`tin va ipak qurtiga dasta uchun ko'plab kesib olinmoqda. Urug'idan bahorda tabiiy holda unib chiqqan nihollarni esa tuyoqli hayvonlar tomonidan tepkinlanib barbod bo'lmoqda.

Ulardan pichan tayyorlashni tartibga keltirib, yontoqzorlar va shirinmiyalar saqlanib qolgan maydonlarni qat'iy nazorat ostiga olinmasa asta-sekin yo'qolib ketishi mumkin.

Cho'l mintaqasida qo'shjiyda, turang'il, qandim, saksovul, cherkezlar kamayib, qandim (6 turi Markaziy Farg'ona uchun endem) ulardan Marg'ilon qandimi, Farg'ona qandimini topish ancha qiyin bo'lib qoldi. Yovvoyi shakar qamish (qalam) ahyon-ahyonda uchraydi xolos. Saksovul, qum izeni, cherkez, iloq, selin kabi turkumlarni xolati ham yaxshi emas. Hozircha bu hududda yulg'un, qamish, qo'g'a kabi turkumlarning vakillari tarqalgan xolos. Rang, qo'ng'irbosh, tukli bug'doyiq, piyozboshi arpa, tetraklindion, malkolmiya, bo'rigul qatron, shirach kabi o'simliklar egallagan maydonlar ham qisqarib, ayrim turlarni topish qiyin bo'lib bormoqda.

Sun'iy tashkil qilingan pistazorlarda hozirda faqat uni nomi Gulpion qishlog'i atrofida

saqlanib qoldi. Shuningdek Ol`ga na'matagi xam shu tartibda yo‘q bo‘lib ketdi.

Vodil qishlog'ining yuqori qismidagi past tog' va yuqori adirlarida qatron va Shoximardon tog'larida o‘ziga maftun etuvchi lolazorlarni hozirda ahyon-ahyonda yakka-yakka bo'lib o'sayotganligini kuzatish mumkin xolos. Akonit suv yig'ar, isfarak turlarini, archazorlarda tarqalgan Farg'ona frutilariyasi, qo‘ng'iroqsimon gulli kadonopsis, namli joylarda tarqalgan qirquloq turlari, lalmikor yerlarda tarqalgan zirani, pestrosvetli qoyalarda o‘sadigan margarita mavragini, yuqori tog'da (Xurjin va Dugoba tog'larda) tarqarqalgan va 10 ming gektari yerni ishg'ol qilib yotgan oltin rangli gullari bilan hammani o‘ziga jalb qilib kelgan sug'ur o'tni, tog'larda keng tarqalgan kiyik o‘t, o`lmas o‘t, tog' rayhoni, ajoyib shilvi, shirach turlari, olg'i, korolkov arumi (itkuchala), piyoz turlarini hozirgi kunda axtarib topish ancha qiyin bo‘lib qoldi.

Bulardan tashqari aholi yashaydigan qishloqlarda yaqin joylashgan maydonlardagi o‘rmonlar ham yil sayin siyraklashib bormoqda. Mingdon, Xolmiyon Qadamjoy, Shohimardon, So‘x kabi qishloqlar atrofida qadimda archazorlar bo‘lganligi isbotlovchi, to‘nkalar saqlanib qolgan. Inson ta'siri tufayli archazorlar yil sayin yuqoriga, inson qadami kam yetadigan tomonga chekinib bormoqda. Agar o‘simliklardan foydalanish shu tartibda davom etadigan bo‘lsa ko‘pchilik foydali o‘simliklar qatoriga kirib qolishi shubxasiz Farg'ona vodiysi tabiati boy o‘lka, uning xom ashyo zaxiralari xalqimiz talabini yetarli darajada qondirish imkoniyatiga ega. Bu borada, cho‘l mintaqasida tabiiy to‘qay, to‘qay o‘simliklarini mujassamlashtiruvchi qo‘riqxona tashkil qilish va shu asosida cho‘lga xos tabiiy ko‘rinishni saqlab qolishni, noyob osimlik turlarining saqlab qolish va yo‘qolgan turlarni qayta tiklashga va boyitishga qulay bo‘lgan ekologik-geografik sharoitni yaratib berishni, xalq tabobati va dori tayyorlovchi xususiy korxona xodimlari bilan bog'liq dorivor o‘simliklarni yig'ib olishdagi tartibsizliklarni oldini olishga erishish va nazoratni kuchaytirishni, xalq ayniqsa maktab o‘quvchilari va talabalar o‘rtasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO‘YXATI

1. Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕЛОВЕКА НА РАСТИТЕЛЬНЫЙ И ЖИВОТНЫЙ МИР. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *1*(5), 547-554.

2. Abarjon o‘g‘li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(20), 216-219.

3. Abarjon o‘g‘li, A. A. (2022). SHO ‘RLANGAN ERLARDA DUKKAKLI DON EKINLARINI EKISHNING AFZALLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(18), 351-354.

4. Холикулов, М., & Ёқубов, Ж. (2022). ГУЛШИРАНИНГ ҚАЙТА-ҚАЙТА ОЛИНИШИНИ УНИНГ УМУМИЙ МИҚДОРИНИ ОШИРИЛИШИГА ИЖОБИЙ ТАЪСИРИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(6), 81-86.

5. Холикулов, М. Р., & Хамидов, Г. Х. ФЛОРИСТИЧЕСКИЙ СОСТАВ МЕДОНОСНЫХ РАСТЕНИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ПУТИ ИХ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ.

6. Xolikulov, M. R. (2020). THE HERB (Capparis spinosa L) IS AN IMPORTANT HONEY PLANT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(3), 165-170.

7. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.

8. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). МОРФОЛОГИЯ ПЫЛЬЦЫ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ И ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Theoretical & Applied Science*, (5), 84-87.

9. Zakirova, S., Axmedova, D., & Artikova, G. Z. (2021, July). AGROTECHNICAL MEASURES FOR SAND DEVELOPMENT. In *Конференции*.

10. To'lanovna, M. A., & Erkinovna, U. T. (2022). FARG'ONA SHAHAR INFRASTRUKTURASIDA MANZARALI O 'SIMLIKLARNING TUTGAN O'RNI VA RO'LI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(18), 360-365.

11. Abdullayeva, M., & Gaybullayeva, M. (2022). NO 'XATNI FOTOSINTEZ JADALLIGI VA MAXSULDORLIGIGA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(22), 341-346.

12. Abdullayeva, M. (2022). KUZGI BUG 'DOYNING FOTOSINTEZ MAHSULDORLIGIGA KO 'CHAT VA O 'G 'ITLAR MIQDORINI TA'SIRI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(22), 334-340.

13. Гайбуллаева, М. Ф., & Абдулазизова, Н. (2019). Роль развития экологического образования в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (17), 64-66.

14. Гайбуллаева, М. Ф., Баратова, Ф., & Норкузиева, Т. (2019). Общие проблемы экологии. Молодой ученый, (28), 203-205.

15. Turdaliyev, A., Asqarov, K., & Xodjibolayeva, N. (2019). Geoenergetic features of lanthanoids and radioactive elements in irrigated soils. Scientific journal of the Fergana State University, 2(4), 53-57.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE NEED TO DEVELOP INNOVATIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Sh.M. Khalmatova[1]

L. Tadjibaeva[2]

N. Salimov[3]

Fergana State University

KEYWORDS

innovative activity, economic phenomena, cultural-historical, pedagogical process

ABSTRACT

It is worth paying special attention to the organizational-structural model of the implementation of pedagogical education. These are: focusing on small-scale, multi-level and multi-level models. Each of the above-mentioned models is considered as an independent holistic education, which has its own nuances and is directly related to specific socio-cultural and economic conditions.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7258417
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Docent of the Department of Ecology, Candidate of Agricultural Sciences, Fergana State University, UZB
[2] Teacher, Fergana State University, UZB
[3] Master, Fergana State University, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION USLUBLARNI ISHLAB CHIQISHNING ZARURIYATI

KALIT SO‘ZLAR:
innovatsion faollik, iqtisodiy xolatlar, madaniy-tarixiy, pedagogik jarayon

ANNOTATSIYA

Innovatsion uslublarni ta’lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to‘xtalish kerakligi e’tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko‘p bosqichli va ko‘p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta’lim sifatida qaralib, ular o‘zlarining jilg‘alariga ega bo‘lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy xolatlar bilan bevosita bog‘liq.

Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta’limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonlarning asosi bo‘lib oxirgi o‘n yillikda pedagogik ta’lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo‘ldi.

Pedagogik ta’lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo‘nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo‘nalishli ta’lim sohasidagi ishlanmalarni, ta’limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta’limni ko‘p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Shaxsiy yo‘nalishli ta’lim konsepsiyasi madaniy-tarixiy va faoliyatli yondashuvga asoslanadi va bugungi kunda umummetodologik jihatdan V.V.Serikov, V.G.Sukerman, V.P.Zinchenko, L.N.Kulikovlarning ishlari alohida ahamiyatga molik. Ushbu konsepsiyaning yetakchi g‘oyalaridan biri pedagogik ta’limda predmetli tayyorlashning roli va o‘rnini anglab yetish, predmetlarni o‘zlashtirish bilan asosiy e’tibor o‘quvchilarni rivojlantirish vositasi sifatida predmetni o‘qitishga asosiy maqsad qaratiladi.

Ushbu konsepsiyaning boshqa bir g‘oyasi o‘quv shakllarini konstruksiyalash bilan bog‘liq bo‘lib, bunda ta’lim jarayoni yagona jarayon sifatida qaraladi, (xususiy o‘quv faoliyati) unda materialni anglab yetish va tadqiqot ishi birgalikda bo‘lg‘usi pedagogning shaxsiy pedagogik pozitsiyasi bo‘lib shakllanadi. Mazkur yondashuvda asosiy talablar quyidagi izchillikda: shaxs o‘zi uchun va boshqalar uchun ham asosiy boylik bo‘lib, bunda ta’lim-oliy ta’limdagi yaxlit pedagogik jarayon sifatida yo‘naltirilgan shaxsni o‘zgartirishga qaratilgan jarayondir.

Bunday ta’limning bosh natijasi egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar emas, balki shaxs o‘sishiga qobiliyat, empatik o‘zaro munosabatlar va shaxsiy samaradorlikka qaratilgan yuqori ijtimoiy faollik tushuniladi. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o‘z-o‘zini faoliyatini yo‘lga qo‘yadi va buning uchun ta’lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo‘lga qo‘yish uchun muhim bosqich davri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g‘oyasi pedagogik sub’ektivlikni rivojlanishi bilan bog‘liq: talaba “o‘rganuvchi”, “o‘quvchi”, “o‘qitadigan” pozitsiya orqali o‘tadi.

Agar oliy o‘quv yurti “o‘qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo‘lish maydoni” deb qaralsa, u holda ushbu oliy o‘quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta’lim olayotgan talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o‘zini qayta qurish sub’ekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi.

O‘qituvchi faoliyati ham o‘zgaradi: “usta” ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida yetkazishdan, talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi “maslahatchi” pozitsiyada talabalar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. Shunga ko‘ra integrativ ta’lim texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish dolzarb bo‘lib qoladi.

Ushbu masalada ta’limni loyihalash bilan shug‘ullanuvchi muammolar instituti bugungi kundagi dolzarb masalada yetakchilik qilmog‘i zarur. Bundan tashqari oliy ta’limda har bir fanlarni o‘qitish sohasida pedagogika va psixologiya fanlari bloki tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanishlari kerak.

Pedagogik ta’lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to‘xtalish kerakligi e’tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko‘p bosqichli va ko‘p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta’lim sifatida qaralib, ular o‘zlarining jilg‘alariga ega bo‘lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy xolatlar bilan bevosita bog‘liq.

Kichik darajadagi tizim – bu oliy ta’limdagi an’anaviy tizim hisoblanib, u qat’iy hisoblanib, bunda tor mutaxassislar tayyorlanib, ta’lim jarayonida o‘qitish variantlarini tanlash imkoniyati mavjud emas. Qabul qilingan 1998yildagi DTS da variativ qismi kiritilgan bo‘lsada, lekin bu tizim ham baribir shaxs tanlash imkoniyatlarini chegaralaydi.

Ko‘p bosqichli tizimda o‘rta maxsus ta’lim tizimi asosida oliy ta’lim olish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lib, o‘zaro bog‘lovchi o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim ixcham hisoblanib, bitiruvchilarni uchinchi kursga qabul qilish bilan bog‘liq ko‘plab muammolar kelib chiqadi: qaysi mablag‘ asosida o‘qitish, birinchi o‘rinda pedagogika bilim yurti va pedagogika kollejlarida talabalarni egallagan bilimlari sifati masalasi turlicha gumon uyg‘otadi.

1997 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunga muvofiq oliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimi yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimini ishlab chiqish va joriy etishni kuchli innovatsion jarayon sifatida belgilash mumkin. Ushbu masalada G‘arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi har tomonlama tahlil etilib, baho berildi va O‘zbekiston Respublikasi sharoitida o‘zimizning mentalitetimizdan kelib chiqib, oliy ta’limning o‘ziga xos ko‘p bosqichli tizimi yaratildi.

Oliy pedagogik ta’limni ko‘p bosqichli mazmuni bizning sharoitimizda ikki darajali model:

– umumiy (bazaviy-bakalaviriat va to‘liq (magistratura) ko‘rinishida amalga oshirilib, har biri o‘ziga avtonom hisoblanadi;

– yaxlit tizim ko‘rinishiga ega;

- bozor iqtisodiyoti talablariga to‘la javob beradi;
- ta’limni ko‘pgina yo‘llari orqali egallash imkonini beradi;
- o‘qiyotganlarni akademik va kasbiy yo‘naltirishga rag‘batlantiradi;
- o‘z-o‘zini anglash, uning qimmatli yo‘nalishlarini va hayot tarzini belgilash asosida shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi.

O‘qitish asosiga ta’limiy-kasbiy dasturlar qo‘yilgan bo‘lib, ular beshta blok-model prinsipidan tashkil topgan: ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari hamda qo‘shimcha fanlar tizimidan iborat. Texnologik jihatidan kasbiy ta’limning mazmuni, metodlari va metodikasini tanlashga madaniy yondashuv bilan bevosita bog‘liq. Ushbu dasturlarni ishlab chiqilishida har bir blokning vazifasi, bloklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tashkiliy, didaktik-texnologik ishlar va malakali mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshirilgani ko‘zga tashlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, fakultetlarda oliy ta’limdagi ko‘p bosqichli tizim (OTKT) asosida ishlash va an’anaviy tizim bilan ishlash qiyosiy taqqoslab ko‘rilganda, talabalar (OTKT) yangicha ta’lim tizimida ongli, ijodiy ishlashga ko‘proq e’tibor qaratgani, talabalarda ta’lim motivatsiyasi darajasi yuqori ekanligi ko‘zga tashlanadi. Oliy ta’limni fakultetlari va kafedralarida tuzilmaviy-funksional va mazmunli-texnologik qayta qurish amalga oshiriladi. Umuman olganda oliy ta’limda individual-ijodiy va jamoaviy-ijodiy faoliyat sohasida bugungi kunga kelib sezilarli tajribalar to‘plandi, o‘quv pedagogik jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida sub’ekt-sub’ekt munosabatlari rivojlanishida o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini kuzatish mumkin.

Ushbu tizim orqali talabalarni mustaqil ishlashga ishtiyoqi ortib, reyting tizimida ularning faol ishtiroki ta’minlansa, ikkinchi tomondan pedagoglar tomonidan talabalar faoliyatini boshqarishda metodik madaniyat darajasi o‘sib borishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO‘YXATI

1. Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕЛОВЕКА НА РАСТИТЕЛЬНЫЙ И ЖИВОТНЫЙ МИР. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *1*(5), 547-554.
2. Abarjon o‘g‘li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(20), 216-219.
3. Abarjon o‘g‘li, A. A. (2022). SHO ‘RLANGAN ERLARDA DUKKAKLI DON EKINLARINI EKISHNING AFZALLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(18), 351-354.
4. Холикулов, М., & Ёқубов, Ж. (2022). ГУЛШИРАНИНГ ҚАЙТА-ҚАЙТА ОЛИНИШИНИ УНИНГ УМУМИЙ МИҚДОРИНИ ОШИРИЛИШИГА ИЖОБИЙ ТАЪСИРИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(6), 81-86.
5. Холикулов, М. Р., & Хамидов, Г. Х. ФЛОРИСТИЧЕСКИЙ СОСТАВ МЕДОНОСНЫХ РАСТЕНИЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ПУТИ ИХ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ.

6. Xolikulov, M. R. (2020). THE HERB (Capparis spinosa L) IS AN IMPORTANT HONEY PLANT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(3), 165-170.

7. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). THE ROLE OF MOISTURE AS AN ECOLOGICAL FACTOR IN GROWTH OF COTTON PLANTS. *Theoretical & Applied Science*, (8), 73-76.

8. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). МОРФОЛОГИЯ ПЫЛЬЦЫ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ И ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Theoretical & Applied Science*, (5), 84-87.

9. Zakirova, S., Axmedova, D., & Artikova, G. Z. (2021, July). AGROTECHNICAL MEASURES FOR SAND DEVELOPMENT. In *Конференции*.

10. To'lanovna, M. A., & Erkinovna, U. T. (2022). FARG'ONA SHAHAR INFRASTRUKTURASIDA MANZARALI O 'SIMLIKLARNING TUTGAN O'RNI VA RO'LI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(18), 360-365.

11. Abdullayeva, M., & Gaybullayeva, M. (2022). NO 'XATNI FOTOSINTEZ JADALLIGI VA MAXSULDORLIGIGA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(22), 341-346.

12. Abdullayeva, M. (2022). KUZGI BUG 'DOYNING FOTOSINTEZ MAHSULDORLIGIGA KO 'CHAT VA O 'G 'ITLAR MIQDORINI TA'SIRI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(22), 334-340.

13. Гайбуллаева, М. Ф., & Абдулазизова, Н. (2019). Роль развития экологического образования в Республике Узбекистан. Молодой ученый, (17), 64-66.

14. Гайбуллаева, М. Ф., Баратова, Ф., & Норкузиева, Т. (2019). Общие проблемы экологии. Молодой ученый, (28), 203-205.

15. Turdaliyev, A., Asqarov, K., & Xodjibolayeva, N. (2019). Geoenergetic features of lanthanoids and radioactive elements in irrigated soils. Scientific journal of the Fergana State University, 2(4), 53-57.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CYBERSPACE IN THE REAL WORLD

Alimov Normurat Nosirovich [1]
Nizomov Bekhruz Umarovich[2]
Kholova Makhina Khayot qizi[3]

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

KEYWORDS

cyberpsychology, Cyberspace, socialization, internet depression, online psychology, media space, cyberbullying

ABSTRACT

Cyberpsychology is the basis not only of social space but of the whole society as a whole. Indeed, in the 21st century, every psychologist conducts consultations both offline and online. Social space is able to manage the opinions of the majority, as well as drive people into mass depression. A cyberpsychologist is able to get people out of the realm of cyberbullying and cyber repression.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7258458
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Docent of the Department of Psychology, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, UZB
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 10 / ISSN 2181-2675

HAQIQIY DUNYODA KIBERMAKON

KALIT SO‘ZLAR:
kiberpsixologiya, kiber makon, sotsializatsiya, internet depressiyasi, onlayn psixolog, media maydoni, kiberbulling

ANNOTATSIYA

Kiberpsixologiya nafaqat ijtimoiy makonning, balki butun jamiyatning asosidir. Ushbu maqolada ijtimoiy makonning ahamiyati, shuningdek uning kamchiliklari muhokama qilinadi. Darhaqiqat, 21-asrda har bir psixolog oflayn va onlayn konsultatsiyalar o'tkazadi. Ijtimoiy makon ko'pchilikning fikrlarini boshqarishga, shuningdek odamlarni ommaviy depressiyaga olib borishga qodir. Ushbu maqolada batafsilroq muhokama qilinadi. Bu qanday ta'sir qilishi va jamiyatda eng yaxshi natijalarga erishish uchun nimani qo'llash mumkinligi haqida. Terminologiya va ko'rsatmalar talabalar uchun maktablar va universitetlarda, shuningdek mutaxassis psixologlar uchun qo'llanmada qo'llaniladi.

